yurak ishini maromiga keltirishi, kasallik tug‘duruvchi ko‘pgina bakteryalarga xalokatli ta‘sir ko‘rsatishi aniqlangan. Bu preparatlardan jigar, taloq, buyrak, me’da, o‘t yo‘llari kasalliklari, gipertoniya, ateroskleroz, ba’zi yurak kasalliklari, klimaksni davolashda foydalaniladi.Shuningdek Dorivor tirnoqgul tarkibida: Bor (B), Fosfor (P), Temir (Fe), Kaliy (K), Simob(Hg), Rux (Zn), Kalsiy (Ca), Marganets (Mn), Natriy (Na), Magniy (Mg), Kumush (Ag), makromikro elementlar mavjud bo‘lib, ular inson organizmi uchun zarur bo‘lgan elementlar hisoblanadi.

Ekish texnikasi.

Tirnoqgul ekiladigan yerlarni kuzda yer haydash oldidan gektariga 20-30 tonnadan mahalliy o‘g‘it va fosfor o‘g‘itini yillik normasini 70% ni berib, 25-30 sm chuqurlikda haydab qo‘yiladi. Tirnoqgulni kech kuzda yoki erta bahorda ekiladi. Urug‘larni ekishga tayyorlashda quyidagi Gost qoidalariga rioya qilish zarur: urug‘ konditsiyaga yetgan va I yoki II klass bo‘lishi kerak; tozaligi 94-96% va unuvchanligi 70-75% dan kam bo‘lmasligi kerak. Tirnoqgulni urug‘ini erta bahorda ekishdan oldin yerlarni tekislab, begona o‘tlardan tozalab, tuproq harorati 20-22°C bo‘lganda urug‘lar 2-3 sm chuqurlikka qadaladi va gektariga 10-12 kg urug‘ sarflanadi. Urug‘lar ekish uskunalari yordamida qator oralari 60 sm qilib ekiladi va urug‘lar 7-8 kundan keyin unib chiqishi mumkin. Tirnoqgulni parvarish qilish dastlabki ko‘chat hosil bo‘lishi bilan boshlanadi. Tirnoqgul unib chiqqandan keyin, paykallar o‘toq va yagana qilinib, qator oralariga 15-20 sm masofada har bir uyaga 1-2 tadan o‘simlik qoldiriladi. Qatordagi begona o‘tlar ketmon yordamida tozalanib turiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 20.05.2022 yildagi PQ-251-son
2. B. Yo. To‘xtayev , E . T. Axmedov Dorivor o‘simliklarni o‘stirish va yetishtirish. qo‘llanma.
3. Mustafoyev.S.M. Botanika Toshkent, 2002.4. G'.H. Hamidov, M.X Akbarova, M.A. Davidov, M.R.Holiqulov "O'zbekiston asalli o'simliklari va asalarichilikning rivojlanish istiqbollari" - Farg'ona 2019.
5.Meliboyev S., Isroilov Z., Abdunazarov., Tursunova Sh. “O’zbekiston florasida uchraydigan dorivor o’simliklar” // Farg’ona nashiryoti 2018 yil.

ANACANTHOTERMES AHNGERIANUS (JACOBS) TERMITINING ETOLOGIYASI

O.S. Haytboeva stajyor o‘qituvchi, Z.R.Aytmuratova stajyor o‘qituvchi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus sh. Qoraqalpog‘iston

Termitlar jamoa holida yashovchi hasharotlar bo‘lib, ular kastalarining etiologiyasi ya’ni hatti-harakati deyarli o‘rganilmagan. Markaziy osiyo hududida tarqalgan “*Anacanthotermes* Jacobson” avlodiga mansub bo‘lgan termit turlarining qanotli shakllarining etologiyasiga oid ma’lumotlar G.G Yakobson [1905:83] va Luppova [1958:112] ishlarida keltirilgan. Ularning tajribalaridan ma’lum bo‘lishicha Turkiston termiti qanotli shakllari yilda bir marta bahor oylarida yomg‘ir yog‘ib havo namligi qulay paytlardagina o‘z uyalaridan uchib chiqib, qanotlarini tashlab juftlarini topish uchun tuproq yuzasida bir muddat yugirib yurishadi va tuproqdan uya qazishga kirishadi. Qanotli termitlar etiologiyasi va hatti-harakatlarini o‘rganish uchun aynan ularning uyadan chiqish paytini poylash zarur, bu jarayonning esa faqat bir yilda bir marta sodir bo‘lishini hisobga olsak, bu tadqiqot ishlarini olib borish bir qator qiyinchiliklar tug‘dirishiga amin bo‘lamiz. Shuning uchun ham biz termitlarning qanotli shakllarini uyadan uchib chiqish arafasida kuzatish ishlarini olib bordik.

Termitlar qanotli shakllarining etologiyasini o‘rganish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumani hududida tarqalgan termit koloniyalari tanlandi. Termit uyalari qazib ulardan qanotli termitlar yig‘ib olindi. Ularning shamolda uchish muddati, masofasi, qanot tashlash sharoitlari, urg‘ochi va erkak termitlar harakatchanligi, tuproqda uya hosil qilish jarayoni, urchish oldi harakatlari o‘rganildi.

Qanotli termitlarning hatti harakatiga shamol ta’sirini o‘rganish uchun ularni ikki xil sharoitda ya’ni, ob-havoning shamol esayotgan va shamolsiz tinch sharoitlariga erkin holda qo‘yib yuborildi. Har bir o‘rganilayotgan sharoit uchun 15-20 tadan hasharot uyadan terib olinib, shu zahoti ularni uya atrofiga qo‘yib yuborildi. Bu sharoitda ularning o‘z qanotlarini tashlab yuborishi yoki uchib ketishi, uchish yo‘nalishlari, uchib ketgan termitlarning uchib borgan masofasining uzoqligi hisobga olindi.

Uyadan uchib chiqqan qanotli termitlarning kelib tushgan muhit sharoitidagi tuproqning namligi va yumshoqligi har xil bo‘lgan vaziyatdagi hatti-harakatini o‘rganildi. Buning uchun qanotli termitlar terib olingan uyadan uncha uzoq bo‘lmagan maydonchada tajriba o‘tkazildi. Diametri 80 sm va chuqurligi 40 sm bo‘lgan ikkita chuqurcha qazib, ularning birinchisida quruq sharoit (chuqurcha tubiga quruq qumoq tuproq solish yo‘li bilan), ikkinchisida birinchisiga nisbatan namlik ancha yuqori bo‘lgan sharoit (chuqurcha tubiga tabiiy nam tuproq solinib) yaratildi. Chuqurchalarning har biriga 10 ta, termit uyasidan endi terib olingan qanotli hasharotlar qo‘yib yuborildi. Tajribalar bir necha bor qaytarilib, bu sharoitda qanotli termitlar hatti harakati kuzatildi. Shuningdek, yumshoq va nam tuproq muhitini yaratish maqsadida, balandligi 1 m, diametri 80 sm bo‘lgan 2 ta shpagat qop olinib, tajriba o‘tkazilayotgan muhit nam tuprog‘i bilan to‘ldirildi va chuqur qazilib unga joylashtirilib atroflari tuproq bilan ko‘mib chiqildi. Ularga ham uyadan kovlab olingan 10 tadan qanotli termit qo‘yib yuborildi. Laboratoriya sharoitida ham qanotli termitlarning tuproqda uya kovlashiga tuproq namligi va uning yumshoqligi ta’sir ko‘rsatishini o‘rganildi. Balandligi 30 sm diametiri 10 sm bo‘lgan 24 ta plastik idish olinib, ularning tubiga bir xil miqdorda shag‘al solinib, usti qumoq tuproq bilan to‘ldirildi. Ular 8 tadan 3 guruhga ajratilib, turlicha mikdorda suv quyildi. Shu tariqa ulardagi tuproq namiligi kam (namlik idish tubidan qisman ko‘tarilgan), o‘rtacha (namlik idishning yarmigacha) va yuqori(namlik qum tuproq yuzasida sezilarli darajada) qilib, idishlarga bir juft termit yuborildi. Termitlar uchun ozuqa sifatida kungaboqar poyasi berildi.

Atmosfera havosi tinch-shamolsiz va o‘rtacha tezlikda shamol esayotgan kunlari o‘tkazilgan tajribalardan quyidagi natijalar olindi. Ikkala holatda ham termitlarning birlamchi harakati ancha murakkab bulib, ular har tomonga tartibsiz ravishda tez tarqalishdi va ahyon-ahyonda uchib ketish uchun qanot qoqa boshlashdi. Tez-tez harakat qilib ketayotgan termitlar 1-3 m. masofani bosib o‘tgach esa, ularning uchish uchun bo‘lgan harakati ancha tezlashdi va ayrimlari ucha boshlashdi. Shamol esayotgan paytda termitlarning bunday harakati oqibatida ularning asosiy qismi bir necha metr masofaga uchib ulgurishdi. Shulardan bittasi taxminan 200 m. va yanada

uzoqroq, ko‘z ilg‘amaydigan masofagacha uchib ketdi. Boshqa termitlar 8-15m masofaga uchib, yerga qo‘nishdi va yana uchib ketishga harakat qilishdi. Shamolsiz kuni o‘tqazilgan tajribalarda termitlarning uzoq masofaga uchib ketishi kuzatilmadi, lekin ular havoga 2-3 m balandlikkacha kutarilib, 5-10 m gacha uchib, yerga tushishdi va bu harakatlarini yana davom ettirishdi.

Biz tajribalarda kuzatgan termtlarning bir qismi va shuningdek 200 metr masofagacha uchib ketgan termit tajriba dalasi yaqinidagi bug‘doyzorga yoki oqava suv oqadigan kollektorga kelib qo‘nishdi. Tabiiyki bu holatda termitlarning yashab ketishi uchun shart sharoit mavjud emas.

Uyadan yig‘ib olingan qanotli termitlarning, har xil tuproq muhitiga tushgan holatini tadqiqot qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilayotgan termitlarning hatti-harakati sharoitga bog‘liq holatda tajriba boshlanishidan bir-biridan keskin farq qila boshladi. Bu esa termitlarning uchishga intilishi va ularning qanot tashlash harakatlarining biri biridan farqlanishi ko‘rinishida namayon bo‘ldi. Tajriba boshlangandan keyin 3 minut davomida quruq tubli chuqurchaga qo‘yib yuborilgan termitlarning hammasi qanot qoqib chuqurchadan uchib chiqib ketishga harakat qilishdi. Shulardan ikkitasi chuqurchadan uchib chiqishga muvaffaq bo‘ldi. Shu muddat davomida nam chuqurchaga qo‘yib yuborilgan termitlarning aksincha, birortasida ham hatto qanot qoqish harakatlari kuzatilmadi. Tajribaning 10 minutigacha quruq tuproq solingan chuqurchadan 5 ta qanotli termit uchib chiqdi va ular doimo uchishga harakatga qilib, chuqurchadan uzoqlashdi. Nam chuqurchadagi termitlardan birortasi xam tajriba oxirigacha uchishga harakat qilmaganligini kuzatdik. Nam chuqurchaga qo‘yib yuborilgan termitlarning aksariyat qismi tajriba boshida qanotlarini tushira boshlashdi. Tajribaning boshlanishidan o‘tgan 3 minut davomida ularning 6 tasi o‘z qanotini tushirdi. Shu vaqt davomida quruq chuqurchadagi termitlardan faqat bittasi qanotini tashlashga harakat qildi, qolgan hamma termit qanot qoqib uchishga intildi. Tajribaning 10-minutiga borib, nam tuproqli uyadagi termitlarning hammasi qanotini tashlab yubordi. Quruq tubli uyadan uchib chiqa olmagan termitlarning xam qanot tashlash harakatlari tezlashdi va ulardan 3 tasi qanotini tushirdi. Tajribaning 15 minutiga borib, chuqurchadagi qolgan

termitlar ham qanotlarini tushirib yuborishdi. Ular tartibsiz harakat qilib uyadan chiqishga intilishdi va chuqurcha devorlaridan o‘rmalab yuqoriga chiqib, atrofga tarqaldi. Ikkala sharoitda ham termitlarning qanot tashlagandan so‘ng tuproqdan chuqurcha kovlashga intilishlarini kuzatilmadi. Lekin, shpagat qoplardagi yumshoq va nam tuproqqa qo‘yib yuborilgan termitlar uchishga harakat qilmasdan, 10-12 minut davomida qanotlarini tushirib tuproq ichiga kirib ketish harakatini qilishdi va keyinchalik ularning hammasi tuproq ichiga yashirinib olishga ulgurishdi.

Nam tubli chuqurchadagi termitlar aylanma harakat qilib, bir necha bor biri biri bilan to‘qnashib olishdi. Ulardan bir juft termitning o‘zaro harakatlari boshqa termitlar harakatidan farq qilib, ulardan biri kam xarakat bo‘lib, ikkinchisi ancha harakatchan edi.

Bu holatni o‘rganish uchun biz uyalardan terib olingan qanotli termitlarni jins bo‘yicha ashratib oldik. Jinslarga ajratish paytida urg‘ochi termitlarning erkaklarga nisbatan ancha harakatchan va aktiv ekanligi kuzatildi. Laboratoriya va dala sharoitida olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, urg‘ochi qanotli termitlar erkaklariga nisbatan deyarli 5 barobar (vaqt ichida bosib o’tgan masofasi bo‘yicha) aktiv va harakatchan ekan. Tabiiy sharoitda urg‘ochi qanotini tushirgan termit tajriba boshlangandan 7 minut davomida tinmasdan notekis harakat qilib 130 sm masofaga yurgan bo‘lsa, shu vaqtning 4 minutida erkak termit bir joyda harakat qilmasdan turdi va keyinchalik vaqti vaqti bilan harakatlanib 25 sm masofaga yurdi. Yana bir xolatda urg‘ochi termit 10 minut tartibsiz harakat qilib 150 sm masofaga yurgan bo‘lsa, erkak termit 6 minut davomida bir joyda harakatsiz turdi va vaqti-vaqti bilan 30 sm masofaga yurdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Луппова А.Н. Термиты Туркменистана. – Тр. Ин-та зоол. и паразитол. АН ТуркмССР, 2: 1958. С. 81-145.

2.Якобсон Г.Г., Бианки В.Л., Прямокрылые и ложно-сетчатокрылые Российской империи и сопредельных стран. СПб.: Изд. А. Девриена. 1905. С 80-85.

QORAQOLPOG‘ISTON SHAROITIDA *ANACANTHOTERMES AHNGERIANUS* (JACOBS) TERMIT TURIGA QARSHI KURSHADA “OKC” K.C. MIKROBIOLOGIK PREPARATINING AHAMIYATI

O.S. Haytboeva stajor-o‘qituvchi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus sh. Qoraqalpog‘iston

Qoraqolpog‘iston respublikasi tabiiy sharoitida katta kaspiy orti (*Anacanthotermes ahngerianus* Jacobs) termit turi tarqalgan. U turar va noturar binolarning qurilish elementlarida koloniyalar hosil qilib, tarixiy obidalar, sanoat, gidrotexnika inshootlari va uy-joy fondiga katta zarar etkazmoqda. Janubiy Orolbo‘yi xududida keng tarqalgan va katta iqtisodiy zarar etkazayotgan bu termit turining Orol dengizining antropogen omillar ta’sirida fojiali qurishi sababli yuzaga kelgan populyatsion o‘zgarishlarini monitoring qilish va ularga qarshi kurash choralarini ekologik bezarar usullarga asoslangan holda takomillashtirish muhim vazifalardan bo‘lib qoldi. Termitlar asosan qurigan yog‘och bilan oziqlanadigan hasharotlar bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab taxminan 2650 turdan iborat [J.Kenneth, 2003: 116]. Er osti termitlarining ba’zi turlari qishloq ho‘jaligi ekinlarini, tirik daraxtlarni va uylardagi yog‘och inshootlarni yo‘q qiladigan asosiy zararkunandalardir. Shunday qilib, termitlar tropik va subtropik hududlarda katta iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi va ekin maydonlarida termitlarning paydo bo‘lishi butun dunyo bo‘ylab ekin o‘simliklari uchun asosiy xavfga aylanib bormoqda. Termitlarga qarshi kurash odatda fizik va kimyoviy insektitsid to‘siqlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Biroq, kimyoviy insektitsidlarning qoldiqlari tuproqda uzoq vaqt saqlanib qolishi va ularning oziq-ovqat zanjiriga kirishi mumkinligi sababli, so‘nggi paytlarda xavfsizroq va atrof-muhitga zarar etkazadigan termitlarni nazorat qilish uchun bionazorat vositalarini tavsiflashga ko‘proq e`tibor qaratilmoqda. Turli patogenlar, shu jumladan bakteriyalar, zamburug‘lar, protozoa, viruslar va nematodalar termitlarni laboratoriya sharoitida ham, dala sharoitida ham o‘ldirishi aniqlangan. Ushbu patogenlar biotermitsidlar sifatida qo‘llanilishi mumkin. Termitlarni o‘ldirish uchun masul bo‘lgan turli metabolitlar toksinlar,

sideroforlar, proteazlar va gidrosiyan kislotasini ishlab chiqarish yoki immunitet tizimini bostirish orqali bo‘lishi mumkin. Biologik nazorat vositalarining kimyoviy pestitsidlar bilan sinergik kombinatsiyasi va termitlarga chidamli ekinlarni etishtirish dala sharoitida termitlarni boshqarishda yordam berishi mumkin [Sindhu et all., 2011: 269].

Ba’zi entomopatogen nematodalar va *Beauveria bassiana, Metarrhizium anisopliae* kabi organizmlarni termitlar nazorat agenti sifatida foydalanilgan. Bu shtammlar asosida tayyorlangan preparatlar yukori virulent bo‘lishi, 30ºS dan yuqori haroratga bardosh bera olish, inson salomatligi uchun hech qanday xavf tug‘dirmaydigan; ommaviy ishlab chiqarish oson bo‘lishi kerak [M.Lenz, 2005: 48].

Termitlarga qarshi qurashda foydalaniladigan “OKC” k.c. mikrobiologik preparatini biologik samaradorligini aniqlash uchun, “BARKHAN BIOTECH” MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan preparat namunalaridan foydalanildi. Tajribalarni o‘tkazish uchun hasharotlar, Beruniy, Ellikqala, Shovot, Urganch tumanlarida termitlar tarqalgan xududlardan yig‘ildi. Laboratoriya sharoitida termitlarni, ular yashashi mumkin bulgan sharoitlarda saklandi. Buning uchun termit tarqalgan xududlardan olib kelingan tuprok plastik chelaklarga olinib, kisman namlandi va unga xasharotlar yuborildi, ozuka sifatida esa yogoch kipigi eki kogoz bulakchalari bilan ta`minlandi. Bunday idishlarda termitlarni 25-27^{0}S muxitda saklandi. Tajriba uchun kerak bulgan xasharot namunalari Petri likopchalariga ajratilib, ularni nazorat va tajriba variantlariga tanlanib, ularni bir-biridan uzok bulgan aloxida muxitda saklandi. Termit ishchilarini preparatning turli kontsenrtatsiyalari bilan ishlov berish orkali, samaradorligini aniklash uchun kuzatish ishlari olib borildi. Biopreparat ta`sir etish davri, uni saklash davrida samaradorligini uzgarishi muddatlarini aniklash buyicha laboratoriya tadkikotlari olib borildi. “OKC” k.c. mikrobiologik preparatini uy-joy va inshootlarda samaradorligi aniklash uchun esa tajribalar Urganch, Ellikkala, Shovot tumanlari va Nukus shaxrida o‘tkazildi.

“OKC” k.c. preparati ishchi eritmasining katta kaspiy orti termiti ishchilariga nisbatan biologik samaradorligini aniqlash uchun laboratoriya sharoitida tajribalar

olib borildi. Preparatning ishchi eritmasini tayyorlash uchun 10 ml. preparat 40 ml. suv bilan aralashtirildi va shu eritma bilan ishchi termitlarni ularga purkagich orkali purkash bilan ishlov berildi. Shuningdek, termitlar saqlanayotgan petri likopchasidagi substrat va ozuqa xam ishchi eritma bilan zararlantirildi.

Kuzatishlar natijasidan ma`lum bo‘ldiki, preparat bilan ishlov berilgan termitlarda tajribaning 4 va 5 kunlari kasallik alomatlari paydo bo‘la boshladi. Zamburug‘li preparat bilan zararlangan termit ishchilarida, ularning harakat koordinatsiyasining buzilishi, tremor ya`ni qaltirash alomatlari va oziqlanishdan chegaralanish xolatlari kuzatildi. Tajribaning oltinchi kunida ularning ko‘pchilik qismi nobud bo‘lishi aniqlandi. Ya`ni tajribaning 6 kuni termitlarning 42,0%, 7 kuni esa yana 30,0 foizi va 8 kundan so‘ng esa jami termitlarning 92,0 foizi nobud bo‘lishi aniqlandi. Nazorat variantda esa 8 kun davomida termitlarning jami 5,0 foyizi nobud bo‘lganligi kuzatildi. Shunday qilib, “OKC” к.с. preparatining ishchi eritmasi bilan zararlangan ishchi termitlarda tajribaning 4-5 kunlar kasallik alomatlari paydo bo‘lishi va 6 kunidan e`tiboran ularning yalpi nobud bo‘lishi va 8 kun davomida preparatning biologik samaradoriligi 92,0 % bo‘lishi kuzatildi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin “OKC” к.с. preparatining ishchi eritmasi bilan ishchi termitlar zararlanganda tajribaning 4-5 kunlarida, ularda kasallik alomatlari paydo bo‘lishi va 6 kunidan keyin esa ularning yalpi nobud bo‘lishi kuzatildi va 8 kun davomida preparatning biologik samaradoriligi 92,0% ni tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kenneth J. Grace Approaches to Biological Control of Termites. Sociobiology. 2003. 41(1): - P. 115-121.

2. Sindhu Satyavir S., Y.S. Rakshiya, and M.K. Verma. Biological Control of Termites by Antagonistic Soil Microorganisms. In book: Bioaugmentation, Biostimulation and Biocontrol. Springer Berlin Heidelberg, 2011. - P. 261-309.

3. Michael Lenz. Biological control in termite management: The potential of nematodes and fungal pathogens // Proceedings of the Fifth International Conference on Urban Pests Chow-Yang Lee and William H. Robinson (editors). - Malaysiya, 2005. - P. 47-52.

МАККАЖЎХОРИ ДУРАГАЙЛАРИНИНГ ЎСИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИГА СУҒОРИШ ТАРТИБЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ

Уббинияз Бактибаевич Кунназаров
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети ассисенти
E-mail: kunnazarov1993@mail.ru

Аннотация. Мақолада жанубий Орол бўйи ҳудуди ўртача шўрланган, ўтлоқи-аллювиал тупроқлари шароитида суғориш тартибларини асосий ва такрорий экин сифатида парваришланган маккажўхори дурагайларининг ўсиши, ривожланишига таъсири бўйича тадқиқот натижалари келтирилган.

Калит сўзлар: ўтлоқи-аллювиал тупроқлар, суғориш тартиблари, маккажўхори дурагайлари, асосий экин, такрорий экин, ўсиш, ривожланиш.

Кириш. Маккажўхори сувга талабчан ўсимликлардан ҳисобланади. Шунинг учун ҳам уни ривожланиш даврларида сувга бўлган талабини қондириш мўл ҳосил олишнинг муҳим шартларидан биридир.

Маккажўхори вегетация давомида майсаланиш, най ўраш, рўвакланиш, гуллаш, донни пишиш даврларини ўтайди. Тўпгул чиқариш ва дон шаклланиш даврида сувга бўлган талабчанлиги энг юқори бўлади. Бу даврда тез-тез суғориш керак [Атабаева, Худайқулов 2018: 1].

Маккажўхорининг сувга талаби учга бўлинади. Биринчи давр майсалаш-най ўраш даври, иккинчи давр рўваклаш-гуллаш ва учинчи давр донни пишиш даври ҳисобланади. Одатда, иккинчи даврда маккажўхори ривожланиши дурагайларига боғлиқ ҳолда интенсив кечади. Суткалик ўсиши 8-10 см ва ундан юқори бўлади. Кўк масса жуда кўп тўланади ҳосил шаклланади. Маккажўхори рўваклагандан (оталик гултўплам) 4-6 кун ўтиб оналик тўпгули сўта чиқаради. Гуллаши ҳам шу тартибда кечади. Иккинчи давр маккажўхори уруғлангандан сўнг дон сут тўлишигача давом этади. Ушбу даврда тупроқ намлиги 70-75 % дан кам бўлмаслиги талаб этилади [Атабаева, Худайқулов 2018: 1, Исаев, Болтабоев 2000: 2].

[Жабборов, Тилавов, Остонақулов 2023: 3] ларнинг изланишларида, маккажўхорининг янги “Қумқишлоқ” навидан энг юқори барқарор дон ҳосили (8,5 т/га) етиштиришда суғориш тартиби ЧДНС га нисбатан 70-80 % да 8 марта 3-5 тизимда, униб чиқишдан рўваклашгача ҳар 10-15, рўваклашдан тўла пишишгача эса 7-9 кунда суғориш ҳамда органоминерал ўғитлар - 30 т/га гўнг + $N_{200}P_{160}K_{100}$ кг/га меъёрда қўлланилганда олинган.

[Массино, Аҳмедова 2007: 4] ларнинг таъкидлашларича, маккажўхори ҳосилдорлигини оширишда турли ноқулай шароитларга бардошли навлар яратиш лозим. ***Муаллифлар фикрига кўра, Ўзбекистон иқлим шароитида такрорий экин сифатида дон ва силос учун яратилган “Ўзбекистон 306 АМВ” дурагайи шулар жумласидан. Бу дурагайни ўртача дон ҳосилдорлиги 74, 0 ц/га бўлиб, 108 кунда пишади.***

Демак, маккажўхори дурагайларини меъёрида ўсиши, ривожланиши, юқори ҳосил тўплаши учун ҳар бир нав тупроқ иқлим шароитлари учун муайян агротехника тадбирларини ишлаб чиқишни талаб этади. Шундан келиб чиқиб жанубий Орол бўйи ҳудуди ўртача шўрланган, ўтлоқи-аллювиал тупроқлари шароитида суғориш тартибларини асосий ва такрорий экин сифатида парваришланган маккажўхори дурагайларининг ўсиши, ривожланишига таъсири бўйича тадқиқотлар ўтказилди.

Тадқиқот услублари. Тадқиқотларда Қорақалпоғистон деҳқончилик илмий тадқиқот институтининг тажриба хўжалигида 2020-2022 йиллар давомида асосий ва такрорий экин сифатида маккажўхорининг “Ўзбекистон-601 ЕСВ”, “Қорасув-350 АМВ” ва “Ўзбекистон-300 МВ” дурагайларини ўсиши ривожланишига ЧДНСга нисбатан 60-60-60, 70-70-60 ҳамда 80-80-60 % суғориш тартибларининг таъсири ўрганиди. Фенологик кузатувлар [“Дала тажрибаларини ўтказиш услублари” 2007: 5] ва [“Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур” 1985: 6] услубий қўлланмалари асосида маккажўхори дурагайлари асосий экинда июнь, июль,

август ва сентябрь ойларида, такрорий экин сифатида экилганда эса июль, август ва сентябрь ойларининг 1-5 саналарида олиб борилди.

Таҳлил ва натижалар. Маккажўхори ўсимлигининг бўйи, барглар сони, бир туптаги сўталар сони бўйича олинган маълумотлар 1 ва 2-жадвалларда келтирилган. Олинган маълумотлар 2022-йил мисолида таҳлил қилинди.

Жадвал маълумотларига кўра, асосий экин сифатида экилган Ўзбекистон 601 ЕСВ маккажўхори дурагайида ўсимликнинг бўйининг баландлиги 1.09 санада тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 60-60-60 % тартибида суғорилганда бўйи 215,7 см ни, барглар сони 15,3 донани, сўталар сони 1,7 дона бўлди. Қорасув-350 АМВ дурагайи экилган 2-вариантда бўйи 220,1 см ни, барглар сони 16,0 донани, сўталар сони 1,5 донани, Ўзбекистон-300 МВ дурагайининг бўйи 227,8 см, барглар сони 17,0 донани ва сўталар сони 2,0 донага тенг бўлди.

Суғоришни ЧДНС га нисбатан 70-70-60 % бўлган 4-вариантда Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайининг бўйи 261,5 см ни, барглар сони 17,7 донани, сўталар сони 2,1 донани, бу кўрсаткич 5-вариантда Қорасув 350 АМВ дурагайида 237,7 см ни, барглар сони 15,6 донани, сўталар сони 1,7 дона, Ўзбекистон-300 МВ дурагайида энг юқори кўрсаткич кузатилиб, ўсимликнинг бўйи 255,2 см ни, барглар сони 17,9 донани, сўталар сони эса 4 ва 5 вариантга нисбатан 0,2-2,3 донага кўп бўлганлиги кузатилди.

Тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 80-80-60 % да суғорилган маккажўхори дурагайларида ҳам юқоридаги қонуният кузатилди. Ўсимлик бўйининг узунлиги Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайида 247,9 см, барглар сони эса 16,7 дона сўталар сони 1,5 дона, бу кўрсаткичлар 8-вариантда Қорасув 350 АМВ маккажўхори дурагайининг бўйи 227,1 см га, барглар сони 15,7 дона, сўталар сони 1,7 дона, Ўзбекистон-300 МВ дурагайида эса 255,7 см, барглар сон 16,6 дона, сўталар сони 1,9 дона бўлганлиги кузатилди.

1-жадвал

Суғориш тартибларини асосий экин сифатида экилган маккажўхори дурагайларининг ўсиши ва ривожланишига таъсири (2022 й)

Вар. т/р	Суғориш олди тупроқ намлиги ЧДНСга нисбатан, %	Маккажўхори дурагайлари	Маккажўхорининг бўйи, см				Барглар сони, дона				Сўталар сони, дона	
			01.06	01.07	01.08	01.09	01.06	01.07	01.08	01.09	01.08	01.09
1	60-60-60	Ўзбекистон 601 ЕСВ	18,6	55,7	195,6	215,7	4,1	6,0	12,1	15,3	0,8	1,7
2		Қорасув 350 АМВ	19,7	58,4	208,3	220,1	4,0	6,0	14,0	16,0	1,3	1,5
3		Ўзбекистон 300 МВ	20,1	60,1	211,6	227,8	4,5	6,7	16,1	17,0	1,3	2,0
4	70-70-60	Ўзбекистон 601 ЕСВ	22,8	69,5	229,4	261,5	5,6	8,3	15,7	17,7	1,5	2,1
5		Қорасув 350 АМВ	20,9	70,2	231,5	237,7	5,6	8,3	14,6	15,6	1,3	1,7
6		Ўзбекистон 300 МВ	23,5	70,1	235,7	255,2	5,8	8,5	15,8	17,9	1,3	2,2
7	80-80-60	Ўзбекистон 601 ЕСВ	20,1	65,4	226,9	247,9	4,8	7,6	15,3	16,7	1,4	1,5
8		Қорасув 350 АМВ	24,1	68,8	225,6	227,1	4,2	8,0	15,3	15,7	1,2	1,7
9		Ўзбекистон 300 МВ	24,9	71,1	232,5	255,7	4,5	8,5	15,9	16,6	1,2	1,9

Суғориш тартибларини такрорий экин сифатида экилган маккажўхори дурагайларининг ўсиши ва ривожланишига таъсири (2022 й)

Вар. т/р	Суғориш олди тупроқ намлиги ЧДНСга нисбатан, %	Маккажўхори дурагайлари	Маккажўхорининг бўйи, см			Барглар сони, дона			Сўталар сони, дона	
			01.07	01.08	01.09	01.07	01.08	01.09	01.08	01.09
1	60-60-60	Ўзбекистон 601 ЕСВ	9,5	98,6	142,3	2,1	5,6	9,3	0,2	0,3
2		Қорасув 350 АМВ	10,2	101,5	150,1	2,7	6,5	10,2	0,2	0,3
3		Ўзбекистон 300 МВ	11,3	105,1	151,2	3,1	7,0	11,7	0,3	0,9
4	70-70-60	Ўзбекистон 601 ЕСВ	13,9	116,8	170,2	3,8	8,8	12,7	0,1	0,5
5		Қорасув 350 АМВ	14,9	121,9	172,2	3,9	8,9	13,5	0,5	1,1
6		Ўзбекистон 300 МВ	16,2	132,9	181,6	4,2	9,5	14,1	0,6	1,4
7	80-80-60	Ўзбекистон 601 ЕСВ	12,5	116,3	187,3	3,3	7,9	12,2	0,2	0,3
8		Қорасув 350 АМВ	14,2	123,8	187,4	3,1	7,4	13,5	0,3	0,7
9		Ўзбекистон 300 МВ	14,7	131,7	179,5	3,5	8,4	13,9	0,4	1,1

Демак, тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 80-80-60 % тартибида маккажўхори дурагайларини суғориш ўсимлик бўйи нисбатан юқори бўлсада, сўталар сони қуйи суғориш тартибларига нисбатан кам бўлган ва бунга ўсимликнинг юқори суғориш тартибида ғовлаши билан изохлаш мумкин.

Тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 70-70-60 % тартибида суғоришда маккажўхорининг бўйи, барглар сони ва сўталар сонининг юқори эканлиги, маккажўхори дурагайлари бўйича Ўзбекистон 300 МВ юқори курсаткичларга эга бўлди.

Такрорий экин сифатида экилган маккажўхори дурагайларининг суғориш тартибларини усимликнинг ўсиши ва ривожланишига таъсири ўрганганимизда ҳам энг яхши кўрсаткич тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 70-70-60 % суғориш тартибида кузатилди. Маккажўхори дурагайлари орасида эса Ўзбекистон 300 МВ дурагайида кузатилиб, ўсимлик бўйи вегетация даври охирида 181,6 см ни, барглар сони 14,1 донани, сўталар сони эса 1,4 донани ташкил этди. Тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 80-80-60 % бўлган вариантлар орасида хам Ўзбекистон 300 МВ дурагайи энг юқори кўрсаткичларни сақлаб қолган ҳолда барглар сони 13,9 донани, сўталар сони бўлса 1,1 донани ташкил этди.

Такрорий экин сифатида маккажўхори дурагайларини суғориш олди тупроқ намлиги 60-60-60 % суғориш тартибида суғориш ўсимлик бўйи, барг сони ва сўталари кам бўлганлиги аниқланди.

Хулоса. Юқорида натижалар таҳлиллари асосида хулоса қилиб айтиш мумкинки, ўртача шўрланган, ўтлоқи-аллювиал тупроқлар шароитида маккажўхори дурагайларини суғоришни ЧДНС га нисбатан 70-70-60 % да ўтказилганда энг юқори натижалар кузатилди. Унга кўра, 4-вариантда Ўзбекистон 601 ЕСВ дурагайининг бўйи 261,5 см ни, барглар сони 17,7 донани, сўталар сони 2,1 донани, бу кўрсаткич 5-вариантда Қорасув 350 АМВ дурагайида 237,7 см ни, барглар сони 15,6 донани, сўталар сони 1,7 дона, Ўзбекистон-300 МВ дурагайида дурагайлар орасида энг юқори кўрсаткич кузатилиб, ўсимликнинг бўйи 255,2 см ни, барглар сони 17,9 донани, сўталар

сони эса 4 ва 5 вариантга нисбатан 0,2-2,3 донага кўп бўлганлиги кузатилди. Бу эса ўз навбатида ушбу тупроқ-иқлим шароитида маккажўхорининг Ўзбекистон-300 МВ дурагайини асосий ҳамда ткрорий муддатда тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 70-70-60 % да суғориш тартибида суғориш мақбул ва маккажўхоридан барқарор юқори дон ҳосили олишга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Атабаева Х.Н., Худайқулов Ж.Б. “Ўсимликшунослик”. Дарслик. –Т.: “Fan va texnologiya”, 2018. –Б. 127-137.
2. Исаев Б., Болтабоев Х. “Маккажўхоридан мўл ҳосил етиштиш”. Тавсиянома. Наманган, 2000 й, 20 б.
3. Жабборов Б., Тилавов Ҳ., Остонақулов Т. Маккажўхорининг янги “Қумқишлоқ” нави таърифи, қулай суғориш тартиблари ҳамда ўғит меъёрлари Agro ilm – O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi №3. 2023 11-12 б
4. Массино И.В., Ахмедова С.М., К.Ашуров. Фермер хўжаликларида озуқабоп экинлар етиштириш технологияси бўйича тавсиянома.– Тошкент. 2007. – Б. 24.
5. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари,-Тошкент ЎзПИТИ, 2007, 148 б.
6. Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур. // под ред. М.А.Федина. –М.: Госагропром СССР, 1985 г, -269 с.

BOYAN-GLYCYRRHIZA GLABRA L. ÓSIMLIGININ’ XALÍQ-XOJALIǴINDA A’XMIYETI.

M.T. Baltabaev-Botanika, ekologiya hám onı oqıtıw metodikası kafedrası docenti, Sh. Abillayeva hám D. Qońıratbaeva-Biologiya tálim baǵdarı 1-kurs talabası, A. Abilova 2-kurs talabası

Boyan- Glycyrrhiza glabra L. ósimligi sobıqlılar Fabaceae (Leguminasae) tuqımlasınıń Glycyrrhiza tuwısına kiretuǵın kóp jıllıq shóp deneli ósimlik [3], [4]. Bul ósimlikti rus tilinde - solodka golaya, ózbek tilinde - shirinmiya, chuchukmiya, qizilmiya, Qaraqalpaqsha boyan dep ataydı (1-súwret).



1-súwret. Boyan ósimliniń ulıwma kórinisi.

Bul ósimliktiń tamırı, onnan tayarlanǵan sherbet erte dáwirlerden baslap adamlarda ushırasatuǵın túrli keselliklerdi emlewde paydalanıp kelgen. Ózbekstan Respublikası aymaqlarında 600 ge jaqın dárilik ósimlikler bolıp, olardıń 50 den aslam túrlerinen ilimiy medicinada túrli dári preparatlar tayarlanadı (Xoshimov, Ollayarov, 1988). Sońǵı jılları dúnya medicinasında ósimlikten dári zatların tayarlawǵa úlken itibar qaratılǵan.

Bul boyan ósimligi xalıq-xojalıǵı ushın eń áxmiyetl ósimliklerden bolıp tabıladı. Ol Qaraqalpaqstanda birden bir shiykizat ónimi shetke eksport qılınatuǵın jabayı ósimlik bolıp tabıladı.

Boyan ósimliginiń tamırınıń paydalı tárepleri haqqındaǵı maǵlıwmatlar bizlerge erte zamanlardan baslap jetip keldi. Qıtayda adamlar biziń eramızdan 4000 jıl burın bul ájayıp ósimlik haqqında bilgen edi. Bul ósimliktiń dárilik qásiyeti haqqında Abu-Ali Ibn-Sina hám Abu Rayxan al Beruniy (Kitob as Saydana) shıǵarmasında atap ótilgen. Tibet xalıqları onıń tamırı adamlardıń kóp jasawı hám sezilerli artıwına tásir etetuǵının bildiredi. Boyannıń tamırında 23% shekem glicirin zatı bolıp, ol gidrolizlegende glicirretin kislotası hám onı molikulalı glyukuronlı kislotanı payda etedi. Jánede flavonoid, efir mayı (0,03%), askorbin kislotası (11-30 mg%), qant, sarı pigment hám t. b. boladı. (Davletmuratov, Uteniyazov, 1999). Basqa da derekler alınǵan (internetten) maǵlıwmatlarında onıń tamırında tiykarınan: glicirrizin kislotası hám onıń kaliyli hám kalciyli duzları, 27 túrli flavonidler, qant (glyukoza) 20% shekem 3% ashshı zat, 20% kraxmal, efir mayı, boyawshı zatları, vitaminler, dubil zatları, jabısqaq zatlar, organikalıq kislotalar (tiykarınan alma kislotası) belok, asparagen hám t.b. boladı. Tamır quramındaǵı bunday kóplegen quramalı zatlardıń bolıwı, onıń túrli tarawlarda paydalanıwǵa bolatuǵın zatlar islep shıǵarıwǵa

múmkinshilikler beredi. Bul ósimliktiń formokologiyalıq qásiyetleri keń úyrenilgen XX-ásirdiń 80 jılları Britaniyada onıń tamırınan steroidlı strukturalı birikpe karbon oksolan zatın aldı. Ol denedegi túrli jaraqatlardı emlewde qollanıladı. Astezinin jabısqaq qatlamınıń unamsız faktorlarǵa qarsılıǵın kúsheytedi. Usı zattıń tiykarında on eki enli barmaq ishekte jaralardı emlewde paydalanatuǵın biogastron-duodenal preparatı jaratılǵan. Jáne de quramında boyan tamırı bolǵan pikviricin preparatı adamlarda ushıraytuǵın asqazan-ishek traktın emlewde qollanıladı. Bul ósimliktiń tamırınan tayarlanǵan poroshok bronxial astmanı emlewde qollanıladı [2].

Novosibirsktegi klinikalıq emlewxanada boyan tamırı poroshogin jara payda etiwshi keselliklerdi emlewde sınap kórilgen hám unamlı nátiyjelerge erisilgen. Sonday-aq Pyatigorskdegi farmacevtika institutında tamırdan alınǵan glicirin preparatı ayazlap asqınıw hám allergiyaǵa qarsı gúreste jaqsı nátiyjeler bergen. Onıń tamırı antimikroblıq qásiyetlerge iye. Onıń efirli spirtli ekstrakti organizmde Candida albicans, Trichophyta gypseum hám Microsporum lenosum mikroplarınıń ósiwin shekleydi.

Sońǵı jılları boyan tamırınan kóplegen dárilik preparat tayarlamaqta. Olardan, «Flakorbin» (gastroenterologiyalıq tásiri bar), «Elekasol» (qulaq, murın, tamaq, stamotologiyalıq hám gastroenterologiyalıq keselliklerin emlewde kompleks terapiya), «Likvariton» (Gipericidli gastrit, ishek jara kesellikleri), «Glitsirom» «Bismuloksan» (ezofagitlardı, óńesh, gastrit, asqazan ishek jarası, kolitler, spazmlar, diareya). «Transpulmin» (spazmatik hám antiallergitin qásiyetlerge iye) «Boyan tamırı», «Eleksir grudnıy» preparatı hám bulardan basqada dári zatları boyan tamırınan alınǵan ximiyalıq birikpeler farmokologiyada paydalanıp kelmekte.

Boyan tamırınan xalıq medicinasında onıń tamırınan asqazan (hám asqazan jarası), onnan (bronxit, tubruklez) revmatizm, impotenciya, nefrit keselliklerine hám jası úlken adamlarǵa-jasartıw hám jası uzartıw maqsetinde paydalanǵan. Tibet xalıq medicinasında házirgi waqqıtlarda azlap asqınlasıw, sidik shıǵarıw, asqazan jarası, buwın awırıwları, arteroskleroz, búyrek hám

basqada keselliklerge qarsı qollanıladı. Hátte bul aymaqlarda wlanıwǵa qarsı paydalanadı. İndiyada onıń tamırınan tayarlanǵan zatlar kóz keselliklerin emlewde isletiledi. Koreyada, Bolgariya hám basqada kóplegen mámleketlerdiń xalıq meditsinasında boyan tamırı isletiledi. Házirgi dáwirde boyan tamırınan alınǵan ximiyalıqbirikpeler sanaatlıq ónimler islep shıǵarıwda paydalanıladı. Olar azıq-awqat ónimleri (konfet, pivo, limonad, likorlı ishimlikler), akvaral boyaw, tush, gutalina, vaksı, órt óshiriwshi suwıqlıq, metalurgiyada, teri iylewde, toqımashılıq, ximiya sanaatında, qaǵaz cellyuloza óndirisinde islep kelmekte.

Ayrım mámleketlerde temeki sanaatında onıń birikpeleri shılımnıń dámliligi hám aromatlılıǵın arttırıwda áxmiyetke iye. Yaponiyada nikotinsiz surogatlı sigaretler islep shıǵarıwda paydalanadı.

Dún`yanıń kóplegen mámleketlerinde boyan tamırı onı óndiriste

paydalanıwda erte dáwirlerden baslaǵan. Qıtay mámleketinde bir neshshe ásirler dawamında onıń tamırı jetkeriledi. Maǵlıwmatlar Qıtay mámleketi XII-ásirden baslap onıń tamırınan Evropaǵa, Rossiyaǵa sonınan Amerikaǵa eksport qılıp kelingen. XVII ásirlerden keyin Rossiya mámleketi boyan tamırın eksport etiwshi orın alǵan olardıń kópshilik bólegi Oraylıq Aziya hám Qazaqstan aymaqlarında óndirilgen XX ósirip basına kelip boyan tamır óndirip shıǵarıw dún`ya boyınsha birneshe ese artqan [1].

Házirgi waqıtta Qaraqalpaqstanda boyan ósimliginiń tamırın sırt ellerge eksport qılıw jolǵa qoyılǵan.

Solay etip, qımbat bahalı shiyki zat ósimligi esaplanǵan boyan egin maydanların jaratıwda tiykarınan úsh túrli usıl menen, tuqımınan, tamırpaqallarınan hám nál jetistiriw arqalı kóbeytiw maqsetke muwapıq boladı.

Paydalanǵan ádebiyatlar

1. Baxiev A., Qaniyazov S.K. Ta’biyiy boyanlıqlardı jaqsılaw h’a’m A’miwdaryanın’ to’mengi bo’liminde onı daqılg’a engiziw boyınsha metodikalıq ko’rsetpeler. No’kis. «Qaraqalpaqstan» 2003.

2. Гладышева А.İ. Био’кологические особенности солодкой голой в связи с введением ее культуры в пойме Амудари. Автореф. канд. дис. Ашхабад, 1967 22 с.

3. Коровин О.Н., Бахиев А.Б., Таджитдинов М.Т., Сарыбаев Б.Ш. Иллюстрированный определитель высших растений Каракалпакии и Хорезма // Ташкент, ФАН.-1982.-23с.
4. Кербабаев Б.Б., Гладышева А.В., Келджаева П.Ш., Гекшова Т.М. Культура солодки в туркменстане (систематика, био'кология, введения в культуру). Ашхабад, Илым , 1989.192 с.

DEM ALÍW KESELLIKLERINDE QOLLANÍLATUǴÍN QARAQALPAQSTANNÍŃAYRIM MÁDENIYDÁRILIK ÓSIMLIKLERI

R.A.Eshmuratov, b.f.n., docent; U.TurdımuratovaAnıq hám tábiyiy pánlerdi oqıtıw metodikası (Biologiya) tálim bagdarınıń 2-kurs magistrantı

Ajiniyaz atındaǵı Nokis mámleketlik pedagogikalıq instituti, Nókis q., Qaraqalpaqstan, R.Eshmuratov@mail.ru

Mádeniy eginlerimizden kópshiligi dárilik qásiyetlerge iye. Biz kúndelikli turmısta qollanatuǵın kópshilik ayyemnen belgili bolǵan mádeniy ósimlikler shıpabaxshlıq qásiyetine iye bolǵan dárilik ásimlikler esaplanadı. Tómende bizde bar bolǵan ayrım mádeniy ósimlik túrleri ximiyalıq qurılısı, qollanılatuǵın organları, isletiliwi tómendegı kestede keltirip ótildi.

№	Ósımliktiń atı	Qollanılatuǵın organı	Ximiyalıq qurılısı	Isletiliwi
1	*Cucumissativus L.*	Miywesi	3,1-6% qurǵaq zatlar, 1,3-3% qant, 2,6-15,3mg% askorbin kislotasi	Ókpe tuberkulezinde
2	*Raphanussativus*	Tamırmiywesi	Uglevodlar, ekstraktli azotli zatlar efir mayı fitoncitler, vitamin-A,S	Jótelde, bronxitte
3	*Avenasativa L*	Dáni	Kraxmal, belokli zat, kamed, efir mayları qant, vitaminler	Ókpe tuberkulezinde
4	*Brassica rapa L.*	Tamırmiywesi	9% ke shekem qant, vitamin-S,V topari, PP, karotin	Ókpe, demalıw jolları ayazlaǵanda

5	*Triticumaestivum*	Dáni	Uglevodlar, kraxmal, belok, may, qant, organikalıq zatlar	Jótelde, bronxitte
6	*Alcearosea L..*	Jer ústi bólimi	Silekey zatlari, boyawlar, altein alkaloidi	Bronxitte
7	*Allium cepa*	Piyazshası	Fitoncidler, efir mayı, vitamin S, B1, karotin, flavanoidlar	Angina, jótelge
8	*Allium sativum*	Piyazbası	Allenin, yod, fitoncid, efir mayı, S-vitamin	Tamaq awrıwlarında, jótelde

Biz tómende kúndelikli turmısta azıq- awqat deregi retinde paydalanatuǵınmádeniy túrlerden ayrımlari haqqında maǵluwmatlar keltirip óttik.

Qıyar-огурец посевной. 1 jıllıq tóselip ósiwshi ósimlik bolıp boyı 1 metrden asadı hám asqabaqlılar tuqımlasina kiredi. Ósimliktiń paqalları qattı túksheler menen qaplanǵan japıraǵı júrekshe-máyek tárizli bolıp, onıń uzınlıǵı 8-20 smge deyin baradı. Túyneginiń uzınliǵı 5-20 smden asadı. Respublikanıń barlıq awıl xojalıq tarawlarında hám jeke xojalıqlarında palız egini kóplep ósiriledi.

Ximiyalıq qurılısı: qıyardıń túyneginde 3,1-6% shekem qurǵaq zat, 1,3-3% qant, 2,6-15,3mg% askorbin kislotası bar.

Qollanılıwı: taza qıyar hám qıyardıń shiresin ókpe tuberkulezıne, ish qatıwǵa, asqazan awrıwlarına qabıllaw usınıladı.

Piyaz-лук репчатый. Piyazlar tuqımlasına kiretuǵın kóp jıllıq piyazshalı shóp deneli ósimlik. May-iyun aylarında gúlleydi, iyulde miyweleydi.

Ximiyalıq qurılısı: Piyazshanıń quramında efir mayı, vitamin S, B1, karotin, fitotsidler, flavonoidlar hám basqa zatlar bar.

Qollanılıwı:Ibn Sino pıyaz shiresi menen irińli jaralardı, anginanı hám kózge aq túskende emlew ushın qollanǵan. Piyazdiń spirttegi nastoykası ishek ateresklerоz keselliklerine hám alma menen aralastirip tamaq shamallawına hám jótelge dawa qılınadı.

Chesnok, sarimsaq-чеснок посевной. Kóp jıllıq piyaz bası kóp bólekli, boyı 20-70 sm ge jetetuǵın shóp deneli ósimlik. Iyun-iyul aylarında gúlleydi.

Ximiyalıq qurılısı:Sarımsaq quramında efir mayı, vitamin S, fitoncidler, az muǵdarda yod, allinin (kúshli bakteretsid qásiyetke iye) hám basqa zatlar bar.

Qollanılıwı: Abu Ali ibn Sino sarımsaq penen tis awrıwı, jóteldi dawalaǵan. Xalıq meditsinasında sarımsaq dem alıw jolları shamallaǵanda isletiledi. Sarımsaq nastoykası bu'yrekte tas bolǵanda hám ókpe (irińleskende) keselliklerinde usınıs etiledi.

Juwmaqlap aytatuǵın bolsaq, bizler tiykarinan Qaraqalpaqstan florasinda ushraytuǵın dem alıw organları keselliklerin emlewde qollanılatuǵin ayrım mádeniydarilik ósimliklerge olarǵa qisqasha xaraktiristika jáne de ximiyalıq qurılısı hám qollanılıwın keltirip óttik.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Dáwletmuratov S.D., O'teniyazov Q.Ó., Xalmuratov P.X. "Xalıq meditsinasinda qollanılatuǵın Qaraqalpaqstannıń mádeniy hám jabayı ósimlikleri" Nókis "bilim" 1992.

2.Eshmuratov R.A., Ajiev A.B "Qoraqalpoǵiston dorivor ósimliklari" Monografiya- Toshkent 2020

BALIQ MENEN AZIQLANIWSHI QUSLARǴA SIPATLAMA

Sapargeldieva Gurbanbibi Dauletgeldi qızı -talaba

Ájiniyaz atındaǵı Nókis pedagogikalıq institutı

Annotaciya: Bul maqalada balıq menen azıqlanıwshı qustıń ekologiyalıq hám morfologiyalıq qásiyetleri, olardıń jasaw ortalıǵı, awlanıw usılları hám ekotizimdegi ornı analiz etiledi. Sonıń menen birge, antropogen faktorlar tásiri hám bul qustı qorǵaw zárúriyatı haqqında maǵlıwmatlar berilgen.

Gilt sózler: shaǵalalar, morfologiya, ekologiyalıq rol, suw háwizleri, qáwipsizlik.

Balıq menen azıqlanıwshı qus (piscivorlar) - bul azıǵınıń tiykarǵı bólegin balıq quraytuǵın qus toparı bolıp, olar kóbinese suw háwizleri menen baylanıslı jasaw tárizine iye. Olardıń ekologiyalıq áhmiyeti, trofik shınjırdaǵı ornı hám balıqlar populyaciyasın baqlawdaǵı roli aktual ilimiy izertlewlerge tiykar bolıp atır.

1. Balıq menen azıqlanıwshı qustıń jasaw ortalıǵı hám ekologiyalıq ornı. Bul quslar dárya, kól, batpaqlıq, suw bazaları hám teńiz boyında ushıraydı. Olardıń jasaw ortalıǵı taza hám balıqqa bay suw resurslarına baylanıslı. Olar ózleriniń trofik shınjırdaǵı ornına kóre jırtqıshlar qatarına kiredi, usınıń menen birge, olar balıqlar arasındaǵı kesellikler tarqalıwın sheklewde de qatnasadı.

2. Morfologiyalıq kelisiwler hám awlanıw qásiyetleri Bul quslar balıq tutıwǵa maslasqan ayriqsha dúzılıwǵa iye: tumsıǵı ótkir, uzın hám geyde qıysıq bolıp, balıqtı tutıp alıwǵa qolay; Ayaqları júziwge iykemlestirip rawajlanǵan (kóbisi qalashlı); Kóriw qábileti joqarı - hátte suw astındaǵı háreketti ilǵay aladı.

1-keste. Balıq menen azıqlanıwshı qustıń ayırım wákilleri hám olardıń qásiyetleri

Keste 1.

Quslar atı	**Ilmiy atı**	**Azıqlanıw usılı**	**Jasaw ornı**
Chayka	Larus spp	Suwdan súńgip awlaydı	Dárya hám kóller
qarabatqaq	phalacrocoracarbo	Suw astında júzip awlaydı	Kól batpaqlıqlar
balıqshı búrgit	haliaeetus albicilla	Joqarıdan tutıp aladı	Dárya suw saqlaǵıshları
Qalqan qus (ququ)	Ardea spp	Toqtap turıp tutadı	Suw boyları

3. Qáwipler hám qáwipsizlik máseleleri. Antropogen faktorlar - suwdiń pataslanıwı, balıqlardıń hádden tısqarı awlanıwı, qustıń tábiyiy jasaw ortalıǵınıń joǵalıp ketiwi, shawqım hám ańshılıq - balıq menen azıqlanıwshı qustıń sanına unamsız tásir kórsetip atır. Olardı qorǵaw ushın tómendegiler zárúr: Suw háwizlerin ekologiyalıq taza saqlaw; Qus kóship ótetuǵın aymaqlarda qáwipsizlik zonaları shólkemlestiriw; Nızamlı tiykarda awlanıwdı sheklew; Ǵalaba xabar quralları arqalı xalıqtıń ekologiyalıq bilimin asırıw.

Balıq menen azıqlanıwshı qus tábiyatda zárúrli ekologiyalıq funksiyanı atqaradı. Olardıń saw ekotizim ushın áhmiyeti joqarı bolıp, olardı asıraw arqalı tek ǵana qustı, bálki suw ortalıǵınıń ózin de qáwipsizligin qorǵaw kerek. Bul jolda ilimiy izertlewler,

monıtorıng jumısları hám xalıqtıń ekologiyalıq sanasına asırıw zárúrli áhmiyetke iye boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Karimov A. A., Elshiov Sh. R. “Ózbekstan ornitofaunasi”, T.: Pán, 2021
2. G'afurov A. N. “Ekologiya tiykarlari”, T.: Ózbekstan, 2020
3. National Geographic. (2023). Birds that feed az waqıt fish.
4. IUCN Red List of Threatened Species. www. iucnredlist. org
5. Khamidov M., Yusupov I. “Tábiyiy resursların qorǵaw”, Samarqand, 2019.

ATMOSFERA HAWASÍNÍŃ PATASLANÍWÍN UYRENIW

Kamalatdinova R.A. Qo‘ziyeva Z.Sh. –talaba

Mirametova N.P. - (PhD), docent

Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı


Házirgi zaman ilimiy-texnikalıq krezisi sanaattıń jedel rawajlanıwı, elektr energiyasın islep shıǵarıw, transporttıń barlıq túrlerinen paydalanıwdıń ósiwi menen xarakterlenedi. Bul processler sırtqı ortalıqtıń pataslanıwınıń artıp barıwına sebep bolmaqta, bul bolsa sociallıq salamatlıqtı saqlawdıń eń áhmiyetli mashqalalarınan biri esaplanadı. Bul sırtqı ortalıqtıń pataslanıwınıń házirgi hám keleshek áwladlardıń salamatlıǵına múmkin bolǵan zıyanlı tásiriniń aldın alıwdı názerde tutadı.

Atmosferanıń pataslanıwı degende onıń quramındaǵı tábiyiy halda bar bolǵan gazlar teń salmaqlıǵınıń tábiyiy hám jasalma faktorlar nátiyjesinde júzege kelgen hár qıylı gazlar, qattı molekulalar, shańlar, radioaktiv shańlar, suw puwları hám basqalar tásirinde buzılıwın hámde sapasınıń ózgeriwin túsinemiz. Atmosferada gaz sıyaqlı zatlardan tısqarı forması, úlkenligi, ximiyalıq quramı hám fizikalıq qásiyetleri boyınsha bir - birinen parıq qılıwshı mayda molekulalar - aerozollarda (túttin, shań, tozan hám taǵı basqalar) bar.

Atmosfera hawası adam salamatlıǵında, qala berse tábiyat teń salmaqlılıǵı hám ıqlım jaǵdayı ushın da zárúrli faktor bolıp esaplanadı. Sońǵı jıllarda sanaattıń rawajlanıwı, transport qurallarınıń kóbeyiwi hám ekologiyalıq qadaǵalawdıń jetispesligi sebepli hawanıń pataslanıwı awır mashqala túrine aylandı.

Óndirislik islep shıǵarıw dereklerinen shıǵıp atırǵan záhárli gazleri, transport qurallarınan shıqqan shıǵındıları, sonıń menen bir qatarda tereklerdiń kóplep kesiliwi hám olardı qadaǵalawda ekologiyalıq monitoringtiń tómenligi sebebinen elimiz atmosfera hawasınıń tábiyǵıy turaqlılıǵın buzılıwına sebep bolmaqta.

Taza atmosfera hawası adam salamatlıǵınıń tiykarı esaplanadı. Hawanıń pataslanıwı bolsa adam salamatlıǵına zıyan keltiriwi, ıqlım ózgeriwine sebep bolıwı, ósimlik hám haywanat dúnyasına unamsız tásir etiwi, Ozon qatlamınıń jemiriliwi sıyaqlı aqıbetlerige alıp keledi. Sanaat shıǵındıları, avtomobil gazleri, xojalıq shıǵındıların nadurıs basqarıw hawanıń tiykarǵı pataslandırıwshıları bolıp, bul bolsa óz geseginde allergiya, astma, júrek-qan tamır kesellikleri sıyaqlı kesellikler túrleriniń kóbeyiwine sebep bolmaqta. Biz tómende atmosfera hawasınıń pataslanıwın klaster usılında kórsetip óttik.



Bul mashqalanı sheshiwde alternativ energiya dáreklerin rawajlandırıw hám hár bir puqaranıń ekologiyalıq juwapkershiligin arttırıw zárúr. Bunda taǵı ekologiyalıq qadaǵalaw nızamshılıǵın kúsheytiw, Jasıl energiya dáreklerine basqıshpa basqısh ótiw, transport quralların modernizaciyalaw hám eń baslısı xalıq arasında ekologiyalıq mádeniyattı asırıw ilajların keń en jaydırıw kerek.

Atmosfera hawasın qorǵaw hár bir insannıń minneti. Dáslepki qádem sıpatında jasıl aymaqlardı kóbeytiw, shıǵındılardı azaytıw hám ekologiyalıq bilimlerdi keńnen jayıw zárúr. Hár bir insan buǵan baylanıslı óz úlesin qosıwı, tábiyattı asırawda aktiv qatnasıw zárúr.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Мамбеткаримов Г.А. Загрязнение окружающей среды свинцом, кадмиями и его эколого-токсическое влияние на состояние здоровья детей и женщин. // Вестник ККО АН РУз, 2000, No 6-7, стр. 20-21.

2. To’xtaev A.S., Xamidov A. “Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish” T.: “O’qituvchi” 1994. (10 ta kirill alifbosida) o’quv qo’llanma. 28.08ya72 T98. U-5053.

QORAQALPOG’ISTONDA REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISh ISTIQBOLLARI

Yembergenov N.J., g.i.k.dots. Abdimuratova N.K., tayansh dokorant

Qoraqalpoq Davlat Universiteti, Nukus shahar.

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotida serdaromad va tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. U xalqaro siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim o’rin egallaydi. 2000 yildan buyon turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida qayd etilib, uning o’sish sur’atlari va ulushining oshib borishi kelajak industriyasi sifatida e’tirof etilishiga sabab bo’lmoqda.Ushbu tendentsiyalar yuqori turistik salohiyatga ega O’zbekistonda turizm sohasini milliy iqtisodiyotning yetakchi sektori sifatida rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishga asos bo’ldi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma’lumki, turizm taraqqiyoti uchun faqatgina jozibador maskanlarning mavjud bo’lishining o’zi yetarli emas. Respublikamizda mahalliy turistik infratuzilmani ham yetarlicha rivojlantirish lozim, ya’ni hududda ichki turizmning ham o’rni katta bo’lib, undan daromad olish, mahalliy aholi talablarini qondirib, unga xizmat ko’rsatish, aholining saviyasini oshirish, odamlarni ish o’rinlari bilan ta’minlash imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. [1]

Davlat miqyosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tufayli Qoraqalpogiston yil sayin turizm o’lkasiga aylanib bormoqda. Respublikamizning boy tarixi, madaniyati va tabiiy dikkatga sazovar joylari tufayli katta sayyoxlik salohiyatiga ega. Bu, o’z navbatida xalqaro aloqalarni rivojlantirish, xalqimizning boshqa millatlar bilan hamkorligini kuchaytirish imkonini bermoqda. O’zaro hamkorlikning kuchayishi esa mamlakatimizga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar hamda turistik xizmat eksportining o’sishiga xizmat qiladi. [2] Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo’yicha qo’shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to’g’risida»gi 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida «O’zbekiston bo’ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo’yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. [3]

Turizmning hozirgi holatini baholashda, shuni qayd etish muhimki, Qoraqalpog’istonda turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi chet ellik turistlarning ehtiyojlarini to’liq qondira olmayapti. Infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan taqdirda turistlar oqimini va shunga mos ravishda valyuta tushumini ko’paytirish mumkin emas. Bundan kelib chiqqan holda infratuzilmaning ahvoli turizmning rivojlanishini ta’minlash bilan birga mamlakat imidjini ham shakllantirishga bevosita ta’sir ko’rsatadi. [4] Qoraqalpog’iston sayyohlar e’tiborini tortadigan noyob tabiiy va rekreatsion resurslarga, madaniy obidalarga boy xisoblanadi. Qoraqalpog’iston Respublikasi turizm va mehmonxona xizmatlarini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Hozirgi vaqtda respublikada 48 ta me’morchilik va arxitektura yodgorliklari, 42 ta monumental va san’at yodgorliklari xamda 3 ta diqqatga sazovor joylar (Sulton Uvays memorial majmuasi, Savitskiy nomidagi san’at muzeyi, Mizdaxkan arxitektura majmuasi) va 255 ta arxeologik obidalar mavjud. Respublikamizda Savitskiy muzeyi, Orol dengizi, Amudaryo

delьtasi, Qizilkum choʼli bu yerlarning barchasi noyob tabiiy goʼzalliklarga ega bulib, tashrif buyuruvchi sayyohlarda qiziqish uygʼotadi.

Qoraqalpogʼiston hududida turizm infratuzilmasi bir tekisda taqsimlanmagan. Nukus shahri va tumanlarda respublika turizm salohiyatining 40% qismi jamlangan. Yirik infratuzilma salohiyatiga Nukus, tumanlar (Nukus, Xujayli, Yellikkalʼa, Taxtakupir va Muynok) va Nukus shahri ega. [7]

Turizmni rivojlantirish uchun mavjud turistik va rekreatsion resurslardan samarali foydalanishni taʼminlash bilan birga, har bir mintaqaning turizm infratuzilmasini talab darajasida rivojlantirish muhimdir.

Turizm infratuzilmasi deganda turistlarning turistik-rekreatsiya resurslaridan foydalanishni taʼminlovchi binolar tizimi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan, yoʼllar, turizmning xilma-xil korxonalari hamda turizm korxonalarining ishlatilishini taʼminlash uchun imkon yaratishga xizmat qiladigan obʼektlar majmui tushuniladi.

Bu avtomobil va temir yoʼllari, yoʼl harakatini, havo yoʼllarini, dengiz va daryo yoʼllari harakatini tartibga soluvchi tizimlar, issiqlik, elektr va telefon aloqalari bilan taʼminlash va boshqalardir. Bugungi kunda Oʼzbekiston Respublikasida “Turizm toʼgʼrisida”gi qonun, hamda 2016-2021 yilgacha Oʼzbekiston turizmni rivojlantirish boʼyicha davlat dasturi toʼgʼrisida qator meʼyoriy hujjatlar turistik infratuzilmalarni rivojlantirish uchun kuchli davlat dasturi boʼlib xizmat qilmoqda. Respublikamizda 20 dan ziyod turistik yoʼnalishlar chet ellik turistlarni oʼziga jalb etib kelmoqda. [5]

Qoraqalpogʼistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirishda barcha infratuzilma obʼektlarini jahon andozalari darajasiga yetkazib, turistlar talabini qondiradigan darajaga koʼtarish kerak. Buning uchun turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlari: mehmonxona, transport, oziq-ovqat, dam olish, davolash va boshqa koʼngilochar xizmatlarni yuqori darajada tashkil etish lozim boʼladi. Hozirgi paytda turizmning rivojlanishida bank va moliyaviy tashkilotlar xizmatlarining oʼrni katta. Turistlar sayohatda va dam olishda xilma-xil moliyaviy xizmat turlaridan foydalanishni xohlaydilar. Yaʼni, oʼz xohishi boʼyicha biror narsa sotib olishni istashadi.

Bunda ular ko’ngil ochish uchun har kuni ko’p miqdorda pul sarflashadi. Shu sababli bu xizmat turini takomillashtirish turistlarga qulayliklarni yaratadi. Bu sohada ham takomillashishi lozim bo’lgan katta imkoniyatlar mavjud. [6]

Axborot va internet xizmati ham turistik resurslardan samarali foydalanish uchun juda zarurdir. Turist sayohatga tayyorlanayotganda hamda sayohat vaqtida o’zi boradigan joy haqida, o’sha mamlakat yoki boradigan hududning qonun-qoidalari, odatlari, mehmondo’stligi haqidagi qo’shimcha ma’lumotlarga, shuningdek, o’sha joyning xaritasiga, transport magistrallari sxemasiga muhtoj bo’ladi. Sayohat va turistlarning sarguzashtlari haqidagi ma’lumotlar ommabop va maxsus adabiyotlar ko’rinishida chop etiladi va bu holat turistlarni sayohat qilishga chorlaydi. Turizmda bo’lajak turistlarga bepul tarqatiladigan axborotlarni rang-barang ko’rinishida chop etishga e’tibor qaratish lozim. Turizm infratuzilmasini zamonaviy kompyuter xizmatisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Hozirgi kunda turistlar internet, faks va boshqa zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishi orqali boshqa mamlakatlarning turistik resurslari haqida tasavvurga ega bo’ladi. Zamonaviy elektron vositalari, shu jumladan, turistik xizmatlar, turistik markazlar haqidagi ma’lumotlar joylashgan saytlarga ega bo’lgan internet tarmoqlari nafaqat sayohat va turistik agentliklarni tanlash, hattoki, tur sayohatning chiptalari, xizmatlar uchun to’lovlarni ham oldindan tayinlab qo’yish mumkin. Respublikamiz ko’pgina hududlari o’ziga xos qadimiy shaharlar, arxitektura, tarixiy madaniy yodgorliklarga boy hisoblanadi. [8]

Turistik infratuzilmalarning rivojlanishi ularning asl manzarasini buzmasligi kerak. Har bir tashkil etilayotgan yangi turistik markaz (ob’ekt) milliylik bilan uyg’unlashgan, qaytarilmas o’ziga xoslikka ega bo’lishi lozim. Albatta, tarixiy-madaniy, arxitektura va madaniy majmualarning milliy qadr-qiymati, tarixiy bahosini tiklash va muhofaza qilish orqaligina turistlar qiziqishini orttirish, bu orqali turizmni rivojlantirishga erishishmiz mumkin. Mehmonxonalar va sayyohlar uchun yo’nalish beruvchi axborot markazlarini shakllantirish turizm rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Nukus shaxari va tumanlarda turistik axborotlar markazini vujudga keltirish, mehmonxonalarni taklif qilish, diqqatga sazovor joylar haqidagi materiallarni ko’rsatish va asosiy e’tiborga loyiq hududlarni reklama qilish muhim ahamiyatga

egadir. Qoraqalpog’iston Respublikasida turizmni rivojlantirish, jozibador sayyoxlik maskaniga aylantirish uchun barcha imkoniyatlar va tabiiy resurslar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Рекреационные системы. монография / под ред. Н. С. Мироненко, М. Бочварова. - М.: Изд-во МГУ, 1986. – 136с.

2. Abdimuratova N.K., The value and significance of the development of tourism activity in our Republic in the economy Science and Education in Karakalpakstan *ISSN 2181-9203 №1/2 (31)2023.*

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

4.Тухлиев, Ғ.Х Қудратов, М.Қ Пардаев “Туризмни режалаштириш” дарслик “Иқтисод-молия” (2010) Тошкент.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, www.lex.uz

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. www.lex.uz

7.Алымов А.К. Қоракалпогистон Республикасида экологик туризмни ривожлантиришнинг асосий йуналишлари ва истикболари. Икт. Фан. док. Дисс. автореф. -Нукус, 2018. 60-63б

8.https://kun.uz/ru/news/2024/02/22/skolko-turistov-posetilo-uzbekistan-v-2023-godu

https://daryo.uz/ru/2024/03/31/v-2023-godu-v-uzbekistan-posetili-66-mln-turistov

TOǴAY BIZIŃ MILLIY BAYLIǴIMIZ ,ONI QORǴAW TIYKARǴI WAZIYPAMIZ

M.Baltabaev _Botanika ,ekologiya hám onı oqıtıw metodikasi kafedrası dotcenti b,i,k, **Abilova A_** 2 kurs Biologiya tàlim baǵdarı talabası.

Toǵaylar tábiyattıń bıybaha baylıqlarınan biri bolıp tabıladı.Olar tek ǵana insanlar ushın taza hawa deregi emes ,haywanlar ,qus hám ósimlikler ushın jasaw ortalıǵı bolıp tabıladı.Toǵaylar jer sharındaǵı ekologiyalıq teń salmaqlılıqtı saqlawda zárúrli ról atqaradı.Búgingi kúnde ormanlardıń áhmiyeti jáne de artıp barmaqta ,sebebi olar ıqlım ózgeriwine qarsı gúreste ,topıraq errozıyasınıń aldın alıwda hám biologiyalıq teppe-teńlikti saqlawda tiykarǵı faktorlardan biri bolıp esaplanadı. Sonday_aq 1 gektar Toǵay bir jılda 7 tonnaǵa shekem kislorod beredi.Ol 3000 adamnıń taza hawa menen dem alıwın táminleydi. Adamlardıń hár kúni taza kislorod penen dem alıwı ,ortasha 0,8 kilogrammǵa tuwrı keledi .Bir daraqt sutkasına 0,2 kg kislorod bóledi .Solay etip taza kislorod penen jeńil dem alıw ushın biziń hár birimizge minimum 4 daraqttan kerek. Respublikamız aymaǵında tóǧaylar bir tegis tarqalǵan ,toǵay massivleriniń kópshiligi Ámiwdárya jaǵalawlarında tarqalǵan. Qaraqalpaǵıstan Respublikasi Toǵay boyınsha màmleketlik komitetiń maǵlumatı boyınsha 30_jılları Respublikada Toǵayzarlıqlar muǵdarı 300 mıń gektar bolǵan bolsa, 30 mıń gektar Toǵaylıq qalǵan ,yaǵnıy 10 esege qısqarǵan .Bul toǵaylarda ósimliklerdiń 55 ten aslam túrleri ushıraydı.[1]

Respublika aymaǵında toǵaylardı óz qálpinde uslap qalıw boyınsha bir qansha ilajlar alıp barılmaqta .Usı jerde sonı aytıp ótiw lazım Ózbekiston Respublikası Prezidentiniń 2019_ jıl 30_ oktyabrdegi "2030_ jılǵa shekem bolǵan dáwirde Ózbekiston Respublikası átirap ortalıqtı qorǵaw kontseptsiyası "2021_ jıl 30_ dekabrdegi "Respublikada abadanlastırıw jumısların jedellestiriw ,terekler qáwipsizligin jáne de nátiyjeli shólkemlestiriw ilajları "tuwrısındaǵı pármanında (2021-jıl 30-dekabr PQ66 son) qollanılıw etiliwi belgilengen[2]



1- SuwretJasilmakanjoybarinanuliwmaliqkorinis .

"Jasilmákán" ulıwmamilliy joybarı tiykarında átirap ortalıq obyektlerin (hawa ,suw ,jer,topıraq, qorǵalatuǵın tábiyiy aymaqlar) insan tásiri hám de taǵı basqa unamsız tásir etiwshi faktorlardan saqlaw hám sapasın táminlew hám de sanaat óndirisi, urbanizatcıya kólemi keskin keńeyiwi hám xalıq punktlerine túsip atırǵan júkti kemeytiw mexanizimlerin jetilistiriw jobaları islep shıǵılǵan hám ámelge asırılıp atır . Jası mákán joybarı tiykarında hár jılı respublikamız aymaǵında jılına 200 million túpten artıq náller egilip atır .

Usı jerde sonı aytıp ótiw kerek qoldan egip toǵaylardı payda etiw ushın jergilikli shárayatımızǵa iykemlesken Toǵay dúziwshi ósimliklerdiń bir túri toranǵıl túrlerinen de paydalanıwǵa boladı. Toranǵıl shárayatlar hám násilshilik ózgesheliklerініń qáliplesiwine bola toranǵıl suwsızlıqqa hám duzlılıqqa shıdamlı jańa terek túrlerin jaratıw selektciyasi ushın oǵada kerekli obyekt bolıp esaplanadı.Bizde toranǵıldıń 2 túri bar.

Olardı jergilikli xalqımız ermanı toranǵıl hám kók toranǵıl dep júritedi.Toranǵıldıń bul eki túri de tuqım arqalı hám vegetatciyalıq jol menen kóbeyedi.Onıń tuqımı avgust ayında pisedi .Orta Azıyanıń qurǵaq hám ıssı ıqlımı

basqa aymaqlarǵa salıstırǵanda ósimliklerde gúllew hám miywelew fazları bir qansha erte baslanıwına shárayat jaratadı [3] .

Ámiwdárya jaǵasındaǵı "Nazarxan" Bekbay" ,"Shoqay" toǵaylarında Respo janındaǵı dárya qayırlarında bir eki jıllıq torańǵıl nállerin kóplep tayarlawǵa boladı. Onı mart hám aprel baslarında vegetatcıya dáwiri baslanbastan burın hám toqtaǵannan keyin yamasa japıraqları tolıq tùskennen keyin tayarlaǵan maqul. Bir,eki ,úsh jıllıq nállerdi tayarlaǵanda tamırlarına zıyan keltirmey ,tamıları 40_45 sm ,qaptal tamırları 25_30 sm uzınlıqta qazıp alınıwı kerek .Tamırlardıń kewip ketiwine jol qoymaw kerek . Torańǵıl qalalardaǵı ,rayon ,elatlı punktlerdegi kóshelerdi hám úy aldı ushastkasın kógallandırıw hám dekarativlik bezewde úlken áhmiyetke iye.Torańǵıl topıraqtıń ústki qatlamınıń duzlanıwına jaqsı shıdaydı hám topıraqta ıǵallılıqtıń az bolıwına da beyimlesedi .Olar suwıqqa shıdamlılıǵı menen ajıralıp turadı hám joqarı puwlandırıwshı qásiyetke iye . O.A.Endenniń (1942) maĝlumatına qaraǵanda torańǵıl japıraqları ,jas shaqaları hám qabıǵında 6,22% ten 10,8% ke shekem joqarı sapadaǵı teri iyemewshi zatlar bar .Házirgi waqıtta torańǧıl parklerde ,salmalar ,kanallar boylarında egislikleri qorǵaw liniyalarında ,kóshelerde kóplep ushırasadı . Sonlıqtan da torańǵıllardı qoldan ósiriwdi kóbirek en jaydırıw kerek dep oylaymız .Toǵaylardı keleshek áwladlarǧa saqlap qalıw olardı qorǵaw hámmemizdiń tiykarǵı wazıypamız esaplanadı. Prezidentimiz Sh .Mırziyoyev aytıp ótkenindey tek ǵana " jasıl mákan " atına emes ,ózlerimizdiń ómirimiz ,ókpemizdiń tazalıǵı ,jámiyetimizdiń salamatlıǵı ushın hár bir shańaraq hár jılı toǵaylardı payda etiwge óz úlesimizdi qosıwımız kerek .

Paydalanılǵan ádebiyat

1. Бахиев А.Б., Трешкин С.Е., Кузьмика М.В. Современное состояние тугаев Каракалпакстана и их охрана // Нукус, 1995.- 4-35б.

2.https://uz.m.wikipedia.org/wiki

3. Русанов Ф.Н. Среднеазиаткие тамарикси // Ташкент, ФАН.-1949.-12с.

BARGXO‘R QO‘NG‘IZLARI *(COLEOPTERA: CHRYSOMELIDAE)*

CHRYSOCHUS COBALTINUS ***TURI***

G.I.Matmuratova- tayanch doktoranti

B.A.Sultanov

Ajinyoz nomidagi NDPI

Respublikamizda Zoologiya va parazitologiya ilmiy-tekshirish instituti va ToshDMU ning tashkil topishi entomologiya fanining rivojlanishida katta ro‘l o‘ynaydi. Bu sohada bir qancha yirik olimlar va fan arboblari yetishib chiqdi. Bulardan V.V. Yaxontov, R.A. Olimjonov, S.A. Alimuhamedov, A.A. Bekkuzin, A.G.Davletshina va boshqalarni aytib o‘tish o‘rinlidir. O‘zbekistonda entomologiya fanini rivojlantirishda ko‘plab olimlar mehnat qilib, o‘z ilmiy ishlari bilan qishloq xo‘jalik entomologiyasi asosini yaratishdi [1;4].

Morfoligiyasi va biologiyasi. Chrysomelidae oilasiga kiruvchi Chrysochus cobaltinus turini shirinmiya, qamish, yontoq sut o‘simliklarining barglari bilan ozuqlanishini Qoraqalpog‘istonning Beruniy To‘rtkul tumanlarida kuzatdik. Asosan barcha bargxo‘r qo‘ng‘izlar harorat 9-14^{0}C dan yuqoti vaqtda harakatlana boshlaydi ayniqsa kunning ayni qizgan vaqtida foal harakat qiladi.

Cobaltinus sutli o‘t qo‘ng‘izi yoki ko‘k sut o‘ti qo‘ng‘izi, bargli qo‘ng‘izlar, Chrysomelidae xilma-xil oilasiga mansub. U o‘zining kobalt-ko‘k ekzokskeleti sharafiga nomlangan, bu uni aniqlash va ajratishni osonlashtiradi va sut o‘simliklari bilan oziqlanish tendentsiyasiga ega. Bu qo‘ng‘izlar o‘zlarining asosiy oziq-ovqat manbay sifatida sutli o‘simliklarning barglarining to‘qimalari bilan ozuqlanadi[5].

Chrysochus cobaltinus kobalt-ko‘k rangli ekzoskeletga ega. Ikkala jinsning uzunligi 6-9 millimetr (0,24-0,35 dyuym)ni tashkil qiladi, antennalari dumli.

Chrysochus cobaltinus o‘z tanasining uzunligidan bir necha baravar ko‘p o‘zini uchirish qobilyatiga ega bo‘lgan qo‘ng‘izlarga o‘xshaydi. Voyaga etganlari, lichinkalari dogbane (Apocynum) va sut o‘ti (Asclepias) turlar bilan oziqlanadi. Voyaga etganlar odatda yangi o‘sgan o‘simlikning barglari va gullari bilan oziqlanadilar. Katta jamoa paydo bo‘lganda, ular o‘simlikdan barg to‘qimalarining

katta qismini is‘temol qiladilar, bu esa o‘simlikga katta zarar etkazadi. Voyaga etganlari o‘simlikning barglarida teshiklarni eyishadi,ular bahorda kunlar isishi va o‘simlik barglari rivojlana boshlaganda paydo bo‘ladi. Bahorda bir xil, tarqalish hududidagi turli o‘simliklarga ko‘p muqdorda tarqaladi. Bir biriga yaqin tur Chrysochus cobaltinus shunga o‘xshash ammo boshqa dietaga ega ekanligi ko‘rsatildi ular, Chrysochus cobaltinus esa yuqorida ko‘rsatilgandek, kengroq ovqatlanishga ega[5]. Apocynum bargi orqali ovqatlanadigan kobalt sutli qo‘ng‘iz. Bu ikkala o‘simlik ham zaharli gilikozid molekulalari bo‘lgan kardenolidlarning ma‘lum ishlab chiqaruvchilari hisoblanadi. Ko‘pgina turlar bu juda zaharli molekulalarni yutib yuborganidan keyin omon qolalmaydi. Ushbu molekulalar Na^+/K^+ ATPaz oqsillarini tezda bog‘lashi va blokirovka qilishi mumkin. Bular bizning hujayralarimizda mavjud bo‘lib, hayvonlar inson hayoti uchun bo‘lgan oqsillardir. Ushbu oqsillarni blokirovka qilish har qanday organizim uchun halokatli bo‘lish mumkin. Ammo Chrysochus cobaltinus va Chrysochus auratus bu kardenolid molekulalariga moslashish va uning toksik ta‘siridan qochish uchun rivojlangan. Ushbu moslashuvchanlik Chrysochus cobaltinus va Chrysochus auratusda bo‘lgan mutatsiya orqali paydo bo‘lishi nazariya qilingan.

Hasharotlar faqat jinsiy yo‘l bilan ko‘payadi. Tuxumlarning katta-kichikligi, shakli va rangi har xil. Tuxumlarning shakli esa oval (ko‘plab qo‘ng‘izlar va kapalaklarda)[2;93], Ko‘proq o‘simlikning barglariga to‘dalashtirib qo‘yadi. Bunda tuxumlar hasharotning qo‘shimcha jinsiy bezlari tomonidan ishlab chiqarilgan suyuqlik bilan barglarga yopishtirib qo‘yiladi. Hasharotlar tuxumlarini ko‘proq o‘simlik ichiga yoki o‘simlik to‘qimalariga botirib qo‘yishi ham mumkin[2;93].

Lichinkasi tuzilishiga ko‘ra ko‘krak bo‘g‘inlarida uch juft oyoqlari bo‘ladigan chuvalchangsimon lichinkalar [2;102].

Chrysochus cobaltinus va Chrysochus auratus Vashington shtatida ikkala tur ham jud ko‘p uchiraydigan er uchaskasini bo‘lishadi. Shu bilan bir qatorda Qoraqalpog‘istonning Amudaryo, Beruniy, Ellikqala, va To‘rtkul tumanlarida ham uchrashini kuzatdik. Ushbu ikki qo‘ng‘iz filogenitik jihatdan o‘xshash va yaqindan

bog‘liq bo‘lganligi sababli, ikki tur o‘rtasida gibrid juftlashuv kuzatilgan. Bu hududlardagi nasllarning 15% gacha F1 duragaylari. Gibrid juftlashish introgressiya ehtimolini keltirib chiqaradi, bu duragaylanish natijasida genitik ma`lumotni bir turdan ikkinchisiga o‘tkazishdir.Keyin genlar orqali asl turga qaytish mumkin shuning uchun, bu duragaylarning ko‘pchiligini aniqlash oson, chunki ular Chrysochus cobaltinus va Chrysochus auratus oraliq rang va antenna marfolologiyasiga ega. Bu F1gibrit nasillarning aksariyati Chrysochus auratus emas balki Chrysochus cobaltinus urg‘ochi qo‘ng‘izlar tomonidan ishlab chiqariladi[3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1.X.X. Kimsanboyev, B.A. Sulaymonov, A.R. Anorbayev, A.A. Rustamov. “ENTOMOLOGIYA VA FITOPOTOLOGIYA” TOSHKENT«NISO POLIGRAF» 2017 [6]

2. S. DADAYEV, K. SAPAROV, M. JUMANOV “ENTOMOLOGIYA” NUKUS «QARAQALPAQSTAN» 2018 [40;41;93;102]

3. *Peterson, Merrill A.; Larson, Erica L.; Brassil, Margaret; Buckingham, Kati J.; Juárez, Danielle; Deas, Joseph; Mangloña, Donna; White, Michael A.; Maslan, Jonathan; Schweitzer, Andrew; Monsen, Kirsten J. (2011-05-01). "Cryptic gametic interactions confer both conspecific and heterospecific advantages in the Chrysochus (Coleoptera: Chrysomelidae) hybrid zone". Genetica. **139** (5): 663–676. doi:10.1007/s10709-011-9567-z. ISSN 1573-6857. PMID 21448684.*

4.Лопатин И. К., Константинов А. С. Материалы к фауне и систематике жуков-листоедов Кавказа // Насекомые Кавказа (фауна, систе-матика, географическое распространение). Махачкала, 1991. - С. 31-43.

5. https://en.wikipedia.org/wiki/Chrysochus_cobaltinus

QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDAGI USTYURT PLATOSINING ENTOMOFAUNASI: *Lepidoptera* TURKUMIGA MANSUB OILALAR ASOSIDA SISTEMATIK VA EKOLOGIK TAHLIL

[1]B.R.Barliqbaev, tayanch doktarant, [2]T.I.Juginisov b.f.d., professor, [3]A.A.Alimbetov assistent

[1,2]Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,Nukus sh. Qoraqalpog‘iston.

[1]barlikbaevbekmurat55@gmail.com
[2]tangirbergenzuginisov@gmail.com

Ustyurt platosi — Qoraqalpog‘iston Respublikasining g‘arbiy qismida joylashgan, yarim cho‘l va cho‘l landshaftlariga ega noyob tabiiy-geografik hudud hisoblanadi. Hududning o‘ziga xos iqlimiy sharoitlari, o‘simlik qoplami va relyefi bu yerda turli xil hasharotlar, xususan, kechasi faol bo‘ladigan *Lepidoptera* (kapalaklar) turkumiga mansub turlar yashashiga imkon yaratadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — Ustyurt platosining *Lepidoptera* faunasini o‘rganish, ularning sistematik tarkibini aniqlash va ekologik tahlilini amalga oshirishdan iborat.[1] Quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Hududda uchraydigan *Lepidoptera* turlarini aniqlash va sistematik ro‘yxatini tuzish;
- Turlar soni va oilalarga bo‘linishini aniqlash;
- Ularning yashash muhiti va ekologik xususiyatlarini tahlil qilish;
- Turlarning hududiy tarqalish xaritasini tuzish.(1-rasm)

Tadqiqot davomida Ustyurt platosidan *Lepidoptera* turkumiga mansub 7 ta oila bo‘yicha jami 12 tur Saksovul (*Haloxylon*) va yantoq (*Alhagi*) o’simliklaridan aniqlandi. [2,4]Ularning ekologik xususiyatlari va tarqalish doiralari quyidagi jadvalda va `gistogrammada` aks ettirilgan.(1-jadval)


Ustyurt platosi sharoitida yantoq (*Alhagi*) va Saksovul (*Haloxylon*) zararkunandalari tur tarkibi,tahlili va zararlik xususiyati

№	Turlar nomi	O‘simlikda uchrashi	Zararlaydigan o‘simlik a’zosi	Adabiyot ma’lumotlari	Tadqiqot ma’lumotlarmiz
Tangaqanotlilar yoki kapalaklar (Lepidoptera Linnaeus, 1758) turkumi					
Zygaenidae Latreille, 1809 oilasi					


1	*Zygaena truchmena*	+	barg	*	**
Lycaenidae Leach, 1815 oilasi					
2	*Cigaritis epargyros*	+	barg	-	**
Erebidae Leach, 1815 oilasi					
3	*Clytie illunaris*	+	barg	*	**
4	*Pericyma albidentaria*	+	barg	*	**
5	*Zekelita (Ravalita) ravalis*	+	barg	*	
Lasiocampidae Harris, 1841 oilasi					
6	*Chilena sordida*	+	barg	-	**
Crambidae Latreille, 1810 oilasi					
7	*Tegostoma baphialis*	+	barg	*	**
Noctuidae Latreille, 1809 oilasi					
8	*Aleucanitis flexuosa*	+++	barg	*	**
9	*Heliothis nubigera*	+++	barg	*	**
10	*Heliothis peltigera*	+	barg	*	**
11	*Tarachephia hueberi*	+	barg	*	**
Coleophoridae Hubner, 1825 oilasi					
12	*Coleophora alhagii*	+++	barg	*	**

Eslatma: (++++) - ommaviy; (+++) - uchinchi darajali; (++) - ikkinchi darajali; (+) - tasodifiy turlar; (*) adabiyot ma‘lumotlari; (**) tadqiqotimizda aniqlangan turlar; (-) adabiyotlarda ma‘lumot yo‘q

Ushbu turlar orasida cho‘lga moslashgan, suvga talabchan bo‘lmagan turlar ustunlik qiladi. Ayrim turlar esa yarim cho‘l zonalarida, butazorlar yaqinida kuzatildi. Eng ko‘p uchraydigan oila — *Noctuidae* bo‘lib, bu oila vakillari hududning ekologik sharoitlariga yaxshi moslashgan.[5]



Gistogramma **Ustyurt platosi *Lepidoptera* turkumi (2025 yil Mart va Aprel)**



1-rasm Ustyurt platosida *Lepidoptera* turlarining uchrashgan nuqtalari

Turlar asosan platoning shimoliy-g‘arbiy qismida, qoya va pastqam botiqlarda to‘plangan. Tarqalish xaritasi asosida ba’zi endemik yoki kam uchraydigan turlar uchun alohida muhofaza zonalarini tashkil etish zarurligi aniqlandi.[6,7]

Ustyurt platosi — *Lepidoptera* turlarining boy va xilma-xil faunasiga ega. Ushbu turlar hududning ekologik ko‘rsatkichlarini aniqlashda va monitoringida muhim bioindikator hisoblanadi. Tadqiqot davomida olingan natijalar kelgusida ekologik muhofaza ishlarida, shuningdek, bioxilma-xillikni saqlash strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Bekchanov Kh.U., Bekchanov M. Kh., Bekchanova M.Kh. The fauna of Lepidoptera Noctuoidea moths in the state biosphere reservation of the Lower Amudarya // Journal of Critical Reviews. Malaziya. 2020.- №5.- Vol 7. Issue 5. - P. 456-462

2. Korshunov, J.P., Soljanikov V. P. (1976) Diurnal Butterflies (Lepidoptera, Rhopalocera) of the Mongolian People’s Republic. The joint Soviet-Mongolian complex biological Expedition. Insects of Mongolia, 4, 403–458 [In Russian].

3. Kamelin, R.V. (2005) New Flora of Altai (aims and conception of new floristic revision) Pp. 55 – 97. In: R.V. Kamelin, M. G. Kuzev, D. V. Tikhonov, D. N. Shaulo, A. I. Shmakov & R. L. L. Viane, Flora Altaica 1. Azbuka Barnaul [In Russian].

4. Ережепов С.Е. Флора Каракалпакии, ее хозяйственная характеристика, использование и охрана. Ташкент, Изд. ФАН, УзССР, 1978. С. 65-98

5. Бекчанова М.Х.. Қуйи Амударѐ округи тунлам капалакларининг (Noctuidae, Lepidoptera) биотопик тақсимоти ва экологик гурухлари // Хоразм Маьмун Академияси Ахборотномаси. –Хива, 2021.- №5.– Б. 35-39.

6. Tshikolovets, V.V., Yakovlev, R.V., Kosterin, O.E. (2009a) The Butterflies of Altai, Sayans and Tuva (South Siberia). Kyiv-Pardubice. 374 pp., 43 pls.

7. Churkin, S.V. (2003) Taxonomic notes on Parnassius phoebus (Fabricius, 1793) with the description of a new subspecies from South-West Mongolia (Lepidoptera, Papilionidae). Atalanta, 34 (1/2), 47–53.

ҚОВУННИНГ ФОЙДАЛИ ХУСУСИЯТЛАРИ

М.Худайназарова-талаба

И.Сапарниязов-доцент

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Ўзбекистон диёри ширин қовунлари билан дунёга машҳурдир. Бу қовунлар орасида Оқуруғ, Амири, Обиноввот, Кампирчопон, Бўрикалла, Гурвак, Кўк тинни, Кўкча-588, Шакарпалак, Гулоби, Кўк каллапўш каби қовун навларининг номларини эса чет элларда ҳам билишади. Полиз ўсимликларига тарвуз, қовун ва қовоқ киради. Бу ўсимликларнинг ҳаммаси Қовоқгуллилар (Cucurbitaceae) оиласига мансубдир. Бу ўсимликларни битта гуруҳга бирлаштирадиган умумий белгилари уларнинг иссиқликка, ёруғликка, тупроқнинг физик хоссаларига, тупроқдаги озиқли моддалар миқдорига нисбатан юксак талабчанлиги ва шунга асосланган агротехникасидир.

Юртимиз қовунлари ҳақида маълумотлар жуда кўплаб асарларда айтиб ўтилган. Машҳур венгер сайёҳи Херман Вамбери “Хива қовунларига тенг келадиган қовун Осиёда эмас, дунёда ҳам топилмайди. Европаликлар унинг хушбўй таъмини тасаввур ҳам қила олмайдилар. Нон билан ейилганда эса у ажойиб таомдир”, деб таъкидлаган.

Қовун – жуда қадимий экин бўлиб, Кичик Осиё, Эрон, Афғонистон ҳамда Ўрта Осиё ҳудудлари унинг ватани ҳисобланади. Мевасидан истеъмолда янгилигича, фармацевтикада ва саноатда қайта ишлаш учун хомашё ҳамда чорвачиликда озуқа сифатида фойдаланилади. Қадимдан Марказий Осиёда халқ табобатида сил, бронхит, ревматизм, подагра, камқонлик касалликлари, юрак, жигар, атеросклероз касалликларига даво топишда қовун меваларидан фойдаланиб келинган. Қовун инсон организмининг асаб тизимига тинчлантирувчи таъсир кўрсатиши аниқланган. Қовуннинг доривор хусусиятлари замонавий тиббиёт илми томонидан ҳам тасдиқланган. Уни истеъмол қилиш кўплаб физиологик жараёнларни бошқаришга ёрдам беради. Қовун уруғи дамламалари йўтал, тери ва тош касалликларни даволашда ишлатилади. Қовунни бугунги кунда парҳезбоп маҳсулот сифатида эътироф этиляпти. Қовунни пишгпн вақтида ва қоқи тайёрланиб турли хил таомларда фойдаланилмоқда. Ундан тайёрланган мураббони ҳам саноат даражасида ишлаб чиқарилмоқда. Қадимда қовун уруғидан мой олиб, овқатга ишлатишган. Ҳозирда қовун уруғидан олинган мойни табобат ва замонавий косметика мақсадларида фойдаланилмоқда.

Қовуннинг бу даражада фойдалилиги унинг таркиби билан боғликдир. Соҳа мутахассисларининг тадқиқот натижаларига кўра диёримизда етиштириладиган қовунларнинг таркибида 85-92% сув, 8-15% қуруқ модда, 0,8% оқсил, 1,8% клетчатка, 6,2% бошқа углеводлар, 0,9% мой, 0,6% кул, 20-30 мг% аскорбин кислотаси, 0,03-0,07 мг% бошқа дармондорилар, фосфор, олтингугурт, марганец, рух, бром, темир, кальций, магний, калий, пектин каби микроэлементлар, органик ва минерал тузлар мавжуд экан. Ўзбекистон қовун навлари меваларидаги қанд моддаси миқдори 14-16% га етади. Ўзбекистон

Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг эндокринология институти ҳар бир киши ҳар куни 270 г полиз мевалари, жумладан, 100 г тарвуз, 150 г қовун ва 20 г қовоқ истеъмол қилишини тавсия этади. Қовунни бугунги кунда дунёнинг кўплаб давлатларига экспорт қилиш йўлга қўйилган бўлиб, ундан келаётган маблағ деҳқон ва фермерларимиз ҳамда томорқ ер эгалари фаровон турмуши учун хизмат қилмоқда.

Шундай экан, қовуннинг фойдали хусусиятдари ҳақида кенг оммага ҳар хил ахборот воситалари орқали етказиб бориш керак. Ҳозирги кунда уларни қайта ишашнинг замонавий ечимларини ишлаб чиқишни тақозо этади. Маҳаллий навлар генофондини сақлаб қолиш йўлларини изчил давом эттириш керак бўлади. Узоқ йўлларга ташилувчан навларни яратиш орқали экспорт қилинадиган давлатлар сонини ошириб бориш зарурдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1.М.У.Халимова Қовун ва тарвуз етиштириш Тасвир-2021
2.АГРОУЗ интернет сайти

CATALPA L. TURKUMI TURLARI URUG‘LARINI DALA SHAROITIDA UNUVCHANLIGI

Dosjanova Gauxar Daryabaevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
gawxardosjanova@gmail.com

Hozirgi vaqtda ko‘kalamzorlashtirishda yangi daraxt va buta turlarini, introduksiya qilish hisobiga o‘simlik turlarini doimiy ravishda boyitib borish zarurati mavjud.

Ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llaniladigan manzarali daraxt va buta turlarini kengaytirish, o‘lkamiz sharoitlariga moslasha oladigan nav va shakllarini izlab topish, ilmiy darajada asoslangan texnologiya bo‘yicha parvarishlashni tatbiq etish - bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi. Masalan, R.Babadjanovning ko‘rsatishicha, Qoraqalpog‘iston hududida yovvoyi holatda o‘suvchi 98 ga yaqin daraxt o‘simliklar

o‘sib, u floraning 10% ni tashkil etadi, keyingi ma'lumotlarga ko‘ra T.Otenovning ko‘rsatishicha bu turlar soni 118 turni tashkil qilmoqda.

Daraxt o‘simliklarning ko‘pchiligi bu mintaqada buta va butachalarni tashkil etib, bu esa o‘z navbatida Qoraqalpog‘iston florasini introduktsiyalangan o‘simliklar bilan to‘ldirishni taqozo etmoqda [Досжанова, 2022: 54].

O’simliklarni urug’idan ko’paytirish qulay va arzon bo’lishidan tashqari, urug’idan unib chiqqan yosh nihollar atrof-mihit ta’siriga beriluvchan bo’lganligi sababli yangi sharoitga tez moslashadi [Ёзиев, 2009: 125].

Ekish uchun mo’ljallangan urug’ yuqori ekish va nav sifatlariga ega bo’lishi zarur. Urug’larni bahorda ekiladigan bo’lsa nam qumga 3/1 nisbatda stratifikatsiya qilib ekiladi.

Tuprog‘i. Nukus shahri asosan tekisliklardan iborat bo‘lib, shimol qismida biroz past balandliklar mavjud. Tuprog‘i qumloq va qumliklardan iborat bo‘lib, er osti suvlari juda yaqin joylashgan. Ayrim joylarida er ostki suvlari 3-5 metr chuqurlikdan boshlanadi. Mazkur holat Turon provinsiyasi uchun xos bo‘lgan xususiyatlardan hisoblanadi. Tuproqning yuza qismlarida suvda tez eriydigan tuzlar ham tez uchrab turadi. Shu sababdan sur–qo‘ng‘ir tuproqlar ba’zan sho‘rxok tuproqlarga aylanadi. Qish va bahorgi yog‘inlar natijasida tuproqning ustki qoplami namlanadi. Bu esa erga to‘kilgan manzarali daraxtlar urug‘lari uchun qulay sharoit yaratadi. May oylaridan boshlab hududda yog‘ingarchilik miqdori kamayib ketish holatlari kuzatiladi. Buning natijasda tuproqdagi namlik miqdori keskin ravishda kamayib ketadi. Hududning yana o‘ziga xos jihatlaridan biri, tekisliklarning aksariyat qismida sur–qo‘ng‘ir va qumloq shag‘alli tuproqlarning mavjud ekanligidir. Sur–qo‘ng‘ir tuproqlar o‘zida organik moddalarning juda ham kam ekanligi bilan farqlanadi. Bundan tashqari Nukus shahrida yil davomida esib turadigan shamollar ham tuproqning unumdor qismiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Qishda, yanvar oyida shamolning tezligi birmuncha kuchayib boradi. Ba’zan bu holat haftalab ham davom etishi mumkin. Shu bilan bir qatorda yil davomida Eron tomondan Kaspiy orqali sovuq va issiq oqimning kelishi kuzatiladi. Mazkur oqimlar havo haroratining keskin o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi. Yilning ba’zi oylarida tuman tushishi holatlari

kuzatiladi. Juda ko‘p adabiyotlarda Nukus shahrining tabiiy iqlim sharoiti to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Xususan bu borada B.A.Ayzenshtata va boshqalar (1986) tomonidan olib borilgan kuzatishlarni alohida e’tirof etish lozim. Mazkur kuzatishlarda Nukus shahrining iqlimiga ta’sir qiluvchi 3 ta asosiy ko‘rsatkich keltirib o‘tilgan. Ya’ni bular: quyosh 52 radiatsiyasi, atmosfera sirkulyasiyasi hamda erning yuza qismi. Shu bilan bir qatorda qishning sovib ketishi, hamda yoz oylarining keskin isishi, tuproqning holatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bundan tashqari yil davomida esadigan muntazam shamollar ham, iqlimning holatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Albatta, o‘tgan asrning 60-70 yillaridan keyin, Orol dengizining qurishi ham mazkur hududga bo‘lgan ta’sirlar ko‘lamining ortib ketishiga sabab bo‘ldi.

Dala sharoitidagi urug‘lar unuvchanligining muhim jihatlaridan biri, bu sharoitdagi unuvchanlik holatini tiklashda hamda manzarali o‘simliklar ko‘chatlarida yalpi yetishtirishga qaratilgan chora tadbirlarda asqotadi. Mazkur sharoitda 6 va 12 oy davomida saqlangan urug‘larning unuvchanligi o‘rganildi. Olingan natjalarga ko‘ra, dala sharoitida unuvchanlik laboratoriya sharoitiga nisbatan bir necha barobar past bo‘ladi. Mazkur holatni tuproq-iqlimning ta’siri bilan izohlash mumkin. Ta’kidlanganidek, sutka mobaynida havo va tuproq harorati keskin o‘zgarib turadi. Kunduzi o‘rtacha havo harorati 20-25 ºC bo‘lsa, kechki paytlarda 10-14 ºC ga yetadi. Bu esa urug‘larning unib chiqishi uchun zarur haroratni o‘z vaqtida to‘plashiga hamda murtakning unishiga noqulaylik tug‘diradi.

Turlarni urug‘lari yordamida ko‘paytirish, ularninig katta plantatsiyalarini yaratish hamda ko‘p miqdorda ko‘chatlar tayyorlash imkonini beradi. Qoraqalpog‘iston sharoitida Catalpa L. turkumi turlari urug‘larining yetilishi iyul-oktabr oylariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. Ushbu daraxtlarning urug‘larini oktabr oyining o‘rtalarida yig‘ib olish maqsadga muvofiq sanaladi. Aks holda urug‘larning to‘kilib ketishi yoki har xil hasharotlar orqali zararlanishi kuzatiladi.

Dala sharoitida urug‘larning unuvchanligida unib chiqish xususiyati eng muhim biologik jarayonlardan biri hisoblanadi. Turlarning unib chiqishi bir necha ekologik omillarga bog‘liq hisoblanadi. Ayrim urug‘larning unuvchanligi bir necha

yildan, to 100 yilgacha saqlanib turadi. Qulay sharoit kelgandagina ularning unib chiqishi mumkin.

Daraxt va butalar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar hamda mavjud manbalar shuni ko‘rsatadiki, urug‘larning saqlanish borishi ortib borgan sari, urug‘larning unuchanligi kamayib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Досжанова Г.Д. Турли шўрланган шароитда Catalpa турларини интродукциялаш // “Жанубий Оролбўйи табиий ресурсларидан оқилона фойдаланиш” Х республика илмий-амалий конференция материаллари - Нукус 2022. 54 б.
2.Ёзиев Л.Ҳ., Бойсунов Б.Х. Жанубий Ўзбекистонда Мелия дарахтини интродукция қилиш натижалари ва истиқболлари. Тошкент: Фан, 2009.125 б.

QORAQALPOG‘ISTON AGROSENOZLARIDA UCHRAYDIGAN BARGXO‘R QO‘NG‘IZLARI (COLEOPTERA: CHRYSOMELIDAE) *CHRYSOLINA GRAMINIS TURNING* MORFOLOGIYASI

G.I.Matmuratova

Ajinyoz nomidagi Nukus DPI tayanch doktoranti

Entomologiya fanining rivojlanish tarixi Insoniyat hasharotlar olami bilan juda qadimdan qiziqb kelgan. Hasharotlar dastavval oziq-ovqat sifatida, keyinchalik qishloq xo‘jalik ekinlarining zararkunandalari sifatida o‘rganila boshlandi. Xalq tabobatida Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalar o‘z asarlarida hasharotlarning bir necha turlaridan turli kasalliklarni davolashda foydalanish mumkinligini qayd yetganlar.

Umumiy entomologiyada hasharotlarning tana tuzilishi, ichki organlarining ishi, hayot kechirishi, xilma-xilligi va tashqi muhit bilan bog‘liqligi yoritiladi. Shuning uchun umumiy entimologiya: morfologiya (tashqi-morfologiya) yoki eydonomiya va anatomiya (ichki-anatomiya), fiziologiya, biologiya hamda ekologiya(yashashi) va sistematika bo‘limlariga bo‘linishi mumkin.Qishloq xo‘jaligi entomologiyasi-agronomiya fani hisoblanib, u madaniy o‘simliklarni zararlovchi

hasharotlarni o‘rganib, shu asosda ularga qarashi kurash choralarini ishlab chiqadi [1].

O‘zbekistonda entomologiya fanini rivojlantirishiga o‘zlarining munosib ulushlarini qo‘shgan yirik olimlar qatoriga: A.P.Fedchenko, V.I.Plotnikov, Ye.N.Pavlovskiy, V.P.Nevskiy, M.S.Gilyarov, V.V.Yaxonotov, N.I. Xodukin, L.M. Isayev,V.P.Oshanin, R.O. Olimjonov, M.N.Narziqulov,S.N.Alimuxamedov, A.M.Muhamadiev, A.G.Davletshina, S.A.Juravskaya,G.K.Dubovskiy, Ye.I.Gan, M.Q.Qodirova,A.Sh.Hamrayev.M.X.Axmedov,X.X.Kimsanboyev, S.A.Murodov, A.M.Ummatov,B.A. Sulaymonov, Z.P.Sherban, A.A.Bekuzin, B.A.Mo`minov va boshqalarni ta‘kidlab o‘tish lozim [1].

Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston hududida uchiraydigan bir qancha bargxo‘r qo‘ng‘izlar ham bor bular ichida Chrysolina graminis (LINNAEUS 1758)

Bargxo‘r qo‘ng‘izi (Chrysolina graminis)- bargxo‘r qo‘ng‘izlar oilasining Chrysomelinae kenja turkumiga mansub qo‘ng‘izlar turi. Pirenney tog‘laridan G‘arbiy Xitoyga [1] Yevropa, Kavkaz, Kichik Osiyo, Sibir, Qozog‘iston, O‘rta Osiyo, Mo‘g‘uliston, Rossiya Uzoq Sharqi, Shimoliy Xitoy, O‘ zbekiston[5] tarqalgan. Qo‘ng‘izlarning tana uzunligi 8-11 mm [2].

Qo‘ng‘izlar baland o‘tloqli yaylovlarda yashaydi. [4] Bu turning hashoratlari quydagi oilalarga mansub o‘simliklarning barglari bilan oziqlanadi: asteraceae (oddiy o‘t, shuvoq, oddiy tansi, oddiy makkajo‘xori [5], tol o‘ti [4] hodan (dala guli), Lamiaceae (suv yalpizi,) Mentha longifoliax suaveolens). pennyroyal, [6]. chinorlar (speedwell longifolia [4] balzaaceae (impatiens glandular-invaziv tur [7])Qo‘ng‘izlar o‘simliklarning qo‘ltigi osti qismlari bo‘ylab harakatlanadi. [3] Qo`ng`izlar ucha olmaydi va odamning butun hayot aylanishi oziq ovqat o‘simliklar yonida o‘tadi [3].

Chrysolina graminis qo‘ng‘izini Qaraqalpog‘iston janubiy hududlarida ham uchirashini kuzatdik asosan Ellikqala, Beruniy To‘rtkul tumanlarida. Ular ko‘pincha o‘tlar, xususan arpa,bug‘doy,makkajo‘xori va boshqa turdagi donli o‘simliklar bilan oziqlanadi. Barglar ustida yashil dog‘lar va zararkunandalar mavjudligi sababli o‘simliklarning rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin[8].

Bu tur tuxumlrini o‘simlik barg orqa tomonlariga qo‘yadi. Tuxumlar kichik va oq rangda bo‘lib, ular tezda lichinkalarga aylanadi.Lichinkalar ham o‘simlik barglarida yashaydi va ular rivojlanib, pupa holatiga o‘tadi, keyin esa voyaga etgan shaklini oladi.

Ushbu turi ba‘zi o‘simliklarni zararlanishi sababli qishloq xo‘jaligida muammolarga olib kelish mumkin. Lekin ba‘zi hollarda, ular ekotizimda o‘zlarining tabiiy dushmanlari tomonidan muvozanatli tarzda boshqariladi.

Ular o‘simliklarning barglarida yashirincha oziqlanadi va bu o‘simliklarning o‘sishini to‘xtatish va rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatish mumkin.

Tuxumlar chiqib, kichik lichinkalarga aylanadi. Lichinkalar boshida juda kichik bo‘lib, barglarda oziqlanib, o‘simliklarning hujayralarini istimol qiladilar .

Ular odatda barglarning pastki yuzasida oziqlanadi va o‘simliklar strukturasini zararli tarzda yo‘q qiladi.

Lichinkalar yetarlicha o‘sgandan so‘ng, ular pupa bosqichiga o‘tadi. Pupa bosqichida ular qattiq bir yopiqda qoladi va bu davrda ular o‘zlarini himoya qiladi. Ushbu bosqichda ular rivojlanib, voyaga etgan shakliga o‘tishga tayyor bo‘ladi. Pupa bosqichidan so‘ng, yangi voyaga etganlar chiqadi. Chrysolina graminisning , voyaga etgan odatda metallic yashil yoki ko‘k rangga ega bo‘lib, o‘simliklarning barglarida oziqlanadi va ko‘payishni davom ettiradi. Ular boshqa o‘simliklarga ko‘chib, yangi tuxum qo‘yishga boshlaydi, bu jarayon takrorlanadi.

Chrysolina graminisning ko‘payish tezligi o‘simliklarning yoshi, ozuqa moddalarning mavjudligi va iqlim sharoitlariga bog‘liq. Odatda, bu hasharotlarning bir neshta avlodlari bir yil davomida ko‘payishi mumkin. Ular mo‘tadil sharoitida samarali rivojlanib, qisqa vaqtda ko‘payadi [4].

Adabiyotlar

1. S.Dadayev, K.Saparov, M.Jumanov. “ENTOMOLOGIYA” Nukus Qaraqalpoqaton 2018

2. ЖУКИ-ЛИСТОЕДЫ (CHRYSOMELIDAE) СРЕДНЕЙ АЗИИ И КАЗАХСТАНА И.К.ЛОПАТИН 1977 года [146с]

3.↑ Перейти обратно:[1] [2] [3] *Daniel S. Chapman, Calvin Dytham & Geoff S. Oxford.* Modelling population redistribution in a leaf beetle: an evaluation of alternative dispersal functions (англ.) // Journal of Animal Ecology.-2007.-No. 76.- P. 36-44. (недоступная ссылка)

4.↑ Перейти обратно:[1] [2] [3] *Дедюхин, Сергей Викторович.* Жуки-листоеды (Coleoptera, Chrysomelidae) ботанического сада Удмуртского университета и его окрестностей: видовой состав, биотопическое распределение, трофические связи // Вестник Удмуртского университета.-Ижевск: Удмуртский государственный университет, 2010.-Вып. 2, № 55-63.

5.↑ *Károly Vig.* Leaf beetle collection of the Mátra Museum, Gyöngyös, Hungary (Coleoptera, Chrysomelidae *sensu lato*) (англ.) //Folia Historico Naturalia Musei Matraensis. –Savaria Museum,1997.- Vol. XXII. -P. 175-201. Архивировано 9 августа 2011 года.

6.↑ Перейти обратно:[1] [2] [3] Информация о *Chrysolina graminis* (L., 1758) (англ.). BioInfo (UK). Дата обращения: 13 апреля 2011. (недоступная ссылка)

7.↑ North Yorkshire Natural Environment Day newsletter (англ.). - North Yorkshire County Council: Business and Environmental Services, 2008. - P. 1-16. (недоступная ссылка)

8.Internet ma‘lumotlari.

ZIZIPHUS JUJUBA MILL., O‘SIMLIGINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

U.T.Azilova-tayanchdoktorant
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus sh. Qoraqolpog‘iston.e-mail: azilovaulbos@gmail.com

Chilonjiyda (*Ziziphus jujuba* Mill.) yoki Xitoy xurmosi yirik oila bo‘lgan Rhamnaceae oilasining eng muhim turi bo‘lib, dunyodagi eng qadimgi o‘stiriladigan mevali daraxtlardan biridir. U Antarktidadan tashqari barcha qit’alarda kamida 48 mamlakatda tarqalgan va ayniqsa qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil chekka yerlarda

tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Foydalanish va yetishtirish tarixi 7000 yil avval neolit davriga borib taqaladi. Chilonjiyda qurg‘oqchilikka chidamliligi shuningdek, sho‘r tuproqlarga chidamliligi tufayli qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil yerlarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va o‘zining alohida afzalliklari tufayli kelajak uchun yaxshi meva hisoblanishiga loyiqdir[1-2].

Bu qadimiy o‘simlik o‘z vatani Xitoyda 4000 yildan beri ma’lum. Bu ko‘p maqsadlar uchun eng muhim tijorat yog‘ochli o‘simlikdir. Biologik xilma-xillikni oshirish, ko‘p funksiyali o‘rmon plantatsiyalarini boyitish bo‘yicha unabi o‘simligini keng miqyosda o‘stirish tavsiya etiladi. Qoraqolpog‘iston Respublikasi sharoitini inobatga olgan holda chilonjiydaning sho‘r tuproqqa chidamli turlarini ekish va bir qancha yirik mevali navlari o‘rganilib, keng miqyosda tadbiq etish nazarda tutilgan.



Botanik tavsifi. Chilonjiyda - *Ziziphus jujuba* Mill. (chilonjiyda, Xitoy finigi, zizifus, yuyuba, anab) jumrutdoshlar oilasiga (Rhamnaceae Juss.) kiruvchi subtropik meva daraxti bo‘lib (boyi 6-10 m.) tikanli daraxt. Barglari cho‘ziq tuxumsimon, tishsimon qirrali bo‘lib, qisqa bandi yordamida poya va shoxlarida ketma-ket o‘rnashgan. Mayda, sariq rangli, ko‘rimsiz gullari barg qoltig‘idan o‘sib chiqqan yarim soyabonga joylashgan. Mevasi to‘q sariq-qizil rangli, dumaloq yoki bir oz cho‘ziq, nordonshirin mazali danakli meva. Chilonjiyda iyun-iyul oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentabrda pishadi. Chilonjiyda yovvoyi holda Xitoy, Markaziy Osiyo va Kavkaz tog‘larida, ularning o‘rtaqismidagi quruq qiyaliklarda o‘sadi. O‘zbekistonda chilonjiyda yovvoyi holda To‘polang daryosi havzasida uchraydi. Xalq tabobatida chilonjiydaning bargi va mevasi ishlatiladi. Bargini o‘simlik gullaganda va mevasi pishishidan oldin yig‘iladi va soya yerda quritiladi. Mevasi yaxshi yetilib pishgandan keyin yig‘ib olinadi va ochiq havoda - quyoshda quritiladi[3; 189-195-b.];[4; 259-268-b].

Chilonjiyda gulining o‘ziga xos diagrammasi.Bunda gulkosacha barg, gultojibarg, changdon, changchi ip, urug‘chi, tugunchadan tashkil topgan. Gulda bitta tuxumdonning joylashishini ko‘rsatadi. Uning tuxumdoni yuqori tuxumdon bo‘lib, u idish ustida joylashgan gul o‘sadigan poyaning qalinlashgan qismi. Gulto‘plami shingil, gullari qosh jinsli mayda, yashil sariq rangda. Chettan changlanuvchi(Пономаренко Л.В., 2005)(1-rasm).



1-rasm. Chilonjiyda gulining anatomiyasi.

Chilonjiyda barglari shoxlarda navbatma-navbat joylashgan uning o‘rtasidan va yon tomonlarda bittadan ja‘mi uchta chiziq bargning uchigacha davom etgan.Barg pastki qismi keng va to‘mtoq cho‘qqigacha (uchi) torayib boradi. Barg plastinkasining uzunligi 3,5-4 sm, eni 1,5-2 sm chetlari tumtoq tishsimon, ustki tomoni tuksiz, yaltiroq, rangi yashil pastki tomoni och yashil, tomirlari tuk bilan qoplangan (2-rasm).

2-rasm. Chilonjiyda yaprog‘ining tuzilishi.

Chilonjiyda bargi tarkibida 0,36% saponinlar, 3,7% flavonoidlar (rutin, giperozid, kversimeritrin), 6,6% qandlar, 292,5 mg% S vitamini, smolalar, 9,46% oshlovchi moddalar, mevasida — 30% gacha qandlar, 25% gacha organik kislotalar, 3,5% flavonoidlar (rutin va boshqa), S vitamini, oshlovchi moddalar bor. Chilonjiyda (Унаби обыкновенный) - *Ziziphus jujuba* Mill., chilonjiyda mevasi qadimdan Xitoy, Kavkaz va Markaziy Osiyo xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda qo‘llanilgan. Abu Ali ibn Sino ham chilonjiydani ko‘krak og‘rig‘i, o‘pka, buyrak va siydik pufagi kasalliklarini davolash uchun ishlatilgan va mevasidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida ko‘krak og‘rig‘i va yo‘talni yumshatuvchi, yo‘tal qoldiruvchi dori sifatida, kamqonlik, astma, chechak, ich ketishi, isitma, ichak, o‘pka, jigar, buyrak va qovuq kasalliklarini davolash uchun hamda og‘riq qoldiruvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va siydik haydovchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Keyingi yillardagi ilmiy izlanishlar chilonjiyda bargi va mevasining gipotenziv (qon bosimini pasaytiruvchi) va siydik haydovchi ta’sirga ega ekanligi ilmiy tibbiyotda keng

ishlatishga tavsiya etilgan. Unabi mevasining ta’mi yoqimli, quritilgan va quritilmagan holda iste’mol qilinadi. Ayniqsa, uning mevasidan qandolatchilikda va konserva sanoatida keng foydalaniladi. Mevasidan sharbat, murabbo, ichimliklar va konservalar tayyorlanadi. Qandolatchilik sanoatida tortlar, pecheniylar va konfetlar tayyorlashda foydalaniladi[5; 91-92-b].

Xulosa qilib aytganda chilonjiyda o‘simligi tez hosilga kiradi, har yili muttasil yaxshi hosil beradi. Tuproq tipi va relefga unchalik talabchan emas. Chilonjiydaning mevasi yirik, xushbo‘y va mazali. Uning oziq-ovqat sanoatidagi ahamiyati katta. Yirik mevali navlari faqat oziq-ovqat sanoatida ishlatish maqsadida yetishtiriladi va maxsus plantatsiyalarda o‘stiriladi. Shu maqsadda unabining bir qancha yirik mevali navlari o‘rganilib,Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitiga keng miqyosida o‘stirish jarayonlari ko‘zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guo, Y. & Shan, G.The Chinese Jujube(Shanghai Scientific and TechnicalPublishers, 2010)

2. Qu, Z. & Wang, Y.Chinese Fruit Trees Record-Chinese Jujube(China ForestryPublishing House, 1993).

3. Литвинова, Т.В. Интродукция и сортоизучение зизифуса в Никитском ботаническом саду / Т.В.Литвинова.// Тр. Никитского ботанического сада. - 2010. - 132. - С. 189-195.

4. Остонакулов Т.Е., Исломов С. ва бошк. Мевачилик ва сабзавотчилик (Мевачилик).// Тошкент, 2018, - Б. 259-268.

5.E.T.Berdiyev, M.X.Hakimova, G.B.Maxmudova. O‘rmon dorivor o‘simliklari (o‘quv qoTlanma). - T.: «Sano-standart» nashri-yoti, 2016. 91-92- bet.

6. Azilova U.T. *Ziziphus jujuba* Mill., Qoraqolpog’istonda.//Andijon Qishloq Xo‘jaligi va Agrotexnologiyalar Instituti “Global iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligini innovatsion texnologiyalar asosida barqaror rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman tóplami, 2024-yil 24-25 may, Andijon.

7. Azilova U.T., Ajiev A.B. Перспектива внедрения унаби-*Ziziphus jujuba* Mill., в Республике Каракалпакстан.//Guliston Davlat Universiteti “O‘simlik

mahsulotlarini yetishtirishda kimyoviy, biotexnologik va molekulyar genetik yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami, 2024-yil 23 aprel, Guliston.

8. Azilova U., Ajiev A.B.*Ziziphus jujuba* Mill.,ni Qoraqolpog’iston Respublikasida tadbiq qilish istiqbollari.// Нукуский Государственный Педагогический Институт имени Ажинияза «Табиий фанларнинг долзарб масалалари»мавзусидагиV-халқаро илмий-назарий анжуманматериаллари ТЎПЛАМИ16 май, 2024 й. Нукус.

OCHIQ DALALARGA POMIDOR YETISHTIRISHDA YERDAN UNUMLI FOYDALANISH

Ajiniyaz nomidagi NDPI b.f.d(PhD) **Tileumurotova B**, Ajiniyaz nomidagi NDPI 3-kurs talabasi **Ashirova M**.

Nukus Davlat Pedogogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek,kambag’allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadini oshirishda eng tez natija beradigan omil bu –qishloq xo‘jaligida hosildorlikni va samaradorligini keskin oshirish ekanligini aytib o‘tdilar.SHuni hisobga olgan holda Respublikamizning sug’oriladigan yerlaridan samarali foydalanish maqsadida pomidor va dukkakli don ekinlaridan loviyani ekish qishloq xo’jaligida uchta muammoni hal qilish imkonini beradi. 1) Don yetishtirishni ko‘paytirish; 2) Aholini o‘simlik oqsili bilan taminlash muammosini hal etish; 3) Tuproq unumdorligini oshirish va tuproqni azot binan taminlash. Pomidor (Lycopersicum esculentum) ituzumdoshlar oilasiga mansub ikki pallali, 4 tadan 12tagacha gulga ega o‘simlik hisoblanadi. Mevasi shar shaklida, naviga qarab vazni 5 grammdan 500grammgacha yetishi mumkin. Pomidor butun dunyoda sevib iste’mol qilinadigan sabzavot sanaladi.O‘zbekistonda ham pomidor sabzavot ekinlari ichida ommabop va keng tarqalgan bo‘lib, ekin maydoni va yalpi hosili bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi. Uning pishgan mevasi nihoyatda lazzatliligi,parhezbopligi bilan ajralib turadi. Pomidor mevasi yangi uzilgan holida hamda tuzlangan, marinadlangan, turli salatlar holida iste’mol qilinadi. Pomidor hosilining yarmi sharbat, pyure, pasta, sous

sifatida qayta ishlanadi. Pomidorning mevasi to‘yimli mazali va shifobaxsh xususiyatlarga ega. Dukkakli don ekini hisoblangan loviya to‘yimli, lazzatli oziq-ovqat mahsulotidir. Uning urug‘i va pishmagan dukkaklari pishirib yeyiladi va konserva sanoatida ishlatiladi. Loviya boshqa dukkak turlariga qaraganda kaloriyalilik darajasi va urug‘ tarkibidagi oqsil miqdori yuqoriroq bo‘lishi bilan ajralib turadi. Loviya odatda kasallikka kamroq moyil bo‘ladi, lekin ba’zida ildiz chirishi, shuningdek, loviya novdasi va no‘xat novdasi kabi ba’zi hasharotlar zararkunandalari paydo bo‘lishi mumkin. Respublikamizda qadimdan oddiy loviya ekiladi. Ildizi — o‘q ildiz, yaxshi rivojlanadi, tuproqqa 1,5–2 m chuqurlikkacha kirib boradi. Ildizida tuganaklar rivojlanadi. Yormasi oqsilga boy, yuqori kaloriyaga ega. To‘la pishmagan dukkaklari va donlaridan konserva ishlab chiqariladi. Doni tarkibida 20—31% oqsil, 0,7-3,6% moy, 50-ye kraxmal, 2,3—7,1% kletchatka, alkil kislotalar mavjud. Poyasi chorva mollari uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi.

Yerni tayyorlash. Pomidor ekish rejalashtirilgan yerlarni tayyorlash ishlari kuz oylaridan boshlanadi. Hosildan bo‘shagan maydondagi o’simlik qoldiqlari tozalanib, mahalliy o‘g’it sochib chiqiladi. Yer maydoni 28–30 sm chuqurlikda yumshatiladi. Erta bahorda yer 14–16 sm chuqurlikda yumshatiladi. Yirik kesaklar xaskash yordamida maydalanib bir yo‘la yer tekislab olinadi, keyin 70 sm yoki 90 sm qator oralig’ida ekish uchun egatlari tortib chiqiladi. Loviya kuchli moslashuvchanlikka ega, lekin tuproq unumdorroq bo‘lsa, hosil albatta yaxshi bo‘ladi. Erni tayyorlashda, imkon qadar chuqur qazish va tuproq unumdorligini oshirish uchun asosiy o‘g’it sifatida tegishli miqdorda o‘g’it sepiladi.

Ekish muddati va sxemasi. Pomidor ko‘pincha ko‘chatida ekib o’stiriladi loviya esa urug’idan ekiladi. Dalaga aprel oyining birinchi o‘n kunligida ekiladi. Pomidorning ertapishar va o‘rtapishar navlari ochiq dalalarda 70x40 sm va 90x30 sm sxemada ekiladi. Ekilgandan so‘ng ko‘chatlar albatta sug’oriladi. 1 sotix maydonga ekish sxemasiga qarab 280–570 ta ko‘chat sarflanadi. Parvarishlash. O‘simliklarga birinchi ishlov berish ko’chatlar tutib olgach, ya’ni ekilganidan 10–12 kundan keyin boshlanadi. Bunda egatlar ichi, pushta va qatordagi ko‘chatlar orasi yengil chopiq qilinib yumshatiladi. Yengil chopiqdan so‘ng 12–15 kun o‘tgach, sug’oriladi va

oziqlantiriladi. O‘g’itlash. Pomidor yetishtirishda sof holda 1 sotix maydonga 7,6 kg sulfat ammoniy, 2,6 kg ammofos, 1,6 kg kaliy xlor o‘g’itlari beriladi. Pomidor qo‘shimcha oziqlantiriladi, bunda oksigumat, gummat natriy kabi moddalar bilan bargidan oziqlantirilsa, o‘simlikni rivojlanishi va hosildorligi ortadi. Loviya kuchli moslashuvchanlikka ega, lekin tuproq unumdorroq bo‘lsa, hosil albatta yaxshi bo‘ladi. Yerni tayyorlashda, imkon qadar chuqur qazish va tuproq unumdorligini oshirish uchun asosiy o‘g’it sifatida tegishli miqdorda o‘g’it sepiladi. Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish. Biologik usulda kuya, kuzgi tunlam va g’o‘za tunlami tuxumiga qarshi trixogramma (har bir avlodga 1 gr. dan 3 marta); qurtlariga qarshi (brakon 100 dona), so‘ruvchi zararkunandalarga qarshi oltinko‘z, oqqanotga qarshi enkarziya, makrolofis entomofaglari qo‘llaniladi. Zang kanaga qarshi oltinko‘z entomofagi yaxshi samara beradi.



Ochiq dalalarda ekilgan pomidor va loviya o‘simliklari.

Hosilni yig’ishtirish. Pomidor mevalari poyasida to’liq pishgan, lekin hali qattiq bo’lganda yetilgan hisoblanadi.Pishgan pomidor vaqtida terib olinmasa poyasidan chirishi mumkin. Hosil o’suv davri davomida qo‘lda 12-16 marta terib olinadi. Hosil dukkaklari 75—80% pishganda, dukkaklar kam chatnaydigan vaqtda yig‘iladi, xirmonda quritiladi, tozalanadi. Hosildorligi 25—40 s/ga.

Xulosa shuki, yerlardan unumli foydalanish maqsadida, tuproqni azot bilan boyitish, tuproq unumdorligini oshirish Qaraqalpog’iston yozi keskin issiq bo‘lganidan pomidor mevalarini issiqdan saqlashda(loviya palaklari), belgilangan

maydondan ikki barobar hosil olish, aholini oziq-ovqat bilan ta’minlashda,kambag’alikni qisqartirish va daromadini oshirishda pomidor va loviya o‘simligi birgalikda ekish katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O.Pratov,Shamsuvaliyeva,E.Sulaymonov,X.Axunov,,Botonika(Morfologiya,anotomiya,sistematika,geobatanika)’’Toshkent:Ta’lim-2010-y.288-b

2.X.N Atabayeva, J.B.Xudoyqulov ,,O‘simlikshunoslik’’Toshkent:Fan va texnologiya 2018-y.408-b

ECHINOCOCCUS GRANULOSUS TSESTOSANING RIVOJLANISH TSIKLLARI

M.H.Atadjanov 1-kurs, K.S. Kızılbaeva 2-kurs talaba,

G.M.Kudaybergenova, A.Uzakov 1-kurs magistrant

Ajiniyoz nomidagi NDPI, Nukus shahri. Qoraqalpog‘iston

Echinococcus granulosus Batsch,1786 tsestodasining asosiy xo‘jayinlari uy va yovvoyi yirtqich sut emizuvchi hayvonlar hisoblanadi. *E.granulosus* tsestodasi biogel’mint, bu gel’mintning rivojlanish siklidagi oraliq xo‘jayin vazifasini har turdagi tuyoqli sut emizuvchi hayvonlar bajaradi. [2; C. 42-43, 5; C. 288-298, 7; C. 61-62]. Demak *E.granulosus* tsestodasining rivojlanishidagi lichinkalik bosqichi uy va yovvoyi tuyoqli sut emizuvchi hayvonlarning organizimlariga o‘tadi.

E.granulosus tsestodasi strobilasining uzunligi 2,7-5,4 mm. Skolekslarining diametri esa 0,258-0,369 mm, so‘rg‘ichlilari 0,098-0,133 mm, xartumi 0,110-0,140 mm. Xartumida 36-40 ilmoqlari bor, ularning shakli va o‘lchami har xil. Birinchi qatordagi ilmakchalarning uzunligi 0,032-0,043 mm, ikkinchi qator 0,020-0,036 mm. Jinsiy bursa uzunligi 0,225-0,266 mm, bo‘g‘imning deyarli o‘rtasigacha boradi. Bo‘gimidagi jinsiy teshiklar uzunligi 1,271-3,175 mm va ular oldingi chetidan 0,697-1,658 mm oraliqta ochiladi. Tuxumdoni 32-40 [4; 274 s].

Urg‘ochi jinsiy bezlari bo‘g‘imining orqasida uchdan bir qismida joylashadi. Tuxumdonining oval kuraklari tor ko‘prikcha bilan bog‘langan. Sarig‘i tuxumdonining orqa tarafida, bo‘g‘imning ortgi chetlariga yaqin joylashgan. Sarig‘i va tuxumdon oralig‘ida Melisa tanachasi joylashgan. Bachodan bo‘g‘imning uzunasi bo‘ylab joylashgan bo‘ladi, yon tarafda bo‘rtmalari bor, shakli va soni har xil. Tuxumlari diametri 0,028-0,036 mm [4; 274 s].

E.granulosus tsestodasi oraliq xo‘jayini turli sut emizuvchi xayvonlar organizmida uch xafta ichida onkosfera invasion lichinka stadiyasigacha rivojlanadi. Undan keyin exinokokning itlar ichagida jinsiy rivojlangan xolatgacha yetilish muddati 7-10 xaftagacha cho‘ziladi [4; 274 s].

E.granulosus tsestodasining sistematik birligi quydagicha keltirilgan.

Plathelminthes Schneider, 1873 tipi

Cestoda Rudolphi, 1808 sinfi

Cyclophillida Beneden in Braun, 1900 turkumi

Taeniidae Ludwig, 1886 oilasi

Echinococcus Rudolphi, 1801 avlodi

A.Berdibaev [1; 156 s] malumotlariga ko‘ra *E.granulosus* tsestodasi bilan uy va yovvoyi yirtqich sut emizuvchi hayvonlarning zararlanish ko‘rsatkichi quydagicha keltirilgan. Invaziya ekstensivligi to‘liq gel’mintologik tekshirishdan o‘tkazilgan 91 ta chiyabo‘ridan 13 tasi (14,2 %), 62 ta tulkidan 9 tasi (14,5 %), 41 ta bo‘ridan 6 tasi (14,6 %), 15 ta itdan 4 tasi (26,6 %) zararlangani keltirlgan bo‘lsa, invaziya intensivlik ko‘rsatgichi 1 - 31 nusxaga to‘g‘ri kelgan. *E.granulosus* tsestodasi uy va yovvoyi yirtqich sut emizuvchi hayvonlarning ingichka bo‘lim ichaklarida parazitlik qilishi keltirib o‘tilgan.

Bu ko‘rsatkich A.Kaniyazoning [3; 107 s] malumotlariga ko‘ra *E.granulosus* (larvae) tsestodasi bilan toq tuyoqli sut emizuvchilarning jigarida, o‘pkalarida va boshqa organlarida parazitlik qilishi kuzatilgan. *E.granulosus* (larvae) tsestodasi bilan toq tuyoqlilarning zararlanish ko‘rsatkichi invaziya ekstensivligi otlar o‘rtasida 9,1%, eshaklar - 6,4% ni tashkil qilgan bo‘lsa invaziya intensivligi 1 - 7 nusxaga to‘g‘ri keldi.

D.Paluaniyazov [6; 110 s] ma’lumotlarida esa *E.granulosus* (larvae) turi bilan qo‘ylarda invaziya ekstensivligi 30,4 % ni va invaziya intensivligi 1 nusxadan 12 nusxagacha, echkilarda esa invaziya ekstensivligi 23 % ni va invaziya intensivligi 1 nusxadan 7 nusxagasha uchrashi bo‘yicha malumotlar keltirilgan. Qo‘y va eshkilarning jigari hamda o‘pkalarida *E.granulosus* (larvae) tsestodasining parazitlik qilishi keltirilgan.

Bu uchta avtor ham Qoraqalpog‘iston shoraitida o‘zlarining tadqiqot ishlarini olib borganini ko‘rishimiz mumkin. Demak uchta avtorning ham tadqiqot ishlarini umumlashtirib qaraydigan bo‘lsak *E.granulosus* tsestodasining Qoraqalpog‘iston shoraitida rivojlanish tsikilini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бердибаев А.С. Қорақалпоғистон йиртқич сут эмизувчилари (Mammalia: Carnivora) гельминтлари.: Дисс. … био. фан. фалсафа. докт. (PhD) – Нукус, 2021. - 156 с.
2. Горина Н.С. О восприимчивости различных видов плотоядных к заражению эхинококкозом и альвеококкозом // Тез. докл. научн. конф. ВОГ. – Москва, 1962. - Ч.1. – С. 42-43.
3. Каниязов А.Ж. Қорақалпоғистон тоқ туёқли ҳайвонларининг (Perissodactyla) гельминтлари.: Дисс. … био. фан. фалсафа. докт. (PhD) – Тошкент, 2020. - 107 с.
4. Козлов Д.П. Определитель гельминтов хищных млекопитающих СССР. – Москва, 1977. – 274 с.
5. Носик А.Ф. Изучение биологических особенностей возбудителей эхинококкоза домашних животных // Труды Харьковск. вет. ин-та. - Харьков, 1954. – 22 – С. 288-298.
6. Paluaniyazova D.A. Qoraqalpog‘iston mayda shoxli mollari gelmintlari (faunasi, tarqalishi, ekologiyasi).: Дисс. … био. фан. фалсафа. докт. (PhD) – Нукус, 2024. - 110 с.
7. Садыков В.М. Распространение возбудителей эхинококкоза и альвеококкоза собак и лисиц в Узбекистане // В кн.: Гельминты человека, животных и растений и борьба с ними. Изд-во АН СССР: - Москва, 1963. – С. 61-62.

ÓSPIRIMLERDIŃ RAWAJLANIW DINAMIKASIN BAHALAWDA ANTROPOMETRIYALIQÓLSHEW USILLARINIŃ ÁHMIYETI

N.B.Abdikadirova, 1-kurs magistrant, A.S.Jangabaev, b.i.f.d (PhD) doc

Berdaq atindaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti, Nókis qalası, Qaraqalpaqstan

a_jangabaev@karsu.uz

Óspirimlik jası insan ómiriniń fiziologiyalıq, morfologiyalıq hám psixologiyalıq ózgerislerge bay dáwiri bolıp tabıladı. Ádetde, óspirimlik basqıshı 10-19 jas aralıǵın óz ishine aladı jáne bul dáwirde fizikalıq rawajlanıw, deneniń ulıwma qáliplesiwi hám funkcional sistemalardıń jetilisiw processleri júz beredi.Hár bir balada bul basqıshjeketárizde ótedi, bul bolsa olardıń salamatlıq dárejesin hám rawajlanıwın bahalawda jeke metodika hám úyreniw usılların talapetedi.

Antropometriya - bul insan denesiniń ólshemleri hám proporsiyaların úyrenetuǵın ilmiy izertlew usılı bolıp, fizikalıq rawajlanıw dárejesin anıqlawda keń qollanıladı.Jasqa tiyisli morfofunkcional rawajlanıw dinamikası antropometriyalıq kriteryalar tiykarında bahalanǵanda, bul tekǵana salamatlıq dárejesin, bálkimsportqa jaramlılıq, miynetke uqıplılıq hám ulıwma salamat turmıs tárizine tayarlıq jaǵdayın da anıqlaw imkaniyatın beredi [Karimov,2021].

Antropometriyalıq usıllar, yaǵnıy boy, dene massası, tós qápesi sheńberi, dene massası indeksi (BMI), teri astı may qabatın ólshew,olardıń ortashakórsetkishlerin anıqlaw óspirimlerdiń biologiyalıq jası hám fiziologiyalıq jetilisiw dárejesin belgilewge járdem beredi.Bul usıllar ápiwayı hám qawipsiz bolǵanlıqtan kóp sanlı balalardı qısqa waqıt ishinde tekseriw imkaniyatın beredi. Nátiyjede,balanıń jası hám jınısına salıstırǵanda normal kórsetkishlerge muwapıqlıǵı anıqlanadı.Mısalı,dene massası indeksi (BMI) arqalı balalarda artıqsha salmaqtıń artıwı yamasa páseyiwi jaǵdayı anıqlanadı. Teri astı may qabatı kórsetkishleri bolsa may toplanıw dárejesin kórsetedi, bul bolsa endokrin mashqalaların anıqlawda paydalı bolıwı múmkin.Sol sebepli antropometriyalıqbahalaw usılları mekteplerde salamat turmıs tárizi dástúrleriniń áhmiyetli bólegine aynalǵanhám de medicina, biologiya, sport jáne basqa da tarawlarda statistikalıq analizlerdiń ilmiy tiykarın quraydı.

Túrli izertlewler hám ilmiy derekler antropometriyalıq usıllardıń ámeliy áhmiyetin tastıyıqlaydı. Atap aytqanda:Ózbekstan Respublikası Den sawlıqtı saqlaw ministrligi tárepinen alıp barılǵanbaqlawlarda, 12-16 jas aralıǵindaǵıer balalar hám qızlar arasında boyólshemihám dene massasınıń ósiwi boyınsha hár jılı ortasha 5-7 sm boy ósiwi hám 4-6 kg dene salmaǵı artıwi baqlanǵan.[Respublikada balalar salamatlıǵı boyınsha monitoring nátiyjeleri, (2023)].

Búgingi kúnde jáhán den sawlıqtı saqlaw shólkemi tárepinen islep shıǵılǵan antropometriyalıq standartlar járdeminde óspirimlerdiń rawajlanıw kórsetkishleri normal yamasa qáwipli rawajlanıw dárejeleri anıq belgilenedi hám bul standartlar ilmiy izertlew jumıslarında xalıq aralıq kriteryalar menen salıstırılıp paydalanıladı.

Ayırım ilimiy jumıslarda mısalı,Xasanova Sh.Aóz izertlewinde óspirimlerdiń normal rawajlanıwın bahalawda boy uzınlıǵı,dene massası, gewde dúzilisi sıyaqlı antropometriyalıq kriteryalar tiykarında analizler ótkergen. Avtor antropometriyalıq usıllar járdeminde bala hám óspirimlerdegi fizikalıq aktivlik dárejesi, rawajlanıw kórsetkishlerin anıqlaw múmkinshiligin atap ótken [Xasanova, 2023].

Nurjanov B.B. hám Yo’ldashev B.S. tárepinen ótkerilgen izertlewde tábiyiy hám jasalma awqatlandırıwda balalardıń antropometriyalıq kórsetkishleri (BMI, boy, salmaq, kókirek quwıslıǵı sheńberi) analiz qılınǵan. Bul izertlew nátiyjeleri antropometriyalıq ólshewler arqalı balalardıń fizikalıq rawajlanıwındaǵı ayırmashılıqlardı anıqlaw imkaniyatın bergen.Nátiyjeler óspirimlerdiń rawajlanıw dinamikasın bahalawda antropometriyalıq usıllardı qollaw zárúr ekenligin tastıyıqlaydı [Nurjanov,Yo’ldashev, 2023].

Bul maǵlıwmatlar antropometriya tek ápiwayı ólshewler emes, bálkim salamatlıq jaǵdayın bahalawda tiykarǵı indikator hám keń kólemdegi salamatlıq monıtoringı usılı ekenligin tastıyıqlaydı.Búgingi kúnde jaslar arasında artıqsha salmaq, gipodinamiya,stress jaǵdayları artıp atırǵanlıǵın esapqa alǵan halda óspirimlerdiń antropometriyalıq kórsetkishlerin tereń úyreniw arqalı olardıń salamat rawajlanıwına unamlı tásir kórsetiw, profilaktika hám den sawlıqtı saqlawǵa qaratılǵanilajlardı islep shıǵıw múmkin. Ásirese, Aral boyı aymaqlarınıń ekologiyalıq jáne social sharayatları bul máseleni jáne de aktuallastıradı. Qaraqalpaqstan

sharayatında bunday ilajlar zárúrli esaplanadı hám bul usıllardı ámeliyatda keńirek qollanıw keleshekte salamat áwladtı qáliplestiriwde ilimiy tiykar bolıp xızmet etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Karimov B. K. Jasqa tiyisli fiziologiya hám gigiyena.- Samarqand: SamDU,2021.2. O‘zbekistan Respublikasiden sawlıqtı saqlaw ministrligi.(2023). Respublikada balalar salamatlıǵı boyınsha monitoring nátiyjeleri. Tashkent.3. XasanovaSh.A. “Bolalar va o‘smirlar salomatligini jismoniy usullar bilan mustahkamlash” International Finance and Accounting Scientific Journal, 2023. https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/4554.NurjanovB.B., Yo’ldashevB.S. “Xorazm viloyatida yashovchi tabiiy va sun’iy ovqatlanishda bo‘lgan bolalardagi antropometrik ko‘rsatkichlar tahlili” Samarkand State Medical University Journal, https://www.sammu.uz/uz/article/3085

XOSH ÍYÍSLÍ SELDEREY ÓSÍMLÍGÍŃÍŃ BIOEKOLOGIYASI

[1]Saitova A.K., [2]Jumaniyazova N.Q

[1]QMU docent. [2].QMU-magistrantı.

azima_Saitova@mail.ru

Jer júzinde dárilik ósimliklerdiń 10-12 mıń túri bar ekenligi anıqlanǵan. 1000 nan artıq ósimlik túrleriniń ximiyalıq, farmakologiyalıq hám zirabarlıq qásiyetleri tekserilip kórilgen. Ózbekstanda dárilik ósimliklerdiń 700 den aslam túri bar. Solardan tábiyiy sharayatta ósetuǵın hám mádeniylestirilgen 120 ǵa jaqın ósimlik túrlerinen ilimiy hám xalıq medicinasında paydalanıladı.

2020-jıldıń 3-dekabr kúni Ministrler Kabinetiniń 2020-jıl 9-sentyabrdegi 03/1-928-sanlı tapsırmasına tiykarlanıp Awıl xojalıǵı ministrliginde tiyisli ministrlik, komitet hám shólkemler menen birgelikte "Ózbekstanda dárilik hám zirabar ósimliklerdi qorǵaw, jetistiriw, qayta islew hám tarawdıń eksport potencialın arttırıwdaǵı áhmiyetli máseleler" atamasında konferenciya ótkeriliwi belgilengen.Bul konferenciyaǵa muwapıq dárilik hám zirabar qásiyetke iye bolǵan ósimliklerdi qorǵaw,agrotexnikası mashqalaları qoyılǵan.[1]

Morfologiyalıq sıpatlaması.Apium graviolens L.- Xosh iyisli selderey – Sayamangúlliler (Apiaceae,) tuqımlasına tiyisli, biyikligi 50 sm ge shekem ósiwshi kóp jıllıq ósimlik. Iyulda gúllep, avgust-sentyabrde pisedi. Paqalı tik ósiwshi, ishi gewek, orta bóliminen baslap shaqalanǵan. Tamır aldı hám paqalınıń tómengi bóliminiń japıraqları uzın sabaqlı, pár tárizli ajıralǵan. Paqalınıń joqarǵı bólekleri úsh bólekli, kesilgen bolıp, izbe-iz jaylasqan. Japıraq bóleksheleri uzınsha yamasa lancet tárizli. Gúlleri mayda, aq reńli, quramalı sayamanǵa toplanǵan. Miywesi domalaq formadaǵı piste. Gúllegende japıraǵı terip alınıp, salqın jerde keptiriledi. Jer ústi bólimi miywe pise baslaǵanda orıp alınadı. Tamırın gúzde qazıp alıp,suw menen juwıp, ashıq jerde qurıtıladı.

Tarqalıwı. Batıs Evropa, Aziya, Hindstan, Arqa hám Qubla Amerika, Avstraliya, Jana Zelandiya, tiykarınan Evropa bóliminiń qublasında tarqalǵan. Ósimlik derlik pútkil dúnyada jetistiriledi. Ózbekistanda bolsa Tashkent, Samarqand, Namangan, Andijan, Ferǵana, Qashqadárya, Surxandáryanıń suwǵarılatuǵın jerlerinde, kanal, jap boylarınıń shetlerinde, ıǵal jerlerde ósedi [2].

Miywesi quramında efir mayı, flavanoidlar, maylar, japıraǵında efir mayı, karotin, vitamin C, B, apinin glikozidi hám basqa flavonoidlar boladı. Birinshi jılı ol japıraqların hám tamırın payda etedi, ekinshi jılı gúlleydi. Ósimlik ıǵallıqtı jaqsı kóretuǵın hám suwıqqa shıdamlı, tuqımı 3°C da (optimal - 15°C da) ónip shıǵadı, nálleri -5°C ǵa shekem suwıqqa shıday aladı.Miywelerinde furokumarinler, japıraqlarında karotin, vitamin C, apinin degen glikozid bar [3]. Orta Aziya xalıq medicinasında seldereydi pnevmoniya, bronxial astma, gepatit,jel aydawshı,bel awırıwın emlew ushın, sonday-aq sidik, ót aydawshı, qusıwdı toqtatıwshı, oraylıq nerv sistemasınıń xızmetin janlandırıwshı dárilik zat sıpatında qollanıp kelinedi [2].

Selderey tamırlarında 10 nan 20% ge shekem qurǵaq zatlar, sonnan 2-4% qumsheker, 1-2,5% shiyki zat,protein, kaliy, kalciy, fosfor; japıraqlarda l0nan 18% ge shekem qurǵaq zatlar, sonıń ishinde shama menen 1% qumsheker, 2-3% shiyki protein bar.Tamırları da, japıraqları da askorbin kislota (japıraqlarda bul vitaminniń 110 mg% ke shekem), karotin (provitamin A), Bl, B2 vitaminleri, vitamin PP, kaliy, kalciy, fosfor duzlarına bay .

Seldereyde metabolizmge, shash hám teriniń jaǵdayına jaqsı tásir kórsetetuǵın biogen elementleri hám biologiyalıq aktiv zatlar bar. Xalıq medicinasında áyemgi dáwirlerde miywelerinen dem qısqanda hám basqa da dem alıw jolları keselliklerinde paydalanǵan.

Agrotexnikası.Gúzde selderey ushın ajıratılǵan maydanda tereń qazıw jumısları alıp barıladı, bul bolsa shóplerdi joq etiwge hám topıraqta qıslap qalıwshı zıyankeslerdiń nabıt bolıwına járdem beredi. Awır saz topıraqlı jerler báhárde qayta qazıladı. Olardı gúzdegi tereń islew 8-10 sm tereńlikke jumsartıw menen almastırıladı. Báhárde jeńil uchastkalarda ıǵallıq uslanǵannan keyin topıraqtı tereń jumsartıw kerek.Seldereydiń vegetaciya dáwiri uzaq bolǵanı ushın, tiykarınan, nál usılında jetistiriledi. Bunıń sebebi de onıń tuqımı mayda, nálsheleri júdá hálsiz, nálleri áste payda boladı. Tuqımnıń óniwin tezletiw ushın tuqımdı egiwden aldın 3 sutka dawamında jıllı suwǵa salıp qoyıladı. (suwdı sutkasına keminde 2 ret almastırıp turıw kerek). Suwıǵannan keyin tuqımlar juqa qabat penen ıǵal gezleme arasına jayıladı hám ósimte payda bolganga shekem 7-10 kún ıssıda saqlanadı.Tuqım sebiwde qatarlar arası 5-8 sm. Tuqım sarplanıwı pikirovkada 1 m2 jerge 0,5-0,6 g, pikirovkasiz 1 m2 jerge 0,2 g sarıplanadı. Tuqımnıń ústine 0,5-1 sm qatarda topıraq tógiledi [2].

Selderey nállerin jetistiriw dáwirinde ósimliklerdi tárbiyalaw suwǵarıw, jumsartıw hám mikroklimattı tártipke salıwdan ibarat. Joqarı sapalı nál jetistiriwde temperatura, jaqtılıq, azıqlandırıw hám ıǵallıq sheshiwshi faktor esaplanadı. Selderey nállerin jetistiriw ushin eń jaqsı temperatura +16 +20 °C. Kúndiz maksimal temperatura +25 °C dan joqarı bolmawi, túnde +18 °C dan kóp bolmawı, minimal temperatura +5 °C dan tómen bolmawi kerek. Selderey nállerin jetistiriwde hawanıń salıstırmalı ıǵallıǵı 60-70% bolıwı kerek[4].

Kók shópler alıw ushın mólsherlengen selderey astına hár bir kvadrat metrge 4-5 kg átirapında, torf kompostı salınadı. Mineral, azotlı, kaliyli tóginler beriw múmkin. Sonıń menen birge, fosfor-kaliyli tóginlerdiń 2/3 bólegin gúzden baslap, qalǵan bólegin hám azotlı tóginlerdi báhárde topıraqtı toltırıw waqtında beriw múmkin.

Paydalanılǵan ádebiyatlar.

1. 2020-jıldıń 3-dekabr kúni Ministrler Kabinetiniń 2020-jıl 9-sentyabrdegi 03/1-928-sanlı qararı.
2. *Дудченко Л. Г., Козьяков А. С., Кривенко В. В.* Пряно-ароматические и пряно-вкусовые растения: Справочник.
3. http\bandli-selderey-ahamiyati-va-yetishtirish-texnologiyasi.pdf"
4. http\:Downloads\Yo'lchiyev Sherzodbek Oybek o'g'li.pdf".

KEMIRUVCHILAR POPULYATSIYASI SONINI PROGNOZLASH UCHUN MATEMATIK VA KOMPYUTER MODELLARI

X.L.Atadjanov

Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti Nukus sh.,

hakimatadjanov@mail.ru

Kemiruvchilar sonining kamayib yoki ko’payib ketishi ekotizm o’zgarganligidan darak beradi. Kemiruvchilar sonini baholash ekotizmni baholashning asosiy indikatori hisoblanadi.

Ko’p sondagi kemiruvchilar qishloq xo’jaligiga, o’rmon xo’jaligiga ziyon etkazadi va odamlar orasida kasallik tarqatadi. Shu sababli kemiruvchilar sonini kontrollash va ziyonni oldini olish uchun ham kemiruvchilarni ko’payish va kamayish qonuniyatlarini o’rganish kerak bo’ladi.

Kemiruvchilar ayrim yovvoyi va uy hayvonlar uchun oziq-avqot vazifasini o’taydi, tabiiy resurslarining xilma-xilligini saqlashda o’z xissasini qo’shadi. Tez ko’payuvchi va uy hayvonlari uchun oziq ovqat bo’luvchi kemiruvchilarni ko’paytirish orqali uy hayvonlari uchun oziq-ovqat tayyorlash biznesini yo’lga qo’yish mumkin.

Demak kemiruvchilar soni va tarkibini o’rganish, prognoz qilish tabiiy resurslarni boshqarishda katta ahamiyatga ega.

Ilmiy ishda kemiruvchilar populyatsiyasining ko’payish va kamayish qonuniyatlari asosida ularni tug’ish soni bo’yicha guruhlarga ajratilganda har bir

guruhdagi kemiruvchilar soni o’zgarishining matematik modelini yaratish masalasi echiladi. Bu matematik model differentsial tenglamalar sistemasi bo’lib, uning echimi juda murakkab va amalda qo’llash uchun yaroqsiz. Shu sababli uni yil kunlari bo’yicha diskretlab (1) ko’rinishdagi tenglamalar sistemasiga ega bo’ldik.

Bu model kemiruvchilarning barcha turi uchun umumiy bo’lgan matematik model bo’lib, guruhlarga ajratish soni *m,* o’lish, tug’ilish va kichik yosh guruhidan keyingi balog’at yosh guruhiga o’tish qonuniyatlari yordamida to’liq aniqlanadi.

$$\begin{cases} X_{i0}(k+1) = X_{i0}(k) - X_{i0}(k)S_0(k,k+1) - X_{i0}(k)P_{01}(k,k+1) + \\ \qquad + \alpha_i \sum_{j=1}^{m} X_{ij}(k)R_j(k,k+1)\xi_j \\ X_{i1}(k+1) = X_{i1}(k) - X_{i1}(k)S_1(k,k+1) + X_{i0}(k)P_{01}(k,k+1) - X_{i1}(k)R_1(k,k+1) \\ X_{ij}(k+1) = X_{ij}(k) - X_{ij}(k)S_j(k,k+1) + X_{ij-1}(k)R_{j-1}(k,k+1) - \\ \qquad - X_{ij}(k)R_j(k,k+1),\ j = 2,3,\ldots,m \\ X_{im+1}(k+1) = X_{im+1}(k) - X_{im+1}(k)S_{m+1}(k,k+1) + X_{im}(k)R_m(k,k+1) \end{cases} \quad (1)$$

$$i = 0,1;\ k = 1,2,\ldots,364$$


Odatda ba’zi bir yosh guruhi *j* ga tegishli kemiruvchini omon qolishi % da beriladi. Uni yordamida kemiruvchini shu guruhda o’lish qonuniyati aniqlanadi.

Tug’ilish qonuniyati kemiruvchilarning ko’payish davri bo’yicha aniqlanadi. Masalan ondatra yiliga ikki marta mart-aprel va avgust-sentyabr oylarida, sariq yumronqoziq bo’lsa, yiliga bir marta aprel-may oylari ko’payishadi. Uy sichqoni bo’lsa, yil davomida har 40 kunda tug’adi. Ko’payish davrining boshida kemiruvchilarning tug’ishlar soni sekin ko’payib boradi, davr o’rtasida eng katta qiymatiga etadi va davr oxirigacha kamayib boradi. Shu sababli kemiruvchilarning tug’ish qonuniyati parabola bo’yicha taqsimlangan deb olindi va bepushtlik ham hisobga olindi.

Kemiruvchilarning kichik yosh guruhidan keyingi balog’at yosh guruhiga o’tish qonuniyati ularning kichik yosh guruhida bo’lish davri uzunligiga bog’liq bo’lib, kemiruvchilarning tug’ilish qonuniyatini vaqt bo’yicha oldinga shu davr uzunligiga siljitish orqali olinadi.


(1) model yordamida prognozlash ko’p sondagi hisoblashlarni talab etadi. Shu sababli kemiruvchilar populyatsiyasi soni va tarkibini prognozlashning kompyuter dasturi yaratildi [1].

Dastur oynasida daslabki ma’lumotlar olingan sana va kemiruvchini turi tanlanadi (1-rasm). Tanlangan kemiruvchi turiga mos, daslabki ma’lumotlarni kiritish o’rinlari ochiladi. Kemiruvchilarni guruhi bo’yicha soni, omon qolish va bepushtlik ko’rsatkichi, jinsiy tarkibi, har bir tug’ishdagi balalari sonining eng kichik va eng katta qiymatlari kiritiladi.



1-rasm. Kemiruvchilar populyatsiyasi sonini prognozlash dasturi oynasi.


«Prognoz» tugmachasi bosilganda (1) model bo’yicha hisoblashlar amalga oshiriladi va prognoz natijasi beriladi (2-rasm).



2-rasm. Prognozlash natijalari.

Barcha prognoz natijalari dastur oynasiga joylashmaganligi sababli kemiruvchilar populyatsiyasi uchun xarakterli bo’lgan sanalardagi ma’lumotlar dastur

oynasida, daslabki sanadan yil oxirigacha bo’lgan ma’lumotlar Excel betida beriladi (3-rasm).



3-rasm. Ma’lumotlarni Excel betida berilishi.

Dastur yordamida kemiruvchilar sonini bir necha yilga prognozlash mumkin. Bu uchun birinchi yil uchun prognozlash natijalarini keyingi yil uchun daslabki ma’lumotlar deb hisoblab dasturni ishga tushirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atadjanov X.L., Mambetullaeva S.M., Utemuratova G.N. EHM dasturi uchun guvohnoma «Kemiruvchilar populyatsiyasi soni va tarkibi dinamikasini prognozlash uchun dastur». № DGU 48897, 22.03.2025 god

CHIQINDILARNI AJRATISH VA QAYTA ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA JAMOATCHILIKNING RO’LI

Xabibullaev A.J. t.f.f.d., dotsent, Yuldasheva X.R. 3-kurs talabasi

Qoraralpoq davlat universiteti, Nukus sh. Qoraqalpog’iston

xusniya989@gmail.com

Zamonaviy dunyo ko'plab muammolardan aziyat chekmoqda. Ulardan biri jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar. Atrof-muhit kuchli ifloslanishga uchrayapdi, uning asosiy sababi tabiatning oliy mavjudodi–inson. Odamlar soni har yili ortip boryapdi, sanoat natijasi bo'lgan chiqindi ham ortmoqda.

Dunyo miqyosida chiqindilar muammosi eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormoqda. Tahlillarga ko‘ra, so‘nggi yillarda maishiy va sanoat chiqindilarining yildan-yilga ortayotgani yer yuzidagi Ёekologik barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ma’lumotlarga qaraganda, hozirgi kunda chiqindilarning 900 ga yaqin turi qayd etilgan.

Dunyoda insonlar har yili 300 million tonnadan ortiq chiqindi “ishlab chiqaradi”. Bu chiqindilarning ko‘pi biologik ravishda parchalanmaydigan materiallardan iborat. Ular yer yuzasidagi ekotizimlarni ifloslantirib, tuproq, suv va havoning sifatini buzadi. Keling, qaysi chiqindi qancha muddatda chirishini bilib olaylik:

Shisha butilka – 1 mln yil, plastik ichimliklar idishlari – 450-yil, bir martali ishlatiladigan tagliklar – 500-800-yil, alyuminiy konserva – 80-200-yil, batareyalar – 100-yil, kauchukli etik – 50-80 yil, plastik stakanlar – 50 yil, teri – 50 yil, qalay konserva – 50 yil, neylon mato – 30-40 yil, charm poyabzal – 25-40 yil, yog‘och – 10-15 yil, sigaret qoldiqlari – 10-12 yil, jun kiyimlar – 1-5 yil, sut qutilari – 5 yil, arqonlar – 3-14 oy, paxta qo‘lqop – 3 oy, karton – 2 oy, apelsin yoki banan qobig‘i – 2-5 hafta, qog‘oz sochiq – 2-4 hafta muddatda chiriydi.

Shisha, metall va boshqa kimyoviy moddalar ham tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kimyoviy moddalar bilan ifloslangan suv o‘simlik va hayvonlarga katta zarar yetkazadi. Suvda yoki tuproqda yig‘ilgan toksik moddalar o‘simlik orqali hayvonlar organizmiga o‘tib, oziq-ovqat zanjiri orqali insonga ham yetib borishi mumkin. Chiqindilarning ta’siri faqat jismoniy zarar bilan cheklanib qolmaydi. Ularning atmosferaga chiqaradigan zararli gazlari ham tabiat uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, ba’zi chiqindilarni yondirganda chosil bo‘ladigan karbon dioksid va boshqa zaharli gazlar havo sifatini yomonlashtiradi va kislorod miqdorini kamaytiradi. Bu esa nafaqat inson, balki boshqa mavjudotlar uchun ham xavfli. Ayniqsa, plastik chiqindilarning ta’siri juda jiddiy: u nafaqat landshaftlarni ifloslantiradi, balki hayvonlar uchun katta xavf tug‘diradi. Plastik materiallar – paket va idishlar tabiatda parchalanmaydi, shuning uchun yillar davomida saqlanib qoladi. Plastik chiqindilarni yegan jonivor o‘lishi mumkin.

Tadqiqotlarga ko‘ra, har yili millionlab dengiz hayvonlari plastik chiqindilardan nobud bo‘ladi.

Qanday chiqindilarni saralash mumkin?



1-rasm. Chiqindi saralash idishlari

Chiqindilarni to‘g‘ri saralash ularni turli materiallarga ajratishni talab qiladi. Har xil chiqindilarni to‘g‘ri saralab, qayta ishlash orqali ularning zararli ta’sirini kamaytirish mumkin. (1-rasm) Misol uchun:

- Plastik: Plastmassa idishlar va paketlar qayta ishlanib, yangi mahsulotlarga aylantiriladi. 25 ta plastik butilkadan bir dona qishki kiyim tayyorlash mumkin.

- Qog‘oz: Eski gazetalar, qog‘oz qoplar va kartonlar qayta ishlanadi. 60 kg qog‘oz chiqindisidan 1500 ta daftar olinadi.

- Shisha: Shisha idishlar qayta ishlanib, yangi shisha mahsulotlarga aylanadi. 400 ta shisha idishdan bir uy uchun izolyatsiya materiali ishlab chiqarish mumkin.

- Alyuminiy: Metall idishlar, ayniqsa, alyuminiy qutilar qayta ishlash uchun qimmatli manbadir. 650 ta alyuminiy qutidan bir velosiped tayyorlash mumkin.

Qanday saralash kerak?

Chiqindilarni to‘g‘ri saralash ekologik muvozanatni saqlash va tabiiy resurslarni tejashda juda katta rol o‘ynaydi. Bu jarayon bir nechta oddiy qoidalarga asoslanadi:

- Chiqindilarni to‘g‘ri ajratish: Har bir turdagi chiqindi alohida qutiga tashlanishi kerak. Plastmassa, qog‘oz, shisha va metall chiqindilar maxsus ajratilgan qutilarga joylashtiriladi. Ushbu chiqindilar keyinchalik qayta ishlash zavodlariga yuborilib, yangi mahsulotlarga aylantiriladi. Masalan, 25 ta plastik butilkadan bir qishki kiyim, 650 ta alyuminiy idishdan esa bir velosiped ishlab chiqariladi.

- Chiqindilarni qayta ishlashga tayyorlash: Yuvilmagan yoki ifloslangan chiqindilarni qayta ishlash qiyin bo‘lishi mumkin. Shu sababli, shisha va plastik idishlarni tashlashdan oldin yuvib, ularni tozalash lozim.

- Maxsus rangli qutilardan foydalanish: Har bir chiqindi turi uchun alohida rangli qutilar mavjud. Masalan, yashil rang shisha uchun, sariq rang plastik uchun, ko‘k rang esa qog‘oz uchun. Ranglarga qarab chiqindilarni tashlash ularning qayta ishlash jarayonini soddalashtiradi.

Chiqindilarni saralashning ahamiyati – saralanadigan chiqindilar ulushini ko‘paytirib, qattiq chiqindilar poligonlari maydonini kamaytirishdan iborat. Muammo shundaki, hayotimizning ajralmas qismiga aylangan chiqindilarni chiqindixonaga yuborish texnologiyasini o‘zgartirish zarur. Shu sababli aholi turar va noturar joylarda QMCHni saralash tizimini joriy yetish, ularning hosil bo‘lishi oldini olib poligonga ko‘mish uchun yo‘naltiradigan chiqindi hajmini qisqartirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi PQ-4291-son qarori bilan tasdiqlangan 2019-2028-yillarda O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish Strategiyasida umumiy maydoni 1 108,6 gektarga teng 167 ta poligonni yopish va rekultivatsiya qilish bilan bir qatorda, faoliyat yuritayotgan poligonlar o‘rnida umumiy maydoni 693,3 gektarga teng 54 ta modernizatsiyalashgan poligon yaratish va umumiy maydoni 80 gektarga teng 5 ta poligon qurish vazifasi belgilangan. Rivojlangan davlatlarda chiqindilarni yoqish va ulardan muqobil energiya manbalari olish usulidan keng foydalaniladi.

Jumladan, Fransiyada qayta ishlanmaydigan chiqindilarni yoqish uchun 130 ga yaqin zavodlar mavjud. O‘z o‘rnida yoqishda hosil bo‘lgan kul yo‘l qurilishida, jarayonda hosil bo‘ladigan issiqlik esa uylarni issiqlik bilan ta’minlashda foydalaniladi. Ayrim korxonalar yer ostida joylashgan bo‘lib, ular tutun, badbo‘y hid tarqatmaydigan texnologiyalardan foydalanadi.

O‘zbekistonda esa chiqindilar qayta ishlash darajasi ancha past: 2024-yilda respublikada 14,8 mln tonna maishiy chiqindi yig‘ilib, shundan atigi 900,5 ming tonnasi (6,1% ga yaqin) qayta ishlangan. Shu jumladan, 600–700 ming tonna qog‘oz chiqindisidan bor-yo‘g‘i 185,6 ming tonnasi qayta ishlatilib, iqtisodiyotga kiritilgan.

Kelajakda bu ko‘rsatkichlarni oshirish uchun aholining o‘z vaqtida saralashga jalb etilishi, sifatli saralash tizimlari joriy qilinishi lozim. Misol uchun, Qozog‘istonda ham faoliyat ko‘rsatayotgan Eco Asar kampaniyasi doirasida 450 mingga yaqin maktab o‘quvchisi chiqindilarni alohida yig‘ish bo‘yicha 9,000 dan ortiq mashg‘ulotda ishtirok etdi.

Bundan tashqari Respublikada saralab yig‘ishda jamoatchilik ishtiroki past darajada bo‘lib, bu aholining ekologik madaniyati yetarli rivojlanmaganidan dalolat beradi. Qattiq maishiy chiqindilarni alohida yig‘ish ko‘nikmasini shakllantirish va kuchaytirish talab etiladi. Bunday chiqindilarni boshqarish masalasiga aholi va jamoatchilikning munosabatini o‘zgartirish kerak: chiqindilarni yig‘ishtirishni to‘g‘ri tashkil etish jamiyatga ham, tabiatga ham naf keltiradi.

Xulosa qilib aytganda chiqindilarni qayta ishlash juda muhim.Bu atrof-muhitni barqarorligini ta’minlash, tabiatni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni saqlashda katta yordam beradi. Jamoatchilikning faol ishtiroki chiqindilarni saralash va qayta ishlash tizimini samarali qiladi. Shunday qilib chiqindilarni saralash va qayta ishlashni oshirish uchun jamoatchilikning faol ishtiroki va muntazam axborot xabardorligi eng muhimdir. Bu borada quyidagi tavsiyalar samarali bo‘lishi mumkin. Mahalliy darajadagi tashkiliy choralar, Har bir mahallada chiqindi yig‘ish punktlari tashkil etib, aholi uchun qulay idishlar va axlat qutilari taqdim etish. Saralab yig‘ilgan chiqindilar uchun tushuntirish belgilarini joylashtirish va unda axborot plakatlari osish orqali odamlarni ogoh etish. Axborot va rag‘bat tizimi: Televideniye, internet va ijtimoiy tarmoqlarda ekologik kampaniyalarni targ‘ib qilish. Saralash bo‘yicha xatti-harakatni mukofotlash – masalan, mahalla chegaralari bo‘ylab yil yakunida eng faol jamoa yoki oila mukofotlanishi, jami “ekofuqarolik” ballari hisoblangan raqobatlarni tashkil etish.

Har bir fuqaro chiqindilarni saralash va qayta ishlash tizimiga o‘z hissasini qo‘shsa, umuman jamiyat maqsadlari amalga oshishi osonlashadi. Yuqorida keltirilgan misollar va statistika shuni ko‘rsatadiki, jamoatchilik xabardorligi va ishtiroki orqali chiqindi boshqaruvi samaradorligi sezilarli darajada oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. A. Ergashev, M.T. Yulchiyeva, O'.A. Ahmedov, A.A. Abzalov "Ekologiya " Toshkent 2010
2. D.Yo.Yormatova, X.S. Xushvaqtova "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish " Toshkent 2018
3. A.Ergashev « Umumy ekalogya» Toshkent 2003
4.***https://uznature.uz***

MURIDAE TUQIMLASI WÁKILLERINIŃ BIOEKOLOGIYASI

Jumabaeva Ayzada Azatbaevna
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogika institutı
Anıq hám tábiiy pánlerdi oqıtıw metodikası (biologiya) qánigeligi
2-basqısh magistrantı

Haywanatlar dúnyası tábiyattıń ajıralmaytuǵın bir bólimi retinde insaniyat turmısında zárúrli áhmiyetke iye. Túrlerdiń tábiyiy jasaw ortalıqlarınıń ózgerıwı tekǵana olardıń tarqalıwı, sanı hám ekologiyasınıń ayırım táreplerine, bálki olardıń áhmiyetinde de ayriqsha ózgerislerge sebep boladı.

Tıshqanlar (Muridae), kemiriwshilerdiń eń quramalı tuqımlası. Keń mániste ol 15-17 genje tuqımlastı hám 280 ge jaqın áwladtı, tar mániste 120 ǵa jaqın áwladtı óz ishine aladı. Ólshemleri kishi hám ortasha. Dene uzınlıǵı 5 ten 48 sm ge shekem, quyrıǵı uzın (dene uzınlıǵınıń yarımı yamasa odan da asıp ketedi), kóbinese jalańash, qatpa-qat (qabırshaqǵa uqsas) qatlam menen oralǵan, ayırım tereklerde jasaytuǵın túrlerinde ol túkli, ushı kishkene shotkalı [Матрасулов Ғ.Ж., Курбанова Г.С., Сипатдинова Г.А., 2023. 93b].

Afrikada, Yevroaziyada (qutb regionlarınan tısqarı), Indo-Malay regionında, Jańa Gvineya, Avstraliyada qońsılas atawlarda tarqalǵan, bir qatar túrler adamlar menen bir mákanda pútkil dúnyada ushraydı. Rossiyada 5 otryadı bar: kishi tıshqanları (*Micromys*, 1 tur), shıǵıs tıshqanları (*Apodemus*, 3 tur), toǵay tıshqanları (*Sylvaemus*, 5 tur), úy tıshqanları (*Mus*, 2 tur); krisalar (*Rattus*, 2 tur) [Jumanov M.A., Asenov G.A., Bekbergenova Z.O., Qoshanov D.E, 2020; 640 b].

Ózbekstanda tıshqanlar tuqımlasınıń 5 wákili ushrasadı: kishi toǵay tıshqanı (*Sylvaemus uralensis*), úy tıshqanı (*Mus musculus*), kúlreń krisa (*Rattus norvegicus*), Turkstan krisasi (*Rattus turkestanicus*), Jalpaq tıslı krisa (*Nesokia indica*) [Шерназаров Э.Ш. ва бошқ., 2006; 72 b].

Qaraqalpaqstan Respublikası sharayatında tıshqanlar tuqımlasına kiretuǵın joqarıda keltirilgen túrlerden tek eki túri: úy tıshqanı hám Jalpaq tıslı krisa ushraydı.

Úy tıshqanı Qubla Aral aymaǵında sinantroplıq hám tábiyiy jaǵdayda jıl dawamında yaǵnıy barlıq máwsimlerde háreket yetiwshi túr yesaplanadı. Yegislik atızlarında, dárya baylarındaǵı qalıń shemirsheklıqlarda, jıńǵıllıqlarda, qamıslıqlarda, seksewilliklerde, tik jar hám qulamalarda, yelatlı punktlerde turaq jaylarda kóplep ushırasadı. Úy tıshqanı mayda uzın quyrıqlı haywan. Dene uzınlıǵı 110 mm ge jetedi. Olardıń awqatı de hár túrli. Tábiyatta tuqım hám dán menen awqatlansa, úylerde hám úy qaptalı tamarqa jerlerinde barlıq azıq - awqat túri menen awqatlanadı. Ini júdá ápiwayı, 2-3 kiriw awızı bar, tereńligi 25-30 sm. Úy tıshqanı júdá kóbeygish hám kóp násil beredi. Tirishiligi ushın qolaylı jaǵdayda úylerde jıl dawamında da kóbeyedi. Buwazlıǵı 20 kún. Hár tuwǵanda 13-14 balaǵa deyin tuwadı [Xamroqulova Z.X, 2020; 47 b].

Qaraqalpaqstan Respublikası Ámiwdárya deltasında ushraydı. Kópshilik jaǵdaylarda Ámiwdárya deltasında Kaspiy artı dala tıshqanı (*Microtus transcaspicus*) hám Jalpaq tıslı krisa (*Nesokia indica Gray*) menen jasaw sharayatı derlik birdey bolǵan aymaqlarda da ushıratıwımız múmkin.

Jalpaq tıslı krisa dene uzınlıǵı 220 mm. Aral teńizi jaǵalawlarında, suwǵarıw kanal baylarında, qalıń qamıslıqlarda, yegislik atızlarında, baǵlarda, úylerde kóplep ushırasadı. Qolaylı jasaw jaǵdaylarında jalpaq tisli krısa jıl dawamında kóbeyedi. Ádette máwsimde 2-3 ret kóbeyip, ortasha 6 baladan tuwadı. Buwazlıq dáwiri 28 kúnge sazıladı. Alar ósimliklerdiń jer astı bólimi yaǵnıy tamır sisteması menen awqatlanıwǵa iykemlesken. Ayırım waqıtları shıbın-shirkeyler menen de awqatlanadı. Jońıshqa, salı, biyday, arpa hám iri aǵashlardıń qabıǵın hám tamırın kemiredi. Hár túrli haywan ólimtiklerinen de jetkilikli tartpaydı. Ini júdá quramalı. Bir neshe semyası qatar jaylasıp úlken maydanǵa ın qazıp, jaylawlarda ot - shóp

jıynawda, texnikadan paydalanıwda úlken qıyınshılıq tuwdıradı. Suwǵarıw ırashların tesedi. Qam gerpishten hám ılaydan salınǵan jaylardıń diywalın tesip, inge paydalanadı. Tamırın jep hár túrli miywe beretuǵın baǵlardı, aq tereklerdi qıyratadı. Gewgim túsiwi menen olardıń háreketi baslanadı [Tursunov, O.T., 2022; 237 b].

Ózbekstanda, sonıń menen birge Qaraqalpaqstan Respublikasında ushraytuǵın kemiriwshiler (Rodentia) otryadı wákilleriniń bioekologiyalıq qásiyetlerin úyreniw úlken áhmiyetke iye. Ásirese, aqırǵı jıllarda biotikalıq hám abiotikalıq faktorlardıń ózgerisleri nátiyjesinde júz berıp atırǵan transformacion processler kemiriwshilerdiń tarqalıwı hám etologiyasında arnawlı bir jılısıwlardıń júz bolıwında kórinetuǵın bolıp atır. Bunday ózgerislerdi úyreniw hám salıstırmalı tárepten analiz qılıw júdá zárúrli áhmiyetke iye bolıp esaplanadı.

Paydalanǵan ádebiyatlar

1. Шерназаров Э.Ш. ва бошқ., Ўзбекистон умуртқали ҳайвонлари. “Фан” Тошкент-2006. -172 б.

2. Jumanov M.A., Asenov G.A., Bekbergenova Z.O., Qoshanov D.E. “Qaraqalpaqstannıń haywanat dunyası” -Nókis. 2020. - 640 b.

3. Tursunov, O.T. Kemiruvchilar (Radentia) turkumini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning qisqacha sharhi. International conferences, 2022. 1(10), 235–237.

4. Xamroqulova Z.X. O‘zbekistonning shimoli-sharqiy mintaqasi kemiruvchilar (Rodentia) turkumining gelmintofaunasi, ekologiyasi va ahamiyati. b.f.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati. Nukus, 2020.-47 b.

5.Матрасулов Ғ.Ж., Курбанова Г.С., Сипатдинова Г.А. Қуйи Амударё давлат биосфера резервати кичик сутэмизувчилар фаунаси биоэкологияси. // Нукус. 2023. 92-93 –б.

ОРОЛБЎЙИ ШАРОИТИДА *XYLOSALSOLA RICHTERI* (MOQ.) AKHANI&ROALSON ЦЕНОПОПУЛЯЦИЯЛАРИНИНГ ЭКОЛОГИК-ФИТОЦЕНОТИК ТАВСИФИ

Карлыбаева М.А.[1],Адилов Б.А.[2], БалтабаевМ.Т.[1]

1 - Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти, Нукус шаҳри

karlibaevamiyassar@gmail.com

2 – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ботаника институти, Тошкент шаҳри

Оролбўйи ҳудудидаги ўсимликларни ўрганиш, уларнинг био-экологик хусусиятларини илмий асослаш ва фитомелиорация ишларига жорий қилиш ва чорвачилик соҳаларини ривожлантиришга фойдаланиш бўйича ишларни амалга ошириш катта аҳамият касб этади.

Чорвачилик соҳасини ривожлантиришда аҳамиятли бўлган, фитомелиорация ишларида ҳам кенг қўлланиладиган ўсимликлардан бири *Xylosalsola richteri*ҳисобланади. *X. richteri* - Amaranthaceae оиласига кирадиган бўйи 1 м дан 3 м гача борадиган ксерофит бута [1]. Қўйлар томонидан ўсимликнинг барглари яхши йейилади [4], йил давомида эса туялар учун озиқ ҳисобланади.

2023-2024 йилларда Шимоли-ғарбий Қизилқум ва Орол денгизи қуриган ҳудуларида тадқиқотлар амалга оширилди ва *X.richteri* нинг ценопопуляциялари ўрганилди.

Ценопопуляциялар ўрганилаётган ўсимлик жамоаларининг флористик тур таркибининг ўхшашлиги Съеренсон индекси бўйича аниқланилди [2]. Геоботаник тавсифлар ва турларнинг жамоалардаги мўллик даражасини статистик мақсадлар учун фоизга айлантирилди [3]. Оролбўйи ҳудудида ўтказилган тадқиқотлар давомида Шимоли-ғарбий Қизилқумдан *X. richteri*нинг 4 та ценопопуляцияси ва Орол денгизи қуриган туби ҳудудидан 1 та ценопопуляцияси ажратилдива улар қуйидагича: Назархон (ЦП1), Қирққиз (ЦП2), Ақпетки-1 (ЦП3), Ақпетки-2 (ЦП4) ва Орол (ЦП5).Қуйида ушбу 5 ценопопуляциянинг эколого-фитоценотик хусусиятлари келтирилади.

Назархон (ЦП1). Шимоли-ғарбий Қизилқумнинг Султонувайс тизмасининг жанубий-ғарбий шлейфи этакларида илоқли-бутазор жамоасидаажратилган (42°24'10.08" N, 59°53'30.37" E).

Тадқиқот майдони қумли ва қумлоқ тупроқлар, эол қумларидан ва бузилган қумликлар иборат.Жамоанинг тупроқ юзасини қоплаш даражаси (ҚД) 40% дан иборат. Жамоанинг флористик таркиби 36 турдан ташкил топган.

Қирққиз (ЦП2). Шимоли-ғарбий Қизилқумнинг Марказий Тасқудуқ географик пункти ҳудудида жойлашган (42°01'11" N, 61°14'59.26" E).

Жамоа жойлашган ҳудуд қумли тупроқлар, бузилган бархан қумликларидан иборат.Жамоанинг тупроқ юзасини қоплаш даражаси 65%, бу жамоа турлар сони кўплиги билан ажралиб туради, яъни 44 турдан иборат.

Ақпетки-1 (ЦП3). Шимоли-ғарбий Қизилқумнинг Тахтакўпир тумани ҳудудида Судочье-Акпетки давлат буюртмахонаси ёнида илоқли-черкезли-саксовулзор жамоаси таркибида ажратилди (43°33'23.68" N, 60°26'55.43" E).

Рельефи нотекис. Тупроғи кулранг қумли барханликлар ҳисобланиб, тупроқ юзасида чиғаноқларни учратиш мумкин. Жамоанинг тупроқ юзасини қоплаш даражаси енг юқори кўрсаткични 90% ни ташкил қилади. Флористик таркиби 40 турни ўз ичига олади.

Ақпетки-2 (ЦП4). Шимоли-ғарбий Қизилқумнинг Тахтакўпир тумани ҳудудида Судочье-Акпетки давлат буюртмахонасига яқин ҳудудда ўрганилди (43°24'51.36" N, 60°23'07.03" E).

Жамоа тарқалган ҳудуд нотекис ва мустаҳкамланган барханлардан иборат. Флористик таркиби 35 турдан иборат. Жамоанинг тупроқ юзасини қоплаш даражаси 75% ни ташкил қилади.

Орол (ЦП5). Орол денгизи қуриган тубининг энг жанубий қисми, «Тигровый хвост» тепалигидан 3,7 км шимолда жойлашган (43°57'30.41" N, 58°44'48.97" E). Рельефи текис. Тупроғи шўрли кулранг қумли ер ҳисобланади.Жамоани шакллантиришда 33 та тур иштирок этган. Жамоанинг тупроқ юзасини қоплаш даражаси 38%.

1-жадвал

Xylosalsola richteri ценопопуляциялари иштирокидаги ўсимлик жамоаларининг тавсифи

№	Турлар	ЦП1 - Назархон	ЦП2 – Қирққиз	ЦП3– Ақпетки-1	ЦП4– Ақпетки-2	ЦП5 – Орол
		Илоқли-бутазор	Бир йиллик шўракли-черкезли саксовулзор	Илоқли-черкезли-саксовулзор	Илоқли-бутали-саксовулзор	Черкезли-саксовулзор
		40%	65%	90%	75%	38%
		2	4	10	7	3
Дарахтлар						
1.	*Haloxylonpersicum*Bunge	+	30	35	30	20
2.	*Haloxylonammodendron*(C.A.Mey.) Bunge ex Fenzl			1		
3.	*Sophora conollyi* (Bunge ex Boiss.) M.Liao& Bo Xu		+	+	+	
Буталар						
4.	*Ephedra lomatolepis*Schrenk			+	+	
5.	*Ephedra strobilacea*Bunge			5	5	
6.	*Xylosalsolarichteri*(Moq.)Akhani&Roalson	15	20	25	20	10
7.	*Calligonumleucocladum*(Schrenk) Bunge		1	5	+	
8.	*Calligonumaphyllum*(Pall.) Gurke		+	5	1	
9.	*Calligonumacanthopterum*I.G.Borshch.	+	1	1	1	+
10.	*Calligonum microcarpum* I.G.Borshch.	10	+	5	5	+
11.	*Calligonum eriopodum* Bunge			+		
12.	*Tamarixhispida*Willd.			+		
13.	*Tamarixramosissima*Ledeb.		+	+		
Ярим буталар ва бутачалар						
14.	*Acanthophyllumelatius*Bunge	+	+	+	+	+
15.	*Artemisia terrae-albae*Krasch.	+	+	+	+	2
16.	*Astragalusvillosissimus*Bunge	5	+	+		+
17.	*Acanthophyllumpungens*(Bunge) Boiss.	+				
18.	*Ephedra distachya*L.	1				
19.	*Haplophyllumbungei*Trautv.		+		+	+
20.	*Xylosalsolaarbuscula*(Pall.) Tzvelev	1	1	+	+	+
21.	*Caroxylonorientale*(S.G.Gmel.) Tzvelev	+	+			+
22.	*Salsolagemmascens* (Pall.) Tzvelev					+
23.	*Halothamnussubaphyllus*(C.A.Mey.) Botsch.	+				+
24.	*Artemisia eriocarpa*Bunge		+			
25.	*Artemisia santolina*Schrenk		+			

26.	*Anabasis salsa* (Ledeb.) Benth. ex Volkens	+				+
Кўп йиллик ўт ўсимликлар						
27.	*Allium sabulosum*Steven ex Bunge	+	+	+	+	
28.	*Allium caspium*(Pall.) M.Bieb.					+
29.	*Astragaluskoelzii*Barneby		2	1	+	
30.	*Stipagrostispennata*(Trin.) De Winter			+	+	
31.	*Dianthus chinensis*L.	+	2	+	+	
32.	*Ferula assa-foetida*L.		+	+	1	+
33.	*Heliotropiumarguzioides*Kar. &Kir.	+	+	+	+	+
34.	*Stipagrostiskarelinii*(Trin. &Rupr.) H.Scholz		+	+	+	
35.	*Carexphysodes*M.Bieb.	5	+	5	10	
36.	*Alhagi pseudalhagi* subsp. kirghisorum (Schrenk) Yakovl.	+	+			+
37.	*Peganum harmala* L.	+	+			+
38.	*Karelinia caspia* (Pall.) Less.					+
Бир йиллик ўсимликлар						
39.	*Agriophyllum latifolium*Fisch. &C.A.Mey.	+	+	1	1	
40.	*Diptychocarpusstrictus*(Fisch. ex M.Bieb.) Trautv.	+		+	+	+
41.	*Eremopyrumbonaepartis*(Spreng.) Nevski	+	+	+		+
42.	*Eremopyrumorientale*(L.) Jaub. &Spach	+		+	+	+
43.	*Halogetonglomeratus*(M.Bieb.) Ledeb.	+	+			+
44.	*Ceratocarpusarenarius*L.	+	+	+		5
45.	*Ranunculus falcatus*L.	+			+	+
46.	*Salsola praecox* (Litv.) Litv.		5	+		
47.	*Salsolapaulsenii*Litv.	+	+	+	+	+
48.	*Salsola tragus* L.		1	+	+	
49.	*Suaedaaltissima*(L.) Pall.		+			+
50.	*Delphinium camptocarpum*Fisch. &C.A.Mey.	+		+	+	
51.	*Horaninovia ulicina* Fisch. & C.A.Mey.	+	+	+	+	+
52.	*Turaniaaperta* (Paulsen) Akhani		+		+	
53.	*Astragalus commixtus*Bunge	+	+		+	+
54.	*Astragalus campylorrhynchus*Fisch. &C.A.Mey.	+	+			
55.	*Euphorbia turczaninowii* Kar. &Kir.		+	+	+	
56.	*Atriplexaucheri*Moq.			+	+	
57.	*Atriplexpratovii*Sukhor.			+		
58.	*Climacopteraaralensis*(Iljin) Botsch.	+	+	+	+	
59.	*Lappula spinocarpos* (Forssk.) Asch. ex	+	+			+

	Kuntze					
60.	*Roemeria hybrid* (L.) DC.	+				+
61.	*Strigosellaturkestanica*(Litv.) Botsch.		+			
62.	*Arnebiadecumbens*(Vent.) Coss. &Kralik	+	+			+
63.	*Suaeda aralocaspica* (Bunge) Freitag & Schutze		+	+	+	
64.	*Corispermumaralocaspicum*Iljin	+	+			+

Съеренсон индекси асосида ценопопуляциялар тарқалган жамоаларнинг флористик таркибининг ўхшашлиги ўрганилди [2] (2-жадвалга каранг).

2-жадвал

Съеренсон индекси бўйича ўсимликлар жамоасининг ўхшашлик таҳлили

ЦП5	ЦП4	ЦП3	ЦП2	ЦП1	Ценопопулдяция
				1	**ЦП1**
			1	67,5	**ЦП2**
		1	69,1	55,3	**ЦП3**
	1	**82,7**	60,7	56,3	**ЦП4**
1	47,1	**43,8**	62,3	78,3	**ЦП5**

Флористик таркиби жиҳатдан **ЦП3 (Ақпетки-1)** ценопопуляциясига ўхшаш жамоа **ЦП4 (Ақпетки-2)** (82,7).

Ўсимликлар жамоаларининг флористик таркибидаги фарқ даражаси **Ақпетки-1 (ЦП3)** ва **Орол (ЦП5)** ценопопуляциялари орасида каттароқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Растительный покров Узбекистана Том II. Издательство «Фан» Узбекской ССР, Ташкент. 1973. с.52-57.

2.Sørenson, T. A Method of Establishing Groups of Equal Amplitude in Plant Sociology Based on Similarity of Species Content.

3.Чибрик Т.С. Изучение фитоценозов техногенных ландшафтов. Экатеринбург. Издательство Уральского Университета. 2014. с. 11-30.

4. БалтабаевМ.Т., ЕмбергеновМ. Mádeniy sharayatta Salsola richteri kar. (cherkez)-diń bioekologiyalıq ózgesheliklerin úyreniw// «Qubla Aral boyı

biologiyalıq hár túrliligin saqlaw, qayta tiklew hám qorǵawdıń ekologiyalıq máseleleri» atamasındaǵı Xalıq aralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya materialları I bólim, Nókis, 2018.-38-39b.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ СОДЕРЖАНИЯ МАСЛИСНОСТИ ИЗ НАДЗЕМНЫХ ЧАСТЯХ *XYLOSALSOLA RICHTERI,* ПРОИЗРАСТАЮЩЕЙ В СЕВЕРО-ЗАПАДНЫХ КЫЗЫЛКУМАХ И НА ВЫСОХШЕМ ДНЕ АРАЛЬСКОГО МОРЯ

М.А. Карлыбаева[1], М.Т. Балтабаев[1], Ф.А. Кодиралиева[2], А.А. Сиддикова[2]

[1]-Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза,

[2]-Институт химии растительных веществ им. С.Ю.Юнусова Академии наук Республики Узбекистан

Xylosalsola richteri — псаммофитный кустарник, достигающий высоты от 1 до 3 м (чаще всего 1,5–2 м). Распространен в песках Кызылкумов, Каракумов, Амударьи, а также в Иране и Афганистане [2]. *X. richteri* — кормовое, лекарственное, красильное и пескоукрепляющее растение. В литературе утверждается, что он содержит много белка и небольшое количество клетчатки [1]. Изучен белковый состав образцов растений, произрастающих в северо-западных районах Кызылкумов и в южной части высохшего дна Аральского моря [3]. В то же время приводятся сведения о наличии в его химическом составе алкалоидов, кумаринов и флавоноидов [4]. *X. richteri* в основном используется в качестве круглогодичного корма для верблюдов и овец. По этому было изучено содержание в них жира. Определение содержания масличность в *X. richteri*, произрастающем в северо-западных Кызылкумах и на высохшем дне Аральского моря

Сырую масличность определяли стандартным методом *«Определение содержания масла в растениях из надземной части методом исчерпывающей экстракции»* [5].

Образцы измельченных надземной части растения *X. richteri* тщательно перемешивали брали навеску 10 г. Навеску помещали во взвешенный экстракционный патрон и помещали его в экстрактор - аппарат Сокслета. Через водяной холодильник наливали в экстрактор необходимое количество предварительно перегнанного экстракционного бензина (фракция 75-80^{0}C).

Экстракцию масла вели в течение 20-22 часов. После полного извлечения масла приемную колбу с экстрактом масла отсоединяли, и бензин отгоняли на роторном испарителе. Остатки бензина удаляли высушиванием масла в сушильном шкафу при температуре 100-105 ^{0}C до постоянного веса.

Выход масличности *X. richteri* произрастающего в Северо-Западных Кызылкумах 2,5%, из произрастающий на высохшем дне Аральского моря 1,0%.

Использованные литературы:

1. И.В.Ларин, Кормовое растения сенокосов и пастбищ СССР Том II, Москва: Ленинград, 1951.
2. Растительный покров Узбекистана Том II, Ташкент: Фан Узбекской ССР, 1973.
3. Karlybaeva M. A., Rakhimova Sh. Kh., Azamatov A. A., Mezhlumyan L. G., Baltabaev M. T., Adilov B. A., and Abdullaev N. D. “Amino-Acid Composition of Proteins from *Xylosalsola richteri* Growing in Northwestern Kyzylkum and Under Southern Aral-Sea Conditions” *Chemistry of Natural Compounds.*, vol. 60, no. 5, pp. 1000-1002, 2024.
4. Растительные ресурсы СССР, Ленинград: Наука Ленинградское отделение, 1985.
5. M.H. Malikova, Sh.K. Khidoyatova, A.A. Siddikova, N.T. Ulchenko, R.K. Rakhmanberdyeva, S.D. Gusakova “Lipids and polysaccharides from seeds of Stachys hissarica” // *Chemistry of natural compounds*, №1, c. 39-42 (2016)

QORAQALPOG‘ISTONDAGI EKOLOGIK STRESS OMILLARI VA SPORTCHILAR ORGANIZMINING JISMONIY FAOLIYATIGA TA’SIRI

N.B.Kdirbaeva

Tayanch doktorant, Qoraqalpoq davlat universiteti. Nukush sh. Qoraqalpog'iston.
nkdirbaeva@inbox.ru

Annotatsiya:*Ushbu tezisda Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatilayotgan ekologik stress omillarining (havo changlanishi, suv tanqisligi, kimyoviy ifloslanish, radiatsiya va iqlim sharoitlari) sportchi organizmlariga ko‘rsatadigan jismoniy va fiziologik ta’sirlari chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, sportchilarning nafas olish, yurak-qon tomir, asab va gormonal tizimlariga salbiy ta’sir etuvchi omillar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, ekologik xavf muhitida sport bilan shug‘ullanuvchi shaxslar uchun zamonaviy moslashuv strategiyalari va profilaktik choralarga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur ilmiy yondashuvlar sportchilarning sog‘lig‘ini asrash, jismoniy faoliyatini optimallashtirish hamda musobaqalarga tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik stress, sportchi, fiziologik moslashuv, changlanish, suvsizlanish, ifloslanish, termoregulyatsiya, antioksidant himoya, jismoniy faoliyat.*

Sportchilar jismoniy faollikning yuqori darajasiga moslashgan bo‘lsalar-da, tashqi muhitning salbiy omillari ularning sog‘lig‘i, psixofiziologik holati va sportdagi natijalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, og‘ir ekologik sharoitda faoliyat yuritayotgan sportchilar uchun bu omillarni inkor etib bo‘lmaydi. So‘nggi yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik holatning keskin yomonlashuvi, xususan, Orol dengizining qurib borishi natijasida yuzaga kelgan ekologik falokat nafaqat butun mintaqada, balki sportchilar organizmida ham qayta tiklanish mexanizmlarining sekinlashuvi, jismoniy chidamlilikning pasayishi va immun tizimining zaiflashuvi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda[Karimova Z.,2021, №2.].

Havo tarkibining zararli chang va tuzlar bilan to‘yinganligi, ichimlik suvining sifat jihatidan pastligi, radiatsion va kimyoviy ifloslanishlarning mavjudligi, ayniqsa

yosh sportchilar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday ekologik stress omillar sportchilarning mushak faoliyati, yurak-qon tomir tizimi, nafas olish tizimi va metabolik jarayonlarida turli buzilishlarga sabab bo‘ladi. Natijada mashg‘ulot samaradorligi pasayadi, charchoqning tiklanish vaqti cho‘ziladi, sog‘liq bilan bog‘liq xavf omillari ortadi.

Qoraqalpog‘istondagi asosiy ekologik stress omillari

Qoraqalpog‘iston ekologik jihatdan O‘zbekistonning eng og‘ir hududlaridan biri hisoblanadi. Quyidagi omillar sportchilarning jismoniy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi:

1. Atmosfera changlanishi – Aralbo‘yi hududidan ko‘tarilayotgan chang va tuz zarralari nafaqat nafas olish tizimini zararlaydi, balki sportchilarda chidamlilikni pasaytiradi[Nazarov U.,2020, №4].
2. Suv tanqisligi va sifatsizligi – Ichimlik suvining iflosligi sportchilar orasida oshqozon-ichak muammolari, buyrak yuklamasining ortishi kabi holatlarga olib keladi[Raximova ,2022, №1.].
3. Kimyoviy moddalarning ko‘pligi – Qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan pestitsid va boshqa moddalarning tuproq va suv orqali inson organizmiga o‘tishi immun tizimiga salbiy ta’sir qiladi.
4. Issiq iqlim va qurg‘oqchilik – Organizmning suvsizlanishi tezlashadi, bu esa sportchilarning energiya sarfi va tiklanishiga zarar yetkazadi[Tursunov A.,2021, №3.].

1-jadval.

Qoraqalpog‘istondagi ekologik stress omillari va ularning sportchilarga ta’siri

Ekologik stress omili	Sportchi organizmiga ta’siri	Moslashuv va oldini olish chorasi
Atmosfera changlanishi	Nafas olish qiyinlashadi, o‘pka hajmi kamayadi, chidamlilik pasayadi	Himoya niqoblari, yopiq mashg‘ulotlar, o‘pka mashqlari
Suv tanqisligi va sifatsizligi	Suvsizlanish, buyrak faoliyati pasayishi, oshqozon-ichak kasalliklari	Toza suv ta’minoti, elektrolitli ichimliklar, suv sifati nazorati

Kimyoviy ifloslanish	Immunitet zaiflashadi, gormonal disbalans, allergik reaksiyalar	Antioksidantli oziqlanish, tibbiy tekshiruvlar, ekologik tozalovchi vositalar
Radiatsiya fonining yuqoriligi	Asab tizimi buzilishi, tiklanish sekinlashuvi, yurak ritmi buzilishi	Radiasiyadan himoya vositalari, adaptogen o‘simliklar, faollik monitoringi
Qurg‘oqchilik va issiqlik	Tez suvsizlanish, termoregulyatsiya buzilishi, ortiqcha energiya sarfi	Mashg‘ulot vaqtlarini optimallashtirish, salqin joyda mashg‘ulot, ko‘p suyuqlik ichish

Yuqoridagi jadvaldan ko’rinib turibdiki Qoraqalpog‘iston hududiga xos bo‘lgan asosiy ekologik stress omillari tizimli tarzda tasniflangan va ularning sportchi organizmiga ko‘rsatadigan fiziologik ta’siri ochib berilgan. Har bir omil bo‘yicha uning jismoniy faoliyatga salbiy ta’sirlari (masalan, nafas olish, suv balansining buzilishi, yurak-qon tomir va asab tizimi faoliyati susayishi) tahlil qilingan.

Shuningdek, jadvalda har bir stress omiliga nisbatan zamonaviy moslashuv usullari va oldini olish choralarining amaliy variantlari keltirilgan. Bu choralar sportchilar sog‘lig‘ini asrash, ularning mashg‘ulot jarayonini moslashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, atmosfera changlanishiga qarshi yopiq sport inshootlarida mashg‘ulot o‘tkazish, nafas mashqlari va himoya niqoblaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Jadval sportchilarning individual sog‘liq holatini inobatga olgan holda mashg‘ulot strategiyasini ishlab chiqishda, sport shifokorlari, murabbiylar va jismoniy tarbiya mutaxassislari uchun foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Sportchi organizmlari yuqori yuklamalar ostida ishlaganligi bois tashqi muhitdagi har qanday salbiy o‘zgarishga sezgir bo‘ladi. Qoraqalpog‘istondagi ekologik stress quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

-o‘pka hajmining kamayishi va nafas yetishmovchiligi

-qon aylanish tizimi yuklamasining ortishi

-jismoniy yuklamalarga bardoshlikning pasayishi

-psixofiziologik holatning buzilishi (stress, bezovtalik, uyqusizlik)

-reabilitatsiya jarayonining sekinlashuvi

Shuningdek, ekologik stress fonida sportchilarda gormonal disbalans, yurak ritmining buzilishi va mushaklarning tez charchashi kuzatiladi[Jalilov I.,2023, №2.].

Ekologik xavf ostida sportchilarni himoya qilish va ularga moslashishda quyidagi choralar muhim hisoblanadi:

Maxsus adaptatsion dasturlar – Sportchilarga iqlimga moslashish, suvsizlanishni oldini olish, immunitetni mustahkamlash bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi kerak.

Oziqlanish va gidratatsiya nazorati – Antioksidantlarga boy mahsulotlar (A, E, C vitaminlari), tabiiy suv va elektrolitlar iste'molini ko‘paytirish.

Reabilitatsiya va dam olish – Maxsus regeneratsion mashg‘ulotlar, massaj va psixologik tiklanish mashqlari.

Sog‘liq monitoringi – Ekologik xavfli hududlarda yashovchi sportchilarni har chorakda tibbiy tekshiruvdan o‘tkazish zarur.

Xulosa

Qoraqalpog‘istonda ekologik stress omillari sportchi organizmlarning jismoniy faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu omillar sportchilarning sog‘lig‘i, chidamliligi, psixologik holati va tiklanish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ekologik stressga qarshi kurashishda ilmiy yondashuvlar asosida adaptatsion strategiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Karimova Z., "Ekologik omillarning inson salomatligiga ta’siri", O‘zbekiston ekologiya jurnali, 2021, №2.

2.Nazarov U., "Aralbo‘yi ekologiyasi va sog‘liq", Tibbiyot va hayot, 2020, №4.

3.Raximova M., "Ichimlik suvining sifat ko‘rsatkichlari va ularning ta’siri", Ekologik xavfsizlik, 2022, №1.

4.Tursunov A., "Sportda adaptatsiya va iqlim omillari", Jismoniy tarbiya va sport, 2021, №3.

5. Jalilov I., "Stress omillari va sportchilarda tiklanish mexanizmlari", Tibbiyot innovatsiyalari, 2023, №2.

ОСОБЕННОСТИ МОРФОБИОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ГЛАЗЧАТОГО ГОРЧАКА В ДРЕНАЖНЫХ КАНАВАХ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Маъмурова Мохинур Хусниддиновна,

Докторант Ферганского государственного университета. e-mail: mamurovamohinur0221@gmail.com

Назаров Мухаммадрасул Шарапович. Доцент кафедры “Зоология и общая биология” Ферганского государственного университета, к.б.н. e-mail: nazarovmuhammadrasul04@gmail.com

Целенаправленные акклиматизации некоторых промысловых видов рыб в водоемы Узбекистана осуществлялось для эффективного использование естественной кормовой базы водоемов и обогащение объектов рыбоводства. При акклиматизационных работах молодь промысловых видов рыб отлавливали специальными сетями-ловушками и без должной сортировки отправляли непосредственно к месту интродукции. Например 1960-годах при вселении молоди *Hypophthalmichthys molitrix* и *Ctenopharyngodon idella* из рек Дальнего Востока в пруды рыбхозов и в естественные водоемы Узбекистана попали некоторые случайные виды рыб. Основную часть случайно завезенных рыб составлял *Hemiculter leucisculus*, *Rhodeus ocellatus*, *Pseudorasbora parva*, *Opsariichthys bidens*, *Abbotina rivularis*, *Micropercops cinctus*, *Channa argus* и *Rhinogobius* sp. [Mirabdullayev и др. 2020, 55].

Rhodeus ocellatus (Кнер, 1866) относится к отряду карпообразные (Cypriniformes), **семейству** Acheilognathidae (Bleeker). Глазчатый горчак *(Rhodeus ocellatus)* является представителями дальневосточных азиатских рек, впадающих в Тихий океан. Этот вид случайно завезен во время пересадки растительноядных видов рыб в прудовые хозяйства Узбекистана.

В наших выборках размер тело особей *Rhodeus ocellatus* было 46,8-51,9 (в среднем 49,1) мм, масса 1,6-3,2 (в среднем 2,4) г.

Таблица 1. Морфометрические показатели *Rhodeus ocellatus* в дренажных канавах Наманганской области.

	Показатели				
	В % от длины головы %	мин	мак	M±SD	CV
№	Длина головы (мм)	9,3	11,6	10,1±0,4	6,7
1	Высота тела у затылка	49,4	64,2	54,6±3,9	7,14
2	Ширина головы	39,6	49,4	44,7±3,4	7,6
3	Длина рыла	13,5	25	16,6±3,2	19,7
4	Диаметр глаз	10,3	27	16,5±4,1	25,3
5	Интерорбитальное расстояние	23,2	32,7	26,9±3,0	11,2
6	Посторбитальное расстояние	29,4	40,1	35,2±3,4	9,7
В % от длины тела					
	Стандартная длина (мм)	46,8	51,9	49,1±1,7	3,5
1	Длина головы (HL)	19,3	22,3	20,5±0,8	3,9
2	Максимальная высота тела (BDM)	36,3	45,2	39,6±2,7	6,9
3	Максимальная ширина тела (BWM)	7,05	9,8	7,9±0,8	10,4
4	Предорсальная расстояние (PRD)	47,7	54,7	51,6±2,3	4,5
5	Постдорсальное расстояние (PSD)	20,7	25,2	23,3±1,6	7,2
6	Препельвическая расстояние (PRP)	40,6	45,6	43,2±1,6	3,8
7	Преанальная длина (PRA)	56,3	61,3	59,9±1,4	2,4
8	Высота спинного плавника (DFL)	15,9	22,0	19,3±1,9	10,0
9	Длина основания спинного плавника (DFBL)	18,6	27,1	24,9±2,6	10,5
10	Длина анального плавника (AFBL)	13,7	20,6	17,2±2,1	12,4
11	Длина основания анального плавника	18,1	22,8	20,3±1,6	8,3
12	Длина грудного плавника (PFL)	13,2	18,6	15,2±1,5	10,1
13	Длина брюшного плавника (VFL)	12,1	15,1	13,3±1,0	7,6
14	Длина хвостового плавника (CFL)	22,7	26,7	25,0±1,1	4,6
15	Расстояние между грудного и брюшного плавника (PPD)	14,3	19,0	16,9±1,6	10,0

16	Расстояние между грудного и анального плавника	31,4	35,8	33,9±1,3	4,0
17	Расстояние между брюшного и анального плавника	8,3	14,8	11,9±1,6	14,0

Длина головы составляет в среднем одна пятая часть длины тела (в среднем 20,5%). Предорсальное расстояние (в среднем 51,6%) длиннее постдорсального (в среднем 23,3%). Максимальная высота тела составляет в среднем 39,6%, а препельвическое расстояние 43,2%. Посторбитальное расстояние составляет почти одна третья часть головы (в среднем 35,2%) (таблица 1).

Коэффициент вариации (CV) означает относительный степень изменчивости данного признака [Правдин, 1966, 126]. В наших выборках у *Rhodeus ocellatus* более изменчивыми признаками были диаметр глаз (25,3%) и длина рыло (19,7%) от длины головы. В % от длины тела самым изменчивым признакам был длина расстояние между брюшного и анального плавника (14,0%) и длина анального плавника (12,4%), относительно изменчивыми признаками были длина основания спинного плавника (10,5%), максимальная ширина тела (10,4%), длина грудного плавника (10,1), высота спинного плавника (10,0), расстояние между грудного и брюшного плавника (10,0%).

Изучение взаимозависимости между массой и длиной тела рыб (LWR) позволяет оценить состояние популяции каждого вида рыб, т.е. она характеризует одно из важных экологических аспектов рыб в конкретных условиях обитания. Определение LWR дает важное сведение в рыбоводческих исследовательских работах, а также важно для охраны видов рыб. Показатель *b* отражает взаимозависимость между массой и длиной тела, который указывает насколько рыба тратит энергию на прибавление веса чем на линейный рост. Если показатель *b* выше трех, это означает что рыба набирает вес больше, чем на рост, т.е. здесь можно говорить о положительном аллометрическом росте. Когда показатель *b* ниже трем, то это означает что рыба растет в длину быстрее чем ее вес т.е. здесь отрицательный аллометрический рост и это помогает рыбам избавиться от хищников [Sheraliev и др. 2019, 409].




Рис. 1. Линейно-логарифмическое выражение связи длины и массы тела *Rhodeus ocellatus* (R-коэффициент корреляции)

У *Rhodeus ocellatus* показатель *b* составлял 3.3 и коэффициент корреляции между линейным ростом и массой составлял 0,60 (рис.1). Эти данные означает, что у этого вида рыб происходить положительный аллометрический рост.

Список использованных литератур.

1. Mirabdullayev I.M., Kuzmetov A.R., Qurbonov A.R. O‘zbekiston baliqlari xilma-xilligi. Toshkent: “Classic” nashriyoti, 2020.
2. Правдин И.Ф. Руководство по изучению рыб. Москва: Изд-во «Пищевая промышленность», 1966.
3. Sheraliev B., Komilova D., Kayumova Y. Length-weight relationship and relative condition factor of Schizothorax eurystomus Kessler, 1872 from Fergana Valley. Journal of Entomology and Zoology Studies, 2019. Vol. 7(6), - P. 409-412.

CISTANCHE O‘SIMLIGINING TARQALISH AREALI, TURLARINI ANIQLASH VA BIOLOGIK FAOLLIGI

Sh.O. Masharipov 1 kurs tayanch doktorant, A.D. Matchanov k.f.d., prof., Z.A. Matrasulova 3 kurs talaba
Xorazm Ma’mun akademiyasi Xiva sh.
shokir.masharipov.78@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotlarimiz davomida *Cistanche* parazit o‘simligining tarqalish arealini, turlarni aniqlash va biologik faolligi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Mo‘g‘ul sistanxesi *Cistanche mongolika (G. Beck)*, Sariq sistanxe *Cistanche flava (C.A. Mey.) Korsh.*

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston respublikasi hududida tabiiy holda o‘sadigan dorivor o‘simlik turlari bioxilma-xilligi bilan ajralib turadi. Hozirda bu yerda 4500 tur o‘simlik o‘sadi va ularning 1200 ga yaqin turi dorivorlik xususiyatiga ega. Hozirgi kunda respublikamizda dorivor o‘simliklar yetishtirish, ularning turlarini ko‘paytirish va mahalliy o‘simlik xom ashyolari asosida tabiiy dori vositalari ishlab chiqarishga alohida e‘tibor qaratilmoqda [Masharipov, 2023: 80-88].

Cistanche – Orobanchaceae oilasiga mansub, parazit o‘simliklar turkumiga kiruvchi noyob va dorivor xususiyatlarga ega o‘simlikdir. U ko‘p yillik yarim cho‘l va cho‘l zonalarida o‘sadi. Tadqiqotning dolzarbligi, uning tabiiy resurs sifatidagi ahamiyati va dorivor potensialida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda parazit holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarga bo‘lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda, sababi ushbu o‘simliklarning noyob dorivorlik xususiyatlari mavjudligidadir.

Cistanche o‘simligi – cho‘l jensheni nomi bilan mashhur. U ko‘p kasalliklarga davo sifatida xalq tabobatida ishlatib kelinadi, jumladan: ayollar va erkaklarning jinsiy kasalliklarida, bepushtlikda, buyrak yetishmovchiligida, jigar sirrozi, oshqozon ichakda - ichak tutilishi, kabi kasalliklarda ishlatilishi mumkin. Ushbu o‘simlikning yer ostidagi tugunaklari istemol qilish bilan birga shifobaxsh eliksir sifatida qadim 1000 yillar davomida ishlatilib kelingan bo‘lsada, uni ilmiy tomondan o‘rganish 1980-yillarda boshlangan [Axmedova, 2023: 82-86].

Bugungi kunda dorivor o‘simliklardan olinadigan biologik faol moddalarni o‘rganishga katta e’tibor berilmoqda. Aynan dorivor o‘simliklar zamonaviy tibbiyotda makro- va mikroelementlarning, vitaminlar, aminokislotalar va boshqa biologik faol moddalarning oson hazm bo‘ladigan shakllarining eng istiqbolli manbai sifatida qaraladi. Shu jumladan, tibbiy amaliyotda qo‘llaniladigan ko‘plab dorivor o‘simliklarning dorivor ta’siri ularda inson tanasiga kirganda u yoki bu fiziologik ta’sirni aniqlaydigan turli xil biologik faol moddalar mavjudligi bilan bog‘liq. Ushbu fiziologik faol moddalar turli xil tarkibga ega va kimyoviy birikmalarning turli sinflariga tegishli [Tursunov, 2020: 34-37].

Mo‘g‘ul sistanxesi tarkibidagi biologik faol moddalar uning yer ustki va yer ostki qismida to‘planadi. Sistanxening yer ustki qismi gullagan davrida poyasini

bo‘ylamasiga kesib, qumlardan tozalab yig‘ib olinadi hamda ochiq va soya joyda quritiladi. O‘simlikning tarkibidagi biologik faol moddalari immun tizimini mustahkamlash, xotirani kuchaytirish, jigar sirrozi hamda bepushtlikni davolash xususiyatlariga ega. *Cistanche* o‘simligi ko‘p kasalliklarga davo va umrni uzaytirish xususiyatiga ega. *Cistanche* bo‘g‘imlardagi og‘riqlar, buyrak kasalliklarini davolash, shuningdek, asabni tinchlantirishda, ayniqsa, miya o‘simtasining oldini olishda tengi yo‘q darmon hisoblanadi [Хожиматов, 2018: 87-89].

Tadqiqot ob’yekti va uslubiyati. Kimyoviy va farmakologik tadqiqotlar nuqtai nazaridan muhim bo‘lgan *Cistanche* o‘simligini O‘zbekistonda shu paytgacha kam o‘rganilgan, ayniqsa Xorazm sharoitida o‘rganilmagan.

O‘zbekiston florasida 9 ta turi bo‘lib, barchasi parazit o‘simlik, xo‘jayin o‘simlik ildizida rivojlanadi va barglar o‘rniga qipiqlar bo‘ladi [Xojimatov, 2021: 56-59].

***Cistanche mongolika (G. Beck)* – Mo‘g‘ul sistanxesi.**

Sho‘rlangan qumlarda, daryo bo‘ylaridagi tekisliklarda va tog‘ etaklarida uchraydi. *Tamarix (djengil yoki yulg‘un)* turlarida parazitlik qiladi. Aprel-may oylarida gullaydi, iyun-iyulda meva beradi. Qizilqum, Sirdaryo va Amudaryo sohillari, Farg‘ona vodiysi, Toshkent cho‘li, Mirzacho‘l, Qarshi dashtlari o‘sadi [Камелина, 1993: 46-49].

Cistanche mongolika (G. Beck) – Mo‘g‘ul iloncho‘pi ko‘p yillik o‘t bo‘lib, bo‘yi 30-40 sm keladi. Poyasi tik o‘sadi, silindrsimon, etli. To‘pguli silindrsimon, 20-50 sm. Gulkosasi naysimon, sariq yoki oqish. Gultoji 3-8 sm gacha. Limon rang sariq yoki deyarli oq. Changchilari toj nayining ostiga birikkan. Aprel – iyun oylarida gullab urug‘laydi. Daryo bo‘ylarida o‘suvchi yulg‘unlarning ildizida parazitlik qiladi [Камелина, 1993: 46-49].

***Cistanche flava (C.A. Mey.) Korsh.* - Sariq sistanxe.**

Qumtepalarida, notekis qumlarda va sun’iy havzalarda uchraydi. *Calligonum L. (juzgun yoki qandim)* turlarida parazitlik qiladi. Aprel-mayda gullaydi, may-iyun oylarida meva beradi. Qizilqum va Amudaryo sohillarida o’sadi [Камелина, 1993: 46-49].


Botanika instituti “O‘simliklar muhofazasi va ekologiyasi” laboratoriyasi kata ilmiy hodimi N.Y. Beshko tomonidan Cistanche o‘simligining Buxoro va Xorazm viloyatlari hududida tarqalgan 2 ta turi:

1. Hozirgi kunda Xorazm viloyati Amudaryo deltasida keng tarqalgan *Mo‘g‘ul sistanxesi Cistanche mongolika (G. Beck)* (1-rasm),


2. Buxoro va Xorazm viloyatlari cho‘l hududlarida uchraydigan *Cistanche flava (C.A.Mey.) Korsh.* (2-rasm)**,** (3-rasm) turlari aniqlandi.



1-rasm. Xorazm viloyati Xonqa tumani hududida tarqalish areali va tabiiy holda o‘sayotgan Mo‘g‘ul sistanxesi Cistanche mongolika (G. Beck)



2-rasm. Buxoro viloyati Romitan tumani cho‘l hududida tarqalish areali va tabiiy holda o‘sayotgan Sariq sistanxe Cistanche flava (C.A.Mey.) Korsh.



3-rasm. Xorazm viloyati Tuproqqal’a tumanii cho‘l hududida tarqalish areali va tabiiy holda o‘sayotgan Sariq sistanxe Cistanche flava (C.A.Mey.) Korsh.

Xulosa. Cistanche o‘simligi nafaqat ekologik sharoitlarga yuqori moslashuvchanligi, balki farmakologik salohiyati bilan ham ahamiyatli resursdir. Ularning tabiiy populyatsiyalarini himoya qilish, sun’iy ko‘paytirish texnologiyalarini rivojlantirish va bioaktiv moddalarni sanoat miqyosida ajratib olish istiqbolli yo‘nalishlarni tashkil etadi. Zamonaviy molekulyar uslublar, GIS-monitoring va fitokimyoviy tahlillar birlashmasi Cistanche turlarining saqlanishini va ularning dorivor salohiyatini to‘liq ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Masharipov Sh.O., Hasanov Sh.B., Ashirov M.A. Analysis of the chemical composition of mongolian cistanche - cistanche mongolika (G. beck) // Electron journal. Actual Problems of modern Science, Education and Training (UrDU-elektron jurnal), - 2023. – 2 vol XI. – p.80-88. ISSN 2181-9750. http://khorezmscience.uz.

2. M.Sh. Axmedova, Sh.B. Hasanov, J.S. Doschanov. Cistanche avlodiga mansub (orobanchaceae) o‘simliklarning Xorazm viloyatida tarqalish hususiyatlari // Tabiiy fanlarda innovatsion yechimlar: zamonaviy tadqiqotlar va ilm-fan integratsiyasi mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Xiva shahri, 5-6-oktabr, 2023-yil. 84-86 b.

3. Tursunov J.I., Ibragimov A.A., Kurbanov B.I. Makro- i mikroelementnыy sostav Cistanche mongolica G. Beck // Universum: ximiya i biologiya. – 2020. – № 9 (75). – S. 34–37.

4. Хожиматов О.К. О запасах перспективного лекарственного растения Cistanhe salsa G.Beck.// Биоразнообразие в растительном мире Узбекистана: проблемы и достижения. - Материалы республиканской научно-практической конференции. Карши, 2018. - С. 87-89

5. O.K. Xojimatov, X.Q. Haydarov, D.T. Xamrayeva, D.A. Imomova, A.N. Xujanov O‘zbekiston dorivor o‘simliklar atlasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashryoti, 2021. – 56-59 b.

6. Р.В. Камелина. Определитель растений Средней Азии X тома, Тошкент., Издетельства «ФАН»1993. ст.46-49

САДА ҚАЙРАҒОЧНИНГ УРУҒ ҲАМДА КЎЧАТЛАРИНИНГ УНУВЧАНЛИГИНИ БАҲОЛАШ

Г.Измуратова-магистрант, И.Сапарниязов-доцент, Д.Гулимметова-талаба
Ажиниёз номидаги НДПИ

Дунё бўйлаб ҳар йили табиий ўрмонлар майдони қисқараётгани статистик маълумотлар асосида қайд этилмоқда. Бу жараёнга асосан инсонларнинг кенг профилдаги фаолияти, ёнғинлар, ердан фойдаланишнинг кенгайиши каби омиллар таъсир қилмоқда. Натижада, иқлим ўзгаришига боғлиқ миграция жараёнлари, айрим давлатларда озиқ-овқат билан боғлиқ муаммолар юзага келмоқда. Ўрмонзорларни қайта тиклаш мақсадида жаҳон миқёсида, шу жумладан Ўзбекистонда ҳам бир қатор чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. 2025 йилнинг мамлакатимизда "Атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва «яшил» иқтисодиёт йили" деб эълон қилиниши бу борада амалий ишларни жадаллаштиришга хизмат қилмоқда. Манзарали дарахтлар шаҳар муҳитини яхшилашда муҳим аҳамият касб этади. Улар аҳоли саломатлигини яхшилаш, соя бериши, кислород ва микроиқлим яратиш, шамол ва чангдан ҳимоя қилиш, визуал ва санитар таъсир кўрсатиши билан алоҳида ўрин тутади. Бу борада сада қайрағоч дарахти талабларга тўлиқ жавоб беради ва буни шаҳар ҳамда шаҳар атрофида фитодизайн мақсадларида фойдаланиш мумкин.

Тадқиқотлар Қорақалпоғистон Республикаси Тахтакўпир тумани ҳудудидаги сада қайрағоч дарахтлари асосида амалга оширилди. Кўчат экиш жараёнида томорқа ерлари танлаб олиниб, улар органик ўғитлар билан бойитилди. Экиш чуқурликлари умум қабул қилинган агрономик талабларга мувофиқ тайёрланди. Кўчатлар экилиб, унга етарлича сув қуйилди ва органик унумдор тупроқ билан ёпилди.

Манзарали дарахтларни кўпайтириш мақсадида Қорақалпоғистон Республикаси Тахтакўпир тумани ҳудудида тажриба ишларини олиб бордик. Биз сада қайрағочларнинг кўчатларини экиш учун олиб келиб, олдиндан танлаб олинган ерларга экдик. Экиш олдидан кўчат экиладиган ерни тайёрлаш ишлари

олиб борилди. Бунда биз асосан уй олди томорқа ерларининг атрофини суғориб, органик ўғитларини чириган ҳолатда аралаштирилиб қўйилди. Кейин кўчат экиладиган ерлар белгилаб олинди ва у жойларда чуқурлар қазилди. Чуқур қазиш ишлари умум қабул қилинган методик кўрсатмаларга асосан олиб борилди. Яъни, ер юзидаги дастлабки 0-20 см қатламидаги тупроқлар алоҳида томонга қўйилди ва қолган қатлам тупроқлари керакли даражадаги чуқур пайдо бўлгунча олингандан кейин бошқа томонга қўйилди. Кейинги ишимиз олиб келинган кўчатларни қазилган чуқурга қўйилди. Ундан кейинги ишлар дастлабки қазиб олинган 0-20 см даги тупроқ майин ҳолатда секин илдиз томонини ёпиш учун ишлатилди ва етарлича сув қуйилди, қуйилган сув тортилгандан кейин 0-20 см қатламдан кейинги алоҳида олинган тупроқлар усти томонга солинди. Бунинг асосий сабаби топроқнинг унумдор қатлами юза қисмида жойлашган бўлади, буни кўчатнинг илдиз қисмига солинганда кўчатлар кам стресга тушади ва унувчанлиги юқори бўлади. Кўчатдан экилган сада қайрағочларни тадқиқ қилиш ва кузатиш ишлари давом эттирилмоқда.

Тадқиқотимиз давомида сада қайрағоч дарахти уруғларининг тарқалиши ва уларнинг унувчанлиги таҳлил қилинди. Шамолсиз кунларда уруғлар асосан 30–37 м радиусда тўпланган бўлса, шамолли кунларда 200–370 метр масофада ҳам учради. Бу эса уруғ тарқалишига атроф-муҳитдаги ўсимликлар, релъеф ва шамол йўналиши таъсирини кўрсатганлигидан далолат беради.

Сада қайрағоч уруғларнинг инсонлар яшаши учун қурилган уйлари пойдевори атрофида юқори унувчанликка эга эканлиги кузатилди. Бунга асосий сабаб сифатида сув йиғиладиган чуқурчалар, намликнинг сақланиши ва уруғлар учун қулай шароитнинг мавжуд эканлиги аниқланди.

Сада қайрағоч дарахтини кўчат ва уруғ орқали кўпайтириш имконияти мавжуд. Кўчатдан кўпайтирилганда унинг тезроқ ўсиши ва юқори даражадаги унувчанлиги таъминланади. Уруғдан кўпайтирилганда дастлабки босқичда нимжон кўринган ниҳоллар кейинчалик мустаҳкамланади. Тўғри агротехника талабларига амал қилиш орқали сада қайрағоч дарахтини шаҳар, шаҳар атрофи ва қишлоқ ҳудудларида кенг кўламда кўпайтириш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Абдуллаев, Қ , Ташмаматов, Ш. (2020). Ўзбекистонда кўкаламзорлаштиришнинг экологик аҳамияти. Ўзбекистон биология журнали, №2, 33-36.

2. Бабаев Ш.Ж, Норқобилов А.Н. (2019). Ўсимликлар физиологияси ва экологик хусусиятлари. Тошкент: Фан.

3. Каримов, Ф.Х. (2018). Шаҳар муҳитида манзарали дарахт турларини танлашдаги экологик мезонлар. Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш журнали, №4, 45–49.

4. Давронов, Б.Х. (2016). Ўрмончилик ва кўкаламзорлаштириш. Тошкент: Агробизнес нашриёти.

5. Саидов, Н. (2021). Қорақалпоғистонда автохтон манзарали ўсимликлар ва уларнинг кўпайтириш усуллари. Нукус: Қорақалпоғистон нашри.

УДК 576.895.1

QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA QO‘YLARNING CESTODALAR BILAN MAVSUMIY ZARARLANISH DARAJASI

D.A.Paluaniyazova, b.f.f.d.(PhD) docent v.b., K.K.Erjigitova, 4-kurs talabasi

Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus sh. Qoraqalpog‘iston

dilbarpaluaniazova@gmail.com;

Kirish. Ma’lumki, yil fasllari hayvonlarni, jumladan mayda shoxli mollarni gelmintlar bilan zararlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham hayvonlarda yil fasllariga qarab ularda uchraydigan gelmintlar tur tarkibi hamda ayrim gelmintozlar bilan zararlanish darajasi turlicha bo‘ladi, ya’ni hayvonlar turli fasllarda gelmintlar bilan zararlanishida invaziya ekstensivligi va invaziya intensivligida farq qiladi [Azimov va boshqalar, 2015: 224].

Ushbu maqolada Qoraqalpog‘istonda qo‘ylarda parazitlik qiladigan cestodalarning yil fasllariga qarab zararlanish darajasi keltirilgan.

Tadqiqot ishlari Qoraqalpog‘iston Respublikasining ko‘plab tumanlaridagi fermer xo‘jaliklarida olib borildi. Olib borilgan tadqiqot ishlari davomida akademik

K.I. Skryabinning to‘liq va to‘liq bo‘lmagan gelmintologik yorib ko‘rish usuli bilan 184 bosh qo‘y (82 bosh qo‘y to‘liq gelmintalogik yorib ko‘rish usuli bilan va 102 bosh qo‘yning turli organlari to‘liq bo‘lmagan gelmintologik yorib ko‘rish usullari bilan) tekshirildi [Скрябин, 1928: 45].

Tadqiqot ishlarimiz natijasida, Qoraqalpog‘istonning turli hududlarida qo‘ylarda 34 turga kiruvchi gelmintlar parazitlik qilishligi qayd etilgan [Paluaniyazova, Dadayev, 2023: 94-96]. Shundan 3 turi trematodalar sinfiga, 7 turi cestodalar sinfiga va 24 turi nematodalar sinfiga kiradi.

Quyidagi 1-jadvalda Qoraqalpog‘istonda qo‘ylarda parazitlik qiladigan cestodalarning yil fasllariga qarab zararlanish darajasi keltirilgan.

Qoraqalpog‘istonda qo‘ylarni gelmintlar bilan mavsumiy zararlanish darajasini o‘rganish uchun yil fasllari bo‘yicha to‘liq va to‘liq bo‘lmagan gelmintologik yorib ko‘rish usuli bilan 184 bosh hayvonlar tekshirildi: bahorda 41 bosh, yozda 46 bosh, kuzda 57 bosh va qishda 40 bosh.

1-Jadval

Qoraqalpog‘istonda qo‘ylarning cestodalar bilan mavsumiy zararlanish darajasi (to‘liq va to‘liq bo‘lmagan gelmintologik yorib ko‘rish usuli bilan 184 bosh qo‘ylar tekshirilgan)

№	Gelmint turi	Yil mavsumlari							
		Bahor		Yoz		Kuz		Qish	
		Tekshiridi	Zaralangan (EI, %)	Tekshirildi	Zaralangan (EI ,%)	Tekshirildi	Zaralangan (EI ,%)	Tekshirildi	Zaralangan (EI, %)
1	*Moniezia expansa*	41	17,1%	46	21,7%	57	21,1%	40	20,0%
2	*M. benedeni*	41	12,2%	46	17,4%	57	19,3%	40	25,0%
3	*Avitellina centripunctata*	41	-	46	6,5%	57	7,1%	40	10,0%
4	*Thysaniezia giardi*	41	7,3%	46	10,8%	57	7,0%	40	-
5	*Taenia hydatigena*	41	9,6%	46	10,9%	57	8,8%	40	-

	(larvae)								
6	*Multiceps multiceps (larvae)*	41	19,5%	46	-	57	15,8%	40	-
7	*Echinococcus granulosus (larvae)*	41	26,8%	46	28,3%	57	31,6%	40	35,0%

Bunda bahorda tekshirilgan qo‘ylarda cestodalarning 6 ta turi aniqlangan bo‘lib, turlar o‘rtasidagi invaziya ekstensivligi 7,3 % dan 26,8 % gacha borishi kuzatildi. Bahorda qo‘ylar asosan *Echinococcus granulosus (larvae)*-26,8%, *Multiceps multiceps (larvae)*-19,5% va *Moniezia expansa*-17,1%, turi bilan yuqori darajada zararlagan bo‘lsa, *Taenia hydatigena (larvae)*-9,6%, *Thysaniezia giardia*-7,3% bilan esa past darajada zararlanganligini aniqladik. *Avitellina centripunctata* turi bilan zararlanish bahorda qo‘ylar orasida kuzatilmadi.

Yozda tekshirilgan qo‘ylarda cestodalarning 6 ta turi parazitlik qilishi aniqlandi. Bunda turlar o‘rtasidagi invaziya ekstensivligi 6,5 % dan 28,3 % gacha bordi. Yozda qo‘ylarda invaziya ekstensivligi ancha yuqori bo‘lgan gelmint turlarga: *Echinococcus granulosus (larvae)*-28,3%, *Moniezia expansa-21,7*%, kiradi. Yozda qo‘ylar *Avitellina centripunctata*-6,5%, bilan kam darajada kasallanadi. *Multiceps multiceps (larvae)* turi bilan zararlanish yozda qo‘ylar orasida kuzatilmadi.

Kuzda tekshirilgan qo‘ylarda cestodalarning 7 ta turi aniqlangan bo‘lib, ular o‘rtasidagi invaziya ekstensivligi 7,0% dan 31,6% gacha borishi kuzatildi. Bu faslda qo‘ylar asosan, *Echinococcus granulosus (larvae)Moniezia expansa*, *M. benedeni* bilan yuqori darajada zararlanganligi aniqlandi. Kuzda qo‘ylarni *Avitellina centripunctata*-7,1%, *Thysaniezia giardia*-7,0%, kabi gelmintlar bilan zararlanishi ancha past darajada ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Qoraqalpog‘istonda qo‘ylarda aniqlangan 7 ta cestoda turlaridan, qishda ularda qelmintlarning 4 ta turi parazitlik qilishligi aniqlanda. Bu faslda qo‘ylarda asosan *Echinococcus granulosus (larvae)*-35,0%, *Moniezia expansa*-20,0%, *M. benedeni*-25,0% kabi gelmintlar bilan yuqori darajada zararlanganligini kuzatdik.

Avitellina centripunctata turi bilan zararlanishi ancha past darajada ekanligi ma’lum bo‘ldi. *Thysaniezia giardia, Taenia hydatigena (larvae), Multiceps multiceps (larvae)* turlari bilan zararlanish qish oyida qo‘ylar orasida kuzatilmadi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Qoraqalpog‘istonning turli hududlarida qo‘ylarni yil fasllariga qarab cestodalar bilan zararlanish darajasi va tur tarkibi turlicha bo‘lishi kuzatildi. Bu esa albattda hududning iqlim sharoiti va chorva mollarini turli yaylovlarda boqilish holati hamda muddatlari bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Albatta bu ma’lumotlar Qoraqalpog‘istonda chorvachilik xo‘jaliklarida mutaxassislar uchun qo‘ylarda parazitlik qiladigan gelmintozlar qo‘zg‘atuvchilarini epizootologik holatini aniqlash hamda ularni oldini olish choralarini ishlab chiqib amaliyotga tadbiq etishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalaniligan adabiyotlar:

1. Азимов Д.А., Дадаев С.Д., Акрамова Ф.Д., Сапаров К.А. Гельминты жвачных животных Узбекистана. Монография. Изд-во “Фан”, Ташкент. -2015, 224 с.

2. Скрябин К.И. Методы полных гельминтологических вскрытий позвоночных, включая и человека. -М.-Л.:Изд.1-го МГУ, 1928. -45 с.

3. Paluaniyazova D.A., Dadayev S.D. Qoraqalpog‘iston mayda shoxli mollari gelmintofaunasi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Djaloliddin Azimovich Azimovning 85 yoshga to‘lishi munosabati bilan “O‘zbekiston zoologiya fani: Hozirgi zamon muammolari va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi V - Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. 2023. B. 94-96.

QOVUNNING GURVAK NAVINI YETISHTIRISHDA GIDROGELDAN FOYDALANISH

M.Xudaynazarova-talaba, I.Saparniyazov-q.x.f.f.d. dotsent

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute

Hozirgi kunda poliz mahsulotlariga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Zotan, poliz ekinlari mahsuloti bo‘lgan qovunda inson salomatligi uchun bir qancha foydali xususiyatlar mavjud.O‘zbekiston qovunlari o‘zining shirinligi, betakror mazasi, hidi, uzoq muddat saqlanishi bilan butun dunyoga mashhur. Qovunlarni

yetishtirish jarayonida mulchalash, bargdan oziqlantirish, tomhilatib sug‘orish kabi har xil resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanilmoqda.

Gurvak — qovunning serhosil, yozgi, o‘rtapishar navi guruhi. Po‘sti rangiga qarab ola, qora, ko‘k , oq gurvak, xillari bor. Ola gurvak urug‘dan chiqqandan keyin 90—105 kunda pishadi. Shakli dumaloq, ba’zan tuxumsimon, yirik, og‘irligi 5—9 kg. Sirti tekis, to‘rlari yirik. Tusi oqish, to‘q yashil xollari bor. Po‘sti qattiq. Eti 7—9 sm, oq, sershira, yumshoq, shirin, tarkibida 8,8—10,4% qand bor. Urug‘i yirik, nashtar shaqlida, oq. Ko‘k gurvak urug‘dan chiqqandan keyin 95—105 kunda pishadi. Shakli dumaloq, yirik, og‘irligi 5—8 kg. Sirti tekis, yashil. Po‘sti qattiq. Eti 6—8 sm, yashil, sershira, tarkibida 7,4— 9,7% qand bor. Oq gurvak urug‘dan chiqqandan keyin 85—95 kunda pishadi. Shakli dumaloq, yirik, og‘irligi 5—7 kg. Sirti tekis, serto‘r. Tusi och yashil. Po‘sti qattiq. Eti 5—6 sm, oq, sershira, tarkibida 7,6—10,4% qand bor. Gurvak asosan Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekiladi.

Tajriba ishlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumanida 2024 yili olib borildi. Uy oldi tomorqa yeridan qovun ekish uchun ajratilgan yer barcha agrotexnik talablar asosida tayyorlandi. Tajribada gidrogeldan foydalanishimizdan asosiy maqsad, sug‘ormasdan yetishtirish. Gidrogel tuproqdagi mavjud namlikni yig‘adi va bundan qovun foydalanib boradi. Gidrogel qovun urug‘i ekiladigan sathdan chuqurroqqa 25-30 gramdan solinib, ustiga tuproq tashlandi hamda qovun urug‘i ekildi. Qovunni ekish 2024-yil 11-aprel kuni amalga oshirildi. Tuproqqa ekilgan urug‘dan ildiz o‘sishi davomida gidrogelga yetib boradi.



1-rasm. Gidrogel solinib ekish jarayoni.

26-Aprel kuni urug‘lan unib chiqdi. Keyingi fenologik kuzatishlar davomida uning o‘sish tendentsiyasi kuchayib borganligi kuzatildi. 10 may kuni kuzatishlarimizda qovun barglari yiriklashdi va bo’yi 6 sm dan oshganligi qayd etildi. Qovunning to‘liq palak yoyib, gullashi va meva tuga boshlashi16-iyun kuni qayd etildi. Gullash va meva tugish jarayonida qovunning suvga bo‘lgan talabi kuzatib borildi. Gidrogeldan foydalanilmay ekilgan variantlarda o‘simliklarning stresga tushishi, ayrim mevalarining rivojlanmay qolishi kuzatildi. Gidrogel foydalanilib ekilgan variantlarda esa o‘simliklarning bargi hajmi katta va streslarsiz holatda ekanligi qayd etildi. Keyingi fenologik kuzatishlarimiz davomida qovun mevalarining hajmi ortib borishda davom etganligi va morfologik o‘zgarishlar qayd etildi. Qovun hajmi kattalashgan sari to‘rlash jarayoni davom etdi va to‘rlar qalinlashib bordi.

Gurvak qovuni 15 iyul kuni pishib yetildi. Gidrogel qo‘llanilmay ekilgan variantlardagi qovunlarning hajmi nisbatan kichik bo‘ldi hamda vaqtidan ilgari pishib yetildi. Buing asosiy sababi adabiyotlarda keltirilishicha o‘simlik qanchalik ko‘proq stress holatiga tushganda, vegetatsiya davri tezroq tugaydi ekan. Gidrogel qo‘llanilib ekilgan variantlardagi qovunlar vegetatsiya davri to‘liq bo’lib,o‘z vaqtida pishdi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Qoraqalpog‘iston sharoitida Beruniy tumanida gurvak navli qovunni gidrogel qo‘llanilib ekilganda, bir marotaba ham sug‘orilmasdan yuqori hosildorlikka erishish mumkin ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.М.У.Халимова Қовун ва тарвуз етиштириш Тасвир-2021

2. Санаев С.Т., Сапарниязов И.А. Особенности применения гидрогеля при выращивании овощной (сахарной) кукурузы в условиях Каракалпакстана в качестве повторных культур.“Инновационные подходы в решении проблем современного общества”.сборник статей IV международной научно-практической конференции 15 мая 2019 г., г.Пенза. С.37.

3. Санаев С.Т., Сапарниязов И.А., Бектурсынов А.Б. Выращивание овощной (сладкой) кукурузына разных материалах мульчирования. Овощи России 2023;(1):54-59. https://doi.org/10.18619/2072-9146-2023-1-54-59

QUBLA ARAL BOYI JAǴDAYINDA KOCHIA SCOPARIA (L). SCHRAD NIŃ BIOMORFOLOGIYALIQ ÓZGESHELIKLERI

Baltabaev M.T. dotsent b.i.k, **Jabbarbergenov A**. 1-kurs Magistrant.
Ajiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedogogika institutı. Nókis qalası
muratbaltabaev1953@mail.ru

Qubla Aral boyı aymaǵı keń aymaq bolıp, Orta Aziyanıń arqa-batıs bólegin (Qaraqalpaqstan Respublikası, Qazaqstan Respublikası, Túrkmenistan Respublikası) óz ishine aladı. Qaraqalpaqstan Respublikası Ózbekstan Respublikasınıń batıs hám arqa-batısında Orta Aziyanıń arqa-batıs bóleginde jaylasqan bolıp: batısda, arqada hám arqa-shıǵısda Qazaqstan Respublikası menen, qublada hám qubla-batısda Túrkmenistan Respublikası menen shegaralas.

Bul aymaqtıń relefi hám geologik dúzilisi júdá quramalı. Íqlım sharayatına kóre shól zonasına kiredi. Suwıq arqa samallardıń kırıp keliwinen qorǵawǵa ılayıq tábiyiy tosqınlıqlardıń joq ekenligi turaqlı qurǵaqlıqtı, ıssı jazdı hám hawa temperaturasınıń keskin ózgeriwi menen suwıq qıstı belgileydi.

Aral teńiziniń pútkil qubla bólegin hám Amudaryanıń tómengi aǵımın óz ishine aladı. Respublikanıń maydanı 167, 1 mıń km². Respublikada awıl xojalıǵına arnalǵan jerlerdiń úlken rezervlari ámeldegi (9, 9 mln.ga). 2,8 million gektar awıl xojalıǵı jerleri ajıratılǵan[2] házirgi kúnde bul kórsetkish 3,2 million gektarǵa jetken.[10]

Keyingi waqıtları Aral teńiziniń qurıp barıwına baylanıslı aymaqnıń jaǵdayı keskin ózgerdi, suwdıń sapası tómenledi, ósimliklerdıń bir qansha túrleri joǵalıp ketti. Bul qıyın ekologiyalıq jaǵdaylar respublikamızdıń jaylawlarınıń sapasınıń tómenlewine alıp keledi, sonıń ushın da usınday jaǵdayǵa yaǵnıy shorlanıwǵa shıdam berip ósetuǵın ósimlik túrlerin, izertlew mashqalaları turadı.

2023-jıl 11-sentyabrda qabıl qılınǵan Ózbekiston Respublikasi Prezidentiniń « Ózbekistan - 2030» strategiyası tuwrısındaǵı 158-san parmanında Jer qatnasıqların tártipke salıw shara ılajları sheńberinde jer maydanları ijara huquqın hám grewge qoyiw mexanzimlerin eńgiziw. Nálshilik xojalıqları reystrın jaratıw hám nállerdi

sertifikatlaw sistemasın eńgiziw. Hár bir rayonda tarawdaǵı ilmiy hám innovaciyalar, zamanagoy texnologiyalar tiykarında agrotexnikalıq ılajlardı ámelge asırıw. Sharwashılıq tarawında ot-jem bazasın bekkemlew, jaylaw jerlerden únemli paydalanıwdi táminlew sıyaqlı bir qansha ılajlar aytıp ótilgen. [2]

Usınday toǵay dúziwshi fitomeliorant ósimlikler qatarına Kochia scopariani (sipseni) kiritiwge boladı, ol ámeliyatta keń qollanıladı. Bul tur ot-jemlik ósimlik bolıp esaplanadı. Qara mallar tuye hám qoy-eshkiler hám uy qusları jıldıń hámme paslında suysinip jeydi. Qoylar jazda ósimliktiń japıraqların hám mayda shaqaların júdá súyip jeydi.

Sipse-(Kochia scoparia L. Schrad) – (ózbekshe atı-makka supurgi, qaraqalpaqsha-sipse dep júritiledi), soralar (Chenopodiaceae) tuqımlasına kiredi, boyı 30-150 sm bolǵan, báxárde uzaq waqıt vegetatciyalawshı bir jıllıq ósimlik. G.S. Golovchenko onı jáne "bir jıllıq kiparis" yamasa "jazǵı kiparis" dep ataǵan [7].

Bul - júdá kúshli shaqalanǵan bir jıllıq jasıl ósimlik. Paqal xám shaqaları qıysayıp joqarıǵa qaraǵan. Paqalınıń joqarǵı bóliminde buyra jińishke shashshaları bar. Japıraqları - jalpaq, lantset yamasa tuwrı-lantset tárizli, ushqır, japıraq tiykarında baldaqqa tarayǵan, shashshaları bar yamasa joq xám tek qaptal boylap kirpik-shashlı.

Top gúlleri jayılǵan, masaq tárizli. Gúlleri mayda, kóbinese 1-2-5 deyin/, gúl aldı qoltıqlarında jaylasqan. Gúlqorǵanı jalańash, qaptal boylap kirpik-shashlı, bólimleri dúmpeshikli miywe aldında qısqa-qanat tárizli ósimsheler menen jaylasqan. Analıq gúlleriniń kópshilik bólegindegi qırları jaqsı rawajlanbaydı. Analıq moyını máyek tárizli bolıp, onıń uzınlıǵı 1,5-2 mm ge jetedi [8]. Miywesi – ǵozasha tárizli, domalaq qısılǵan bolıp, olar gúlqorǵanda gorizontal túrde jaylasqan. Miywe qabıǵı juqa jińishke, ańsat alınadı. Miywesi ashıq-qońır yamasa kúlreń-qońır reńde boladı.

Dobroxotova V.N. maǵlıwmatı boyınsha miywesiniń diametri 1,75-2,5mm, qalıńlıǵı 1-1,5mm. Tuqımı máyek tárizli yamasa keri máyek tárizli bolıp, olar qısılǵan yamasa jalpaq-sopaq formada boladı. Reńi qaralaw, aqshıl-guńgirt [6]. Sipse (Kochia scoparia L. Schrad)-nıń tamır sisteması jaqsı rawajlanǵan, iri oq tamırǵa iye.

[2] Ózbekiston Respublikasi Prezidentiniń parmanı 11.09.2023 jıldaǵıi PF-158-san

Kochia scoparia bárshe túrdegi sharwa malları tárepinen jaqsı jelinedi. Azıqlıq muǵdarı pispegende joǵıshqa ǵa uqsas[3], sipse quramında saponinler, alkaloidlar, oksalatlar va nitratlar bar ekenligi anıqlanǵan, olardıń bárshesi quwraǵan dáwirde hám tuqimlardıń jetiklik dáwrinde qáwiplirek boladı [4].

Sol sebepli sipseden paydalanıwda itibarlı bolıw kerek, sharwa malları ushın ot-jem racioniniń 50% tinen kop bolmawı kerek. Sipse jaylawlarına qaramallardı tuwrıdan tuwrı otlaw waqtında itibarlı bolıw kerek, basqa jaylawlar menen almaslap turılıwı kerek. Sipse jaylawlarında qaramallardı úzliksız 90-120 kúnnen artıq baqpaw kerek bul óz gezeginde záhárleniwdıń aldın aladı Úy qusların baǵıwda olardıń azıq racionniniń 25-30% tı muǵdarında sipse tuqımların qosıw arqalı úy quslarında salmaq alıwı 15 % ke kóterilgenin baqlaǵan. [4].

Undersander h.b. (1990) boyınsha Sipseni egiw ushın jer dáslep súrilgen hám tegislengen, jat shóplerden tazalanǵan bolıwı kerek. Egiw áprel aylarında ámelge asırılsa máqsetke muwapıq boladı. (egiw múddeti egislik aymaq klimat sharayatına qarap ózgeriwi múmkin) Egiw tereńligi 1,9 sm den aspawı kerek, eń jaqsı tereńlik 0,7 sm di quraydı.[9]

Juwmaqlap aytqanda Sipse ósimligi mádeniy sharayatta mart ayınıń aqırı aprel ayınıń basında vegetatsiya dáwiri baslanadı, may ayında gullep, iyuń ayında miyweleydi, tájiriybe ótkeriw protsesinde baqlaw alıp barǵan jılları óspegen hám topıraqta qalıp ketken tuqımlardıń ayrımları keyingi jılları ósetuǵınlıǵın baqladıq. Biraq olar júdá az sanda boladı.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR DIZIMI

1 Ózbekiston Respublikasi Prezidentiniń pármanı 11.09.2023 jıldaǵıi PF-158-san.

2 Акулов В.В. Физико-географическая характеристика дельты Амударьи//Материалы по производственным силам Узбекистана. – Ташкент, 1959. – Вып. 10. – С. 7-77.

3 Серебряков И.Г. Морфология вегетативных органов высших растений.// М.: Наука, 1952. – 392.

4 Sprowls, R. 1981. Problems observed in horses, cattle, and sheep grazing kochia. Am. Assoc. Vet. Lab. Diag. 24th annual Proc. pp. 397-406.

5 Stubbendieck, J., M.J. Coffin, and L.M. Landholt. 2003. Weeds of the Great Plains. Nebraska Dept of Agriculture. Lincoln, NE.

6 Доброхотова В.Н. Семена сорных растений. Изд-во

Сельскохозяйственный литературы. Москва, 1961.
7 Головченко С.Г. Травы для севооборотов и улучшения пастбищ Узбекистана.- Изд-во АН УзССР. Ташкент,1953
8 Гранитов И.И. Растительний покров Юго-Западных Кызылкумов Т.Ташкент 1974. 198-201 с
9 Undersander, D.J., B.R. Durgan, A.R. Kaminski, J.D. Doll, G.L. Worf, and E.E. Schulte. 1990. Alternative field crops manual [Online]. Available at: http://www.hort.purdue.edu/newcrop/afcm/kochia.htm (verified 2 November 2009).
10 agro.uz

"EVALUATING QUALITY ASSURANCE MECHANISMS IN HIGHER EDUCATION: STAKEHOLDER ROLES, TECHNOLOGICAL ADVANCEMENTS, AND CONTINUOUS IMPROVEMENT"

Author: Ms Rashida Pervaiz

Department of Education, Faculty of Social Science Arts & Humanities,

Lincoln University College, Malaysia,

Mr. Rokhat Eshmuratov

Department of Botany, Ecology, and Teaching Methods

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Abstract

The abstract offers a comprehensive discussion on quality assurance in education including accreditation, curriculum, teaching, learning and assessment, and institutional management. It stresses the importance of the periodic review considering the changing standards and emerging issues. Stakeholder responsibilities and the effects of technology, such as in LMS and data analysis, are emphasized for their significance in promoting equity and access in education. The abstract also presents a critique of current quality assurance frameworks, highlights issues and possibilities with modern technologies, and emphasizes the need for ongoing development through the engagement of stakeholders and students to equip learners for twenty-first-century expectations.

Keywords: Quality assurance,accreditation systems, curriculum development, assessment practices, stakeholder roles.

- INTRODUCTION

The following abstract focuses on the importance of quality assurance in the management of various challenges affecting education systems in the contemporary world. This calls for periodic assessments of these mechanisms to ensure compliance with the current standards and even go a notch higher. Some of the areas of concern in this study include accreditation systems, curriculum, teaching and learning strategies, assessment and evaluation and institutional management and leadership both internationally and nationally. It focuses on the roles and responsibilities of the policymakers, administrators, educators, students, and accrediting organizations in providing quality education. Further, it examines how innovation such as learning management systems or data analytics have transformed quality assurance, improving equity and access to education.

This extended abstract reviews the current quality assurance frameworks to assess their efficiency in sustaining quality in education. This abstract defines the roles of various players including the policy makers, managers, teachers, learners, and the accreditation bodies. It also provides a solution to the problem of technology and quality in terms of equity and justice in education. It explains the concept of quality assurance in education as a way of enhancing quality, relevancy and efficiency of education systems in the world.

Research Objectives

- Evaluate current quality assurance mechanisms, including accreditation processes, curriculum development, teaching methodologies, assessment practices, and institutional governance, to determine their effectiveness in maintaining and enhancing educational standards.
- Analyze the roles and responsibilities of various stakeholders, including policymakers, administrators, educators, students, and accrediting bodies, in ensuring the efficacy and transparency of quality assurance mechanisms.
- Investigate how technological advancements, such as learning management systems (LMS) and data analytics, are transforming traditional quality assurance practices and their implications for educational equity and accessibility.

Present a critical analysis of existing quality assurance frameworks, identifying their strengths, weaknesses, and areas for improvement.

- Identify the challenges and opportunities associated with integrating new technologies into quality assurance practices and emphasize the need for continuous professional development to maintain effective quality assurance standards.
- Assess the impact of quality assurance mechanisms on promoting educational equity and access, particularly in the context of technological advancements and stakeholder engagement.

MATERIALS AND METHODS

Education has undergone significant changes in the last decade because of the impact of technology, globalization, and social change. The major challenge that the educational system must address in this age is the quality challenge. Quality assurance management systems are relevant in the categorization of institutions and in meeting the learners and society needs.

To enhance the reliability and relevance of the research methods, this abstract adopts the literature review method. It analyses articles from scholarly journals, other reports from other credible sources, and cases from various learning institutions. This approach of using multiple sources of data is helpful in having an idea of the quality assurance measures to ensure that the findings are not limited to a specific setting but can be generalized across the educational settings. Moreover, the study utilizes the triangulation method to compare the findings from different sources to increase the reliability of the conclusions made.

Assessment of Existing Quality Assurance Frameworks:

In this context, it is necessary to examine the different aspects of quality assurance including accreditation, curriculum, teaching and learning approaches, assessment and evaluation, and institutional leadership and governance. Several comparative analyses of various international QA frameworks have been conducted by the World Bank and UNESCO. As indicated by the OECD reports (OECD, 2020), it is possible to observe that various accreditation systems possess different levels of stability and credibility.

Table 1: Data from OECD on quality standards in accreditation systems

Accreditation System	Improvement Rate (%)	Example Result
System A	12	Providing a 20% hike in faculty training programs.
System B	18	Improved student support services by 15% so that students would increase their retention rates.
System C	14	Implementation of the evaluation process of the results-oriented type which will bring a 25% improvement in student attainment outcomes.
System D	16	A 30% increase in graduate employability rates achieved by market-partnered organizations.

The terms "System A", "System B", "System C", and "System D" would be in a real-world situation represent such accreditation systems or programs adopted by the universities, accreditation bodies or the government.(OECD,2020)

Involvement of Stakeholders in Quality Assurance:

Quality assurance in education requires a comprehensive approach involving all stakeholders. Researchers like Harvey and Green (1993) emphasize the roles of policymakers, administrators, educators, students, and accrediting bodies. For instance, the European Association for Quality Assurance in Higher Education (ENQA) highlights the importance of student participation in quality assurance processes, leading to enhanced transparency and accountability (ENQA, 2018).

Table 2: Report of the European Association for Quality Assurance in Higher Education

Level of Student Involvement	Increase in Transparency (%)	Survey Result
Low	10	As for 45% of institutions there was a low level of involvement of the students.

Moderate	15	30% of the schools reported to have some level of student participation.
High	20	25% of institutions noted the high level of student involvement.

Impact of Technological Advancements on Quality Assurance:

Ózbekstanda eki qaqpaqlı mollyuskalardıń túrli suw háwizlerinde tarqalıwı, morfologiyası hám biologiyalıq resurslarına tiyisli maǵlıwmatlar jeterlishe úyrenilmegen. Bul haqqındaǵı maǵlıwmatlar tek ǵana Z.I.Izzetullayev (1992, 2021), X.T. Boymurodov (2009,2020) lar izertlewlerinde óz sawleleniwin tapqan bolıp, olarda Ózbekstannıń ayırım suw háwizlerindegi belgili bir túrler tuwrısındaǵı maǵlıwmatlardıǵana ushıratıw múmkin[2].

Aral teńizindegi eki qaqpaqlı mollyuskalar haqqında Rossiyalı A.A.Filippov (1995) hám S.Andreeva (2000)lar óz izertlewlerinde maǵlıwmatlar keltirip ótken[1; 5]. Bunnan tısqarı, Qaraqalpaqstandaǵı jergilikli kóllerdegi mollyuskalar haqqındaǵı maǵlıwmatlardı M.Matmuratovtıñ ilimiy izertlewlerinde (2021) tabıwǵa boladı. Ol Sarıqamıs kólinde alıp barǵan izertlewinde eki qaqpaqlı mollyuskalar klasına tiyisli *Cerastoderma isthmicum* túrin anıqlaǵan[3]. Bunnan tısqarı, M.Matmuratov hám M.Endirboevalardıñ Saykól kólinde alıp barǵan izertlewlerinde eki qaqpaqlı mollyuskalar klasına tiyisli *Cerastoderma isthmicum, Colletopterum cyreum, Dreissena polymorph* siyaqlı 3 túr mollyuskalar anıqlanǵan[4]. Bıraq, bul maǵlıwmatlar jetkilikli emes. Sebebi bizde omırtqasız organizmler faunası endi úyrenilmekte. Sol sebepli de buǵan baylanıslı keń qamtılǵan izertlewler alıp barıwdı dawam etiw kerek.

Biz óz izertlewlerimizdi Beruniy hám Ámıwdárya rayonlarında jaylasqan TómengıÁmıwdárya mámleketlik biosfera rezervatınıń ishki bóleginen aǵıp ótetuǵın Kókdárya kanalı hám Názerxan bólimindegi kishi japlarda hám de sol aymaqqa jaqın Saykól kólinde alıp bardıq. Saykól kólinde máwsimge qaray turaqlı ushırasıwımız múmkin, biraq Ámıwdárya dáryası suwı betiniń kóteriliwi menen, suw menen birge dáryadan baslanıwshı kanallar hám japlarda kem muǵdarda ushıratıwımız múmkin.

Juwmaqlap aytqanda, eki qaqpaqlı mollyuskalar - suw ekosistemalarınıń zárúrli bólegi bolıp tabıladı. Olar suwdaǵı azıq zatlar hám tútinlerdi filtrlew arqalı suw sapasın jaqsılaydı hám ekosistemanıń turaqlılıǵın támiyinleydi. Sonıń menen birge, olardıń hár qiylılıǵı ekosistemalardıń biokóptúrliligin saqlawda zárúrli áhmiyetke iye. Sol sebep de mollyuskalardı úyreniw júdá áhmiyetli.

Ádebiyatlar

1. Андреева С. Современные Cerastoderma (Bivalvia, Cardiidae) Аральского моря: Систематика, изменчивость, эволюция. Омск, 2000. 240 с.
2. Иззатуллаев З.И. Моллюски как индикаторы состояния почв и воды Узбекистана // Бюллетень науки и практики / Т. 7. №4. 2021
3. Матмуратов М.А. Современное состояние макрозообентоса разнотипных водоёмов Каракалпакстана // Universum: химия и биология: электрон.научн. журн. 2021. 1(91).
4. Матмуратов М. А., Ендирбоева М. О. Видовое разнообразие макрозообентосов озера Сайкуль // "Экономика и социум" №5(120) 2024
5. Филиппов А.А. О сопротивлении солености бентическихорганизмов Аральского моря / А.А. Филиппов // Тр.Зоол. Текущий месяц Акад. АН СССР. – 1995. – Том. 262. – С. 65-102.
6. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби, IIжилд: Ҳайвонлар; Ж.А. Азимовнинг умумий таҳрири остида. Т.: "Tasvir" нашриётуйи, 2019. -25-32 b
7. Hojiyev M.B. Zarafshondaryosiquyioqimiikkipallali (Bivalvia: Unionidae, Corbiculidae) mollyuskalarifaunasivaekologiyasi. Dissertatsiyaavtoreferati. Samarqand – 2023

РОЛЬ НИЖНЕ-АМУДАРЬИНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО БИОСФЕРНОГО РЕЗЕРВАТА В СОХРАНЕНИИ БИОРАЗНООБРАЗИЯ

[1.]К.А.Сапаров, [2]А.М.Туреев, [3]Г.Баймуханова, [4]Ш.Разбаева

1Соискатель Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза, [2]Старший научный сотрудник Нижне-Амударьинского государственного биосферного резервата, [3,4]Магистранты Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза.

Аннотация

Статья посвящена анализу роли Нижне-Амударьинского государственного биосферного резервата (НАБР) в сохранении биоразнообразия в Центральной Азии. Резерват, расположенный в уязвимой экосистеме дельты реки Амударьи, играет ключевую роль в защите редких и

исчезающих видов флоры и фауны, а также в сохранении уникальных природных ландшафтов. В статье рассматриваются экологические функции резервата, его вклад в поддержание стабильности экосистем и обеспечения устойчивости биологических сообществ в условиях антропогенного воздействия.

Ключевые слова: резерват, пустыня, солончак, пойма реки, зона, ЮНЕСКО, МСОП.

Нижне-Амударьинский государственный биосферный резерват (НАГБР), расположенный в Республике Каракалпакстан на территории Узбекистана, играет важную роль в сохранении уникальных природных экосистем и богатого биоразнообразия региона. Созданный в 2011 году, резерват был признан биосферным резерватом ЮНЕСКО в 2021 году и включен в Сеть биосферных резерватов в рамках программы «Человек и биосфера» (MAB). Его деятельность направлена на обеспечение баланса между охраной природы и устойчивым развитием местных сообществ.

Нижне-Амударьинский резерват охватывает обширные территории дельты реки Амударья и включает разнообразные природные зоны: пойменные леса (тугаи), пустыни, солончаки и участки сельхозугодий. Это одна из последних сохранившихся экосистем тугайных лесов в Центральной Азии. Эти леса играют критически важную роль как среда обитания для редких и находящихся под угрозой исчезновения видов растений и животных.

Тугайные леса, произрастающие вдоль пойм рек в засушливых регионах, характеризуются высоким уровнем биоразнообразия. Они служат домом для множества видов растений и животных, многие из которых являются редкими и исчезающими. На территории резервата обитает более 300 видов позвоночных животных, в том числе 34 вида млекопитающих и свыше 200 видов птиц.

Нижне-Амударьинский биосферный резерват сохраняет значительную часть оставшихся тугайных лесов Узбекистана, обеспечивая убежище для таких видов, как бухарский олень (*Cervushanglubactrianus*), занесенный в Красную книгу Международного союза охраны природы (МСОП).Помимо бухарского

оленя, резерват является местообитанием многих других редких и исчезающих видов животных и растений.

Резерват ведёт активную работу по восстановлению тугайных лесов, борьбе с опустыниванием и внедрению устойчивого водопользования. Особое внимание уделяется сохранению водно-болотных угодий и восстановлению естественных русел и пойм реки Амударья.Кроме того, резерват активно сотрудничает с научными учреждениями, неправительственными организациями и международными партнёрами. Проводятся экологические мониторинги, исследования биоразнообразия, образовательные мероприятия и просветительские кампании для местного населения.

Биосферный резерват является важной площадкой для проведения научных исследований и мониторинга состояния биоразнообразия. Ученые проводят здесь комплексные исследования флоры и фауны, изучают экологические процессы и разрабатывают меры по сохранению и восстановлению природных экосистем. Полученные данные используются для разработки эффективных стратегий управления и охраны биоразнообразия в регионе.

Нижне-Амударьинский биосферный резерват обладает значительным потенциалом для развития экологического туризма. Одной из целей биосферного резервата является интеграция природоохранных задач с интересами местного населения. Это достигается путём развития экотуризма, поддержки традиционного землепользования и экологического образования. Уникальные природные ландшафты, богатое биоразнообразие и исторические памятники привлекают туристов и способствуют повышению осведомленности о важности сохранения природы. Развитие устойчивого экологического туризма может стать важным источником дохода для местных сообществ и способствовать их вовлечению в природоохранную деятельность.

Привлечение местных жителей к охране природы повышает их уровень экологической осведомлённости и обеспечивает долгосрочную устойчивость охранных мер.

Таким образом, Нижне-Амударьинский государственный биосферный резерват играет неоценимую роль в сохранении уникального биоразнообразия низовьев Амударьи. Его деятельность способствует защите ценных тугайных лесов, редких и исчезающих видов, поддержанию экологического баланса и развитию научных исследований и экологического туризма в регионе. Дальнейшее укрепление и поддержка деятельности резервата является важным условием для сохранения природного наследия Центральной Азии для будущих поколений.Сохранение этого уникального уголка природы — задача не только национального, но и глобального масштаба.

Литература:

1. Авезов А. К. Фауна Нижне-амударьинского государственного биосферного резервата // Мировая наука. 2022. №6 (63). –С.31-33.

2. Есемуратова С. П. Нижне-амударьинский государственный биосферный резерват - жемчужина Низовьев Амударьи // Теория и практика современной науки. 2018. №6 (36). –С. 225-228.

ТӘБИИЙ ОРТАЛЫҚТЫҢ КОМПОНЕНТЛЕРИ: АТМОСФЕРА ҲАЎАСЫ, СУЎ ҲӘМ ТОПЫРАҚТЫ ҚОРҒАЎДЫҢ ӘҲМИЙЕТИ ҲАҚҚЫНДА

Қ.А.Қосназаров

Бердақ атындағы Қарақалпақ Мәмлекетлик университети. «Экология ҳәм топырақтаныў» кафедрасы доценти, аўыл хожалығы илимлериниң кандидаты.

Нөкис қаласы. Қарақалпақстан.

kudayvergenkosnazarov50@gmail.com

Кирисиў

Атмосфера ҳаўасы, суў ҳәм топырақ тәбиий орталықтың зәрүрли компонентлерине киреди.

1. Атмосфера ҳаўасы жер шарында бир тегис тарқалған. Ол жақтылық, ыссылық, ығаллық ҳәм электромагнит толқынларының тегис тарқалыўын тәминлейди. Космос кеңислигинен келетуғын зыянлы нурларды,

метеоритлерди зыянсызландырып өткереди ҳәм жердеги тиришиликтиң турақлылығын тәминлейди. Ол биосфера, гидросфера ҳәм литосфера менен тығыз байланыста болып, планетамыздың ыссылық балансын сақлайды, тәбияттағы суў, биологиялық затлар менен геологиялық айланысларда, таў жынысларының жемирилиўинде ҳәм қозғалысында искер қатнасады.

Атмосфера ҳаўасы тири организмлер ушын зәрурли кислородтың, сондай ақ, азот және зыянлы ийис газының мол дереги есапланады. Атмосфераға шығарылып атырған зыянлы затлардың ярымынан көбирегин углерод оксидлери, 14% ин кукирт ангидриди ҳәм буларға уқсас зыянлы затлар, 8% ин - углеводородлар, 5% ин – қатты затлар, 4% ин – азот оксиди қурайды. Тири организмлер азық-аўқатсыз бир неше күн ямаса ҳәпте жасаўы мумкин, бирақ олар ҳәўасыз бирнеше минутта жасай алмайды. Ҳаўа көзге көринбейтуғын тәбиий ресурс, ол суў ҳәм азық-аўқатқа салыстырғанда тиришилик ушын жудә зәрурли элемент.

М.А. Ажибеков, Т.Б.Ещанов (1998) Дем алыў жаңа туўылған балаларда бир минутта 40-50 рет, ересек адамлар тынышлық жағдайында 12-24 (орташа 16-20), жылқылар 10-15, сыйырлар 10-30, шошқаларда 8-18 рет дем алыў акти иске асады деп көрсетеди [Ажибеков М.А, Ещанов Т.Б. Адам ҳәм ҳайуанлар физиологиясы. Оқыўлық. 2-китап. Нөкис «Билим» 1998-жыл, 488 бет.].

Ақылый ямаса турли физикалық жумысларды орынлаў, тәбиий ямаса жасалма экологиялық қубылыслардың болыўы, адамдағы дем алыў санының өзгериўине себепши болады. Барлық инсанлардың таза ҳаўадан дем алыўы тәбиий ҳәм нызамлы процесс.

Бирақ, бугинги кунде жер планетасында атмосфера ҳаўасының турли реагентлер менен патасланыўы, ири ҳәм тығыз жайласқан қалаларда, көп елатлы орынлар менен мегаполисларда глобаллық машқалаға айланды. Ҳаўаның патасланыўы жер жузинде жасаўшы халықлардың саламатлығы ушын ең үлкен ҳәм қәўипли фактор екенлиги тән алынды.

Ҳаўаның патасланыўы инсан саламатлығына зыянлы тәсир көрсетеди. Бул процесс өз нәўбетинде азық-аўқат қәўипсизлигине ҳәм экономикалық

раўажланыўға тосқынлық жасайды, сондай ақ, ҳаўа райының өзгериўине де кушли тәсир етип, адамлардың турмыс тәризин белгилеўши қоршаған-орталықты жаманластырады.

Және бир зәрурли экологиялық фактор бул суў. Суў өзине тән қәсийетке ийе суйықлық болып, барлық тири организмлердиң тиришилигиниң тийкары есапланады.

Ҳәр жылы инсанлар жер шарында 3300-3500 km^3 суўды пайдаланады. Суў Жер планетасындағы ең зәрурли ҳәм шекленген, бирақ ол қайта тикленетуғын ресурслардың биреўи.

Суўдың патасланыў ләрежеси және оның тарқалыў процесси оғада үлкен қәўип туўдырады. Жер усти суўлары (дарьялар, көллер, сайлар, суў сақлағыш бассеинлери, ҳәўизлер) ҳәм жер асты душшы суў қатламлары, булақ суўлары ишимлик суўлардың дереклеринен есапланады. Бирақ тәбияттағы барлық суўлар көпшилик жағдайда инсанлардың ҳәр қыйлы мийнет искерликлерине байланыслы (санаат, өндирис, аўқатланыў, дем алыў, даўаланыў орынлары, турмыс ҳәм аўыл хожалығы карханалары тәрепинен жуўынды, шығынды, тасланды, коллектор-дренаж ҳәмде ақаба суўларды тийкарғы суў тармақларына қайтадан ағызып таслаўы себебинен, суўлардың химиялық ҳәм биологиялық патасланыўлары келип шығады.

Ыссылық гидроэлектр станциялары да пайдаланған көп көлемдеги ыссы суўларын, ағын суўларға таслайды ҳәм бул суўлардың термикалық патасланыўына алып келеди. Ақыбетинде суў қурамындағы кислород концентрациясы пәсейип кетеди ҳәм экосистемаға кери тәсирин жасайды.

Улыўма жер шарындағы (океанлар, теңизлер, дарьялар, көллер, сайлар, суў сақлағыш бассеинлери, ҳәўизлер, жер астындағы дузлы ямаса душшы суў қатламлары, булақ суўлары ҳәм басқада тәбиий суўлар) ҳәрқыйлы химиялық затлар менен қатты шығындылардың, турли микроскопиялық тири организмлердиң (бактериялар, замаррықлар, суў отлары) ҳәмде патоген вируслардың келип тусиўинен күшли дәрежеде патасланады. Бул аўҳал

ишимлик суўлардың муғдарын жәнеде қысқартады. Дуньяда жасаўшы адамлардың 40% ти ишимлик суў жетиспеўинен азапланып, ақырет шегиўде.

Қоршаған орталықтың және бир компоненти топырақ, ол қайта тикленбейтуғын ресурсқа киреди. Егер топырақ жоғалған ямаса бузылған болса, ол инсан тиришилигиниң даўам етиўи менен салыстырылатуғын ўақыт ишинде тикленбейди. Бир сантиметр топырақ қатламының пайда болыўы ушын шама менен жүз жыл керек болады [https://travelask.ru/questions/85221-sloy-pochvy-tolschinoy-v-1-sm-obrazuetsya-za-100-let-na-skol].

Топырақтың әҳмийети жудә уллы, бул әйтеўир гәп емес, сонлықтан, оны барлық топырақтаныў пәни уйренеди. Топырақтың тийкарғы уазыйпасы оның өнимдарлығы болып табылады. Топырақтың өнимдарлығы нәтийжесинде бизлер топырақта турли өсимликлердиң өнимлерин жетистиремиз. От-жемлик өсимликлерди де жетистириў арқалы, шаруашылық өнимлерине де ийе боламыз. Улыўма алғанда топырақ бизиң тийкарғы ғәзийнемиз. Топырақта турли турли микроскопиялық тири организмлерден баслап, төмен ҳәм жоқары дәрежели өсимликлер менен ҳайуанатлар тиришилик етеди. Топырақ биосфера (Жердиң тири қабығы) ҳәм литосфераның қурамлық бөлимлеринен бири, сонлықтан оның тиришилик ушын роли уллы.

Адамзаттың илимге тийкарланбай егинлер ҳәм жайлаўлар ушын саналы ямаса санасыз ҳәдден тысқары зыянлы ис журитиўи нәтийжесинде шөллениў ҳәм өнимли жайлаўлар ойран болды. Топырақта автомобилсазлық өнимлери, сондай ақ, нефтти қайта ислеў заводлары, санаат және таў-кен санааты карханаларының химиялық затларының топланыўы топырақтың инсан денеси ушын жудә қәўипли болған аўыр металлар ҳәм нефт өнимлери менен тойыныўына алып келеди.

Аўыл хожалығында токсикалық зәҳәрли химикатлар, пестицидлер, гербицидлер, химиялық төгинлер, биостимуляторлар ҳәм басқада биологиялық искер затлардың қолланылыўы топырақтың патасланыўына алып келеди. Топырақтың патасланыўы бир неше онлаған жыллар даўамында тарқалмайтуғын ҳәм топырақтың ҳақыйқаттанда зәҳәрлениўине алып

келетуғын турмыс шығындыларын ойланбастан шығарыў нәтийжесинде жүзеге келеди.

Солайынша, бугинги күнде инсанның тәбият пенен қатнасы жәмийеттиң қатаң бақлаўында. Яғный, қоршаған орталықты қорғаў, халықтың абаданлығын ҳәм саламатлығын сақлаў мақсетинде қоршаған орталықтың мониторинги алып барылады. Бул тәбиий орталықтың ҳақыйқый аўҳалынан мағлыўматлар береди және келешекти болжап билиўге имкәният жаратады.

ЖУЎМАҚЛАЎ

Атмосфера ҳаўасы, суў ҳәм топырақты ҳәр турли патасланыўдан қорғаў тәбиий орталықтың басқада зәрүрли компонентлериниң тазалығын тәмин етеди. Бул процесс улыўма инсан организмлериниң саў-саламат болып узақ өмир суриўине тийкар салаты.

Пайдаланылған әдебиятлар

1. Ажибеков М.А, Ещанов Т.Б. Адам ҳәм ҳайуанлар физиологиясы. Оқыўлық. 2-китап. Нөкис «Билим» 1998-жыл, 488 бет.

2.https://travelask.ru/questions/85221-sloy-pochvy-tolschinoy-v-1-sm-obrazuetsya-za-100-let-na-skol

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ШАРОИТИДА ГИДРОГЕЛДАН ФОЙДАЛАНИБ ШИРИН МАККАЖЎХОРИ ЕТИШТИРИШ

Санаев Собир Тоирович – проф.,қ-х.ф.д[1].,

Сапарниязов Инъомжан Артикбаевич– доц.,қ-х.ф.ф.д [2]

Самарқанд агроинновациялар ва тадқиқотлар институти[1],

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти[2]

Аннотация: Қорақалпоғистон шароитида сабзавот (ширин) маккажўхори асосий ва такрорий экин сифатида ўстирилганда гидрогель моддасини қўллашнинг ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинган бўлиб, охирги йилларда ҳудуддаги сув танқислигини эътиборга олиб Замин ва Megaton F_1 нав ва дурагайларини асосий ва такрорий экин сифатида гидрогель қўлланилиб

тажриба ишлари давомида ўсимлик бўйи, тупланганлиги, барглар ва сўталар сони, ҳосилдорлиги ҳақида маълумотлар келтирилган.

Республикамизда сабзавотчиликни ривожлантиришга, нафақат ички бозорни сабзавот маҳсулотлари билан таъминлашга, балки экспортга йўналтирилган маҳсулот етиштиришга ва валюта тушумини кўпайтиришга алоҳида эътибор берилмоқда.

Бу борада аҳолини барча сабзавот маҳсулотлари билан таъминлаш билан бирга, ноанъанавий озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабини қондириш мақсадида сервитамин, одам организми учун фойдали биокимёвий элементларга бой маҳсулотлар билан таъминлашда сабзавот (ширин) маккажўхори экини муҳим аҳамиятга эга бўлиб, унинг экилаётган майдонлари йилдан йилга ортиб бормоқда. Сабзавот (ширин) маккажўхори дони сабзавот сифатида сут пишиш даврида ишлатилиб, бошқа маккажўхорилардан таркибидаги қанд моддаси билан фарқ қилади. Сут пишиш даври 5-6 кун давом этади, сўнг донда қанд камайиб, таъм сифати пасаяди. Сабзавот (ширин) маккажўхори иссиққа талабчан экин, уруғлари 8-10^0да уна бошлайди, ўсиши ва ривожланиши учун қулай ҳарорат 20-25^0 ҳисобланади.

Сабзавот (ширин) маккажўхори ҳудуд шароитидан келиб чиқиб, асосий экин сифатида 10 апрелдан, такрорий экин сифатида 1-июлдан бошлаб экилади, экиш схемаси 70х20-30 см, экиш чуқурлиги 5-6 см, экиш нормаси гектарига 20-30 кг. Парваришлаш ишлари 3-4 та чинбарг ҳосил бўлганда бир уяда 2 та ўсимлик қолдирилиб ягана қилинади, қатор оралари 2-3 марта юмшатилади, озиқлантирилади ва суғорилади.

Сабзавот (ширин) маккажўхори сўталари сут пишиш даврида рўваги гуллагандан кейин (20-25 кунлари) қўлда, саралаб йиғиб олинади. Агарда 4 кун кечиктирилиб йиғилса, қанд миқдори 2 баробор камайиб крахмал миқдори 57 % га етади. Бизнинг шароитимизда ширин маккажўхори дони тез пишади, сут пишиш даври 2-3 кунгача қисқариши мумкин. Шунинг учун тез

йиғиштириб олиниб, дони янгилигича ва консерва ҳолида истеъмол қилиниши мақсадга мувофиқ.

Охирги йилларда айрим вақтларда сабзавот экини айни ҳосилга кириш палласида суғорма сув танқислиги тез-тез учраб туриши барчамизга сир эмас. Шундан келиб чиқиб шўрланган ва сув танқис худудлар шароитида шўрга чидамли сабзавот экинларидан бири сабзавот (ширин) маккажўхори етиштиришни ва шу йўл орқали аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабини имкон қадар қондириб боришни ўз олдимизга мақсад қилиб қўйдик.

Қарақалпоғистон шароитида аксарият туман ва ҳудудларида суғорма сув танқислигини эътиборга олиб, сабзавот (ширин) маккажўхори етиштиришда ундан юқори ва сифатли ҳосил олиш мақсадида гидрогель моддасидан фойдаландик.

Гидрогель моддаси юқори даражада сувга бўкувчанлик, намликни сақлаш хусусиятига эга бўлиб, кашфиётнинг ижтимоий, иқтисодий самарадорликни оширишдаги имкониятлари катта ва доимийдир. Қуёшли кунларда ердан намлик кўтарилади. Шу даврда гидрогель моддаси қишлоқ хўжалигига, жумладан кам сувли экин майдонлари учун яхши ёрдам беради. 1 грамм гидрогель моддаси ўзида 800-1000 грамм сувни шимиб олишини ҳисобга олсак, бир гектар ерга 35-40 килограмм сепилганда, ўсимликнинг сувга бўлган эҳтиёжи таъминланади. Қолаверса, таркибида азотли ўғитлар борлиги туфайли гидрогель моддаси ҳосил унумдорлигини ошириш билан бирга беш йилгача ўз хусусиятини йўқотмаслиги илмий-амалий тажрибалар асосида аниқланган.

Гидрогель таркибида азотли ўғитлар бўлиб, ерга салбий таъсири кам деб топилган. У лалмикор ерларга, чўл худудларга буғдой ва бошқа экинлар билан бирга сепилади.

Тажрибада тадқиқот объекти сифатида сабзавот (ширин) маккажўхорининг Замин ва Мегатон $Ғ_1$ нав ва дурагайлари ҳамда гидрогель моддаси олинди. Ҳар бир нав ва дурагайлар тўрт такрорда экилди. Делянканинг майдони 56 $м^2$ дан иборат бўлди. Тажриба даласида барча кузатиш, ўлчаш, ҳисоблаш ва баҳолашлар умум қабул қилинган услублар асосида амалга оширилди.

Тажриба ўтказиладиган дала шудгорланиб, ер уруғ экишга тайёр ҳолатга келтирилиб, 2018-2024 йилларда асосий ва такрорий экин сифатида сабзавот (ширин) маккажўхори уруғлари экилди. Асосий экинда гидрогелнинг фойдали хусуиятлари асосан рўвакнинг гуллаши ва сўталаш вақтида ўсимликнинг стрес ҳолатига тушишининг олдини олишда катта ижобий таъсирини берди. Такрорий экинда гидрогелдан фойдаланишимизнинг асосий сабаби, кўп йиллардан буён август ойининг охирги ўн кунлигидан октябр ойининг охирларигача пахта, ем хашак ва сабзавот экинларининг пишиб етилиши сабаб суғорма сувларга бўлган эҳтиёж сезилмас эди, охирги йилларда бизнинг шароитимизда суғорма сув танқислиги тез-тез учрамоқда. Сабзавот (ширин) маккажўхорининг ҳар бир уруғ экилган сатҳидан 10-14 см чуқурликда бир чой қошиқ ҳажмдаги қуруқ ҳолатдаги (20-30 г) гидрогель солиб экилди. Шундан сўнг биринчи суғориш амалга оширилди. Кейинги сувни қўйишда суғориш оралиғи узайтирилиб ўтказилди, гидрогель қўлланилган ҳудудларда суғориш сонини камайтирилса ҳам ўсимликларнинг ўсишида сувга бўлган эҳтиёж кузатилмади. Аммо, гидрогель қўлланилмаган ҳудудларда ўсимликларнинг сувга бўлган эҳтиёжи яққол кўзга ташланди ва уларнинг вегетация даври анча камроқ бўлди. Такрорий экинда ўсимлик бўйининг баландлигида ҳам фарқлар вужудга келди. Замин нави оддий усулда экилганда вариантлар аро ўсимлик бўйи 156 см дан 159 см гача, ён поялар сони 2,5-2,9 донагача, биринчи сўтанинг жойланиш баландлиги 31,2см дан 32,4 см гача, бир тупдаги сўталар сони 2,9-3,9 донани ташкил этди. Ўртача битта сўтанинг вазни 359,6-394,8 граммгача, 1000 та дон оғирлиги 215,6-244,7 граммгача, ҳосилдорлик гектаридан 411-482 центнергача ўзгарди. Иккинчи вариантда Замин нави гедрогель моддаси қўллаб экилганда эса ўсимлик бўйи 169 см дан 173 см гача, ён поялар сони 2,8-3,1 донагача, биринчи сўтанинг жойланиш баландлиги 32,8 см дан 35,1 см гача, бир тупдаги сўталар сони 3,0-4,0 донани ташкил этди. Ўртача битта сўтанинг вазни 367,3-399,7 граммгача, 1000 та дон оғирлиги 221,2-249,3 граммгача, ҳосилдорлик гектаридан 420-501 центнергача ўзгарди. Megaton F_1 дурагай навида гедрогель моддаси қўлламасдан экилган варианда ўсимлик бўйи

нисбатан пастроқ бўлиб 148 см ни ташкил этди. Гедрогель моддаси қўлланганда эса 13 см га баланд бўлиб, ўсимликлар бўйи ўртача 161 см гача етди. Сўталар сони оддий усулда ўстирилганда 1,8-2,3 донани, гедрогель моддаси қўлланилиб етиштирилганда 3,1-3,4 ташкил этди ва сўталар узунлиги ҳам тегишлича 4-6 см гача фарқ қилди. Умуман олганда тегишлича ён поялар сони 1,6-2,1 донагача, биринчи сўтанинг жойланиш баландлиги 33,8 см дан 34,5 см гача, бир тупдаги сўталар сони 3,1-3,5 донани ташкил этди. Ўртача битта сўтанинг вазни 371,3-389,7 граммгача, 1000 та дон оғирлиги 231,3-239,1 граммгача, ҳосилдорлик гектаридан 441-485 центнергача ўзгарди. Гидрогель қўлланмай ўстирилган ўсимликларда пишиш фазаси анча тез бошлади. Бу табиий ҳол барча ўсимликларга салбий факторлар таъсир этганида тезроқ уруғини шакллантиришга ва пишишга ҳаракат қилади. Тажрибаларимизда гидрогель қўлланилиб экилган ўсимликлар оддий усулда ўстирилганга қараганда анча баланд бўйли, барглар сони кўп, ва ўсимликлардаги сўталар сони кўп, сўтадан дон чиқими юқори бўлди лекин, такрорий экинда кеч ҳосил бўлган сўталари пишиб етилишга улгурмади сабаби, бизнинг Қарақалпоғистон шароитида октябр ойининг биринчи ўн кунлигида ҳаво ҳарорати анча пасайиб 0, -1 даражагача тушиб кетди. Бу эса сабзавот (ширин) маккажўхори ўсимлигини ва тўлиқ етилмаган сўталарни совуқдан зарарланишига олиб келди. Энг асосий хусусиятларидан бири оддий усулда экилганларга қараганда, гидрогель моддаси қўлланилган ҳудудларда суғориш миқдори 3-4 мартагача кам бўлди. Бунинг оқибатида гектаридан 2000-2500 $м^3$ гача сув тежалишига имконият яратилди.

Демак, ушбу маълумотлардан келиб чиқиб, Қорақалпоғистон Республикаси шароитида шўрланган тупроқли ерларда ва сув танқис ҳудудларда сабзавот (ширин) маккажўхорини асосий ва такрорий муддатларда экиш ва озиқ-овқат саноатини ривожлантириш имкониятлари мавжуд бўлиб ушбу шароитга мос сабзавот (ширин) маккажўхори нав ва дурагайларини тўғри танлаб гидрогель моддасини қўллаб экиш суғорма сув танқис ва шўрланган ҳудудларда ҳам сабзавот (ширин) маккажўхорининг ҳар бир тупидан 2-3

донадан истеъмолга яроқли сўта ёки 450-500 центнергача дон ҳосили ҳамда чорва моллари учун тўйимли озуқа олиш имкониятини берар экан. Бу эса сабзавотлар турини кенгайтиришга, халқимизнинг озиқ овқатга бўлган эҳтиёжини қондиришга, турмуш фаровонлиги янада юксалишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Саламов И.С., Жонибеков Ф.Б. Инновацион технологиялар асосида гидрогелни қўллашнинг иқтисодий самарадорликни оширишдаги имкониятлари. Фан, таълим ва ишлаб чиқаришнинг инновацион корпоратив ҳамкорлигини ривожлантириш масалалари: Профессор-ўқитувчиларнинг илмий-мақолалар тўплами. I-ҚИСМ, 234-237 б. Самарқанд -2016.

2. Саламов И.С., Жонибеков Ф.Б. Ер ва сувдан тежамкорлик билан фойдаланишда гидрогель моддасининг миллий иқтисодиётимизни ривожлантиришдаги истиқболлари. “Муносиб меҳнат тамойилларини Ўзбекистонда қўллаш имкониятлари” мавзусидаги илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами.84- 88 б. Тошкент- 2016.

3. Санаев С.Т., Ҳасанова С., Ж. Файзимуродов. Сабзавот маккажўхори навларини такрорий экин сифатида ўстириш технологияси. “Ўзбекистонда озиқ-овқат дастурини амалга оширишда қишлоқ хўжалик фани ютуқлари ва истиқболлари” мавзусидаги илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. 156-157 б. Самарқанд 2015.

4. Санаев С.Т., Сапарниязов И.А. Особенности применения гидрогеля при выращивании овощной (сахарной) кукурузы в условиях Каракалпакстана в качестве повторных культур.“Инновационные подходы в решении проблем современного общества”.сборник статей IV международной научно-практической конференции 15 мая 2019 г., г.Пенза. С.37.

5. Sanaev S.T., Saparniyazov I.A., Rakhmatov I.I. Growing Vegetable (Sweet) Corn Varieties and Hybrids as a Reproductive Crop. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT).*2020;24(1): 8-10.

6. Rakhmatov I.I. Growing Vegetable (Sweet) Corn and Hybrids as a Resowing. *AJSHR*. Dec 2022;3(12):37.

7. Сапарниязов И.А., Санаев С.Т., Хонкулов Х.Х. Возделывание некоторых сортов и гибридов сахарной кукурузы в качестве овощной культуры. *Актуальные проблемы современной науки*.2022;3(126):64.

8.Санаев С.Т., Сапарниязов И.А., Бектурсынов А.Б. Выращивание овощной (сладкой) кукурузына разных материалах мульчирования. Овощи России 2023;(1):54-59. https://doi.org/10.18619/2072-9146-2023-1-54-59

9. Санаев С.Т., Сапарниязов И.А. Сабзавот (ширин) маккажўхори етиштиришда гидрогель моддасини қўллашнинг ўзига хос хусусиятлари. O’zbekiston agrar fani xabarnomasi №5 (17/2) 2024 Maxsus son

QORAQALPOG’ISTON SHAROITIDA TUTNING ISTIQBOLLI NAVLARINI TANLASH VA KO’PAYTIRISHNING AMALIY AHAMIYATI

Nurlimuratova G.J.

Nukus DPI

Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlarida tutning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, lekin 20 dan ortiq mamlakatlardagina tutning nav va duragaylarini ko‘paytirish va undan ipak qurtini parvarishlashda foydalanib kelinmoqda. «...dunyo bo‘yicha Xitoy Xalq Respublikasida 85-90 %, Hindistonda 75-80 %, Yaponiyada 98 %, O‘zbekistonda 4-5 % tut ko‘chatlari vegetativ yo‘l bilan ko‘paytirilib»[5] navli tut ko‘chatlari yetishtiriladi. Pillachilik ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida yangi serhosil va to‘yimliligi yuqori darajada bo‘lgan tut navlarini yaratish, ularni hududlarning tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqib ko‘paytirish ishlarini tashkil etish talab etiladi. Mahsuldorlik va xo‘jalik qimmatli belgilari yuqori bo‘lgan yangi navlari hisobidan fermer xo‘jaliklarida intensiv tutzorlar tashkil etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda bugungi kunda ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish, ipak qurti duragaylari uchun to‘yimliligi yuqori yangi tut navlarini yaratish va ishlab

[5] www.worldatlas.com

chiqarishga joriy etish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda, tut navlarini respublikamizning turli mintaqalarida mahalliy yer va tabiiy iqlimiga mosligi, ildiz olishi, navli tutlarning unuvchanligi va o‘sish dinamikasi hamda olinadigan barg hosildorligiga ta’sir etish mexanizmini tadqiq etgan holda ularni joriy etish samaradorligini oshirish borasidagi ilmiy ishlarni yanada rivojlantirish hamda yangi ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq qilishga yetarli e’tibor qaratish talab etiladi.

Bugungi Respublikamizning o‘ziga hos tabiiy iqlim sharoitiga mos yangi nav va duragaylarni yaratish bilan bir qatorda yetishtiriladigan mahsulotlar hosildorligi, to‘yimliligi va sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan agrotexnikaviy tadbir, yangi uslubiyotlar va tavsiyalarni o‘zida mujasamlashtirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish muxim ahamiyatga ega.

Yangi yaratilgan tut navlarini mahalliylashtirishda viloyatlar tabiiy iqlimi, tuproq tarkibi, sovuq va issiqqa chidamlilik darajasiga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Ko’pchilik olimlarning [1; 60-62-b.] o‘z ilmiy tadqiqotlarida gilos uchun kuchsiz o‘suvchi, muhitning noqulay ekologik omillariga bardoshli istiqbolli payvandtag tanlash, ushbu tanlangan payvandtagga respublikamizda rayonlashtirilgan standart navlarning biologik mos kelishini aniqlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqotchilarning [2; 31-33-b.] olib borgan kuzatishlariga ko‘ra, ko‘chatlar o‘tkazilgan yiliyoq yozgi kesish ishlari boshlanadi. Buning uchun yangi o‘tkazilgan ko‘chatlardagi yangi surx novdalar 10 iyundan 1 iyulgacha 15-20 sm qoldirilgan holda kesib tashlanadi. Bunday kesish tartibi natijasida ularning har birida kuzgi xazonrezgilik davriga qadar bir nechta surx novda hosil bo‘ladi. Bu ko‘chatlar kuzda kesilmaydi va erta bahorgacha shu holatida qoldiriladi. Ushbu texnologiyaning afzalligi mevalar tez hosilga kiradi.

Tut daraxtining o‘sishi va rivojlanishida o‘g‘itlash muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan [3; 291-294--b;] tut daraxti navlarining rivojlanishiga mahalliy va mineral o‘g‘itlardan tashqari mikrobiologik o‘g‘itlarning ta’sirini o‘rganganlar.

Olimlar mikrobiologik o‘g‘it sifatida 7 ta azot fiksatsiya qiluvchi bakteriyalar vitaminlari asosida olingan yangi o‘g‘it ishtirokida (Azospirillum va Agro va kterium) tut daraxtining Ukrainskaya 5, Ukrainskaya 6 va Ukrainskaya 7 navlari ustida tajribalar olib borganlar. Tajriba natijalariga ko‘ra, tut bargi hosildorligi qiyoslovchi navga nisbatan 15-41% ga oshganligini aniqlaganlar. Yangi yaratilgan mikrobiologik o‘g‘itdan Ukraina tutzorlarida foydalanish uchun patent olishga erishganlar.

Mualliflarning [4; 125-127-b.] ma’lumot berishicha intensiv tutzorlarni tashkil qilishda asosan sog‘lom tut duragaylarining bir yillik nihollardan yoki payvand qilingan tut ko‘chatlardan foydalangan holda ekilgandan so‘ng, kuzda 4-5 sm, bahorda 2-3 sm pastroq sovuq urgan joyidan keyin kesilishi va hosilga kirgandan so‘ng 5-6 marta sug‘orish ishlarini va qo‘shimcha oziqlantirish rejasining bajarilishi orqali yuqori hosildorlikka hamda to‘yimli tut bargini yetishtirishga erishish mumkinligini o‘z tajribalarida isbotlashgan.

Olimlarning olib brogan tekshirulari natijasida [5; 41-b.] Toshkent viloyati sharoitida rayonlashtirilgan seleksion tut navlarini halqalanmagan qalamchalaridan ildiz olgan ko‘chatlarni o‘stirish imkoniyati o‘rganilgan. Bunda, qalamchalar fevral oyining ikkinchi o‘n kunligida tayyorlanganligi, ekilgunga qadar 50-60 sm li transheyalarda ko‘mib saqlanganligi va gorizontal usulda qalamchalar jo‘yaklarda chuqurligi 7-8 sm li egatlarga joylashtirilib, tuproq bilan ko‘milgan. Ikkinchi qiya usulda uzunligi 15-20 sm li qalamchalar tuproq bilan ko‘milib, bitta kurtak tuproq yuzasida qoldirilgan. Tajribada o‘tkazilgan qalamchalarning qiya usulda ekilgan qalamchalarga nisbatan ildiz olishi yuqori bo‘lganligi aniqlangan.

Tutchilik sohasida o‘zining ilg‘or tajribalari bilan ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim [6; 18-25-b.], tut daraxtini qalamchalaridan ko‘paytirishdagi ilmiy-amaliy ishlaridan shuni ma’lum qiladiki, bahorning kelishiga qarab fevral oyining ohiri, mart oyining birinchi o‘n kunligida qalamcha tayyorlanadigan bir yillik novdalar qirqib olinib, 3-4 hafta nam tuproqqa 50-60 sm chuqurlikda ko‘mib qo‘yish va tuproqda mo‘tadil harorat va havo sharoiti vujudga kelishi bilan o‘tkazilsa maqsadga muvofiq bo‘lishini aytib o‘tgan.

Olib borgan tajribalarda mualliflar [6; 42-b.] tomonidan navdor tutlar Tojikiston urug‘siz, Pioner, Oktabr, O‘zbekiston navlaridan tayyorlangan qalamchalar buta tutzorlar tashkil etishda tuproqni shudgorlash, bahorda tekislash, qator oralarini kengligi 3 m, qatorda qalamchalar orasi 0,5 m bo‘lishi, tuproqdagi harorat 18-20^0 S bo‘lganida qalamchalar pushta ustiga 5-8 sm chuqurlikda (agar qumoq tuproq bo‘lsa 8-12 sm) ni, qiyoslovchiga nisbatan 7-15 % ga yuqori bo‘lishi Oktabr va O‘zbekiston navlaridan tayyorlangan qalamchalarning ko‘karishi 11-14 % ga yuqori bo‘lishini ma’lum qilgan

Ma’lumki, dala tajribalarini olib bormasdan, biron-bir tarmoqni jumladan, ipakchilik sohasini rivojlantirish, uning ozuqa bazasini kengaytirish hamda tut bargining sifatini yaxshilash mumkin emas. Shuning uchun fan yutuqlarini amaliy jihatdan ishlab chiqarishga joriy qilish uchun ma’lum tajribaga ega bo‘lishda dala tajribasini olib borishdagi asosiy talablar, tajribaning to‘g‘riligini baholash, ishonchlilik darajasini aniqlashda dala tajribasini o‘tkazish usullarini mukammal egallash zarur.

Qoraqalpog’istonning o‘ziga hos issiq iqlim sharoitida paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, sabzavotchilik va boshqa sohalar bo‘yicha hosildorlikni ko‘tarish, mahsulot sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan agrotexnikaviy tadbir, usul va choralarni ishlab chiqishga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Quyida mamlakatimiz tuproq sharoitlarini hisobga olinib amalga oshirilgan ayrim ishlarni maqul deb bilamiz, masalan: qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, xususan, tuproqlari zich joylashgan yerlarda haydash chuqurligini 35-40 sm, hatto 45-50 sm ga yetkazish zarurligini ta’kidlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar tizimi

1. Abdikyumov Z.A., Shaumarov X.B. Istiqbolli payvandtaglar-intensiv tipdagi gilos bog‘larini barpo qilishning muhim omili.//O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi, №4(58). – Toshkent, 2014. –B.60-62.
2. Abdikayumov Z.A., Qalandarov A.A. Gilos daraxtlarining ihchamligi va hosildorligiga kesish muddatining ta’siri.//O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi, №4(62). – Toshkent, 2015. –B. 31-33
3. Jo‘rayev M., Umarov SH.R., Xolmatov D.I., Qo‘chqorov O‘. O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan tut navlari jahon kolleksiyasi tarkibiga

kiruvchi nav, shakl va duragay turlar tavsifi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. 3-98-b.

4. Bekkamov CH.I., Sohibova N.S., Zikirova M.O. Intensiv tutzorlarni tashkil qilish va navdor tut barglaridan foydalanish tizimi samaradorligi.//O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi, №1(75). – Toshkent, 2019. –B. 125-127.

5. Valiyev.S.T., Rajabov.N.O. Tutning yangi sinovdan o‘tayotgan seleksion nomerlarining ipak qurtining biologik va texnologik ko‘rsatkichlariga tasiri. //“Respublikada chorvachilikni rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Toshkent, 2019. –B. 268-271.

6. Valiyev S.T., Xolmatov D.I., Sodiqov D.A. Tutning tanlab olingan navlikka nomzod nomerlari ustida seleksiya ishlarini davom ettirishning ahamiyati. //«To‘qimachlik sanoati korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etishda ilm-fan integratsiyalashuvini o‘rni va dolzarb muammolarini yechimi» mavzusidagi Halqaro ilmiy-texnikaviy anjuman. – Marg‘ilon, . 2017. 27-28 iyul. 43-46-b.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ҲУДУДИДА *AMARANTHUS L.* ТУРКУМИ АЙРИМ НАВЛАРИНИНГ БИОЭКОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ТУПРОҚНИНГ ШЎРЛАНИШ БЎЙИЧА ХИМИЯВИЙ ТАҲЛИЛИ

Мамбетова Насиба Курбанбаевна

Ажинийаз номидаги Нукус давлат педагогика институти, докторант

E-mail: nasibamambetova@gamil.com

Кириш.Қорақалпоғистон ҳудуди шўрланган тупроқлари билан танилган бўлиб, аграр секторда самарали қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш муаммолари мавжуд. Бу ҳудуддаги ўсимликларнинг шўрланган муҳитда қандай ривожланиши ва биоэкологик хусусиятлари бўйича тадқиқотлар муҳим аҳамиятга эга. *Amaranthus L.* туркумига кирувчи ўсимликлар шўрланган муҳитга мослашувчанлиги ва экологик барқарорлиги билан ажралиб туради.

Ушбу мақолада Қорақалпоғистон ҳудудида *Amaranthus L.* туркумига мансуб айрим ўсимлик навларининг биоэкологик хусусиятлари ҳамда тупроқнинг шўрланиш даражасини аниқлаш учун ўтказилган химиявий таҳлил натижалари ёритилади.

Amaranthus L. туркуми ўсимликлари кўпинча тўқимаси юмшоқ, тез ўсувчи ва шўрланган муҳитга мослашувчи ўсимликлар сифатида маълум. Бу тур ўсимликлари шўрланган тупроқда ҳам яхши ўсиш хусусиятига эга бўлиб,

уларнинг мослашувчанлиги ва шўрланишга чидамлилиги қишлоқ хўжалиги учун долзарб масаладир. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, *Amaranthus L.* тури ўсимликлари шўрланган тупроқларда сув ва озиқ моддаларни самарали ўзлаштириш қобилиятига эга.

Ўсимликлар намунасини танлаш

Қорақалпоғистон ҳудудида шўрланган тупроқларда етиштириладиган *Amaranthus L.* туркумига мансуб айрим ўсимликлар танланди. Танланган ўсимликлардан намуналар олиниб, уларнинг биоэкологик хусусиятлари ўрганилди. Уларнинг ўсиш суръати, шўрланган муҳитга мослашуви ва маҳсулдорлиги каби параметрлар таҳлил қилинди.

Тупроқнинг химиявий таҳлили

Тадқиқот учун тажрийба жойидаги ҳудудлардан тупроқ намуналари олиниб, улардаги шўрланиш даражаси лаборатория шароитида таҳлил қилинди ва таҳлил натижаси тупроқнинг уртача шўрланганлиги аниқланди.

Натижалар ва муҳокама

Тадқиқот натижалари шўрланган тупроқларда *Amaranthus L.* туркумига мансуб ўсимликлар яхши ўсиш қобилиятига эга эканлигини кўрсатди.(1-расм) Уларнинг шўрланишга чидамлилиги ва сувни самарали ўзлаштириш қобилияти ушбу ҳудудда юқори маҳсулдорликка эришиш имконини беради. Бу ўсимликлар шўр тупроқларда ҳам барқарор ўсишни таъминлайди ва тупроқ шўрланиши даражаси юқори бўлган жойларда ҳам катта ҳосил беради.

Тадқиқот жараёнида олинган тупроқ намуналари химиявий таҳлил қилинди. Анализ натижалари шўрланишнинг юқори даражада эканлигини кўрсатди, хусусан, тупроқда натрий хлорид ва бошқа тузларнинг концентрацияси юқори бўлгани қайд этилди. Тупроқларнинг РН кўрсаткичлари асосан ишқорий муҳитга мос келиб, бу ҳам шўрланиш даражасининг юқори эканлигидан далолат беради.

Шўрланишга қарамасдан, *Amaranthus L.* туркуми ўсимликлари ушбу шароитларда ҳам яхши ўсишни давом эттирди. Бу ўсимликлар тупроқ шўрланишига мослашиб, унинг таъсирини минималлаштириш қобилиятига эга

эканлиги аниқланди. Бу уларнинг шўрланган муҳитда ҳосилдорлигини сақлаб қолишига ёрдам беради. Шўрланган тупроқларда *Amaranthus L.* туркуми ўсимликлари етиштиришнинг агротехник аҳамияти катта. Бу ўсимликлар нафақат озуқа ва хўжалик учун қимматли манба бўлиб хизмат қилади, балки тупроқнинг шўрланишини камайтиришга ҳам ҳисса қўшиши мумкин. Ушбу ўсимликлар шўрланган тупроқни қайта тиклаш ва экологик мувозанатни сақлаш борасида самарали ечим сифатида тавсия этилади. Олинган натижалар асосида шуни таъкидлаш мумкинки, *Amaranthus L.* ўсимликларини Қорақалпоғистондаги шўрланган тупроқларда етиштириш нафақат ҳосилдорликни ошириш, балки шўрланишни камайтиришнинг ҳам самарали усулидир. Бу ўсимликлар шўрланган муҳитга чидамли бўлганлиги сабабли, уларни кенгайтирилган ҳолда аграр соҳада қўллаш тавсия қилинади.



(1-расм) Amaranthus L.

Хулоса ва тавсиялар. Қорақалпоғистон ҳудудида шўрланган тупроқларда *Amaranthus L.* туркумига мансуб айрим ўсимликлар яхши ўсиш қобилияти ва шўрланишга чидамлилиги билан ажралиб туради. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, ушбу ўсимликлар шўр муҳитга мослашувчанлиги туфайли агротехник аҳамиятга эга бўлиб, шўрланган тупроқларда ҳам юқори ҳосилдорликка эришиш имконини яратади.

Тупроқнинг химиявий таҳлили шўрланиш даражаси юқори эканлигини тасдиқлади, бироқ *Amaranthus L.* туркуми ўсимликлари бу шароитларда ҳам самарали ривожланди. Тупроқ шўрланишини пасайтириш ва ушбу ўсимликлардан фойдаланиш орқали қишлоқ хўжалиги маҳсулдорлигини ошириш мумкин. Тадқиқот шуни кўрсатадики, шўрланган тупроқларни қайта ишлаш ва шўрланишга чидамли ўсимлик турларини етиштириш Қорақалпоғистон ҳудудида қишлоқ хўжалигини ривожлантириш учун самарали ечим бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Шугушева Л.Х. Эколого-биологические особенности амаранта в условиях КБР//Успехи современного естествознания. – 2015- №9. - С. № 9 (часть 3) – С. 528-531.
2. Amaranthus species: A promising crop for arid regions. *Journal of Plant Science*, 34(3), 215-220.
3. http://www.rusoliva.ru/vyrashchivanie-amaranta
4. "Amaranth: Composition, Properties and Applications" - Robin O. Buckwheat (2019)
5."Amaranth: Modern Prospects for an Ancient Crop" - M. Anwar-ul-Haq, Iqrar Ahmad Khan (2005)

SHIMOLI-G‘ARBIY QIZILQUMDA TARQALGAN KATTA QUM SICHQONNING (RHOMBOMYS OPIMUS) SERPUSHTLIGINING KO‘PAYISHI

Samandarov O.K. (PhD), Allamuratov B.J. (PhD)

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Annatatsiya: Moqolada Qizilqumning Nukus qumi uchastkasida tarqalgan Katta qum qumsichqoning (Rhombomys opimus) ning ko’payish davri haqida málumot berilgan. Málumki,depressiya vaqtida katta qum sichqonining soni kúpincha guruhlar shaklida mavjud koloniyalar saqlanib qoladi.

Kalit so’z:Ko’payish, tarqalish, soni, embriyon miqdori.

В статье приведены сведения о периоде размножения большой песчанки (Rhombomys opimus), распространенной в Нукусском песчаном участке Кызылкумов ,известно, что в депрессиях численности большой песчанки часто сохряняются в виде групп с различным количеств жилой колоний.

Ключевые слова: размножение, распространение, количество, количество эмбрионов.

Abstract: *The article presents information about the breeding season of the great gerbil (Rhombomys opimus), common in the Nukus sandy area of the Kyzylkum region. It is known that in depressions the numbers of the great gerbil are often preserved in the form of groups with different numbers of residential colonies*
Key words: Reproduction, distribution, quantity, mumber of embryos.

Shimoli-g‘arbiy Qizilqumda katta qumsichqonining 2023-2024-yillardagi soni va ko‘payishi bo‘yicha kuzatuvlar Nukus gryada-uyali qumlari hududida olib borildi. Material turli mavsumlarda, shu jumladan qish mavsumida ham to‘plangan. Hammasi bo‘lib 220 ta qumsichqon ovlandi va tekshirildi.

Nukus qumi sharoitida katta qumsichqon ma’lum yashash joylariga mavsumiy bog‘langan [1,s.52-54; 3, s.125.]. Erta bahor davrida katta qumsichqonning ko‘payishi va asosiy yashash joylariga tarqalishi boshlanadi. Katta qumsichqon asosan o‘t o‘simliklarning yashil qismlari va butalarning, ayniqsa saksovulning shoxlari bilan oziqlanadi. Bahorda efemerlar, bahor oxiridan kuzgacha esa saksovul va boshqa daraxtsimon sho‘ralarning yashil novdalari, shuningdek, yantoq, jing‘il, qandim, yulg‘un, shuvoq asosiy ozuqa hisoblanadi. Kuzda saksovul va boshqa butalar novdalarining katta zaxiralari qumsichqonlarga yig‘iladi [4,s.28-29; 2, s.28-29].

1-jadval

Nukus qumlarida katta qumsichqonning ko‘payish dinamikasi.

Yillar	Sichqonlar soni	Jami							Embrion soni									Emrion soni
		Yoshlari		kattalari		Balog‘atga yetganlari			3	4	5	6	7	8	9	10	11	
		♂	♀	♂	♀	Búgoz	Tuuqqan	Qisir qolgan										
2023	96	19	17	32	28	15	11	2	3	8	7	1	-	-	-	-	-	82
		42,2%		29, 2%	28, 6%	39%	45,8%	15,2 %	47,8%		43,5%			8,7%				
2024	120	21	24	31	34	15	16	3	6	3	4	2	4	2	-	-	-	106
		30,3%		32, 4%	37, 3%	41%	36%	23%	36%		40%			24%				
Jami	216		41	63	62	30	27	5	27	44	55	18	42	24	-	-	-	202
		33,6%		33 %	33, 3%	41,3 %	34,2%	24,3 %	31,2%		46,1%			21,7%				

2-jadval

Qizilqumning Nukus qumi katta qumsichqon populyatsiyasining jinsiy strukturasi.

Yillar	Ushlangani		
	Jami	erkak (%)	Urǵochi (%)
2023	96	51,1	48,9
2024	120	52,2	47,8
всего	216	53,7	46,3

Kuzatuvlar erkaklarining urg‘ochilaridan ustunligini ko‘rsatdi (2-jadval). Ehtimol, bunda erkaklarining birmuncha ko‘proq harakatchanligi va faolligi o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

3-jadval

Kuzatuv yillarida katta qumsichqonidagi embrionlar soni.

Yillar	Tanasini yorib kurilgan urǵochilari	Embrion soni	
		Urtacha	tebranish chegaralari
2023	28	4,5	2-6
2024	34	4,6	1-8

Yiliga ikki generatsiyaga ega bo‘lgan katta qumsichqonida embrionlar soni yillar bo‘yicha keskin o‘zgarib, deyarli 36% ga ko‘paygan yoki kamaygan (3-jadval). Ko‘payishda barcha urg‘ochilarning 92-96% ishtirok etgan. Tezakda 1-8 tadan bolachalar kutib olindi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1.Асенов Г.А., Сайымова З.У., Шаниязов О.Б. Половозрастная структура популяции большой песчанки на Нукусском участке Кызылкумов в период их расселения // Материалы Междун. науч.- прак. конфер., Нукус, 2004.- с.52-54

2.Мамбетуллаева С.М., Асенов Г.А. Анализ влияния комплекса факторов на динамику численности большой песчанки в Каракалпакских Кызылкумах // Вестник ККО АН РУз.- Нукус.- 1999.- №1.- стр. 28-29

3.Реймов Р.Р. Грызуны Южного Приаралья.- Ташкент, 1987.- 125 с.
4.Шаниязов У.С., Мамбетуллаева.С.М Особенности репродуктивных процессов у фоновых видов грызунов в условиях Южного Приаралья.. Евразийский Союз Учёных (ЕСУ) #8(65), 2019.

CCL_4 БИЛАН ЧАҚИРИЛГАН ТОКСИК ГЕПАТИТДА КАЛАМУШ ЖИГАР МИТОХОНДРИЯСИНИНГ АЙРИМ ФУНКЦИЯЛАРИНИ ЎЗГАРИШ ДИНАМИКАСИНИ ТАҲЛИЛИ

О.М.Турдиева [1]. катта ўқитувчи
Ҳ.К.Каххоров [2],талаба
Ғ.М.Маҳкамов [3], катта ўқитувчи
Қўқон Давлат Университети[1,3], Қўқон шаҳар
Фарғона Жамоат Саломатлиги Тиббиёт Институти[2] , Фарғона шаҳар
odinaxonturdi.27@.gmail.com.

Аннотация. Ушбу ишда CCl_4-билан чақирилган токсик гепатит шароитида каламуш жигар митохондриясидаги бир қанча функциялар ўзгаришларига госситан ва гетасаннинг таъсири ўрганилган. Токсик гепатит моделини чақириш учун тажриба гуруҳи каламушларига 50% ли тетрахлорметан (CCl_4) билан 0,5 мл/кг дозада ҳар 3 кунда бир мартадан юборилган. Госситан ва гетасан полифенол бирикмалари токсик гепатитда жигар митохондрияси пассив ион транспортини ортишига, АТФга боғлиқ калий канали фаоллигини ўзгаришига, mPTP функциясига ижобий тасир қилган холда уни коррекциялади.

Калит сўзлар: жигар, гомогенат, тетрахлорметан, антиоксидант, госситан, гетасан, кверцетин.

Гепатоцитлар жигарнинг ўзига хос функционал ҳужайралари бўлиб, жигар массасининг 70-85% ни ташкил қилади. Улар метаболик, секреция ва сақлаш функцияларини ўз ичига олади ва сўрилган озиқ-овқат таркибий қисмларининг биокимёвий қайта ишлайди. Жигар липидлар ва углеводлар метаболизмини амалга оширади, оқсиллар ва қондаги аминокислоталар

даражасини тартибга солади. У гликогенез орқали глюкозадан гликоген, липидлардан липопротеинлар, плазма оқсиллари, ивиш омиллари ва биомолекулаларнинг биосинтезида иштирок этади. Бундан ташқари, жигар эндокрин тизимининг бир қисми бўлиб, инсулинга ўхшаш ўсиш гормони (Insulin-like Growth Factor-1 IGF-1), ангиотензиноген, тромбопоэтин, гепсидин ва бетатрофин каби бешта муҳим гормонни синтез қилади [Gopinathan S., 2016]. Жигар ҳужайралари турли токсик моддалар учун нишон бўлиб, бунда унинг генератори ҳисобланган митохондриялари зарарланади. Шунингдек, жигар митохондриялари гликолиз жараёнида иштирок этиб, субстратлар иштирокида Кребц циклида асосий рол ўйнайди. Турли ксенобиотиклар таъсирида жигар митохондрияларида эркин радикаллар миқдори ортиши, антиоксидант ҳимоя тизими ўзгариши ва мембранавий бузилишлар амалга ошиши мумкин. Ушбу бобда, токсик гепатит пайдо бўлишига олиб келувчи омиллар ҳамда улар таъсирида молекуляр физиологик жараёнларни бузилишлари тўғрисидаги маълумотларга эътибор қаратилади CCl_4 нинг классик токсиклиги жигар шикастланиши ва фиброзини келтириб чиқаради. Жигар фибрози бу жигар циррози, ҳатто гепатокарциномага ўтиши мумкин бўлган сурункали жигар касаллигининг натижасидир. Аммо, CCl_4 билан чақирилган жигар зарарланишининг токсикологик механизмлари тўлиқ ўрганилмаган. Оқ зотсиз эркак каламушларни CCl_4 билан ҳар 3 кунда бир марта 3 ҳафта давомида токсик гепатит модели чақирилди ва қондаги АЛТ ҳамда АСТ ферментлари текшириб борилди. Токсик гепатит модели ҳайвонларига суткасига бир марта 3 ҳафта давомида полифенол бирикмалар юборилди. Коррекция қилинган каламуш гуруҳларида ҳам ферментлар аниқлаб борилди. Каламушларда 6 ҳафта давомида токсик гепатит ривожланиши ва фармакотерапия таъсирида жигар митохондриясининг айрим функционал фаолликлари ўзгариш динамикаси аниқланди.

Тадқиқот материаллари ва усуллари. Тадқиқотда, CCl_4-билан чақирилган токсик гепатитда каламуш жигар митохондриялари дисфункциясини госситан, гетасан полифеноллари ва кверцетин флавоноиди

ёрдамида коррекция қилинди. Токсик гепатит чақирилган ҳайвонларга госситан полифеноли 50 мг/кг, гетасан 50 мг/кг ва кверцетин 50 мг/кг миқдорда суткасига бир марта 20 кун давомида перорал киритилганда, уларнинг жигар митохондриялари дисфункциясини коррекцияловчи таъсир механизмлари илк бор аниқланди.

Хулоса. Гепатопротектор хоссага эга бўлган ушбу бирикмалар токсик гепатит шароитида митохондрия мембранасининг ЛПОни камайтирди, mPTP юқори ўтказувчанлигини ингибирлаши аниқланди. Гепатопротектор хоссага эга моддаларни токсик гепатит шароитларида каламуш жигари митохондрияларининг дисфункциясини коррекцияловчи таъсир этиши келгусида янги жигар касалликларига қарши препаратлар яратишга назарий ва амалий асос бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Madrigal-Santillán E., Madrigal-Bujaidar E., Álvarez-González I., Sumaya-Martínez M.T., Gutiérrez-Salinas J., Bautista M., Morales-González Á., García-Luna y González-Rubio M., Aguilar-Faisal J.L., Morales-González J.A. Review of natural products with hepatoprotective effects // World J Gastroenterol – 2014. – V. 20. (40): – P. 14787-14804.

2. Абдулладжанова Н.Г., Мавлянов С.М., Салихов Ш.И., Камаев Ф.Г. Новые полифенольние соединение сем. Euphorbiaceae // ДАН РУз. – 2011. – №3. – С. 60-62.

3. Douhri B., Idaomar M., Skali Senhaji N., Ennabili A., Abrini J. Hepatoprotective effect of Origanum elongatum against carbon tetrachloride ccl4 induced toxicity in rats // European Journal of Medicinal Plants – 2014. – V.4 (1): – P. 14-28.

4.Eidi A., Mortazavi P., Bazargan M., Zaringhalam J. Hepatoprotective activity of cinnamon ethanolic extract against ccl4-induced liver injury in rats // EXCLI Journal – 2012 – V.11: – P. 495-507.

O’SIMLIKLAR HAYOTIDA QUSHLARNING AHAMIYATI

Rahimova I., Zaripova L., -talaba

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Qush va boshqa ko’pchilik hayvonlarning hayotiy tsikli yashash muhiti bilan chambarchas bog’liq bo’lib, yil davomida mavsumlarga qarab o’zgarib turadi. Qushlarning ko’payishi yil fasllarining jo’jalarini boqish uchun eng qulay, oziq mahsulotlari mo’l bo’lgan bahorgi davrga to’g’ri keladi. Qushlar yillik hayotiy tsiklini ko’payishga tayyorlanish, ko’payish, qisning sovuq kunlariga tayyorlanish va qishlash davrlariga bo’linishi mumkin. Qushlar boshqa barcha tirik organizmlar singari nasl qoldirishga intiladilar. Bu instinkt avlodlar osha takomillashib boradi. Bularning ko’payish davri atrof-muhit, tabiatning uyg’onishi, ularning jo’jalari uchun oziq-ovqatning mavjudligiga qarab nasl qoldiradi. Asosan, o’simliklar bilan oziqlanuvchi qushlar erta bahordan nasl qoldirish harakatlari, tuxum ochishi boshlanib ketadi. Jo’ja ochishi bilan ular o’z bolalarini oziqlantirishga o’tadi. Ana shu jo’jalarini boqishga kirishishi bilan o’simliklar hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, jo’jalarini boqish orqali ularni oziqlantirish davomida agrocenozlardan o’simliklarga zarar beruvchi hasharot va ularning lichinlalarini tutib olib keladi. Qushlar o’zlari bilmagan holda o’simliklarning hosildorligi oshishiga yordam beradi. Birgina tur, chumchuqlarni qirib tashlash orqali Xitoy tarixida misli ko’rilmagan darajada ochlik hukm suradi va ko’pgina odamlar asosan qariyalar va kasalligi mavjud insonlar vafot etadi. Bunda o’simlik hosilini chumchuqlar yeb ketyapti degan tushuncha bilan ularni qirib tashlaydi. Natijada Xitoy qishloq xo’jaligi ekinlarining zararkunandalari oshib ketib, hosildorlik oldingi yillardagidan ancha pasayib ketadi. Shunday ekan, qushlar belgili bir miqdorda donli ekinlarni yeb ketishi mumkin, lekin zararkunandalarni qirib hosildorlik oshishiga yordam beradi. Bu esa o’simliklar hayotida juda katta ahamiyatga ega. Tabiatda shunday qushlar borki, ular barcha fasllsrda va hamma vaqt zahira oziq moddalarini to’plab yuradi. Ya’ni, o’simlik qoldiqlari, urug’larini, mevalarini olib uchib ketadi va ma’lum bir joyga borib, belgi qo’yib tuproqqa zahira oziq sifatida ko’mib qo’yadi, adabiyotlardan tahlil qilishimiz bo’yicha ular tomonidan tuproqqa ko’milgan o’simlik meva va urug’larining 30 dan 70%gacha qayta qazib olinmaydi yoki ko’milgan zahira oziqlarni topa olmay qoladi, ayrim vaqtlari zahira to’plagan qush nobud bo’ladi. Buni kuzatishlarimizda ham ko’p

marta uchratdik. To’qayzorlarning chekka hududlarida oq jo’xori o’sib turganini, to’qayzorda o’rik o’sib turganini va shunga o’xshash ariq atrofida uzum o’sib turganlari qayd etildi. Bu tasodifan o’sib turgan o’simliklarni har kuni kuzatish ishlarini olib borganimizda, oq jo’xori unib turgan joy atrofiga asosan qarg’a, hakka, musichalar tez-tez uchib kelib turdi. Shu o’simliklar artofida oddiy qora go’ng qarg’a boshqa qushlarga nisbatan ko’proq qayd etildi. Kuzatishlarimizda xuddi shunday qayd etilish o’rik o’simligi atrofida ham qayd etildi. Oq jo’xori pishishga yaqinlashganda qushlar turi ko’payib, ular orasida chumchuqlar nisbatan ko’proq qayd etildi. Ariq bo’yidagi tasodifan o’sib turgan uzumning atrofida asosan Hindiston maynasi qayd etildi. Buni biz kuzatishda davom etganimizda maynalar shu ariqqa asosan suv ichish uchun keladi ekan. Lekin kuzatishlarimizda ular uzum mevalarini tuproqqa zahira oziq sifatida ko’mayotganlari qayd etilmadi. Soha mutaxassislari ma’lumotlariga ko’ra, maynalar ertaki uzum mevalari g’arq pishganda boshqa mevalar pishib ulgurmagan bo’ladi ekan. Shu sababli maynalar ochko’zlik qilib, ko’proq uzum mevalarini yeb qo’yib, ariq bo’ylariga suv ichishga boradi ekan. Shu joyda hali to’liq hazm bo’lib ulgurmagan uzum mevalarini qush go’ngi bilan birga tashqariga chiqarib yuboradi va optimal muhitga tasodifan tushib qolgan uzum urug’lari unib chiqadi ekan. Bunday hodisalarni juda ko’plab kuzatdik, olma, o’rik, nok daraxtlari tagidan tasodifan unib chiqqan uzumlarni qayd etdik. Shunda, bu bog’ egalaridan so’raganimizda, bu daraxtlarning tagidagi uzumlarni qachon ekkansiz yoki kim ekkan? Deganimizda ularning aksariyat qismi tayinli javob bera olmadi, ayrimlari juda yaxshi eslayman u o’zi ko’karib chiqdi, juda nimjon edi, begona o’tlar orasidan bargini tanib, bu uzummi? Deb parvarish qilganman va keyinchalik yaxshi o’sib ketgan, 4-5 yildan ortiq meva beryapti, boshqalarini ko’chirib o’tkazdim deydi. Va biz ularning qanday mevali, qanday nav ekanligiga qiziqdik, biz kutganimizdek ertaki, mayizbop uzum navlari ekanligi qayd etildi.

O’simliklar hayotida boshqa organizmlar singari qushlar ham alohida ahmiyatga ega. Ular asosan o’simliklarning changlanishida, urug’larining tarqalishida va zararkunanda organizmlar sonini cheklab turishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш.Т.Хўжаев Ўсимликларни уйғунлашган ҳимоя қилиш Тошкент 2018
2. kun.uz sayti

ЛОКАЛИТЕТЫ ЦЕНОПОПУЛЯЦИЙ *EUPHORBIA SCLEROCYANTHIUM* В КАРАКАЛПАКСКОМ УСТЮРТЕ

Тамамбетова Шахигул Байратдиновна, Шимбергенова Манзура Баймурза кизи,

Преподаватель кафедры ботаники, экологии и методики ее преподавания, магистрант 1 -курса,

Нукусский государственный педагогический институт,

Euphorbia sclerocyanthium - один из немногих редких эндемов островных и Прикаспийских регионов, обладающих потенциалом активного вегетативного размножения.

Вид чрезвычайно интересный, как по своей морфологии. так и по своему reoграфическому распространению. Ero родственные связи к другим родам до сих пор не установлены. Авторы вида в своем диагнозе отмечают ero обособленное положение. Возможно, что представляемый им родосколок африканской растительности. Ареал этого растения тоже чрезвычайно любопытен. Вне отмеченных местонахождений, простирающихся узкой полосой между восточным берегом Каспия и окраиной Усть-уртской возвышенности, этот вид нигде более не наблюдался [3, с. 336].

Euphorbia sclerocyanthium распространён в Узбекистане (Каракалпакстан, Устюрт), Казахстане (Мангишлок), Туркменистане (Каракумы, Красноводск).

Вид произрастает в местах, отличающихся формами рельефа, механическим составом почвы[1, с. 82-84]. Однако территории с поверхностным расположением солёных почв и материнской породы считаются подходящими для данного вида В островном регионе вид широко распространен в каменистых и песчаных пустынях, на засоленных серо-бурых и гипсовых почвах [5, с. 27-32].

Геоботанические описания локалитетов*Euphorbiasclerocyathium*выполняли на территории Каракалпакского Устюрта, по общепринятой методике на площадках 100 м2. [2, с. 230; 4, с. 447].




Рисунок 1. *Районы распространения Euphorbia sclerocyathium*

Биоклиматическое моделирование Euphorbia sclerocyathium было выполнено в программе MaxEnt (Phillips, dudik, 2008) на основе модели максимальной энтропии. При этом использовались 15 локализаций вида

Таблица 1.

*Euphorbiasclerocyathium*локалитетлари

ID	**Кординаты**		**Место собрынный гербарий**	**Страна**
1	56,033383°	43,033797°	Устюрт, Қос кудук(TASH)	Ўзбекистон
2	56,279167°	43,036111°	Джан қудуғи атрофи (TASH)	Ўзбекистон
3	56,432725°	42,539339°	Устюрт, Ассакеаудан (дала тадқиқоти маълумотлари)	Ўзбекистон
4	56,408350°	42,582583°	Устюрт, Ассакеаудан (дала тадқиқоти маълумотлари)	Ўзбекистон
5	56,481306°	42,949344°	Устюрт, Карабаур(дала тадқиқоти маълумотлари)	Ўзбекистон
6	57,275833°	42,992222°	Устюрт, Карабаур(дала тадқиқоти маълумотлари)	Ўзбекистон
7	56,286389°	42,610833°	Устюрт, Шахпахта (дала тадқиқоти маълумотлари)	Ўзбекистон
8	56,339169°	42,631603°	Устюрт, Шахпахта (дала тадқиқоти маълумотлари)	Ўзбекистон

9	57,349792°	43,286978°	Устюрт,Табын-су(TASH)	Ўзбекистон
10	57,633222°	43,830817°	Устюрт, Кара- кудук(TASH)	Ўзбекистон
11	56,092000°	41,378000°	Устюрт, Капланкир (дала тадқиқоти маълумотлари)	Ўзбекистон
12	56,049678°	41,367797°	Устюрт, Капланкир (дала тадқиқоти маълумотлари)	Ўзбекистон
13	56,062553°	41,358650°	Устюрт, Капланкир (дала тадқиқоти маълумотлари)	Ўзбекистон
14	57,569386°	43,230311°	Устюрта "Барса Келмес" (TASH)	Ўзбекистон
15	53,174867°	40,111333°	Красноводское плато (TASH)	Туркманистон

Наиболее интересным является тот факт, что эндем островной зоны *Euphorbia sclerocyanthium* также распространен на этих освоенных участках, ширина ареала распространения, лабильность к почвенным условиям, биологические особенности отмечают критическое рассмотрение состояния вида с точки зрения сохранения.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1.Белоусова Л.С., Денисова Л.В., Никитона С.В. Редкие растения СССР. – Москва, 1979. – С. 82-84.
2.Полевая геоботаника / Под общей редакцией Е.М. Лавренко и А.А. Корчагина. – М.: Наука, 1964. – Т.3. – 230 с.
3.Проханов Я.И. Род *Euphorbia* – молочай. // Флора СССР. –Москва, 1949. Т. 14. – С. 336-337.
4.Шенников А.П. Введение в геоботанику. – Ленинград: Наука, 1964. – С. 447. 11
5.Шубенкина Е. Ю. Об *Euphorbiasclerocyathium*Korov. et M. Pop.-молочае жесткозонтиковом // Изв. АН ТуркмССР, сер. биол. Наук, – 1985.–№5. – С.27–32.

ДИНАМИКА СОСТОЯНИЯ ГИДРОФИЛЬНОЙ РАСТИТЕЛЬНОСТИ ЗАЛИВА САРБАС

Бектурсынов А.Б.

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Заросли водных растений играют важную роль в жизни обитателей водоемов. Они служат пищей, местом нереста, зимовок и укрытия рыбам, птицам, беспозвоночным и др. животным, имеют важное значение в самоочищении водоемов. Также водные растения имеют важное значение в самоочищении водоемов.

Исследователями неоднократно было отмечено положительное значение для нереста и нагула рыб таких растений, как уруть, рдест гребенчатый, наяда морская, манники, зостеры и др. На побегах этих растений всегда наблюдается богатое обрастание из бентосных водорослей и животных.

Залив Сарбас (Рыбачий залив) водохранилище созданное на месте бывшего залива Аральского моря. Водохранилище образовано построением в северной части подпорной дамбы с двумя водовыпусками. Общая длина дамбы составляет около 8 км, максимальная высота до 7 м. Грунт илистый, в отдельных местах песчаный. Дно ровное, средняя глубина 1-1,5 м, максимальная до 4 м [2].

Обводнение залива Сарбас высохшего к 1974 г. было начато с 1982 г. за счет стока Амударьи, но поступление воды было эпизодическим и небольшого объема. В 1990 г. впервые были обводнены около 1,5 тысяч га площади залива. К весне 1991 года площадь обводнения достигла уже четырех тысяч гектаров. Вода в залив поступает из Междуречья через канал Маринкин и имеет сток по Гончар-узяку в Инженер-узяк (протока Амударьи); емкость водохранилища 135 млн. $м^3$. Летом 1992 г. в северо-западном углу озера случился прорыв, что привело к осеннему обсыханию и сильному обмелению значительной части водоема. Такие прорывы подпорной плотины случались и позже и способствовали резкому колебанию уровня воды. В целом был создан

относительно стабильный, в пределах 4 тыс. га водоем с максимальной глубиной до 4 м и преобладающими глубинами 1-1,5 м. Однако в маловодные 2000-2001 годы вода сохранилась не более, чем на 500 га. В 2002 г. была обводнена вся площадь [1].

В маловодные 2007-2008 гг. обсохли большинство рыбохозяйственных водоемов Каракалпакстана. В Сарбасе обсохло в те годы около 80% его акватории. Минерализация воды на отчлененных плесах достигала 16 г/л. В 2009 г. и особенно в 2010 г. с ростом притока амударьинской воды акватория залива постепенно восстановилась. Минерализация воды была в пределах 1,6-1,8 г/л, средние глубины около 1,5 м [2].

При нестабильном водном режиме трудно наблюдать естественную смену растительных сообществ на водоемах дельты Амударьи. В зависимости от поступления воды быстро меняется глубина и береговая линия водоемов, а также, минерализация и температурный режим. Мелководные участки легко прогреваются и легко охлаждаются.

Зарастаемость водоема погруженными растениями очень высокая. Самым преобладающим видом из погруженных растений является *Myriophyllum spicatum* и *Potamogeton crispus*. В весеннее и летнее время *M.spicatum* и *P.crispus* образуют сплошные, густые заросли, что даже препятствуют передвижению на лодке.

Прибрежные южные, юго-восточные части представлены зарослями тростника, рогоза и осок. Тростниковые заросли используются местным населением в качестве корма для скота, и из-за интенсивного скашивания почти не образует густых зарослей. В побережьях северной части вдоль дамбы тростник образует очень редкие заросли. Формация тростника *Phragmiteta* представлена тростниковой, рогозово-тростниковой, разнотравно-тростниковой ассоциациями. С изменением экологических условий, в основном гидрорежима водоема площадь их распространения резко меняется.

Из водопогруженных растений распространены главным образом, *Myriophyllum spicatum, Potamogeton crispus, Potamogeton perfoliatus,*

Potamogeton pectinatus, Najas marina, Ceratophyllum demersum. Мелководные разливы покрыты невысокими зарослями рогоза *Typha angustifolia, Schoenoplectus litoralis, Acorellus pannonicus, Bolboschoenus maritimus*. В маловодные годы прибрежные части озера покрываются зарослями гребенщика. Молодые проростки гребенщика постоянные компоненты зарастания обнаженных озерных литоралей.

Среди водопогруженной растительности в основном доминируют ассоциации урути колосистой, который местами образует сплошные чистые заросли. Из видов рдеста, преобладающим является рдест курчавый, который также принимает активное участие в зарастаний водоема. Наиболее распространены ассоциации урути с рдестом стеблеобъемлющим и с другими водными растениями. Широко распространено и сообщество рдеста курчавого с другими водными растениями.

Использованная литература:

1. И.М.Жолдасова, Л.П.Павловская, С.К.Любимова, Б.К.Уразымбетова, Р.У.Темирбеков. Рыбохозяйственные водоемы дельтовой зоны Амударьи и проблемы устойчивого использования их ресурсов // Вестник ККО АНРУз. Нукус. 2002. №5-6.

2. Темирбеков Р.О., Аденбаев Е., Мусаев А.К., Бектурсынов А., Жолдасова И.М. Рыбохозяйственный статус залива Сарбас // Материалы Республиканской научно-практич. конф. «Достижения, перспективы развития и проблемы естествознания», (29-30 апрель, 2011 г.). КГУ им. Бердаха, Нукус, 2011 г.

ÁMIWDÁRYA TÓMENGI ALABÍNÍŃ FLORISTIKALÍQ HÁR TÚRLILIGI

Allambergenova N.B., Ájiev A.B.

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Qubla Aral boyında shól hám ıǵallı aymaqlar ózine tán tárizde bir-biri menen baylanısadı. Bul ıǵallı aymaqlardı tábiyǵıy hám antropogen aymaqlarǵa ajıratıw múmkin. Ámiwdárya deltası júdá kúshli ózgerislerge ushiragan tábiyiy deltaga kiredi. Batpaqlı ekosistemalar hám ıǵallı aymaqlar ekosistemaları dárya hám jaǵa boyları ekosistemalarına uqsas, biraq olardan parıqlı túrde suw boslıqları maydanınıń úlkenligi hám uliwma ıǵallılıq dárejesiniń joqarılıǵı menen ajıralıp turadi.

Ámiwdárya deltası.

Ámiwdáryanıń házirgi deltası Nókis qalasınan tómende jaylasqan bolıp, azıraq qıyalı hám kóp sanlı tarmaqlı tegislikten ibarat. Delta kóp sanlı tarmaqlardan quralǵan (Taldıq. Qazaqdárya hám basqa) hám 700 mıń gektarga jaqın maydandı iyeleydi. 1960-jıllardıń ortalarınan baslap az suwlı jıllarda Ámiwdárya Aral teńizine barmaydı. Dáryanıń deltaga aǵısınıń qısqarıwı hám Aral teńizi jaǵalarınıń sheginiwi nátiyjesinde 50 den aslam dushshi suwlı kóller qurıdı, togay maydanları 2 ese, qamıslıqlar 6 ese azaydı. Iri kanallardan izey suwlardı ótkeriw esabınan Qońırat, Sudochi, Mejdurechensk hám Qarajar kól sisteması jáne ulıwma maydanı 99 mıń gektar bolǵan Toǵiztóre, Dawkempir, Qazaqdárya, Dawıtkól, Dawqara hám Aqpetki kól sistemaları basqıshpa-basqısh qayta tiklendi.

Topıraqları otlaqlı, batpaqlı hám shorlı. Ámiwdárya deltasınıń klimatı keskin kontinental. Temperatura iyulde 25-260C, fevralda -10-130C. Jawın-shashın jılına 110-150 mm.

Deltada eki túrli ósimlik-togay hám qamıslı ósimlikler rawajlangan bolıp, onda qamıslı ósimlikler ústinlik etedi. Otlaqlı hám otlaqlı-allyuvial topıraqlarda gigrofitler: qamıs, qamıs, qıyaqlar ósedi. Qamıslı ósimliklerdiń kóp jıllıq togayları ayırım jerlerde qalqıwshılardı payda etedi.

Ámiwdáryanıń tómengi bólimi - kóplegen suw-batpaq quslarınıń tariyxıy qáliplesken uyalaytuǵın hám máwsimlik migraciyası waqtında toplanatuǵın orınları. Bul jerde qızǵish reńli hám buyra pelikanlar, qaraqulaqlar, úlken baklanlar, hár qıylı túrdegi qoyanlardıń úlken koloniyaları bar. Soniń menen birge aq quw, kók quw, kóplegen dárya hám súńgiwshi úyrekler, qalqan, qasqır, qamısqus, shaǵala, shaǵala hám qırıqqulaqlar da uya saladı.

Sońǵı 40 jılda Aral teńiziniń qáddi 15 metrden kóbirekke tómenledi, sonıń ushın suwdıń minerallasıwı keskin kóterildi (2019-jılı 57 g/l den aslamdı quradı) hám teńiz ultanınıń shorlanǵan jınıslardan ibarat úlken bólimleri bosap qaldı. Suwdıń minerallasıwınıń artıwı hám jer astı suwları qáddiniń páseyiwi menen teńizdiń jaǵalaw bóliminde minerallasıwdıń artıwına shıdamlı bolmaǵan qamıs, qamıs hám basqa gidatofitlerdiń kóplep qırılıwı júz berdi. Xara suw otları - Chara intermedia,

S.tomentosa rawajlanıwı baqlanadı. Qamıs, qamıs hám qamıslar galofitler menen almastırıladı: Halocnemum strobilaceum, Chenopodium glaucum, Suaeda microphylla, Salsola micranthera.

Biraq, sonı da atap ótiw kerek, teńiz sheginiwi hám 40 jıl aldın ashılıp qalǵan Aral teńiziniń burıngı ultanınıń topıraq hám jer astı suwlarınıń áste-aqırın shorlanıwı menen psammo- hám kserofit túrleri ástelik penen ósip barmaqta, biraq jámáátler quramında galofitler elege shekem ústinlik etpekte.

Orta Aziyanıń eki ullı shóliniń tutasqan jerinde jaylasqan Ámiwdáryanıń tómengi bólimi ekologiyalıq sharayatınıń hár qıylılıǵı boyınsha siyrek ushırasatuǵın tábiyiy aymaqlardı óz ishine aladı: Ámiwdárya oypatlıǵı hám deltası, Aral teńiziniń qubla jaǵası, Qusqanataw, Beltaw, Qızıljar, Krantaw, Toqmaqata hám Sultanwaystaw pás tawları.

Ekologiyalıq sharayatlardıń hár túrliligi floranıń bay túrler quramın belgilep berdi. Ózbekstan Respublikası Ilimler Akademiyası Qaraqalpaqstan bóliminiń Bioekologiya institutınıń gerbariy materialları boyınsha 210 túrkum hám 65 tuqımlasqa tiyisli 655 túr, yaǵnıy Qubla Aralboyı florasınıń 66,8% den aslamı bar. Bular qatarına tábiyiy cenozlarda ushirasqan barlıq joqarı sporali ósimlikler: qırıqbuwınlar, paporotnikler, ashiq tuqımlılar, efedralılar hám jabıq tuqımlılar (eki hám bir tuqımlılar) kirgizilgen.

Floranın tiykarın jabıq tuqımlılar quraydı. Qırıqbuwınlar, paporotnikler, ashiq tuqımlılar az - jámi 8 túr: Equisetum raimosissimum, E. arvense, Salvinia natans, Ephedra strobilacea, E. przewalskii, E. lomatolepis Schrenk. E. distachya.

Ámiwdáryanıń tómengi bólimindegi jabıq tuqımlılar florası arasında A.L. Taxtadjyan (1966) sisteması boyınsha magnoliy gúlliler (eki tuqım úlesliler) - Ranunculidae, Hamamidae, Caryophyllidae, Dillinidae, Rosidae, Asteridae sıyaqlı 6 kishi klasınıń hám liliya gúlliler (bir tuqım úlesliler) 4 kishi klasınıń barlıǵı: Alismidae, Lilidae, Coinmelinidae, Arecidae.

Eki úlesli hám bir úlesli ósimliklerdiń qatnasında tómengi boylar florasınıń ayırım áhmiyetli ózgeshelikleri ayqın kórinedi. Bir tuqım úlesli 128 túr (20,5%). Bir úlesliler hám eki úleslilerdiń qatnası 1:4. bul eki úleslilerdiń roliniń artıw

tendenciyasınan derek beredi: Floranıń strukturalıq ózgesheliklerіniń proporciyaları sonı kórsetedi, bul iri toparlarda túrler hár qıylılıǵına hár qıylı jollar menen erisiledi; bir úleslilerde - derlik tolıq túrler polimorfizmi esabınan iri tuwıs hám semeystvolarda, eki úleslilerde - tuwıs hám semeystvolardaǵı polimorfizm esabınan erisiledi.

Flora quramında tek 18 tuqimlas (65 ten) keminde 7 túrge iye, qalgan 47 inde 1-5 túr bar. Ósimlik qatlamınıń qosılıwında paydalı zatlardıń noli az. Túrlerdiń basım kópshiligi Chenopodiaceae (MO túrler), Asteraceae (82), Roaseae (61) semeystvosında baqlanǵan. Brassicaceae (52), Fabaceae (38). Boraginaceae (36), Polygonaceae (28), Cyperaceae (21). Úlken 17 tuqimlas úlesine 525 túr yamasa Ámiwdáryanıń tómengi bólimindegi barlıq floranıń 80,2%i tuwra keledi.

Qayır hám delta jámáátleriniń floralıq quramı Qubla Aralboyınıń barlıq bes biogeografiyalıq zonasına tán hár qıylı ekologiyalıq ósimlik túrlerine tiyisli 174 joqarı dárejeli ósimlik túrlerinen ibarat.

Túrlerge kóbirek bay bolǵan semeystvolar eń kóp sandaǵı edifikatorlar hám subedifikatorlardı óz ishine aladı. Tek ǵana Brassicaceae, Boraginaceae, Caryophyllaceae, Suregaseae semeystvosında edifikatorlar bolmaydı. Edifikatorlar Salicaceae, Elaeagnaceae, Typhaceae, Peganaceae tuqımlaslarında ushirasadı.

Solay etip, Qaraqalpaqstan florasınıń quramı hám rawajlanıwınıń házirgi zaman nızamlıqları ósimliklerdiń zonal tarqalıwı, tábiyiy evolyuciyalıq process hám kúshli antropogen tásirlerden quralǵan.

Qaraqalpaqstan florasına tásir kórsetiwshi tiykarǵı antropogen faktorlar - Ámiwdárya aǵısınıń qısqarıwı múnásibeti menen Qubla Aralboyı aymaǵınıń qurǵaqlasıp barıwı; suwǵarıw suwlarınıń kóp sanlı kollektor sistemaları arqalı ótkeriliwi; qadaǵalawsız ózin-ózi aǵızatuǵın úlken muǵdardaǵı qudıqlardıń bar ekenligi; Qızılqumnıń arqa shetinde jaylawlardıń jedellesiwi; Ámiwdárya deltası hám qayırında jáne áemgi allyuvial tegisliklerdegi egislik jer maydanlarınıń keńeyiwi; Ústirt landshaftlarınıń texnogenlik buzılıwı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Айбергенов Б., Ким И. Предложения по улучшению лесовосстановления в тугайных лесах Каракалпакстана. Материалы научно-практической конференции: Проблемы сохранения биоразнообразия на охраняемых природных территориях Узбекистана. Нукус, 2008/ - С.8-10.
2. Бахиев А., Трёшкин С.Е., Кузьмина Ж.В. 1994. Современное состояние тугаев Каракалпакстана и их охрана. Нукус: Каракалпакстан. 72 с.
3. Бекбергенова З.О., Мамбетуллаева С.М., Матекова Г.А., Джумабаев Ш.

Фауна позвоночных животных Нижне-Амударьинского государственного биосферного резервата // Материалы II Республиканской научно- практ. конфер. «Рациональное использование природных ресурсов Южного Приаралья». -КГУ, Нукус, 2014.- с. 133-135.
4. Кузьмина Ж.В., Трешкин С.Е. Оценка влияния Южно-Каракалпакского магистрального коллектора на заповедник Бадай-тугай // Аридные экосистемы, 2003, том 9, 319-20.С. 93-105.

ТЕРМИТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШДА УЛАРНИНГ ЖАМОАВИЙ ХАЁТ ТАРЗИДАГИ ТРОФОЛЛАКСИС-ЎЗАРО ОЗИҚЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

З.А. Ғаниева б.ф.ф.д (PhD)[1]., М.А. Ембергенов б.ф.ф.д (PhD)[1]., Е. Султанов, ассистент[2]

[1]ЎзР ФА Республика термитларга қарши курашиш илмий ишлаб чиқариш маркази, Тошкент ш. Ўзбекистон.

[2]Ажиниёз номидаги Нукус Давлат педагогика институти, Нукус ш. Қорақалпоғистон.

Кенг ва хилма-хил ҳашаротлар дунёси орасида Blattodea туркумидаги термитлар алоҳида ўрин тутади. Биринчидан, бу таксон, турлар сони бўйича энг бой бўлмасада, индивидлар сони бўйича энг кўп сонли ва жуда катта биомассага эга эканлиги билан аҳамиятли. Иккинчидан, бу бир неча асрлар давомида шаҳарлашган биоценозлар ва агроценозларга кириб келиб, уларнинг сонини доимий равишда кўпайтириб ва яшаш жойларини кенгайтириб келаётган кам сонли таксонлардан биридир. Учинчидан, улар целлюлоза асосидаги хар қандай тузилмаларни йўқ қилувчилар сифатида инсоният учун алоҳида салбий аҳамиятга эга. Тўртинчидан, бу таксоннинг ўзига хослиги унинг глобал углерод айланишига ва атмосферада иссиқхона газлари – метан ва карбонат ангидрид концентрациясига улкан таъсири билан боғликдир [1; 2].

Шу жумладан термитларнинг мукаммал даражадаги мосланувчанлик хусусиятлари туфайли табиий яшаш зоналаридан урбанлашган ҳудудларга кириб келишига олиб келмоқда. Айниқса, аҳоли зич яшайдиган нисбатан иссиқ иқлимли мамлакатларда термитлардан кўрилаётган зарар ниҳоятда юқори даражага кўтарилишига сабаб бўлмоқда [3]. Шунга кўра, антропоген босим кучли бўлган ҳудудларда термитлар сонини назорат қилувчи замонавий кураш услубларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Жаҳон миқёсида бино ва иншоатларнинг ёғоч ускуналарига заҳарли препаратлар билан ишлов беришдан воз кечиб, термитларнинг биологик хусусиятларидан оқилона фойдаланган ҳолда, уларга қарши ем-ҳўракларни қўллашга эътибор қаратилмоқда [4].

Термитларга қарши кураш чоралари Ўрта Осиёда ўтган асрнинг 2 чи ярмидан бошлаб ишлаб чиқила бошланган бўлиб, бунда 1950-1970 йиллари асосан зараркундага қарши ДДТ ва гексахлоран сингари инсон саломатлиги ва иссиққонли ҳайвонларга нисбатан зарарли хусусиятга эга бўлган препаратлар қўлланилар эди [5]. XX аср охирига келиб бу препаратлар ишлаб чиқаришдан олиб ташлангандан кейин термитларга қарши оргонафосфат ва карбоматлар 1970-1990 йиллар давомида кураш воситаси сифатида тавсия этилди [6]. Атроф муҳит ва инсон саломатлигига салбий таъсири туфайли кейинги тавсия этилган препаратларни ҳам қўллаш таъқиқлана бошлади ва ўтган аср охирларига келиб, термитларга қарши пиретроид препаратлар тавсия этила бошланди. Аммо, бу препаратлар Марказий Осиё шароитида термитларга қарши юқори самара бера олмади.

Ўзбекистонда *Anacanthotermes* авлодига мансуб иккита тур туркистон термити *Anacanthotermes turkestanicus* Jacobs., 1904 ва катта Каспий орти термити *Anacanthotermes ahngerianus* Jacobs., 1904 нинг зарар келтириш ҳудудлари таборо кенгайиб борар экан, 2000 йилларга келиб, бу иккита турнинг зарарли фаолиятига қарши курашишнинг янги йўналишлари устида илмий тадқиқотлар олиб боришнинг зарурияти юзага келди. Бу муаммо юзасидан ЎзР ФА зоология институтининг А.Ш. Хамраев бошчилигидаги бир қатор энтомолог олимлари илмий изланишлар олиб бордилар.

А.Ш. Хамраев бошчилигидаги илмий жамоа Ўзбекистонда илк бор термитларга қарши тўғридан тўғри кимёвий препаратлар билан пуркаб ишлов беришдан воз кечиб, термитларга қарши заҳарли ем-хўракларни тайёрлаш ҳамда уларни қўллаш технологияси ишлаб чиқишга эришди ва амалиётда муваффақиятли қўллади. Ушбу ем-хўракларларнинг таъсир этувчи моддаси сифатида кимёвий ва биологик препаратлардан фойдаланилди. Энг қувонарлиси Марказий Осиёда илк бор термитларга қарши уйғунлаштирилган курашнинг биологик асослари ишлаб чиқилди [3].

Шунингдек термитолог олимлар термитларнинг тириклигини ва гуллаб яшнашини таъминлайдиган озиқланиш ва озиқани ҳазм қилиш жараёнларини яни термитларнинг трофик алоқаларини ўрганишга қаратилган изланишлар олиб бордилар.


Шу ўринда биз томонимиздан *Anacanthotermes* авлоди термитлари популяцияларининг трофаллаксис хусусиятларини ва уларнинг трофик алоқаларини ўрганишга бағишланган илмий тадқиқот ишлари олиб борилди.

Трофаллаксис, ёки ўзаро озиқланиш-бу жамоавий ҳашаротларда маълум даражада намоён бўладиган ҳолат бўлиб, бутун оилани ягона озиқа занжирига боғлайди. Бу занжирда айрим табақалар ёки айрим ёшдаги термитлар бутунлай бошқаларга боғлиқ бўлиши мумкин, бошқалари эса қисман боғлиқ бўлади. Баъзи ишчи термит ёш гуруҳлари мустақил равишда озиқланиши мумкин. Бундай боғлиқ озиқланиш термитлар оиласини ягона организм сифатида кўриб чиқиш имконини беради. Турли табақалар ва турли ёшдаги термитларни алоҳида сақлаш (яъни турли ёш ва турли табақалар трофик алоқаларини сунъий равишда чеклаш) ҳамда барча табақалар ва турли ёшдаги термитларни биргаликда сақлаш (яъни улар орасида ўзаро озиқланиш жараёни мавжудлиги) шароитида трофаллаксиснинг термитлар яшовчанлигидаги аҳамияти ўрганилди.

Шундай қилиб, термитларнинг жамоа ичида озиқлантириш хусусиятларини лаборатория ўрганилганда, турли табақаларга мансуб термитларнинг ўзаро бир-бирини озиқлантириши, озиқа жуда кўп бўлганда ҳам, «донорлар» ва «реципиентлар» ўзлари мустақил озиқланиш қобилиятига эга бўлган шароитда ҳам давом этавериши аниқланди. *Anacanthotermes* авлоди термитларида ўзаро бир-бирини озиқлантириш-трофоллаксис хусусиятларини тажрибалар ёрдамида кўрсатилиб, ўзаро озиқлантиришнинг асосий усули – стомодеаль, яъни оғиздан оғизга бериш эканлиги исботлаб берилди.

Термитлар жамоасидаги ўзаро озиқлантириш жараёнида *Beauveria tenella* замбуруғининг узатилишини ўрганиш мақсадида лаборатория тадқиқотлари ўтказилди. Лаборатория шароитида *Beauveria tenella* замбуруғи билан бирламчи бўғинда зарарлантирилган термитлар эпизоотия тажрибанинг 4-чи кунидан бошлаб кузатилди ва 12-13 кунда тўлиқ нобуд бўлди; бирламчи бўғинда замбуруғдан зарарланган термитларни соғлом термитларга қўшиб

сақланганда 20-25 кунида; иккинчи бўғиндаги термитлар яна соғлом термитларга қўшиб қўйилганда инфекция занжирли тарзда узатилиб, термитларнинг тўлиқ нобуд бўлиши эса 60-63 кун давом этди. Назоратдаги соғлом термитларнинг эса 63- кунга келиб 20% гина нобуд бўлиб қолганлари яшашда давом этди. Барча нобуд бўлган ва касалланган термитлар микроскоб остида текширилганда *Beauveria tenella* замбуруғининг мицелий ва коннидиумлари борлиги, яъни замбуруғ инфекциясидан зарарланганлиги қайд этилди (расм).



Расм. Лаборатория шароитида термитларнинг *Beauveria tenella* замбуруғидан трофаллаксис занжири орқали зарарланиб нобуд бўлиши (*ордината-термитларнинг нобуд бўлиши -фоизда; обцисса-кунлар бўйича*)

Шундай қилиб, термитларнинг ўзаро жамоа ичидаги трофик алоқалари жумладан, озиқланиш хусусиятлари, табақалараро озиқлантиришнинг занжирли механизмлари устида илмий тадқиқотлар олиб борилиб қуйидаги натижаларга эришилди: илк бор трофалаксис – ўзаро озиқлантириш жараёнининг турли ёшдаги ишчи термитлар ва алоҳида табақаларнинг ҳаётчанлиги ва вазн ўзгаришига таъсири исботланди; турли ёшдаги ишчи термитларнинг мустақил озиқланиш даражаси ҳамда уларнинг турли табақа ва турли ёшдаги ишчи термитларни озиқлантириш усуллари, хамда озиқлантириш интенсивлиги асосланди; *Beauveria tenella* замбуруғи мисолида термитларнинг трофалаксис занжирида энтомопатогенлар билан зарарланиши йўллари очиб берилди ва натижада термитларнинг ўзаро озиқлантириш (трофалаксис) механизмларидан фойдаланган ҳолда секин таъсир этувчи препаратлар ёки

энтомопатоген организмлардан фойдаланиш истиқболли кураш усули эканлиги исботлаб берилди.

Бундай препаратларни қўллаганда, озиқа озиқланиш занжири бўйлаб уянинг чуқур қатламларигача етиб боради. Бундан ташқари, *Beauveria tenella* энтомопатоген замбуруғининг озиқа занжири бўйлаб ҳаракатланишини тажриба йўли билан кузатиш, зарарланган ва заифлашган термит бошқа термитлар учун озиқа ҳамда заҳарловчи восита бўлиб хизмат қилиши мумкинлигини кўрсатди.

Бундай ҳолда секин таъсир қилувчи токсик агент билан зарарланган, ҳамда бошқа термит томонидан истеъмол қилинган хўрак озиқа, анча кенг доирадаги термит табақаларининг заҳарланишига олиб келади, асосийси эса, уянинг чуқур қисмида бўлган, насл берадиган термитлар (репродуктив табақалар)гача етиб боради. Лаборатория ва дала тажрибалари шуни кўрсатди-ки термитларга қарши замбуруғлардан фойдаланиш учун энг қулай ва мақбул шароит 20-28^{0}С ҳаво ҳарорати, термит уяларидаги тупроқ намлиги эса 10-15 фоиз бўлишидир. Бундай шароитларда *Beauveria tenella* инфекцияси трофаллаксис занжири бўйлаб узатилганда, эпизоотия тажрибанинг 10-чи кунидан бошлаб кузатилади, термитларнинг тўлиқ нобуд бўлиши эса 60-63 кун давом этади.

Адабиётлар рўйхати

1. Хамраев А.Ш., Кучкарова Л.С., Абдуллаев И.И., Ганиева З.А., Мирзаева Г.С. Участие ферментов слюнных желез в углеводным пищеварении у различных каст термитов // Узб. биол. ж. - Ташкент, 2010. - №4. - С. 32 - 34.
2. Хамраев А.Ш., Кучкарова Л.С., Ганиева З.А., Хамраев К.А., Мирзаева Г.С. Участие термитов в глобальном круговорот углерода и азота // Докл. АН РУз. - Ташкент, 2011. - №3. - С. 85 - 88.
3. Khamraev A.SH. The Termites of Genus Anacanthotermes and the New technology of their control//O’zbekiston Biologya jurnali. – 2010. – №2. –P. 44-48.
4. Amburgey Jerry J., Johnson Glen N., Etheridge Joed J. A method to mess-produce decoyed wood termite bait blocks “J. Ga. Entomology. Soc”. -1981. -16 № (1). -P. 112-115.
5. Давлетшина А.Г. Испытание токсичности некоторых новых химических препаратов для термитов // В сб.: Термиты и меры борьбы с ними. - Ашхабад, 1968. - С. 204 – 209.
6. Мадатян А.В., Лебедева Н.И., Эргашев Н.Э. Туркестанский термит // Защита и карантин растений, 1996. - №6. - С. 43.

КАРНИКА ЗОТЛИ АСАЛАРИ ОИЛАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ФИТОЦЕНОЗЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Хожабергенов Е.-магистрант
Сапарниязов И.А.-қ.х.ф.ф.д., доцент
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Асаларичилик қадимдан ривожланган бўлиб, уларнинг инстинктидан инсонлар фойдаланган ҳолда асал маҳсулотини етиштиради. Ҳар бир минтақанинг иқлим шароитига қараб асаари зотлари шаклланган. Биз тажрибаларимизда Қорақалпоғистон шароитида Карника зоти асалари оиласининг ривожланишига эрта баҳорда фитоценозларнинг аҳамиятини кузатиб бордик.

Карника асалари зотининг танаси кулранг кумушсимондир. Ишчи асалари хартумчасининг узунлиги 6,4-6,8 мм, она асалари 205 мг оғирликда бўлиб, бир кунда 1400-2000 донагача тухум қўяди. Мутахассислар бу зот асаларилари ўзида “Карпат” ва “Кавказ” зотларининг ижобий хусусиятларини мужассам этган, деб ҳисоблашади. Қишга чидамлилиги бўйича “Ўрта рус” асаларисидан кейин туради. Тинчликсевар, эрта баҳордан бошлаб яхши ривожланади, кам кўч ажратади (ўртача 30%), кўч ажратиш ҳолатидан тез чиқади ва гулширага бой ўсимликларни тез топади. Асални аввал уруғли ромларга ва кейин қўшимча бўлмадаги ромли уяларга жойлайди. “Карника” асаларилари заҳирадаги озуқани кам истеъмол қилади, унча катта бўлмаган оилаларда ҳам яхши қишлайди. Бу асаларилар ўзига хос иқлимли (қиши совуқ ва асал йиғиш мавсуми қисқа бўлган) Марказий Европа асаларичилари ўртасида жуда машҳурдир. Ягона камчилиги ўз уясини кучсиз прополислашидир. Унинг табиий тарқалиш ареали Кавказ тоғолди ва тоғли ҳудудлари ҳисобланади. Бу зот асаларилари асал йиғиш манбаларини топишда анча уддабуронлик кўрсатади, бир хил асал берадиган ўсимликлардан бошқасига тез ўтадилар.

Асал тўплаш нисбатан кучсиз ва ўзгарувчан бўлган жойларда бу зот бошқа ҳамма зотлардан, ўзининг маҳсулдорлиги билан ажратиб туради. “Ўрта рус” асалариларига нисбатан фацелиядаги йиғилган асални яхши ишлатади, ҳар хил полифлор ўсимликлардаги асални ҳам тезда йиғиб олади.

2024 йил сентябр ойида қишлаб чиқишини баҳолаб, қўшимча сунъий овқат берилди. Октябр ойида кунлар анча салқин бўлганида яяна бир марта асалари оилалари текшириб чиқилди. Декабр ва январ ойида кетма-кет 3-4 кун 15 даражадан юқори иссиқ кунлар бўлганда асаларилар парвоз қилди. Ушбу парвозлардан кейин асалари оилалари яна бир марта кўздан кечирилди. 2025 йил феврал ойи охирги декадасида тўлиқ парвоз қилишлар кузатилди ва уяларни текширганимизда мумпарданинг ўрта қисмларига янги тухумлар қўйилиб личинка пайдо бўлганлиги қайд этилди. Феврал ойи охирги кунлари

март ойининг дастлабки кунлари кунлар кескин совиб кетди. Бу эса аалари оиласида она арининг тухум қўйишининг кескин камайиши кузатилди. Аста секинлик билан кунлар исиши билан парвоз қилаётган асаларилар сони ортиб борди. 10-12 март оралиғида *Ulmus pumila* манзарали дарахтлар гуллади. 16-18 март оралиғида бошқа дарахтларнинг кўпчилиги кетма-кет гуллай бошлади. Гуллаётган ўсимликлар тур таркибининг кўпайиши билан белгилаб қўйилган асалари оилаларида кузатиш олиб борилганда, ҳар бешта учиб келувчи арининг 3-4 тасида гул чанги олиб келаётганлиги қайд этилди. Асалари уяси кўздан кечирилганда камида икки ромда янги қўйилган тухумлар мавжудлиги қайд этилди. Личинкалар сони ортганлигини уя атрофидаги қўйилган сувга келувчи асалариларнинг сони ортганидан ҳам билиш мумкин. Шу тариқа бир вақтнинг ўзида тўранғил ва ўрик дарахтлари гуллади, бу эса асаларилар гул чанги ва ширасини кўпроқ бўлган ўсимларни танлаб олишга имконият туғилди. Фитоценозлар орасида манзарали ва маданий дарахтлардан ташқари бир йиллик ва кўп йиллик ўсимликларнинг ҳам гуллаши қайд этилди. Бундай кетма-кетликда ўсимликларнинг гуллаши асаларилар ривожланишига ижобий таъсирини ўтказди. Барча дарахтларнинг гуллашидан кейин апрелнинг иккинчи декадасида кунлар салқин ва ёмғирли бўлиши орқасидан асалари уялари кўздан кечирилди. Янги қўйилган тухумлар нисбатан камайганлиги қайд этилди. Шу орада уяга учиб келувчи ариларни кузатганимизда ҳар бешта аридан 2 тасида гул чанг мавжудлиги қайд этилди.

Қишлаб чиққан асалариларнинг эрта баҳорда ривожланишига фитоценозларнинг гуллаши, айниқса кетма-кет гуллаши ижобий таъсир қилиши аниқланди. Нисбатан кучсиз оилаларнинг ривожланиши учун бошқа кучли асалари оиласидан личинкали ромлар берилди. Шу тариқа асалари оилалари ривожланиш кучлари тенглаштирилиб борилди. Фитоценозлар гуллаши билан тез ривожланиб кетган кучли оилаларда май ойининг биринчи декадасида кўздан кечирилганда, заҳира асал йиғиши икки ва ундан ортиқ ромларда мавжудлиги қайд этилди. Асалари уясида асаларилар умумий 7-9 ромда ўтирганлиги кузатилди, буларнинг эса 3-4 та ромда янги личинкалар мавжуд экан. Бундай ривожланиш давом этадиган бўлса кейинги авлодлар парвозга чиқиши ортидан фитоценозлардан гул ширалариннг уяга олиб келиши ортади ва маҳсулдорликнинг ортишига олиб келади. Карника зотли асаларига фитоценозларнинг таъсирини кузатиш ишлари давом эттирилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Б.А.Қаҳраманов, Ф.Э.Сафарова, С.И.Исамухаммедов, Х.А.Донаев, Х.Б.Эргашев. Асаларичилик асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент-2021, 214 бет.

2.B.A.Qahramonov, A.I.Isamuhamedov, U.Sh.Ballasov, S.Sh.Isamuhamedov, O.S.To’rayev. Asalarichilik. Kasb-hunar kollejlar uchun o’quv qo’llanma. T.: Iqtisod moliya, 2016, -124 bet.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ШАРОИТИДА КУЗГИ ЮМШОҚ БУҒДОЙНИНГ ИСТИҚБОЛЛИ “ШОРТАНБАЙ-1” НАВИНИНГ БИРЛАМЧИ УРУҒЧИЛИГИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШГА ЖОРИЙ ҚИЛИШ

А.Қ.Омаров
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

Аннотация

Мазкур илмий тадқиқот Қорақалпоғистон Республикаси шароитида кузги юмшоқ буғдойнинг истиқболли “Шортанбай-1” навининг агроиқлимий шароитларга мослашувчанлигини, юқори ҳосилдорлик салоҳиятини ва стресс омилларга чидамлилигини ўрганишга қаратилган. Тадқиқот доирасида ушбу навнинг бирламчи уруғчилигини ташкил этиш, уруғ сифати ва унинг репродуктив кўрсаткичларини ошириш, шунингдек, маҳаллий иқлимга мос агротехнологиялар асосида кенг ишлаб чиқаришга жорий этиш бўйича амалий тавсиялар ишлаб чиқилди.

Калит сўзлар: уруғ, омил, репродуктив, сифат, озиқ- овқат, дон, жорий қилиш.

Буғдой (*Triticum aestivum L*) жаҳонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминловчи ва энг катта майдонда етиштирилувчи асосий экин турига киради. Дунё бўйича инсонларнинг озиқ-овқатга кунлик эхтиёжининг 40% асосан буғдой ҳиссасига тўғри келади. Ўсиб бораётган дунё аҳолисини боқиш учун мутахассислар 2050 йилга келиб, асосан мавжуд ҳайдаладиган ерлар ва глобал иқлим ўзгариши шароитида озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаришни 60% га ошириш зарурлигини тахмин қилмоқдалар.

Кузги юмшоқ буғдой навларини яратиш ва ишлаб чиқаришга жорий этиш кўп йиллик меҳнатни талаб этади. Янгидан яратилган буғдой навларини яратиш ва ишлаб чиқаришга жорий этиш, дон ҳосилдорлиги ва доннинг нонбоплик сифатини янада яхшиланишига олиб келади.

Шортанбай-1 нави республикамизнинг шимолий минтақалари Қорақалпоғистон Республикаси ва Хоразм вилоятига мос бўлиб, ушбу минтақалар шароитида юқори ҳосил олиш мумкинлигини кўрсатганлиги учун 2020 йили туманлаштирилиб давлат рестрига киритилган.

Шортанбай-1 нави Янбаш ва Купова навларини реципрок усулида чатиштириш йўли билан яратилган. Бу нав ўртапишар бўлиб, ўсув даври 235-246 кун, ўсимлик ётиб қолишга чидамли. Бошоғи цилиндрсимон, йирик. Тур хили lutescens.

Бошоқча қобиғи тухумсимон шаклда, тишлари тўғри ва қисқа. Дони йирик, қизил рангда, шакли чўзиқ. Дон чоки ўртача чуқурликда. Потенциал дон ҳосилдорлиги юқори 85-90 центнер. Совуққа, шўрга ва қурғоқчиликга чидамли. Доннинг 1000 дона вазни 39-41 гр. Етиштириш технологиясига қараб кучли ва

«қимматбаҳо» дон беради. Чанг, қора куя, сариқ занг касаллигига чидамли. Қўнғир занг касаллигига дала шароитида чидамли. Поя занги ва септориоз касалликларига ўртача чидамли. Экиш меъёри экиш муддатига боғлик 4,5-5,0 млн. дона унувчан уруғ ҳисобида бўлади.

“Шортанбай-1” нави Дон ва дуккакли экинлар илмий-тадқиқот институти Қорақалпоғистон илмий-тажриба станциясида (олдинги номи) яратилган. ♀Янбаш х Купова♂ дурагай комбинациясидан якка танлаб олиш йўли билан яратилган. Дони қизил рангда, узунчоқ оваль шаклида, уртача катталикда, ялтироқ, тўкилмайди, 1000 дона дон вазни 40,5 г, дон ҳажм оғирлиги 791-797 г/л. Дон таркибида оқсил миқдори 17,6%, клейковина миқдори 30,0%, ялтироқлиги 90,0 %, нон ёпилиш сифати яхши

Ўсимлик бўйи 70,0-75,0 см, мустаҳкам, ётиб қолишга чидамли, барги ўртача узунликда, яшил рангда, туксиз. Тупланиши яхши, пояси тўғри. Нав эртапишар, қурғоқ иссиқликка, шурга, қишги совуққа чидамли, сариқ ва қўнғир занг касалликларига бардошли. Ҳосилдорлиги 51,8-59,8 ц/га.

Lutescens (АЛ) тур хилига мансуб, биологик ҳаёт тарзи кузги, бошоғи цилиндрсимон, ранги оқ, бошоқ узунлиги 8-10 см, бошоқдаги дон сони 46,4-48,6 та, қилтиқсиз, бошоқ қобиқчаси туксиз, тухумсимон шаклда, узунлиги 15-20 мм, эни 5-6 мм, елкаси тўғри бироз кўтарилган, бошоқ қипиғи бир оз қийшайган. Гектарига 4,5-5,0 млн. дона унувчан уруғ ҳисобида белгиланади.

Сентябрь ойининг иккинчи ўн кунлиги, октябр ойининг биринчи ўн кунлиги ҳисобланади. Шудгорлашдан олдин гектарига соф ҳолда 90 кг фосфорли ва 60 кг калийли ўғитлар, биринчи озиқлантириш даврида 100 кг, иккинчи марта найчалаш даврида 110-150 кг миқдорида азотли ўғитлар билан озиқлантирилади.

Насилни биринчи йил синач кучатзорида кузгу юмшоқ буғдойнинг Шортанбай-1 нави фенологик кузатиш ишлари олиб бориб таҳлил қилганимизда пишиб етилиши ўртача 16 июн санасига тўғри келиб, ўртача 237 кунни ташкил қилди. Айирим ойлаларда ушбу курсаткич 25 июнгача ўзгариб турди. Ўсув даврининг фазаларини ўтиши кун ўзгаришлар асосида бу ойладаги ўсимликлар чиқитга чиқарилиб қулда ўрилиб дала чекасига чиқариб товарлик донга қушиб янгилаб олинди.

Буғдойнинг униб чиқиш фазаси ҳосил учун муҳим аҳамиятга эга, чунки худди шу фазада муртак илдизча фаолияти сусайиб, асосий илдиз тизими шаклланади. Умуман қишлоқ хўжалигини деҳқончилик соҳасида биологик жиҳатдан тезпишар бўлган буғдой навлари мамлакатимизнинг турли тупроқ-иқлим шароитларида деҳқончиликни интенсивлаштиришга имконият яратади. Ривожланишнинг кўйидаги фазалари белгиланди (униш, туплаш, бошоқлаш ва пишиш).

Кузги буғдойнинг истиқболли Шортанбай–1 навининг фенологик кузатиш бўйича тадқиқот натижалари куйидаги 1- жадвалиада берилган.

1-.жадвал

Кузги буғдойнинг истиқболли Шортанбай–1 навида олиб борилган фенологик кузатиш натижалари

Экиш	Кунларда					
	Тўлиқ униб чикиш	Туплаш	Баҳорги уйғаниш	Бошак -лаш	Пишиш (тўлиқ)	Вегетация даври
30.09.2020	7	20	135	46	32	240
28.09.2021	7	17	133	42	30	234

Кузги бўғдойнинг Шортанбай-1 навининг ҳосилдорлигига таъсир кўрсатувчи асосий омилларнинг бири бу тўлиқ кўчат олиш ҳисобланади. Шундан келиб чиқиб тажриба участкасида кузги буғдойнинг Шортанбай – 1 навини униб чиқиш зичлиги аниқланди.

Кузги буғдойнинг истиқболли Шортанбай–1 навининг кучат зишлиги тулиқ униб чиқиш, баҳорги уйғонишдан сунг ва йиғим теримгача сақланиб қолиш давирларида аниқланди. Олинган натижалар тўлиқ ўниб чиқиш даврида навнинг кучат калиңлигиги 2 йил давомида ўртача 1 кв.м майдонда 287 донани ташкил этган булса, баҳорги уйғониш даврида ўсимликлар сони 24 усимликга камайиб, 1 кв.м. майдонда 263 донани ташкил этди. Совуқга чидамлилиги 95,4% ташкил қилди.

2-жадвал

Кузги буғдойнинг истиқболли Шортанбай–1 навининг насилини биринчи йил синаш кучатзорида оилалардаги ўсимликларни зишлиги

Йиллар	Оилалардаги ўсимликлар, дона/кв.м.			Ўсимликларнинг сақланиб қолиш миқдори, %
	Тўлиқ униб чикиши	Баҳорги уйғанишдан сунг	Йиғим теримдан олдин	
2021	278	254	223	95,2
2022	297	272	252	95,6
Ўртача	287	263	237	95,4

Кузги буғдойнинг истиқболли Шортанбай–1 нави бўйича 2 йил давомида усимликнинг ўсиш баландлиги ва усимликнинг ер усти қуриқ массасининг тўпланиши буйича таҳлил натижалари куйидаги 1.2.3-жадвалда берилган.

3-жадвал

Кузги буғдойнинг истиқболли Шортанбай–1 навининг ер усти бўлимида қуриқ моддаларнинг тўпланиши ва усиш динамикаси

Йиллар	Усиш фазалари буйича усимлик бўйи, см		Бир ўсимлик вазни, г.	
	Баҳорги уйғаниш фазаси	Найчалаш	Баҳорги уйғаниш даври	Найчалаш
2021	20,1	78,1	0,34	9,0
2022	18,7	74,6	0,29	9,8
Ўртача	19,4	76,3	0,32	9,4

3.5.3-жадвалда баҳарги уйғониш фазасида ўсимлик бўйи 19,4 см, найшалаш фазасига келиб ушбу кўрсаткич 76,3 см усди.

Усимликнинг ер усти органларида қўриқ моддаларнинг тупланиши баҳарги уйғониш фазасида 0,32 г. дан 9,4 грамга кўпайди.

Кузги буғдойнинг истиқболли Шортанбай–1 нави бошақлаш фазасидан тулиқ пишиш фазасига ўтиш даври морфовизиуал боҳалаш давомида навнинг барча морфологик белгилари навнинг асосий тавсифномасига тўғри келди. Йиғим-терим давридан олдин буғдойнинг каптал бачкаларидаги бошоқларида баъзи фарқлар аникланди, шу боис типик эмас деб топилганлари ва чиқитга чикарилди (3.2.4-жадвал). Тажриба 0,29 гектар майдонда олиб борилди.

Жадвалдаги маълумотларни таҳлил қилиб кўрганимизда, шуни айтишимиз мумкинки, икки йил давомида 37,5 оила браковка қилинган. Бунга асосий сабаб қилиб баъзи оилаларда усимликларнинг туп сонининг кам булиши натижасида тўлиқ мукаммаллашмаган, кеш усиб чиққан типик булмаган ён шохлар ўсиб чиқиб туплаш натижасида буғдой донининг бир вақтда пишиб етилмаслиги, натижада хар хил сифатдаги уруғларнинг пайдо бўлишига олиб келди. Шу боис типик булмаган оилалар чиқитга чиқарилди.

4- жадвал

Кузги буғдойнинг истиқболли Шортанбай–1 навида чиқитга чиқариш ишларинин натижалари

Йиллар	Экилган ойлалар сони	Браковка қилинган ойлалар сони	Қолган ойлалар сони	Ҳосилдорлик, ц/га
2021	800	48	772	54,1
2022	800	27	783	58,6
Уртача	800	37,5	777	56,3

Шундай қилиб, Қорақалпоғистон Республикаси шароитида кузги буғдой навларини экиш муддатларининг кечикиб бориши навлар орасида пишиш даврининг қисқариб боришига сабаб бўлмоқда. Нукус тумани шароитида баҳорнинг охирги ва ёзнинг бошланғич ойларида ҳаво хароратининг кескин кўтарилиши ва хаво нисбий намлигининг пасайиб кетиши ўсимликнинг мажбурий пишишига олиб келди.


FARG‘ONA VODIYSIDA CHIGIRTKALARGA QARSHI KURASH TADBIRLARINI REJALASHTIRISH VA OLIB BORISH

M.K.Begjanov, b.f.f.d., dotsent
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus sh.Qoraqalpog‘iston

Farg‘ona vodiysi viloyatlari umumiy er maydoni 1848,9 ming.ga bo‘lgan holda uning 60,0 % ga yaqin qismi bevosita ekin ekiladigan maydonlar xisoblanadi [П.Баратов, 2002: 188]. Chigirtkalar eng ko‘p miqdorda uchraydigan maydonlar, ya’ni yaylov va pichanzorlar Farg‘ona viloyatida yalpi er maydonining 7,4%, Andijon viloyatida 8,3% va Namangan viloyatida esa 39,1% ni tashkil qiladi


[S.Usmanov va bosh. 2020: 102]. Taqqoslash uchun chigirtkalar keng tarqalgan Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan erlar 2195,3 ming. ga bo‘lgan holda yaylovlarning yalpi maydoni 66,3% ga teng, Surxondaryo viloyatida bu ko‘rsatgichlar mos ravishda 1175,5 ming. ga va 73,3% va Qoraqolpog‘iston Respublikasi uchun esa 5223,5 ming. ga. va 91,5% ga teng.

Keltirilgan ma’lumotlardan ma’lumki, Farg‘ona vodiysi xududida chigirtkalar yalpi ko‘payishi imkoniyati mavjud bo‘lgan maydonlar, ya’ni yaylov va pichanzorlar boshqa viloyatlarga nisbatan ancha kam, bu ko‘rsatkich, Namangan viloyatida nisbatan ko‘proq hisoblanadi [А.Бекузин, 1968а: 52]. Bu ma’lumotlar asosida Farg‘ona vodiysi yaylovlarining bir qismida marokash chigirtkasi rivojlanishi uchun qulay muhit mavjud. Pichanzor va yaylovlar Andijon vilotining Andijon, Xo‘jaobod, Marhamat va Asaka, Namangan viloyatining Pop va Kasonsoy, Farg‘ona viloyatining So‘x, Rishton, O‘zbekiston, Beshariq tumanlarida ko‘proq maydonni egallaydi. Uning asosiy qismi asosan Pop tumaniga to‘g‘ri keladi. To‘da hosil qilmaydigan chigirtkalarning rivojlanishi uchun qulay muhit hisoblangan dala ekinlari atrofidagi, ekinda bo‘sh qolgan va partov erlar maydoni ham vodiy viloyatdarida juda kam miqdorni tashkil qiladi. Buni biz masofadan zondlash usuli asosida Google.erth dasturi ma’lumotlari asosida tahlil qilishimiz mumkin. Jumladan, Andijon viloyati Xo‘jaobod tumani qishloq xo‘jalik ekinlari etishtiriladigan maydonlar atrofida mavjud bo‘lgan, ekinzorlardan holi bo‘lgan maydonlar, dalalar atrofi yoki magistral avtomobil yo‘llari yo‘nalishi chekkasidagi maydonlar juda kam va kichik xajmdagi erlardan iborat. Dala bilan katta magistral yo‘l oralig‘i o‘rtacha 5-7 metrni tashkil qiladi (1-rasm).



1-rasm. Andijon viloyati Xo‘jaobod tumanida ekinzorlar oralig‘idagi maydonlar hajmi, avtomobil magistral yo‘li va dala oralig‘idagi maydon 7-8 m. **(**Google.erth dasturi**)**

Taqqoslash uchun Jizzax viloyati Arnasoy tumanida ekinzorlar oralig‘idagi maydonlar hajmi ancha katta, yo‘l va dala yoki suv shaxobchallari va dalalar oralig‘idagi maydonlar masofa 25-30 metrni tashkil qiladi (2-rasm). Bunday maydonlarning aksariyat qismida chigirtkalar rivojlanishi uchun qulay sharoit mavjud. Shuning uchun ham Farg‘ona vodiysi viloyatlarida zararli chigirtkalarning dala atroflarida rivojlanib ko‘payishi uchun muhit kam va bu erlarda boshqa xududlarga nisbatan zarari chigirtkalarning miqdori kam, ularni monitring qilish va qarshi kurash tadbirlarini o‘tkazish katta muammolarni keltirib chiqarmaydi deb xulosa qilish mumkin. Farg‘ona vodiysi agrotsenozlari dominant to‘da hosil qilmaydigan chigirtka turlarining populyatsiyaviy tavsifi natijalari va xudud qishloq ho‘jalikning o‘ziga xosligi, agrolandshaftlarda zararli chigirtkalar miqdorining iqtisodiy zarar keltrish mezoni darajasida ko‘payish ehtimolligi ancha kam, chigirtkalar havfi manbai esa tabiiy landshaftlarda tarqalgan to‘da hosil qiluvchi turlar bo‘lishi mumkin ekanligi aniqlandi.



2-rasm. Jizzax viloyati Arnasoy tumanida ekinzorlar oralig‘idagi maydonlar hajmi, avtomobil magistral yo‘li va dala oralig‘idagi maydon 25-30 m. (Google.erth dasturi**).**

Shuning uchun Farg‘ona vodiysi dala atrofidagi maydonlar va ekinzorlarda chigirtkalarga qarshi kimyoviy preparatlardan foydalanish zarurati yo‘q. Bu maydonlarda pestitsidlarni chigirtkalarga qarshi kurashda faqat alohida ekstremal vaziyatlarda, ya’ni invaziv turlar yoki to‘da hosil qiluvchi turlarning kirib kelishi sharoitida, ularning miqdori iqtisodiy zarar keltirish mezoniga etganda ishlatish mumkin.

Farg‘ona vodiysi viloyatlari xududida to‘da hosil qiluvchi chigirtkalarning, jumladan marokash chigirtkasining Namangan viloyati Pop, Andijon viloyati

Xo‘jaobod, osiyo chigirtkasining Farg‘ona viloyati Yozyovon tumanlarida mavjud bo‘lgan bo‘lgan doimiy rivojlanish o‘choqlarida bu chigirtka turlarining rivojlanishini an`anaviy qabul qilingan hisob-kitob qilish yuli bilan yoki FAO tomonidan taklif qilingan chigirtkalarni boshqarish tizimi (CCALM) dasturi asosida doimiy nazorat qilish orqali, ularga qarshi kurash tadbirlari rejalashtiriladi. Yig‘ilgan ma’lumotlar asosida chigirtkalar rivojlanishini uzoq va qisqa muddatli bashorat qilish tadbirlari olib boriladi.

Invaziv manbaalar yoki chigirkalarning qo‘shni mamlakatlardan kirib kelish xvfi bo‘lgan tumanlarda, ya’ni Qirg‘iziston Respblikasining Batkent, O‘sh va Jalolobod viloyatlari bilan chegaradosh bo‘lgan Andijon viloyatining Xo‘jaobod, Marhamat, Farg‘ona viloyatining Quva va boshqa ba’zi tumanlarida mavjud bo‘lgan maydonlarda doimiy nazorat ishlari olib boriladi. Soha mutahasislarining davlatlararo kelishuvlari asosida Qirg‘iziston respublikasi xududida chigirtkalarning rivojlanishi va ular tabiiy o‘choqlaridagi vaziat tg‘risida axborot almashinib turish kabi vazifalar belgilab olinadi. Vaztyatni doimiy nazorat ostida tutib turish uchun chigirtkalarga qarshi favqulodda sharoit talablariga javob beradigan tadbirlar ishlab chiqiladi va kurash olib borish uchun kerak bo‘lgan kimyviy vositalar va anjomlar bilan ta’minlash choralari ko‘riladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Баратов П., Маматқулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. - Тошкент: Ўқитувчи, 2002. – 440 б.

2. Бекузин А.А. Прямокрылые насекомые тугаев среднего течения р. Сырдарьи. // В кн.: Экология насекомых Узбекистана и научные основы борьбы с вредными видами. - Ташкент: Фан. 1968а. С. 51-58.

3. Usmanov S., Begjanov M., Nurjanov F. Farg‘ona vodiysi zararli chigirtkalarining tur tarkibi // Agro kimyo himoya va o‘simliklar karantini ilmiy-amaliy jurnal. - Toshkent, 2020. - №6-son. - B. 101-102.

MUHIM OVLANISH AHAMIYATIGA EGA BO’LGAN BALIQLARNI KO’PAYTIRISH USULLARI

M.E.Ummatova, b.f.f.d.(PhD), dotsent., Sh.N.Axmedova 2-kurs magistr
Sh.A.To‘xsanov 1-kurs tayanch doktoranti,
Navoiy davlat universiteti, Navoiy sh.O’zbekiston
Muhayyo_2015@mail.ru

Baliq inson hayoti uchun katta ahamiyatga ega. U zaruriy oqsil manbasi hisoblanadi. Inson qadim zamondan o’z ozuqasi sifatida iste’mol qilib kelmoqda. Baliq va baliq maqsuloti kimyoviy tarkibi, ta’mi jihatidan mol yoki qo’y go’shtidan qolishmaydi, ammo hazim bo’lishi jihatidan undan ustun turadi. Toza baliq va mahsulotida 15-22 % oqsil, 0,2 dan 30,8 % gacha yog’ va oz miqdorda uglevod bo’ladi. Baliq yog’i organizmda oson eriydi va yahshi singiydi.

Hozirda dunyo baliqchiligining rivojlanishiga nazar soladigan bo’lsak baliqchilik asosan ikki yo’nalishda amalga oshirilmoqda. Birinchisi bu– tabiiy suv havzalaridan (okean, dengiz, ko’l, daryo va boshqalar) baliq ovlash bo’lsa, ikkinshisi akvakultura, ya’ni nazorat qilinadigan sharoitlarda baliq yetishtirishdir[2].

Shu sababli endilikda dunyo mutaxassislari tomonidan akvakulturani rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Buning asosiy sababi dunyo okeanlari va dengizlarda baliq zahiralari miqdorining sezilarli darajada kamayganidir. Baliqchilikda rivojlanish asosan akvakultura hisobiga amalga oshirilmoqda.

Akvakultura – reja asosida o’stirish, oziqlantirish, suvning sifatini saqlab turish, kasalliklar va yirtqichlardan himoyalash kabi ishlab chiqarishni kengaytirish uchun uetishtirish jarayonining yaxshi ishlab chiqilgan texnik usullari yordamida tabiiy va sun’iy suv havzalarida, shuningdek, maxsus yaratilgan dengiz plantatsiyalarida suvda yashovchi organizmlarni (baliqlar, qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar, suv o‘tlari) ko‘paytirish va yetishtirish bo’lib hisoblanadi.

Akvakultura juda qadimiy an’analarga ega. Masalan, karp balig’ini chuchuk suv havzalari va hovuzlarda yetishtirish bilan qariyb 400 yildan buyon Xitoyda shug’ullanib kelinayotganligi ma’lum.

Yaylov akvakulturasi texnologiyasi bu – suv havzasi tabiiy ozuqa imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda baliq yetishtirishdir. Yaylov baliqchiligi xo’jaligini yaratish uchun ko’llar, suv omborlari, energetik ob’ektlarning suv sovutish havzalari va boshqa kompleks maqsadli suv havzalari asos sifatida xizmat qiladi. Yaylov akvakulturasi baliq yetishtirishning ancha istiqbolli va arzon turi hisoblanadi.

Yaylov akvakulturasi texnologiyalaridan foydalanishda sezilarli tarzda farq qiladigan quyidagi shakllari farqlanadi:

1. Pitomnik sharoitida suniy sharoitda hayotchanligi yuqori bo’lgan chavoqlarni yetishtirish;

2. O’simlikxo’r va detritxo’r baliqlarni parvarishlash.

3. Tabiiy sharoitdagi ota-ona baliqlardan nasl olish;

4. Umurtqasiz organizmlarni suv havzasining maxsus ajratilgan hududlarida ko’paytirish[3].

Yaylov akvakulturasini rivojlantirish asosida nazorat qilinayotgan sharoitdagi suv havzasiga baliqlarning sun’iy holda ko’paytirilib hayotchanligi oshgan chavoqlarini o’tkazishni tashkil qilish yotadi.

Umuman olganda texnologiya ikki bosqichdan:

a) baliq chavoqlari bilan ta’minlash (odatda, chavoqlar akvakultura sharoitida etishtiriladi);

b) suv havzasiga o’tkazilgan baliq chavoqlarining tabiiy ozuqa bazasi hisobiga o’sish bosqichidan iborat [4].

Shu kunga qadar O’zbekistonda karp baliqlarini yetishtirish uchun yerda qurilgan havzalardan foydalanib kelinmoqda. Bunday havzalarda faqat ektensiv ravishda baliq boqilgan. Baliq mahsuldorligi o’rtacha 10-20 s/ga ni tashkil qilgan. Ammo hozirda akvakulturaning boshqa sohalari – sadok baliqchiligi, basseyn – jadal baliqchilik tarmog’i shakllanmoqda.

Ushbu suv havzalarida, asosan mahalliy sharoitda yetishtirish mumkin bo’lgan yoki iqlimlashtirilgan karp, sazan, oq amur, do’ngpeshona, xonbaliq yetishtirish yo’lga qo’yilgan.

Baliq ovlashdan, baliq yetishtirishga yoki hovuz baliqchiligini tashkil qilishga o’tish davr talabi bo’lib kelmoqda. Bu ishlar uvildiriqlarni va yosh baliqlarni qutqarish, yuqori darajali effekt berishi mumkin. Lekin mayda chavoqlar bilan suv havzalarini baliqlashtirish o’zini oqlamagan. Chunki chavoqlar lichinkaxo’r hasharot lichinkalari, baqa va boshqa suv hayvonlarning ozuqasiga aylangan. Shu sababli chavoqlar yoki 5-10 g og’irlikdagi mayda baliqchalar bilan baliqlashtirish muvaffaqiyat keltirmagan. Respublika miqyosida har yili tabiiy suvliklar million-million oq amur, do’ngpeshona, karp kabi turlarning chavoqlari bilan baliqlashtirilgan. Lekin ko’proq miqdori chavoqlar stadiyasida, oz miqdori esa segoletkalik stadiyasida nobud bo’lgan.

Baliqlashtirish chora-tadbirlari zaruriy holat bo’lib, baliq zahirasini ko’paytirish va uni sifat jihatidan yaxshilash bosh masaladir. Qoidaga muvofiq baliqchilik xo’jaligi ishini yaxshilab ilmiy analiz qilib muvofiqlashgan choralarni qo’llashdan iborat. Mavjud baliqlarni himoyalash, boshqarish yoki meliorativ holatini yaxshilash kabi ishlarni bajarish zarur, nerest paytida quyiladigan kamchiliklarni oldini olish kabi choralar ko’riladi. Har bir tabiiy suvlikni baliqlashtirish normalarini ishlab chiqarish tavsiya etiladi.

Ixtiologlar baliqlarni urchitishni ekologik va fiziologik usullarga ajratadilar. Ekologik usulda (tabiiy urchitish) jinsiy jihatdan yetilgan urg’ochi va erkak baliqlar tabiiy sharoitda qanday yashagan va uvildiriq qo’ygan bo’lsalar, sun’iy suv havzalarida ham mumkin qadar shunga yaqinroq sharoit yaratiladi. Bu usul baliqchilar orasida tabiiy urchitish usuli deb yuritiladi [1].

Fiziologik usulda (sun’iy urchitish) har xil preparatlar (xorioginin, nerestin-1, nerestin-1A) yordamida baliqlar organizmidagi modda almashinish jarayoniga ta’sir etib, ularning jinsiy mahsuloti tezroq yetilishiga erishish va olingan uvildiriqlarni sun’iy urug’lantirishga aytiladi. Fiziologik usul sun’iy urchitish usuli deb ham yuritiladi.

Nasl beruvchi baliqlardan tabiiy va sun’iy yo’l bilan uvildiriqlar olish va urug’lantirish, lichinkalardan baliqchalar yetishtirish hamda o’stirish hovuzlariga o’tkazish baliqchilik texnologiyasiga amal qilish baliqchilik xo’jaliklarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Urchinov J. “Baliqlar ekologiyasi” “ADA servis Navoiy” MChJ Navoiy 2013
2. Husenov S.Q., Niyozov D.S., Sayfullaev G‘.M.. Baliqchilik asoslari. “Buxoro” nashriyoti, 2010. 294 bet.
3. Поддубная И.В. Пастбищная аквакультура.- Саратов: ФГБОУ ВО Саратовский ГАУ имени Н.И.Вавилова, 2016. – С.19-20; 33-35.
4. Привезенцев Ю.А., Власов В.А. Рыбоводство. М.: Мир, 2004. С.156-157.

KOVUL (*CAPPARIS SPINOSA L.*.) O`SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI *VA XALQ TABOBATIDA FOYDALANISHI*

[1]Kutlimurotova G.A., [2]Mangliyeva O.T., Sheripbayeva O'.D., Sobirova I.R.
Ajiniyoz nomidagi NDPI Tabiiy fanlar fakulteti [1]Botanika, ekologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, [2]Biologiya guruhi 4-bosqich talabalari

Kovul, kovar (*Capparis spinosa L.*) — kovuldoshlar oilasiga mansub yarim buta. Poya va shoxchalari yotiq, bargi tuxumsimon, guli yirik, oq yoki och pushti. Mevasi qizil etli, ko‘p urug‘li. Kovul yerbag’irlab o’suvchi bo’yi 2-2,5 m ga yetadigan, ko’k poyali o’simlik hisoblanadi. Qisqa bandli guli barg qo’ltig’ida joylashgan. Iyul-avgust oylarida meva ko’sakchasi pishib yoriladi. Kovul ildizlari turli to’siqlarni eritib o’ziga yo’l ochuvchi kislota ajratib chiqaradi. Shuning uchun asfaltlangan va betonli joylarda ham o’sib chiqadi. Bu ajoyib o’simlik o’sish sharoiti eng noqulay joyni tanlagan. Shu bilan birga kovul shiraga boy o’simlik hisoblanadi. May oyi o’rtalaridan to noyabrgacha gullaydi.Asalga o’xshash shira ajratadi. Poyasi tikonli, shoxlangan. Tuksiz yoki siyrak tukli bo’ladi. Gullari oq. Gullash mavsumi avvalida foydali gullari asosida allergiyadan aziyat chekuvchilar uchun qaynatma sifatida tavsiya qilish mumkin. O’simlik tarkibida rutin, Vitamin C, qand hamda yod birikmasi va boshqa moddalar uchraydi. Shu bilan birga oqsillar, karbon suvlari, efir moylari kabi organik moddalar va Ca, Mg, Na, K, P, Fe, Zn, Cu, Mn kabi biogen elementlar mavjud. Qrim, Kavkaz, O‘rta Osiyo, Shimoliy Afrika va O‘rta dengizning toshloq yerlarida ko‘p tarqalgan. Janubiy Yevropada ekiladi. Kovulning g‘unchasi, mevasi sirkalab yoki tu‘zlab ovqatga solinadi. Mevasida 18% oqsil moddalar, 36% cha moy bor. Cho‘l va adirlarda, yo‘l bo‘ylarida, devorlar ustida, ekinlar orasida o‘sadigan kovul ko‘p urug‘li rezavor bo‘lib, mevalari etdor, uzunligi 2 smga boradi. Iyul-avgust oylarida urug‘lari pishadi. Bu dorivor o‘simlikning mevalari tarkibida saponinlar, alkaloidlar, 32,9 % uglevodlar, 150 mg askorbin kislota, 3,75 % moy, ildiz po‘stlog‘ida staxidrin alkaloidi mavjud. Kovul yoki kovar o‘simligi tabiiy holda O‘rtayer dengizi, Yevropa janubida, Kavkazda, O‘rta Osiyoda, shu jumladan, O‘zbekistonda, Pokiston va Hindistonda tarqalgan. Bu o‘simlik Fransiya, Ispaniya, Italiya, Aljir hamda Kiprda, Gretsiya va Shimoliy Amerikada madaniylashtirilgan bo‘lib, landshaftlarning bezagi hisoblanadi. O‘simlikning nomi Erondagi Dashti-

Kavir choʻli bilan bogʻliq holda atalgan. Chunki kovul bu hududlarda eng koʻp uchraydigan oʻsimlik sifatida ajralib turadi. Kovul dorivor oʻsimlik boʻlishi bilan bir qatorda oziq-ovqatda ham ishlatiladi. Kovulning gʻunchali novdalari, gʻunchalari, rivojlanayotgan mevalari sirka kislotasida marinovat qilinadi hamda oziq-ovqatda «kaperslar» nomi bilan mashhur dori-darmon koʻrinishida foydalaniladi. Hindular kovulni kobra, kabra yoki kabarra nomlari bilan atashadi hamda oʻsimlik organlari qoʻshib tayyorlangan oziq-ovqatlarni yoqtirib isteʼmol qilishadi.[1]

May-avgust oylarida ochilmagan gʻunchalari, barglari terib olinadi. Shu bilan birga yosh, yogʻochlasha boshlagan novdalari va ildizining poʻstlogʻi shilib olinadi, maydalanadi hamda quyoshda yoki 50-60ºC haroratda quritiladi. Poʻstlogʻidan tayyorlangan damlama ishtaha ochuvchi taʼsirga ega. Xalq tabobatida yiringli yaralarni davolash uchun ishlatiladi. Yangi shilingan poʻstlogʻi ogʻrigan tishga bosilganda ijobiy natija beradi. Baʼzan ochiq yiringli yaralarga qoʻyilganda antiseptik taʼsir qiladi. Bundan tashqari oʻsimlikdan stenokardiyada, tireotoksikoz, gemorroyda, qandli diabet kasalligini davolashda ham foydalaniladi. Ildiz poʻstlogʻidan nastoyka tayyorlash uchun 20 g shilib olingan poʻstlogʻi ustiga 0,5 l qaynagan suv quyiladi, 1-2 soat davomida tindiriladi. Kuniga uch mahal ovqatdan oldin yarim stakandan ichiladi.[2]

Kovul shifobaxsh oʼsimligining dasturxondagi ahamiyati: Kovulning gʼunchasidan tayyorlangan marinat fransuzlarning xushxoʼr, taʼmi kishiga huzur bagʼishlaydigan taomi hisoblanadi. Gʼuncha, meva va mayin novdalarini sirkalab ziravor sifatida ishlatish mumkin. Kovul taom va pishiriqlar tayyorlashda koʼp qoʼllaniladi. Kovulning bu xususiyatlarini, sihat-salomatlikka foydasi bisyorligini aksariyat insonlar bilmaydi. Kovulning yashil gʼunchalari taʼmi unchalik yaxshi emas,biroz achchiqroq. Ammo unga ishlov berilgandan keyin bu taʼm yuqoladi. Tuzlangan va marinatlangan kovul goʼshtli taomlarga, salatlarga qoʼshib isteʼmol qilinadi. Kovul gʼumbaklari qurigach iliq holdagi zaytun moyi, jambil, zirk kabi ziravorlar qoʼshilib, soʼng bu omixta suv hammomida 10 daqiqa ushlab turiladi.Mazasi va hidi saqlanishi uchun kovulni taom tayyor boʼlishidan bir necha daqiqa oldin solish lozim.[3]

Kovul shifobaxsh oʼsimligining xalq tabobatidagi oʼrni: Kovul oʼzining shifobaxshliligi bilan ajralib turadi. Xususan xalq tabobatida bir qator kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Xalq tabobatida giyohning pishgan mevalari, barglari, novda va ildiz poʼstlogʼi ishlatiladi. Kovul bargi bosh ogʼriganda, qobiqlari qora jigar(taloq)ni davolashda, ildiz va barglaridan tayyorlangan malham chipqon va boshqa yaralarni tuzatishda ishlatilib kelingan. Meva qaynatmasi milkni mustahkamlaydi va tish ogʼrigʼini bosadi. Ildiz qaynatmasi esa sariq kasalligida shifo boʼladi. Buning uchun maydalangan ildizidan 10 g olib, bir stakan qaynoq suvga solinib, 10 daqiqa past olovda qaynatiladi va 10 daqiqa tindirib qoʼyiladi. Kuniga 2 osh qoshiqdan 3 mahal ichiladi. Keyingi paytlarda esa kovul ildizining spirtdagi

tindirmasi ishlatilmoqda. Kovul tarkibida rutin moddasi ko’p bo’lgani bois qon bosimini tushirishda foydalaniladi. Kovul ayollar uchun foydali giyoh bo’lib, uni iste’mol qilish tanani ankologik kasalliklardan himoya qiladi. Mabodo ishtaha bo’lmasa tushlik payti ovqatdan oldin bir nechta kovul yeyilsa ishtahani ochadi. Kovulni iste’mol qilishga qarshi ko’rsatmalar mavjud! [4]

Kovul — oyog'imiz ostidagi xazina yoxud tog' yonbag'irlarida uni rivojlantirish omillari xususida: O'tgan yili andijonlik o'rmonchilar tajriba almashgani Turkiyaga borishganida kutilmagan holatga duch kelishadi. Tushlik chog'ida dasturxonga boshqa taomlar qatori qandaydir mevali salat ham tortiladi. Mehmonlar unga qiziqib, tatib ko'rishadi. Bir-biridan so'raydiki, bu nima? Ammo savolga javobni hech kim bera olmaydi. Mehmondorchilik yakunida mezbonlarning o'zlaridan so'rashga majbur bo'ladilar: bu xushxo'r salatning reseptini bersangiz? Bunga javoban mezbonlar kulishadi. Sababi, bu yurtimizdan olib kelingan kovuldan tayyorlangan salat ekan. “Biz O'zbekistonni kovulning koni deb bilamiz. Uning 100 grammini 1 AQSH dollariga sotib olamiz”, deyishadi ular. Andijonlik o'rmonchilarning dilidan tiliga ko'chgani esa shu bo'ldi: adirlarimizda o'sadigan kovul dunyoda shunday qiymatga ega ekan. Oyoq ostidagi shunday xazinadan bexabar ekanmiz-a?! [5]

Shubhasiz bu voqea kovuldek juda foydali hisoblangan o’simlikka bo’lgan e’tiborni oshirishga turtki bo’ldi.

QORAQALPOG‘ISTONLIK SPORTCHI QIZLARNING JISMONIY VA FIZIOLOGIK RIVOJLANISHINI BAHOLASH: MUAMMOLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Shirlieva G.D., 2 kurs doktorant
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus sh. Qoraqalpog‘iston.
shgd.111988@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda Qoraqalpog‘iston Respublikasida sport bilan shug‘ullanuvchi qizlarning jismoniy va fiziologik rivojlanish darajasi, mavjud muammolar hamda ularni zamonaviy metodlar orqali baholash yondashuvlari tahlil qilingan. Mintaqaviy sharoit, ijtimoiy omillar va sog‘liqni saqlash tizimidagi mavjud kamchiliklar sportchi qizlarning rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganilgan. Bioimpedans tahlili, VO_2max testi, harakat faolligi monitoringi kabi ilg‘or texnologiyalarning qo‘llanishi va baholashda individual yondashuvning afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, sportchi qizlarning sog‘lig‘ini ta'minlash va ularni sportga jalb etishda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar haqida takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sportchi qizlar, jismoniy rivojlanish, fiziologik baholash, sport tibbiyoti, bioimpedans, VO_2max, individual yondashuv, sport psixologiyasi, ijtimoiy omillar.*

Zamonaviy sport tibbiyoti va pedagogikasi sportchilar organizmining holatini chuqur o‘rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, ayol sportchilarning — xususan, o‘sib

kelayotgan sportchi qizlarning — jismoniy va fiziologik rivojlanishi sportdagi muvaffaqiyatlar, jarohatlanish xavfini kamaytirish va umumiy salomatlik uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [Qosimova,2022:45].

Qoraqalpog‘iston Respublikasining iqlimiy, sotsial-iqtisodiy va madaniy xususiyatlari bu boradagi yondashuvlarni o‘ziga xos qiladi. Ushbu hududda yashovchi sportchi qizlarning rivojlanishini baholashda zamonaviy metodlardan foydalanish bilan birga, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish dolzarb hisoblanadi.

Qoraqalpog‘istonda sport sohasida davlat e’tibori ortayotganiga qaramay, sportchi qizlarning rivojlanishini tizimli o‘rganish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Qizlar orasida ayrim sport turlariga (erkin kurash, yengil atletika, sport gimnastikasi) qiziqish mavjud bo‘lsa-da, ularni professional darajada tayyorlash uchun kerakli sharoitlar yetarli emas [Karimova2021, №2.].

Shuningdek, sportchi qizlar jismoniy rivojlanishini baholovchi tizimlar ko‘pincha umumiy mezonlarga asoslanib, mintaqaviy yoki shaxsiy xususiyatlarni hisobga olmaydi. Bu esa baholashning aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Quyidagi muammolar tahlili ko’rsatib o’tilgan:

Tibbiy kuzatuvlar va monitoringning sustligi. Muntazam tibbiy tekshiruvlar o‘tkazilmasligi sportchi qizlarning funksional holatini real baholashga to‘sqinlik qiladi.

Ijtimoiy va madaniy to‘siqlar. Ayrim oilalarda sportga salbiy munosabat, ayniqsa qizlar uchun, hali ham mavjud bo‘lib, bu iqtidorli yoshlarning rivojiga xalaqit beradi[Tursunov R,2020].

Yetarli malakali kadrlar va anjomlarning yetishmasligi. Sportchi qizlar bilan ishlovchi murabbiylar va sport shifokorlarining tayyorgarlik darajasi ham bir xil emas.

1-jadval.

Sportchi qizlarning jismoniy va fiziologik rivojlanishini baholashda qo‘llaniladigan zamonaviy metodlar

Baholashusuli	Tavsifi
Bioimpedans tahlili	Tana massasi, yog‘ va mushak nisbati, suv miqdorini aniqlash
VO_2max testi	Yurak-qon tomir tizimi va chidamlilik darajasini aniqlash
Harakat faolligi monitoringi	Kunlik jismoniy yuklama va energiya sarfini aniqlash
Psixologik holat so‘rovlari	Ruhiy barqarorlik, stress darajasi va motivatsiya o‘lchovlari
Gormonal balans tekshiruvi	Endokrin tizim holatini nazorat qilish, ayniqsa o‘sish davrida muhim

Bu metodlar Qoraqalpog‘istonlik sportchi qizlar uchun moslashtirilib, ularning jismoniy rivojlanishini chuqur baholash imkonini beradi [Iskandarova,2023, №1, 28-

34].

Sportchilarni baholashda individual yondashuv asosiy omilga aylanmoqda. Har bir sportchi qizning tana tuzilmasi, psixologik holati, salomatlik darajasi va motivatsiyasi turlicha bo‘lishi mumkin. Shu bois baholashda quyidagilar e’tiborga olinishi lozim:

-shaxsiy yuklamalarni belgilash (sport turi, yosh, fiziologik holat asosida);

-ovqatlanish rejimining moslashtirilishi (energiya balansini saqlab turish uchun);

-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish (oila va jamiyatning ijobiy munosabati);

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib quyidagi takliflar va yechimlar berildi:

1. Hududiy sport markazlarida maxsus baholash laboratoriyalarini tashkil qilish
2. Qizlar bilan ishlovchi sport shifokorlarining malakasini oshirish
3. Mahalliy sharoitga mos baholash mezonlarini ishlab chiqish
4. Sport maktablarida ruhshunos bilan ishlash tizimini joriy etish
5. Ota-onalar bilan tushuntirish ishlari olib borish

Xulosa

Qoraqalpog‘istonlik sportchi qizlarning jismoniy va fiziologik rivojlanishini baholashda zamonaviy usullar va individual yondashuvni uyg‘unlashtirish zarur. Bu nafaqat sportdagi yutuqlar, balki sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ayol sportchilar salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun muhimdir. Muammolarni aniq tahlil qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali bu boradagi islohotlarni chuqurlashtirish mumkin.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Qosimova D., "Sportchi yoshlarning jismoniy rivojlanishini baholash metodikasi", Sport tibbiyoti jurnali, 2022, №3, 45-bet.
2. Karimova Z., "Ayollar sporti: muammolar va istiqbollar", O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport ilmiy-amaliy jurnali, 2021, №2.
3. Tursunov R., "Sport sotsiologiyasi", Toshkent: O‘zDJTInashriyoti, 2020.
4. Iskandarova M., "Sportda zamonaviy baholash usullari", Pedagogik innovatsiyalar, 2023, №1, 28-34-betlar.

AHOLI YASHASH JOYLARINI KO‘KALAMZORLASHTIRISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI

D.S.Toshpulatova, o‘qituvchi
Qo‘qon davlat universiteti, Qo‘qon sh. O‘zbekiston
dilyatoshpulatova6@gmail.com

So‘ngi yillarda mamlakatimizda shahar va qishloqlarimizni qiyofasini o‘zgartirish, zamonaviylashtirish, namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurish, hududning landshaft dizaynini yangilash kabi kompleks ishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Ushbu ishlar Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning bir qator qaror va

ko‘rsatmalari asosida amalga oshirilayotganligi, bajariladigan ishlar sifatini yuqori darajada tashkil etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Ushbu ishlarni bajarish uchun esa yetuk mutaxassis kadrlar zarur bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining “Shaharsozlik kodeksi”da shaharsozlik faoliyatiga quyidagicha ta’rif berilgan: davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning hududlarni, aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish, yer uchastkalaridan foydalanish turlarini belgilash, binokorlik materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish, binolar, inshootlar hamda boshqa ob’ektlarning fuqarolar manfaatlari, jamiyat va davlat manfaatlari, shuningdek mazkur hududlar hamda aholi punktlarining milliy, tarixiy-madaniy, ekologik, tabiiy xususiyatlari inobatga olingan holda loyihalashtirilishi, qurilishi va rekonstruksiyasi sohasidagi faoliyatidir [Qayimov, 2005].

Shuningdek, ushbu ishlarni amalga oshirish doirasida tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan an’anaviy uylar, turar-joy binolari va ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan ob’ektlar rekonstruksiya qilinishi, yangi xiyobon, mahalla guzarlari qurilishi, mavjudlarini rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan.

Vazirlar Mahkamasining qarorida belgilangan tadbirlardan biri, hududni ko‘kalamzorlashtirish, yangi daraxt va buta turlarini ekish va go‘zal landshaft hosil qilishdan iboratdir. Ko‘kalamzorlashtiriladigan xiyobonlar va maydonlarda sharoitga mos daraxt va buta turlarini tanlash kerak. Bugungi kunda manzarali gullovchi daraxt va butalardan ko‘proq foydalanishga e’tibor qaratilmoqda. Bundan daraxt va buta turlariga soxta kashtan, lola daraxti, jo’ka, bagryannik, yapon saforasi, magnoliya, yapon behisi, forzitsiya, eman, katalpa, bagryannik, kashtan, shoyi akatsiya, pavloniya va boshqalar. Ushbu turlar o‘zining manzaraviyligi va sharoitga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi.

Ko‘chalarda ekilgan daraxtlar, butalar va gullar aholini quyoshning jazirama issig‘idan, shamollardan, chang-to‘zondan va shovqinlardan himoya qiladi. Ko‘chalardagi ekinzorlar manzarabop-rejaviy ahamiyatga ega, shuningdek, qisqa vaqt dam olishga mo‘ljallangan. Ekinzorlar hajmi ko‘chalaming kengligiga, yo‘nalishiga, piyodalar va transport qatnovi yo‘nalishiga ko‘ra, yo‘lak va yo‘lning harakatlanish qismi oralig‘idagi zahira maydonining eniga hamda yo‘lakdan uylargacha bo‘lgan masofaga qarab o‘zgaradi.

Ko‘chalarni ko‘kalamzorlashtirishning asosiy turi - qatorli ekinzorlar bo‘lib, ular yo‘lak bilan yo‘lning harakatlanish qismi o‘rtasida ekiladi. Ular yo‘lakning har ikki tomonida bir, ikki, uch va undan ko‘proq qator qilib joylashtiriladi. Ushbu ekinzorlarning chet qismi, yo‘lning harakatlanish qismi oldida yashil to‘siqlar yoki asosan ninabarglilardan tashkil topgan daraxt va butalarning guruhlari bilan to‘ldirilishi mumkin.

Shuningdek, yo‘lak bilan uylar orasida alleya hosil qiluvchi daraxtlar qatorlab ekilishi mumkin hamda ko‘chalar yo‘nalishida hiyobonchalar barpo etish mumkin.

Manzarali o‘simliklarni ko‘kalamzorlashtirish ob’ektlarida qo‘llash uchun birinchidan, ularning ekologiyasi, ikkinchidan esa biologiyasidan kelib chiqib tanlash kerak. Masalan, eldor qarag‘ayi qish qattiq kelgan yillari sovuqdan zararlanadi. Chunki u minimum -27 oS darajagacha bardosh bera oladi. Ularning ayrimlari uchlaridan kurtak o‘sib chiqishi mumkin. Ammo ko‘chatlar manzaraviylik xususiyatini to‘liq yo‘qotib bo‘ladi. Chunki uchidan chiqqan yangi barglaridan tashqari barcha barglari, novdalari tushib ketadi, oqibatda ko‘rinishmi yo‘qotadi. Yangidan chiqqan ninabarglari uning hayot faoliyatini ta’minlay olmaydi [Qayimov, Xolmurodov, 2005].

Bundan tashqari sarv (kiparis), eman, kashtan, qayin, virgin archasi, shumtol kabi daraxt ko‘chatlarini ekish mumkin. Bu daraxtlar havoning mo‘tadilligini saqlaydi. Sarv O‘rta yer dengizi atrofidagi Kipr orollaridan keltirilgan. Shuning uchun nomi kiparis. U 25 darajagacha sovuqqa chidamli, manzarasi juda chiroyli daraxt. Virgin archasi esa minus 37 darajagacha chidaydi. U sovuqqa ham, issiqqa ham, qurg‘oqchilikka ham bardoshli, barglari yil davomida yam-yashil, o‘zidan yaxshi hid chiqaradi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra ba’zi daraxtlar insonga kuch-quvvat baxsh etsa, ayrim daraxtlar qon bosimini maromiga keltirib, yurak va asab tizimi faoliyatiga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi.

Daraxtlar atrofning sanitariya-gigiyena holatini yaxshilaydi. Kuchli shamollarni qaytaradi, o‘zidan zararli mikroblarni o‘ldiruvchi fitonsidlar ishlab chiqaradi. Bundan tashqari ignabargli daraxtlarning ahamiyati shundaki, qishin- yozin ular yashillikka burkangan bo‘ladi. Natijada yil-o‘n ikki oy changni yutib, havoni tozalab turadi.

Bizningcha, mahalliy iqlim sharoitida atrofni sog‘lomlashtirishda ham, shahar va qishloqlar ko‘rkini ochishda ham eman, jo‘ka, kashtan, qayin, magnoliya, shuningdek, qarag‘ay, archa kabi ignabargli daraxtlar eng ma’qul navlar hisoblanadi.

Havoni tozalash borasida daraxtlar orasida shubhasiz emanga yetadigani yo‘q. Har tup emanni is gazini kislorodga aylantirib, qayta ishlaydigan o‘ziga xos sex deyish mumkin. Uning barcha turlari uzoq umr ko‘radi. Ming yildan ortiq yashaydigan emanlar ham uchrab turadi. Ko‘rkamligi, noqulay shart-sharoitlarga nisbatan chidamliligi bois shaharlarni ko‘kalamzorlashtirishda keng qo‘llaniladigan bo‘lib qoldi. Botanika bog‘ida emanning yangi turlari - yirik mevali, kashtansimon bargli eman kabi ancha tez o‘suvchi, zararkunandalar va kasalliklarga chidamli, sarv qomati bilan ajralib turadigan turlari ham sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tdi. Ayniqsa, yashillikni to qishning ayozli kunlarigacha saqlab turuvchi kashtansimon bargli eman nihoyatda ko‘rkam.

Kashtan shahar ko‘rkini ochuvchi o‘simliklarning eng ajoyib turlaridan biri hisoblanadi. U ayniqsa, gullagan paytida juda manzarali bo‘ladi. 20-25 yilda katta daraxt bo‘lib etiladi. To‘g‘ri, yosh nihol paytida yozning jaziramasiga va atrof- muhit

ta’siriga chidamsizroq. Biroq uning bu xususiyati ham havo musaffoligining ko‘zgusi sifatida tabiat muhofazasida alohida ahamiyatga ega.

Ko‘plab mamlakatlarda o‘rmon xo‘jaligida ham, ko‘kalamzorlashtirishda ham qayin yetakchi o‘simlik turlaridan biri hisoblanadi. Qayinning oq tanali hamda rangli (pushti, oppoq, jigarrang-to‘q qizil, qoramtir) tanali juda ko‘rkam turlari bo‘lib, shaharlarni ko‘kalamzorlashtirishda ancha keng foydalanish mumkin [Xonazarov, 2002: 87-93].

Erta bahorda gullaydigan ajoyib daraxt - magnoliya ham ko‘kalamzorlashtirishda asqotadi.

Shahar muhiti ekologiyasini saqlash uchun ignabargli daraxtlar nihoyatda zarur. Ma’lumki, Qrim va eldor qarag‘ayi, Virgin va Kanada archasi, uzunbargli va tikonli archa, sharq biotasi havoni changdan tozalashdan tashqari, zararli mikroblarni o‘ldiruvchi fitonsidlar ishlab chiqaradi.

Buning ustiga, ayniqsa, aholi punktlarida havoning changlik darajasi yuqori bo‘ladigan, bargli daraxtlar esa xazonrezgilikdan so‘ng «dam oladigan» paytda, ya’ni kuz, qish va erta bahorda ignabargli o‘simliklar keng barglilarga qaraganda havoni changdan yaxshiroq tozalaydi. Hatto yozda ham ignabargli daraxtlar sanitarlik vazifasini barglilardan ko‘ra ancha samarali bajaradi: ularning fitonsidlari havoni zararli mikroblardan tozalab, o‘zining xushbo‘y efir va smolalari bilan uni yangilab turadi.

Shu sababga ko‘ra, ignabargli daraxtlarni nafaqat ko‘cha va maydonlarda, balki maktablar, bolalar muassasalari, hovlilarda ham ko‘proq o‘stirish kerak.

Ko‘kalamzorlashtirish madaniyatining zamonaviy rivojini butalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Qolaversa, chirmovuqlarning aksariyati qalin gullaydi. Hozir mahallalar va hovli uylarda atrofga chiroy bag‘ishlab turgan turli ko‘rinishdagi chirmovuqlarni uchratish mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatimizning barcha yirik shaharlarida zamonaviy binolarga tutash maydonlarni ko‘kalamzorlashtirishda ko‘proq alohida manzarali o‘simliklar o‘tqazilgan katta yashil maysazorlar yaratish rasm bo‘lmoqda. Bu tamoyil yirik binolarni ochib berishi bilan to‘la o‘zini oqlaydi, chunki arxitektura va landshaft uyg‘unligini ta’minlash ustivor sanaladi, ko‘kalamzorlashtirish esa uni bezovchi vositadir. Bunday majmualar kishining ko‘zini quvontiradi.

Alohida qayd etish joizki, yashil o‘simliklar sifatida tavsiya etiladigan daraxtlar va butalarning ko‘rinishi sinchiklab saralanadi va bunda gap faqatgina o‘simliklarning mahalliy tabiiy sharoitga mos kelishida emas. Manzaralilik, parvarishning oddiyligi, allergogenlik va boshqa jihatlar ham inobatga olinadi.

Umuman, O‘zbekistonda foydalaniladigan ko‘kalamzorlashtirish navlarining butun majmui aholi uchun so‘lim mikroiqlim hosil qiladi hamda shahar va qishloqlarning tashqi ko‘rinishiga chiroy berishga qaratilgan.

Ko‘chalar va yo‘llar chetini ko‘kalamzorlashtirish ham alohida e’tibor talab qiladi. Bunday joylarga daraxt o‘tqazishda yo‘llarning o‘ziga xos xususiyatlarini, harakatlanish serqatnovligini, bolalar va davolash muassasalari, turar joy mavzelarining qanchalik yaqinligini inobatga olish zarur. Yashil o‘simliklar binolar va boshqa ishlab chiqarish inshootlari bilan birgalikda yaxlit majmuani tashkil etadi. Yodda tutish kerakki, daraxtlar, gullar, maysazorlar haqida g‘amxo‘rlik qilish, bu - birinchi navbatda, insonlar, o‘sib kelayotgan avlod haqida qayg‘urish demakdir [Bo‘riyev, 1999].

Chinorlardan tashqari, boshqa allergiya qo‘zg‘atuvchi o‘simliklar ham bor. Masalan, olma, shaftoli, olxo‘ri, shumtolning tuklari tashqi muhitga ta’sirchan bo‘lgan odamlar uchun noqulayliklar tug‘diradi. Shu sababdan, ko‘kalamzorlashtirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘simliklardan maqsadga muvofiq foydalanish juda muhimdir. Masalan, mevali daraxtlar o‘z vazifasini qishloq joylarida, bog‘ maydonlarida yaxshi bajaradi, chinorlar esa tarixiy yodgorliklarga va tabiat qo‘ynida chiroy kasb etishi mumkin.

Biz aminmizki, tabiatida bog‘bonlik meros bo‘lgan o‘zbek xalqining an’analari ko‘kalamzorlashtirish ilmining yangi yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirgan holda, shahar va qishloqlardagi yam-yashil ko‘rkamlikning barqaror rivojlanishiga, ona yurtimiz go‘zalligining yanada yaxshiroq namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Aholi yashash joylaridagi landshaft muhitining shakllanishida manzarali o‘simliklarning o‘rni juda yuqori va xilma-xildir, chunki o‘simliklar sanitariya-gigiyenik vaziyatni yaxshilash xossalariga egadirlar. O‘tqazilgan daraxtlar shamol kuchini, shovqinni pasaytiradi, issiqlik rejimini tartibga soladi, havoni changdan va zararli sanoat chiqindilaridan, patogen mikroorganizmlardan tozalaydi va uni namlantiradi, bu esa muhitni sog‘lomlashtiruvchi ahamiyatga ega. Daraxtlar shahar - qishloqlar aholisining dam olishi, ommaviy madaniy tadbirlarini, jismoniy tarbiya hamda sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etishda yaxshi muhit yaratadi.

Ko‘chalarning arxitekturaviy manzarasini shakllantirishda daraxt va butalar beqiyos rang-barang shakllar, fakturalar va qiyofa hosil qiladi. O‘simliklarning manzaraboplik xususiyatlarining ko‘pligi, buning ustiga, vaqt va fasllar doirasida o‘z qiyofasini o‘zgartirib turishi; hududlarning landshaft-arxitekturaviy ko‘rinishini o‘zgartirishga cheklanmagan imkoniyatlarni ochib beradi. Ekinzorlar shunday bir materialdirki, u alohida binoni yoki bir necha binolarni, aholi yashash hududlarining yaxlit ko‘rinishini ta’minlaydi. Yashil ekinzorlar, katta yo‘l va ko‘chalar yoqasidagi ko‘kalamzorlashtirilgan yo‘lkalar aholi yashash qismlarini birlashtirib turadi hamda uy-joylarga go‘zal manzara bag‘ishlaydi [Qayimov, 2013].

Aynan yashil ekinzorlar katta yoki kichik massivlar ko‘rinishida, shuningdek, ko‘chalar va maydonlarda, qatorlab va guruhlab ekilgan o‘simliklar ko‘rinishi landshaft yechimiga xush manzaraviylik va mazmun bag‘ishlaydi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Bo‘riyev X.CH., Jononbekova A.T., Abdurahmonov A. Gulchilik. – T.: “Mehnat”, 1999.
2. Xonazarov A.A. O‘zbekistonda o‘rmonzorlar barpo qilish asoslari. Toshkent, 2002. 87-93 bet
3. Qayimov A. Landshaft qurilishi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2005.
4. Qayimov A., Aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish. Toshkent, 2013.
5. Qayimov A., Xolmurodov Ch. Manzarali dendrologiya. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2005.
6. Qalandarov M. M. Ko‘kalamzorlashtirish ishlari. Toshkent, 2013.

SHAHARLARNI KO’KALAMZORLASHTIRISHDA KATALPA O’SIMLIGINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Atajanova A., Saqiyeva S. A. Qoraqalpoq davlat universiteti, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish yo’nalishi talabasi
Kurbaniyazov B.T. Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti

Jahon miqyosida urbanizaciyasining jadal rivojlanishi aholi yashash maskanlarini manzarali daraxtlar asosida ko’kalamzorlashtirish, atrof-muhitini obodonlashtirish hamda mikroiqlimini shakllantirishning intensiv usullarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu sohada, manzarali va shahar sharoitlariga biologik chidamli bo’lgan daraxt turlari alohida ahamiyatga ega bo’lib, ularning tashqi muhit omillariga chidamliligini aniqlash, manzaraviyligini baholash hamda turli xil sharoitlarda ko’paytirish usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O’simlik dunyosi boshqa organizmlarga va biologik jarayonlarga energiya beradigan va oziqlantiradigan biosferaning muhim tarkibiy qismi bo’lib hisoblanadi. O’simliklar holati tabiiy tizimlarning faoliyati va barqarorligiga ta’sir qiladi. Manzarali daraxtlar atrof-muhit holati va ekotoksikantlarning salbiy ta’siridan ifloslangan hududlarni qayta tiklash indikatori bo’lib hisoblanadi. Ifloslantiruvchi moddalar ta’sirida biomassaning yo’qolishi sodir bo’ladi, qaysiki, ifloslanish manbai yaqinida 50-60 % gacha etishi mumkin. Shu munosabat bilan ekotizimdagi texnogen stressni pasaytirish uchun manzarali daraxt o’simliklarni foydalanish imkoniyatlarini o’rganish alohida qiziqish uyg’otadi va bu erda ularning barglari yuzasi noyob bioindikator sifatida ishlatish masalasi nazariy va amaliy ahamiyatni kasb etadi.

O’zbekiston hududi uchun atrof−muhit muammolari orasida eng muhimi atmosfera havosining ifloslanishi, aholining toza ichimlik suvi bilan etarli darajada ta’minlanmaganligi, chuchuk suvning etishmasligi, er osti va er usti suvlarining ifloslanishi, tuproqning sho’rlanishi va degradaciyaga uchrashi, biologik mahsuldorlikning kamayishi va turlar biologik xilma−xilligining kamayishi, o’simlik va hayvonot dunyosi ob’ektlarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanishni olimlar va mutaxascislar eng muhimi deb hisoblashmoqda

Daraxtlarning barglari o’ziga xos issiqlik xususiyatlariga ega. Ular har xil turlarda turli darajada issiqlikni qaytarishi va uni o’ziga qaytarib olish xususiyatiga ega. Misol uchun yosh daraxtzorlar quyosh radiaciyasini 90–95% gacha ushlab qolsa, aralash daraxtlardan iborat o’rmonlar 97–98% gacha radiaciyani ushlab qolish xususiyatiga ega. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur holatda daraxtlarning haroratdan himoya qilish funkciyasi yaqqol ko’zga tashlanib turadi.

Nukus shahri sharoitida shunisi e’tiborliki, bahor va yoz oylarida havoda chang ko’pligi bilan farq qiladi. Bu bir tomondan tuproq tarkibida lyossimon yotqiziqlarning o’ziga xos fizikaviy xususiyatlari bilan bog’liq bo’lsa, ikkinchi tomondan sahrodan esadigan garmsellar o’zi bilan ko’plab juda mayda chang zarralarini olib kelishi bilan bog’liq. Yashil daraxtzorlar shahar ko’chalaridagi havoni almashtirib, harakat qilishga yordam beradi hamda ularni tozalaydi. Daraxtzorlar havoni tarkibidagi zararli mikroorganizmlarni 40–45% gacha kamaytiradi. Shu bilan birgalikda shahardagi shovqinlarga kurashishda qalin joylashgan daraxtlar muhim ahamiyatga ega. Bargli daraxtlar shovqinning 25% ini o’zida singdirib, 75% ini qaytaradi. Daraxt va butalar havoning namlik darajasini oshirib, inson salomatligiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Havo namligining 15% ga oshishi, haroratning 3,5^{o}C gacha pasayishini ta’minlaydi. Daraxtlarning bug’lantirish sathining hajmi, ular egallagan maydon yuzasidan 20 baravar ortiq bo’ladi. 1 gektar maydondagi o’rmondan o’suv davri davomida 3 mln kg gacha namlik bug’lanadi. Yilning quruq mavsumida yashil ekinzorlar orasida havoning namligi ochiq maydondagiga nisbatan 4–7% yuqori bo’ladi; namgarchilik mavsumida esa–namlik darajasi pasayadi, chunki havo quruqlashganida barglarda bug’latish kuchayadi, va aksincha, nam havoda barglar suvni o’ziga tortib oladi.

Bignoniyanoma katalpa katta daraxt bo’lib, tabiiy sharoitda uning bo’yi 18–22 m, diametri 1,5 m ga etadi. Tanasi tik o’sadi, shox-shabbasi piramida shaklda yoki keng. Nukus shahri sharoitida o’simlikniing bo’yi 8–12 m gacha borishi qayd etildi. Uning diametri 45–60 sm ni tashkil qiladi.

Tanasi va shoxlarining po’stlog’i qizil-qo’ng’ir, bo’yiga enli yorilgan. Barglari keng-oval shaklda, goho cho’ziq, bo’yi 15–30 sm ga etadi, uchi o’tkir, tubi to’mtoq, cheti tishchali. Barglari novdada ketma-ket joylashadi [Отенов Т, 2009]. Yuz tomoni tiniq yashil, tuksiz, orqa tomoni sertuk hidsiz. Barg bandi 10–15 sm. Gullari kam gulli ro’vak hosil qiladi. Ro’vagining bo’yi 20 sm ga etadi. Ko’sakchasining uzunligi 45 sm, eni 1,5 sm po’sti juda qalin, urug’i yumaloq, kalta tukli. Har bir urug’ qutisida 90–104 tagacha potencial urug’ shakllanishi kuzatildi. 1000 ta urug’ning massasi 32–40 gr atrofida bo’lishi kuzatildi.

Bu tur qisman past bo’yli va sershox, barglari o’tkir uchli bo’lishi, gulining maydaligi, meva pallalari yupqa bo’lishi va gullash bosqichiga erta kirishi bilan oldingi turdan farq qiladi.

Boshqa xususiyatlari bilan go’zal katalpaga o’xshaydi. Bu katalpa ham Shimoliy Amerikadan keltirilgan. O’zbekistonga introdukciya qilinganiga 100 yildan

oshdi. O’zbekiston sharoitida juda manzarali daraxt hisoblanadi.

Katalpa daraxti juda mashhur ekin hisoblanadi, chunki u butun mavsum davomida dekorativ qiymatini yo’qotmaydi. Bahorda o’simlik yorqin yashil barglari bilan bezatilgan, yozda - yam-yashil gullar, va kuzda, katalpa barglari tushguncha bir xil yorqin barglari bilan bog’bonlarni quvontiradi. Hatto qishda ham o’simlik quruq podalar joylashgan asl osilgan novdalar yordamida hududni bezashga qodir.

Mazkur tur issiqlik va qurg’oqchilikka chidamli, tuproq unumdorligi va namligini xush ko’radi. Sanoat transport chiqindilari va havodagi changga nisbatan chidamliligi tufayli shahar muhitida yaxshi rivojlanadi. Mazkur tur juda ham oson ko’payadi. Urug’lari kuzda terilib, kuzda to’g’ridan-to’g’ri ochiq joylarga ekiladi. Bir yillik nihollarni bemalol boshqa joylarga o’tkazish mumkin. Ular 3–4 yildan keyin, bemalol manzarali o’simlik sifatida shaharning turli hududlariga ekilishi mumkin. Ko’chatlarni o’tkazish qiyinchilik talab qilmaydi. Katta yoshli o’simliklar tashqi muhit omillariga chidamli bo’ladi. Shu sababli 3-4 yillik nihollar, ko’pincha pitomniklarda saqlanib turiladi.

Ko’kalamzorlashtirishning asosiy jihati shundan iboratki, bunda tabiiy daraxt ekinzorlari hududidan foydalangan holda, qiyofasini o’zgartirib borish, tabiat namunalarini amaliy san’at ishlari bilan birlashtirib, yaxlit bir manzarani yarata oladi. Yashil daraxtzorlar yaratishning samaradorligi avvalo tanlangan daraxtlarning assortimentiga, foydalanishda ularning biologik xususiyatlarini, ekologik talablarini va manzaralilik darajalarini alohida e’tiborga olish kerak. Shu bilan bir qatorda, shaharlar hududini ko’kalamzorlashtirishda avvalo shaharning geografik holatini alohida e’tiborga olish zarur. Manzarali daraxtlarni joylashtirishda ularning balandlikka qarab o’sishiga e’tibor beriladi. Chunki mazkur xildagi daraxtlar bir–birini yopib qo’ymasdan, balki ko’rsata olishi muhim hisoblanadi. Zamonaviy shaharsozlikda ham mazkur jihatlarga alohida e’tibor qaratiladi. Manzarali o’simliklarning yana bir estetik ko’rinishi, bu ularni o’sib rivojlanish jarayonida uzoq yashab ketishi hisoblanadi. Manzarali daraxtlarning muvaffaqiyatli o’sib rivojlanishi eng avvalo ularni parvarishlash ishlarini tashkil etish, ularga sharoit yaratish zarur. Manzarali o’simliklar aksincha turi xil sharoitlarga juda moslashuvchan bo’ladi va shunga ko’ra ular tashqi sharoit o’zgarishlariga bemalol bardosh bera oladi. Shunday xususiyatlari tufayli ular yangi sharoitga nisbatan tezroq moslashadilar. Daraxtlarni joylashtirishda ularning ekologik va biologik xususiyatlari: yorug’lik, tuproq va namlikka talabi, makon va zamonda daraxtlarning bir-biriga o’zaro ta’siri e’tiborga olinishi lozim. O’simliklarni o’zaro bir-biri bilan, ular bilan qurilish elementlari va dastgohlar orasidagi masofa tanlanganda, daraxtlarning o’sish sur’ati e’tiborga olinadi. Daraxtlar ekilganda o’zaro zich bo’lmasligi kerak, aks holda, bir necha yillardan so’ng ularning qisilib qolish xavfi yuzaga keladi. Mazkur holatda birinchi navbatda, ularning asosiy vazifasi bo’lmish kislorod ajratib chiqarish xususiyati susayib ketadi. Yorug’lik etarli bo’lgandagina o’simliklarda fotosintez jarayoni jadallik bilan boradi, zararli moddalarni yutadi va ko’p miqdorda kislorod ajratib chiqarishi kuzatiladi.

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ MIRIDAE ОИЛАСИ ҚАНДАЛАЛАРИНИНГ ЗООГЕОГРАФИК ТАҲЛИЛИ

Худойбердиева Маърифат Осимжоновна
Тошкент давлат тиббиёт университети
email: hudoyberdieva86@mail.ru

Зоогеография - биогеографиянинг муҳим ва ажралмас қисми бўлиб, ҳайвонларнинг ер юзида тарқалишини ўрганиш билан шуғулланади. Унинг асосий мавзуси фаунадир. Фауна - белгиланган географик муҳитда, яъни биогеоценозда, тарихий ривожланиш ва турларнинг аралашуви натижасида шаклланган ҳайвонлар популяциясини англатади. Зоогеографиядаги тадқиқотлар, одатда, белгиланган ҳудуддаги ҳайвонот дунёси турларининг тузилиши ва ўзаро алоқаларини аниқлашдан бошланади. Бунинг учун фаунистик элементларнинг хос ҳислатлари, уларнинг тарқалиш ареали, сони ва ўзаро ўзгаришларини ўрганиш муҳимдир.

Дунёда яримқаттиққанотли ҳашаротлар Miridae оиласи қандалаларининг зоогеографик тарқалишининг ареалогик классификациясига доир бир нечта илмий тадқиқот ишлари олиб борилган [Кириченко А.Н., 1951, Schuh R.T., 1995, Panizzi, A.R ва бошқ., 2015, Schuh R.T ва бошқ., 1995].

Ушбу тадқиқот ишида Республикамизнинг Фарғона водийси сўқир қандалаларининг О.Л.Крижановский (2001) томонидан ишлаб чиқилган назариялар асосида зоогеографик таҳлил қилиб ўрганилди [Крыжановский О.Л., 1951].

Дунё бўйича ҳайвонларнинг зоогеографик тарқалиши қуруқлик ва океанларга ажратиб таҳлил қилинади. Шунга кўра, ҳайвонлар турлари қуруқлик бўйича 6 та: Галарктика, Инди-малай, Эфиопия, Неотропик, Австралия ва Антарктида зоогеографик вилоятларга бўлинади. Бу вилоятларнинг ўзи яна алоҳида кенжа вилоятларга бўлинади. Ҳусусан Галарктика катта вилояти Арктик, Бореал, Қадимги ўрта ер, Ўрта Осиё, Хитой-Гимал, Ғарбий Америка ва Шарқий Америка каби 7 та кенжа вилоятлари фарқланади.

Ушбу тадқиқот ишининг мақсади Фарғона водийси шароитида тарқалган Miridae оиласига мансуб қандалаларнинг зоогеогрфик вилоятларида тақсимланишини ўрганишдан иборат.

Ушбу тадқиқот иши 2021-2024 йиллар мобайнида Фарғона водийсининг Наманган вилояти (Поп, Чуст, Косонсой, Тўракўрғон, Чортоқ, Янгиқўрғон, Мингбулоқ туманлари), Фарғона вилояти (Ёзёвон, Қўштепа, Олтиариқ, Риштон, Бағдод, Бувайда, Учкўприк, Данғара туманлари) ва Андижон (Улуғнор, Бўз туманлари) вилоятининг тоғ ва тоғолди, чўл ҳудудларидан, қишлоқ хўжалик агробиоценозларидан, фермер хўжаликлардан ҳамда томорқа хўжаликларидан ҳашарот намуналари йиғилди.

Намуналар асосан, март ойидан декабр ойига қадар, шунингдек маълум қисми эса февраль ойида йиғилиб, тадқиқот ишлари давомида 1,5 мингдан ортиқ ҳашарот намуналари йиғилди ва ўрганилди.

Miridae оиласига мансуб қандалаларнинг солиштириб қиёсий таҳлил қилиш учун, Зоология институти Энтомология коллекция фондидаги қандалаларга оид коллекция материалларидан ҳам фойдаланилди.

Ҳашарот намуналарини йиғиш юзасидан тадқиқот ишлари умумэнтомологик услублар ва туркумлар учун ишлаб чиқилган услублардан фойдаланилган холда амалга оширилди [Голуб В.Б ва бошқ., 2012].

Олиб борилган энтомологик тадқиқот натижаларига кўра, Фарғона водийсидан 27 авлодга мансуб 49 та тур аниқланган бўлиб, йиғилган қандалаларнинг тарқалиш ареалининг зоогеографик таҳлил натижалари бўйича 11 та гуруҳга ажратилди (1-жадвал).

1-жадвал

Miridae оиласига мансуб турларнинг зоогеографик таҳлили

№	Турлар номи	Зоогеографик худудлар
1	*Macrolophus pygmaeus*	Бореал палеарктиктур
2	*Deraeocoris punctulatus*	Плюрирегионал тур
3	*Deraeocoris serenus*	Бореал палеарктик тур
4	*Deraeocorisrutilus*	Қадимги Ўрта ер денгизи тури
5	*Deraeocorisruber*	Плюрирегионалтур
6	*Adelphocoris lineolatus*	Транспалеарктик тур
7	*Adelphocoris seticornis*	Палеарктик тур
8	*Agnocoris rubicundus*	Голарктик тур
9	*Brachycoleus decolor*	Палеарктик тур
10	*Creontiades pallidus*	Палеарктик тур
11	*Lygus pratensis*	Плюрирегионалтур
12	*Lygus gemellatus*	Палеарктик тур
13	*Lygus punctatus*	Плюрирегионалтур
14	*Orthops kalmi*	Голарктиктур
15	*Orthops pilosulus*	ҚадимгиЎрта ер денгизи тури
16	*Polymerus cognatus*	Плюрирегионалтур
17	*Polymerusbrevicornis*	Палеарктик тур
18	*Polymerus unifasciotus*	Плюрирегионалтур
19	*Polyments vulneratus*	Қадимги Ўрта ер денгизи тури
20	*Phytocoris turkestanicus*	ЎртаОсиёХитой тур
21	*Phytocoris undulates*	Туран- эндемик тур
22	*Eurystylus bellevoyei*	Шарқий ярим шар плюрирегионал
23	*Notostira elongata*	Палеарктик тур
24	*Notostiraerratica*	Голарктиктур
25	*Stenodema calcarata*	Транспалеарктиктур
26	*Stenodema laevigata*	Шарқий ярим шар плюрирегионал

27	*Stenodematuranica*	Эрон-туронтури
28	*Trigonotylus ruficornis*	Шарқий яримшар плюрирегионал
29	*Trigonotylus pulchellus*	Қадимги Ўрта ер денгизи тури
30	*Myrmecoris gracilis*	Бореалпалеарктиктур
31	*Halticus pusillus*	Голарктиктур
32	*Halticus apterus*	Голарктиктур
33	*Myrmecophyes alboornatus*	Палеарктик тур
34	*Orthocephaluscoreaceus*	Плюрирегионалтур
35	*Globiceps flavomaculatus*	Палеарктик тур
36	*Orthotylusturanicus*	ЎртаОсиёХитойтур
37	*Orthotylusflavosparsus*	Голарктик тур
38	*Orthotylus oshanini*	Эрон-туронтури
39	*Atomoscelis onusta*	Плюрирегионалтур
40	*Asciodemaobsoleta*	Голарктик тур
41	*Plagiognathus chrysantemi*	Голарктиктур
42	*Plagiognathus bipunctatus*	Голарктиктур
43	*Campylomma verbasci*	Бореалпалеарктиктур
44	*Campylomma diversicorne*	Сахора-гобий тур
45	*Tuponia elegans*	Палеарктик тур
46	*Tuponiaroseipennis*	Сахора-гобий тур
47	*Pilophorus sinuaticollis*	Палеарктик тур
48	*Chlamydatus pullus*	Палеарктик тур
49	*Chlamydatus wilkinsoni*	Голарктиктур
Жами: 49 тур		

I. Плюрирегионал турлар гуруҳи – Плюрирегионал турлар гуруҳига сайёрамиздаги иккала ярим шарлар бўйлаб тарқалган турлар киритилган бўлиб, буларга камида 3 қитъада тарқалган турлар киритилди. Бу гуруҳга 5 авлодга мансуб, 8 та (*Deraeocoris punctulatus, Deraeocoris ruber, Lygus pratensis, Lygus punctatus, Polymerus cognatus, Polymerus unifasciotus, Orthocephalus coreaceus, Atomoscelis onusta*)турлар киришлиги қайд этилди. Улар жами турларнинг 16 % ини ташкил этади.

II. Шарқий ярим шар плюрирегионал турлар гуруҳи – Шарқий ярим шар плюрирегионал турлар. Шарқий ярим шарда тарқалган ва айни пайтда 3 та қитъа ёки зоогеографик худудда учрайдиган турларни бириктиради. Бу гуруҳга 3 авлодга мансуб, 3 та (*Eurystylus bellevoyei, Stenodema laevigata, Trigonotylus ruficornis*) турлар киришлиги қайд этилди. Улар жами турларнинг 6 % ини ташкил этади.

III. Голарктик турлар гуруҳи – Буларнинг кўпчилик турлари палеарктикада тарқалган бўлиб, баъзи вакиллари Шимолий Америкада учрайди. Ушбу гуруҳга 8 авлодга мансуб, 10 та (*Agnocoris rubicundus, Orthops kalmi, Notostira erratica, Halticus pusillus, Halticus apterus, Orthotylus flavosparsus, Asciodema obsoleta,Plagiognathus chrysantemi, Plagiognathus bipunctatus, Chlamydatus wilkinsoni*)турларни ўз ичига олади ва жами ўрганилган 50 турнинг 20% ини ташкил этади.

IV. Транспалеарктик турлар гуруҳи – Тарқалиш ареали Палеарктиканинг бир неча чўл зонасидан ўрмон зонасигача бўлган ҳудудларни эгаллаган. Бу гуруҳга 2 авлодга мансуб, 2 та (*Adelphocoris lineolatus, Stenodema calcarata*)турлар киради ва 4% ни ташкил этади.

V. Палеарктик турлар гуруҳи – Буларнинг кўпчилик турлари, кўпинча Голарктиканинг таркибий қисми сифатида саналган Европа, Осиё Ҳималайдан Шимолий томонга ва Арабистон ярим оролисиз, Шимолий Африкани Сахора-гобийнингШимолий чеккасигача тарқалган. Ушбу гуруҳга 12 авлодга мансуб, 11 та (*Adelphocoris seticornis, Brachycoleus decolor, Creontiades pallidus, Lygus gemellatus, Polymerus brevicornis, Notostira elongata, Myrmecophyes alboornatus, Globiceps flavomaculatus, Tuponia elegans, Chlamydatus pullus, Pilophorus sinuaticollis*)турлар киради ва улар 24% ни ташкил этади.

Групповая работа - шаг к индивидуализации обучения. Ученик, решая общие задачи, готовит себя к решению задач индивидуально (ставить перед собой учебную задачу, планировать свою учебную деятельность, анализировать, моделировать, контролировать и оценивать).

Исходя из этих моделей (которые классифицируются исключительно по внешним критериям), он выделяет два типа организации совместной деятельности:

- функционально-ролевой тип (отсутствует прямая зависимость между заданными участниками или избранными ими ролями и конкретным содержанием их совместной деятельности);
- операциональный тип (предметом распределения между участниками становятся структурные элементы выполняемой учащимися деятельности, когда предстоит работа по плану; например, чтобы решить текстовую задачу, нужно совершить ряд операций: прочитать задачу, составить модель к задаче, по модели составить математическое выражение или уравнение, решить данное выражение или уравнение, произвести проверку правильности выполнения всех операций).

Групповая работа нацелена на решение задач поискового, исследовательского характера. Те знания становятся крепкими и важными, которые добываешь сам. Правила работы должны быть выработаны учителем и учащимися вместе, а потом уже им дается возможность самим организовывать совместную деятельность.

Результат коллективной работы должен быть выполнен на листе шрифтом, который будет виден на доске каждому ученику класса. После презентации должна быть организована учебная дискуссия, в ходе которой должны быть обсуждены все важные стороны исследуемого вопроса. Если результаты у всех групп положительные или одинаковые, достаточно

выслушать результаты одной группы, а остальным учащиеся дать общую оценку, высказать замечания, задать вопросы «на выяснение понимания исследуемой учебной задачи». Если результаты положительные, правильные и неправильные, следует начать со вторых, Анализируя работу, отвечая на вопросы других групп, учащиеся сами приходят к правильному результату. Если все группы не пришли к положительному результату, следует предложить правильное решение учебной задачи для анализа, чтобы учащиеся, исследуя его, поняли причину ошибки.

Большое значение в результативности групповой работы имеет оценивание. На первом этапе рекомендуется давать оценку умению сотрудничать, позже добавить результативность, потом умение «придумывать» аналитические вопросы.

Деятельность учителя на уроке состоит в отборе и применении форм, соответствующих реальным целям и задачам учебно-воспитательного процесса. Одной из таких форм является групповая работа, которая позволяет улучшить успеваемость, раскрыть систему отношений школьника к миру, одноклассникам и самому себе. Психологи определили, что «инкубатором» самостоятельного мышления, познавательной активности ребёнка является не индивидуальная работа под руководством чуткого взрослого, а сотрудничество в группах совместно работающих детей.

Основная цель групповой работы – развитие мышления учащихся, а развивать мышление – значит, развивать умение думать. При этом решается ряд учебных и воспитательных задач:

– возрастает объём усваиваемого материала и глубина его понимания;

– на формирование понятий, умений, навыков тратится меньше времени, чем при фронтальном обучении;

– ученики получают удовольствие от занятий, комфортнее чувствуют себя в школе; – возрастают познавательная активность и творческая самостоятельность учащихся;

– меняется характер взаимоотношений между детьми (исчезают безразличие, агрессия, прибавляются теплота и человечность);

– возрастает сплочённость класса;

– растёт самокритичность (ребёнок, имевший опыт работы со сверстниками, более точно оценивает свои возможности, лучше себя контролирует);

– учитель получает возможность реально осуществлять индивидуальный подход к учащимся (учитывать их взаимные склонности, способности, темп работы при делении класса на группы, давать группам задания, дифференцированные по трудности).

И всё же важно понимать, что педагогические инновации – это неотъемлемая часть развития педагогики и они необходимы для совершенствования системы начального образования.

СПИСОК ИСПОЛЬЗУЕМОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Андреев В.И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития / В.И. Андреев. – Казань, 2000 – С. 440-441.
2. Педагогика №4, 2004: Периодическое издание / В.С Лазарев, Б.П Мартиросян. – Педагогическая инноватика: объект, предмет и основные понятия – С. 12-14.
3. Пидкасистый И.И. Педагогика: Учебное пособие / И.И. Пидкасистый. – Москва: Российское педагогическое агенство, 1995 – С. 49-54.

MAKTAB O‘QUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASHINI O‘STIRISH, BILIMLARINI KUNDALIK HAYOTDA QO‘LLAY OLISHLARIGA O‘RGATISH METODIKASI

Sultanov M.J. stajyor o‘qituvchi, Bazarbayeva L.G. 3-kurs talaba,

Jumaboyeva M.Sh. 1-kurs talaba

Ajiniyoz Nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

Bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida ta’lim jarayoni oldida mutlaqo yangi vazifalar yuzaga kelmoqda. Avvalgi yondashuvlarda o‘quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish ustuvor hisoblangan bo‘lsa, hozirgi kunda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirish birinchi

darajali ahamiyat kasb etmoqda. Zero, bilimni yod olish emas, balki uni anglash, izchil fikr yuritish va kundalik muammolarga tadbiq eta olish zamonaviy shaxsni shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Mantiqiy fikrlash – bu tanqidiy yondashuv, sabab-oqibatni tahlil qilish, to‘g‘ri qaror qabul qilish va muammolarni yechishdagi asosiy vositadir. Bu ko‘nikmani rivojlantirish esa bolalikdan boshlanishi kerak. Aynan shu jihat O‘zbekiston Respublikasining ta’lim siyosatida ham ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4310-sonli qarori – “O‘zbekiston Respublikasining xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da o‘quvchilarning tanqidiy, tizimli va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni hayotiy vaziyatlarga moslasha oladigan shaxs sifatida tarbiyalash asosiy maqsad etib belgilangan.

Shu bilan birga, xalqaro ta’lim tashkilotlari tomonidan ham maktab o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash, tanqidiy yondashuv va innovatsion fikr shakllantirishga tayyorlik darajasi ta’lim sifatining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari maktab ta’limining asosiy vazifasi sifatida bilimlarni yodlash emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishni belgilab bergan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, o‘zlashtirilgan bilimlarni kundalik hayotda mustaqil tarzda tatbiq etish malakasini rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va ta’limiy vositalar tizimli tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarda chuqur tafakkur, muammoli vaziyatlarda harakat qilish, hayotiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy misollar keltiriladi. Asosiy qism

Mantiqiy fikrlash tushunchasi va uning ahamiyati. Mantiqiy fikrlash — bu dalillarga asoslangan holda muammolarni hal qilish, xulosalar chiqarish, fikrlar ketma-ketligini aniqlash, sabablilik aloqalarini tahlil qilish jarayonidir. Bu ko‘nikma o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, balki uni o‘stirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus metodik ishlarni talab etadi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida bu jihatga alohida

e’tibor qaratilmasa, o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni yod olish bilan cheklanib qoladi.

Muammoli ta’lim va savol asosidagi yondashuv. Mantiqiy fikrlashni shakllantirishning eng samarali yo‘llaridan biri bu – muammoli vaziyat asosida o‘quv jarayonini tashkil etishdir. O‘qituvchi darsda o‘quvchilarga oddiylikdan murakkablikka yo‘naltirilgan, hayotiy muammolarga oid savollar berishi lozim. Masalan, kimyo fanida “Nima uchun zang faqat ho‘l joylarda paydo bo‘ladi?”, matematika fanida “Qanday qilib to‘g‘ri byudjet tuzish mumkin?” kabi savollar orqali o‘quvchi nafaqat javob izlaydi, balki mavjud bilimlarini chuqur tahlil qilishga, yangi bilim hosil qilishga harakat qiladi. Bu jarayonda u sabab-oqibat aloqalarini o‘rganadi, xulosa chiqaradi va fikrlash mexanizmi faol ishlay boshlaydi.

Hayotiy bilim va amaliy topshiriqlarni qo‘llash

Maktab o‘quvchisi o‘zlashtirgan bilimlarini hayotda tatbiq eta olmasa, bu bilimlar vaqt o‘tishi bilan unutiladi yoki qiziqish uyg‘otmaydi. Shu sababli, har bir dars hayotiy misollar bilan boyitilishi kerak. Masalan, fizikada issiqlik o‘tkazuvchanligi mavzusi issiq choynak tutqichining nega plastmassadan yasalgani bilan bog‘lab tushuntirilsa, o‘quvchi bu bilimni kundalik hayotda anglay boshlaydi. Biologiyada ovqatlanish gigiyenasi, geografiyada tabiat hodisalari, texnologiyada maishiy jihozlardan to‘g‘ri foydalanish kabi mavzular asosida hayotiy topshiriqlar berish zarur. Bu topshiriqlar o‘quvchining real vaziyatda fikrlashini, shaxsiy tajribasi asosida qaror qabul qilishini ta’minlaydi.

Fanlararo integratsiya orqali mantiqiy tafakkurni rivojlantirish. Fanlararo integratsiya ta’limda o‘quvchilarning bilimlarni umumlashtirish va tizimli fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishda muhim o‘ringa ega. Masalan, tarix va geografiya fanlarida tarixiy voqealarning geografik joylashuviga bog‘liqligini tushuntirish, kimyo va biologiyada oziq-ovqat tarkibining organizmga ta’sirini tahlil qilish orqali o‘quvchi biror mavzuni har tomonlama tahlil qilishga o‘rganadi. Bu esa mantiqiy fikrlash va tahliliy qaror qabul qilish ko‘nikmasining shakllanishiga olib keladi.

Loyiha asosidagi ta’lim: mustaqil izlanish va tahlil asoslari. Loyiha asosidagi ta’lim metodikasi o‘quvchini faol tadqiqotchi, izlanuvchi va mas’uliyatli shaxs

sifatida shakllantiradi. Bu metodika orqali o‘quvchi o‘z qiziqishiga mos mavzuni tanlab, uni mustaqil tahlil qiladi, material to‘playdi, guruh bilan hamkorlikda ishlaydi, yakuniy xulosaga keladi va omma oldida himoya qiladi. Masalan, “O‘quvchilar orasida ekologik madaniyat” yoki “Mahalladagi suv sarfini kamaytirish yo‘llari” kabi loyihalar orqali o‘quvchilar amaliy masalalarni hal qilishda nafaqat bilim, balki ijtimoiy mas’uliyat, muammoli fikrlash, jamoada ishlash, tanqidiy tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni egallaydi.

Zamonaviy texnologiyalar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish

Axborot texnologiyalari yordamida darsda interaktiv usullardan foydalanish, vizual dasturlar, onlayn testlar va muammoli o‘yinlar orqali ham o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish mumkin. Masalan, o‘zgaruvchan vaziyatlarga asoslangan simulyatsion topshiriqlar, masofaviy loyiha ishlari yoki raqamli laboratoriyalar orqali o‘quvchi bilimni virtual muhitda sinab ko‘rishga o‘rgatiladi. Bu esa zamonaviy texnologiyalarni faqat vosita sifatida emas, balki fikr yuritish vositasi sifatida foydalanishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va bilimlarini hayotda qo‘llashga o‘rgatish zamonaviy ta’limning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Muammoli ta’lim, hayotiy vazifalar, fanlararo integratsiya, loyiha asosidagi yondashuvlar orqali bu vazifani samarali amalga oshirish mumkin. O‘qituvchi esa bu jarayonda yetakchi bo‘lib, o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, hayotiy muammolarga yechim topuvchi, tafakkur salohiyati yuqori shaxs sifatida shakllantirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4310-sonli qarori
2. Hasanboyeva D. “Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni shakllantirish”, Toshkent, 2021.
3. Abduraxmonov Q. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, Toshkent, 2020.
4. G‘ulomova M. “Fanlararo integratsiya asosida ta’lim jarayoni”, Samarqand, 2022.

TANQIDIY FIKRLASH RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

Bazarbayeva L.G. 3-kurs talaba

Ajiniyoz Nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tanqidiy fikrlash tushunchasi, uning ta’limdagi ahamiyati hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishda qo‘llaniladigan samarali pedagogik strategiyalar tahlil qilinadi. Muammoli ta’lim, savol-javob asosidagi yondashuv, refleksiya va debat texnologiyalari orqali o‘quvchilarning mustaqil va chuqur fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv, muammoli ta’lim, pedagogik strategiya, metakognitsiya, refleksiya.

Zamonaviy jamiyatda har bir insondan nafaqat keng qamrovli bilimga ega bo‘lish, balki mustaqil fikr yuritish, tahliliy yondashuv va asosli qaror qabul qila olish kabilar talab etiladi. Bu esa, shubhasiz, tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tanqidiy fikrlash – bu har qanday axborotni bevosita qabul qilmasdan, uni tahlil qilish, asoslash va tanqidiy ko‘z bilan baholay olish qobiliyatidir. Bu ko‘nikma orqali inson real hayotdagi muammolarni chuqur anglab, ularga mos yechimlar taklif eta oladi. Shunday ekan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Tanqidiy fikrlovchi shaxs – bu bilimni nafaqat yodlaydigan, balki uni qayta ishlaydigan, izchil fikr yuritadigan, baholaydigan va yangidan-yangi yondashuvlar taklif eta oladigan shaxsdir. Ayni jihatlarni inobatga olgan holda, ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotda joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Bu masalaning davlat siyosati darajasida ham e’tiborga olinayotgani quvonarlidir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4310-sonli qarori – *“O‘zbekiston Respublikasining xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”*da o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu hujjatda ta’limning

mazmunini yangilash, zamonaviy kompetensiyalar asosida tashkil etish, shuningdek, o‘quvchilarda tafakkur madaniyatini rivojlantirish lozimligi ta’kidlab o‘tilgan.[1]

Shuningdek, 2020-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ham tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi ta’lim tizimining muhim maqsadlaridan biri sifatida ilgari surilgan. Unda aytilishicha, har bir bitiruvchi zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashi, mustaqil fikrlay olishi va hayotiy muammolarni hal qilishga qodir bo‘lishi kerak. Bu esa o‘quvchilar ongida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni pedagogik jarayonning markaziga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim strategiyalari o‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, savol berishga, mantiqiy izlanishga, dalillarga tayanishga va xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Aynan shu pedagogik strategiyalar bugungi maqolaning diqqat markazida bo‘lib, ularning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi va ta’sirchanligi tahlil etiladi. Asosiy qism

Tanqidiy fikrlash tushunchasi va uning zarurati

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi insonning muammoli vaziyatlarga nisbatan ongli, tahliliy, ob’ektiv va izchil yondasha olishini ta’minlaydi. Ushbu ko‘nikma hayotda, kasbiy faoliyatda, kundalik qarorlar qabul qilishda muhim o‘rin egallaydi. Bu borada ta’limning asosiy vazifasi – o‘quvchilarni passiv bilim oluvchilardan faol tafakkur yurituvchi, savol beruvchi va shubhalanuvchi shaxslarga aylantirishdan iborat. UNESCO, OECD kabi xalqaro tashkilotlar ham tanqidiy fikrlashni XXI asrning eng muhim kompetensiyalaridan biri sifatida tan olgan.[2]

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muammoli ta’lim strategiyasi

Muammoli ta’lim – bu o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki savol berish, muammoni tahlil qilish, turli yechimlarni solishtirish va asoslashga yo‘naltiruvchi metodik yondashuvdir. O‘qituvchi o‘quvchiga aniq bilim bermaydi, balki savollar orqali uni izlanishga, mustaqil qaror chiqarishga yo‘naltiradi. Masalan, “Agar Yerda tortish kuchi bo‘lmaganida hayot qanday bo‘lardi?”, “Kimyo fanida ekologik xavfsizlikka qanday hissa qo‘shish mumkin?” kabi savollar orqali o‘quvchilar mavzuni chuqur tahlil qilishga majbur bo‘ladilar. Bu jarayonda ularning tanqidiy fikrlashi faollashadi.

Sokratik savollar va refleksiya asosidagi strategiyalar

Sokratik usul – tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda qadimdan qo‘llanilgan samarali metod hisoblanadi. Bu strategiyada o‘qituvchi o‘quvchiga biror masala

bo‘yicha chuqur savollar beradi: “Nega bu fikrga kelding?”, “Boshqa qanday izoh bo‘lishi mumkin?”, “Bu fikr qaysi dalilga asoslangan?” kabi savollar o‘quvchini o‘z fikrini qayta ko‘rib chiqishga, uni asoslashga undaydi. Bu jarayon refleksiyani – o‘z fikrini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Bu strategiya, ayniqsa, o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilari bilan ishlashda yuqori natijalar beradi.[3]

Debatlar va nuqtai nazarlarni solishtirish

Tanqidiy fikrlashning asosiy belgilaridan biri – turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va ularni baholashdir. Shu bois, dars jarayonida debatlar, munozaralar tashkil qilish o‘quvchilarning nafaqat fikrlash, balki argumentatsiya, eshitish va tahlil qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Masalan, “Yadro energiyasi foydalimi yoki xavflimi?”, “Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongiga ijobiy yoki salbiy ta’sir qiladi” mavzularida o‘tkazilgan debatlar orqali o‘quvchi faqat bilim emas, balki asoslangan fikr bildirish, opponenti fikrini eshitib, unga javob berish qobiliyatini ham egallaydi.[4]

Metakognitiv strategiyalar: fikrni kuzatish va nazorat qilish

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda metakognitiv strategiyalar – ya’ni o‘z fikrlash jarayonini kuzatish va nazorat qilish muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarga “Qanday fikrlading?”, “Bu qarorga qanday yetib kelding?”, “Yana qanday variantlarni ko‘rib chiqding?” kabi savollarni berish orqali ularning tafakkur jarayoni faollashtiriladi. Bu orqali o‘quvchilar nafaqat natijani, balki unga olib kelgan jarayonni ham tahlil qiladi. Bu yondashuv tanqidiy fikrlashning chuqurroq rivojlanishiga xizmat qiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar va hayotiy misollar bilan ishlash

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish faqat nazariy savollar orqali emas, balki hayotiy vaziyatlar asosida muammolarni hal qilish orqali ham samarali amalga oshiriladi. Masalan, “Oilaviy byudjetni qanday rejalashtirish kerak?”, “Mahalladagi chiqindi muammosini qanday hal etish mumkin?” kabi topshiriqlar orqali o‘quvchilar ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik vaziyatlarga nisbatan tanqidiy yondashishni o‘rganadi. Bu metod amaliy tajriba bilan bog‘langan bo‘lgani uchun ayniqsa samaralidir.[5]

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlash – bu zamonaviy ta’limning markaziy ko‘nikmasidir. Ushbu ko‘nikmani shakllantirish esa tasodifiy emas, balki puxta o‘ylangan, tizimli pedagogik strategiyalar orqali amalga oshiriladi. Muammoli ta’lim,

Sokratik yondashuv, refleksiya, debatlar, metakognitiv strategiyalar va hayotiy topshiriqlar tanqidiy fikrlashni samarali shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi esa bu jarayonda faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchini mustaqil va chuqur fikrlovchi shaxsga aylantiruvchi yo‘lboshchiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4310-son qarori, 2019-yil 29-aprel – “O‘zbekiston Respublikasining xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
2. UNESCO. (2017). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives.
3. Yoqubov, M., & Karimova, D. (2020). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
4. Rasulov, R. X. (2019). Ta’limda innovatsion yondashuvlar va fikrlash turlari. Toshkent: “Ilm Ziyo” nashriyoti.
5. Qodirov, B. T. (2021). Zamonaviy dars va tanqidiy fikrlash metodikasi. Samarqand: SamDU nashriyoti.

MAKTAB TA’LIM TIZIMIDA TADQIQOT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Kosnazarov S.T. assistent o‘qituvchi, Reymov Q.D. t.f.d., (PhD) dotsent.
Ajiniyoz nomidagi NDPI

So‘nggi yillarda ta’lim jarayoniga yondashuvlarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda, ayniqsa, maktabning o‘rta va yuqori sinflarida. Zamonaviy ta’lim faqat mavjud bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki o‘quvchilarning mustaqil tarzda bilim izlash, tahlil qilish va turli vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Shu kontekstda tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Tadqiqot ko‘nikmalari — bu faqat ma'lumotlar bilan ishlash emas, balki muammolarni qo‘yish, gipotezalar ilgari surish, ma'lumotlarni tahlil qilish, tekshirish, talqin qilish va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Ushbu ko‘nikmalar ta’lim jarayonida eng muhim tarkibiy qismlardan biriga aylanishi, nafaqat o‘quvchilarning akademik o‘sishiga, balki ularning ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlanishiga yordam beradi [2].

Tadqiqot ko‘nikmalari ta’lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida

Tadqiqot koʻnikmalari oʻquvchining nafaqat nazariy bilimlarni shakllantirish, balki mustaqil tadqiqotlar oʻtkazish, muammolarni qoʻyish va hal qilish, ma'lumotlarni baholash va tahlil qilish qobiliyatini oʻz ichiga oladi. Ular quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

Ilmiy muammolarni qoʻyish — tadqiqot orqali hal qilinadigan savollarni shakllantirish qobiliyati. Bu koʻnikma ilmiy hamda kundalik amaliyotda muammolarni aniqlash va tahlil qilishda muhimdir.

Ma'lumotlarni toʻplash va tahlil qilish — tadqiqotchi kerakli ma'lumotlarni yigʻish bilan birga, ularni toʻgʻri talqin qilishni ham bilishi kerak. Bu ilmiy maqolalar, statistika, tajribalar kabi turli ma'lumot manbalari bilan ishlashni oʻz ichiga oladi.

Gipotezalar va eksperimental tadqiqotlar — gipotezalarni shakllantirish va ularni tajriba orqali tekshirish, natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish qobiliyati.

Natijalarni talqin qilish va xulosalar — ma'lumotlarni yigʻishning oʻzidan koʻra, ularni toʻgʻri talqin qilish, kelajakda foydalanish mumkin boʻlgan asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyati.

Ushbu koʻnikmalar oʻquvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, muammolarni tahlil qilish va hal qilishni oʻrgatadi, bu esa ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylantiradi. Tadqiqot koʻnikmalarini rivojlantirish faqat maktab ta’limida emas, balki kasbiy tayyorgarlikda ham muhim rol oʻynaydi. Zamonaviy dunyoda, ma'lumotlar tez oʻzgarib va rivojlanib borayotgan sharoitda, ma'lumotni izlash, ishlov berish va talqin qilish qobiliyati eng muhim kompetensiyaga aylanishi kerak. Ta’lim jarayoniga tadqiqot faoliyatini kiritish oʻquvchilarga kelajakdagi kasbini davom ettirish uchun zarur boʻlgan vositalarni oʻrgatadi [1].

Ilmiy faoliyatga ta’siri — kelajakda olimlar va tadqiqotchilar uchun tadqiqot koʻnikmalari ularning professional faoliyatining asosi hisoblanadi. Ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, tajribalar oʻtkazish, ilmiy ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyati ilmiy sohada muvaffaqiyatli karyera uchun zarurdir.

Kasbiy ko‘nikmalar — muhandislik, tibbiyot, iqtisodiyot va boshqa sohalarda kelajakdagi mutaxassislar uchun tadqiqot ko‘nikmalari yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda yoki ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishda emas, balki analitik va tanqidiy yondashuvni talab qiladigan amaliy muammolarni hal qilishda ham muhimdir.

Hayotga umumiy tayyorgarlik — agar o‘quvchilar ilmiy sohada faoliyatini davom ettirmasa ham, tadqiqot ko‘nikmalari ularga hayotda asoslangan qarorlar qabul qilishda, ilmiy va texnik ma'lumotlarni tushunishda va turli sohalarda murakkab muammolarni hal qilishda yordam beradi [3].

Maktab dasturiga tadqiqot faoliyatini kiritish o‘quvchilarni kelajakda o‘qishga va kasbiy faoliyatga tayyorlashga yordam beradi. Maktabning yuqori sinflarida tadqiqot ko‘nikmalarini turli shakldagi ta’lim faoliyati orqali rivojlantirish mumkin, masalan, loyiha ishlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, eksperimental ma'lumotlar bilan ishlash va boshqalar.

Loyiha faoliyati tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usullaridan biridir. Loyihalar ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar nafaqat bilimlarni amaliyotga tatbiq etishadi, balki mustaqil tadqiqot o‘tkazish, guruhda ishlash, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini ham egallashadi. Loyiha faoliyati o‘quvchilarda tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash va ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyatlarini shakllantiradi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari ham maktab ta’limining muhim qismidir. O‘quvchilar tadqiqot loyihalari ustida ishlashlari mumkin, bu loyihalar ma'lumotlarni to‘plashni, ularni tahlil qilishni, tajribalar o‘tkazishni va olingan natijalarni taqdim etishni talab qiladi. Ushbu ishlar ilmiy tahlil va tanqidiy mulohaza qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, gipotezalarni shakllantirish va tekshirishni o‘rgatishga yordam beradi [4].

Keys-metodlari va boshqa amaliy topshiriqlar ham tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Real vaziyatlarni hal qilish, ma'lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, qarorlar ishlab chiqish orqali o‘quvchilar ma'lumotlar bilan ishlashni va olingan bilimlarni yangi kontekstlarda qo‘llashni o‘rganadilar.

Tadqiqot ko‘nikmalarini maktab ta’limida rivojlantirishdagi muammolar: Tadqiqot faoliyatining ta’lim jarayonidagi ahamiyati katta bo‘lishiga qaramay, uning rivojlanishiga bir qancha muammolar to‘sqinlik qilmoqda:

Yetarli resurslarning yo‘qligi — barcha maktablar tadqiqot faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan laboratoriyalar, texnik jihozlar yoki o‘quv materiallariga ega emas [5] .

O‘qituvchilarning tayyorlanmasligi — ko‘plab pedagoglar tadqiqot faoliyatini tashkil qilish va loyiha ishlari bilan shug‘ullanishda yetarli tayyorgarlikka ega emas. Bu qo‘shimcha professional tayyorgarlikni va malaka oshirishni talab qiladi.

O‘quvchilarning motivatsiya muammolari — o‘quvchilar ko‘pincha tadqiqot faoliyatining ahamiyatini tushunmasligi mumkin, shuning uchun ularga bu jarayonga qiziqish uyg‘otish va jalb etish bo‘yicha qo‘shimcha harakatlar talab etiladi.

Xulosa

Tadqiqot ko‘nikmalari ta’lim jarayonida muhim o‘rin egallaydi, chunki ular o‘quvchilarning ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlanishida asosiy elementdir. Tadqiqot ko‘nikmalari tanqidiy fikrlash, analitik qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, o‘quvchilarga muammolarni hal qilish va asoslangan qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi. Ta’lim jarayoniga tadqiqot faoliyatini kiritish o‘quvchilarga nafaqat zarur ko‘nikmalarni egallashga, balki ilmiy va amaliy ishga qiziqish uyg‘otishga yordam beradi. Mavjud muammolar va chaqiruvlarga qaramay, tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish maktab ta’lim tizimida zarur qadam bo‘lib, kelajak jamiyatining raqobatbardosh va tashabbuskor fuqarolarini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Космодемъянская С.С., Гилъманшина С.И. Методика обучения химии. Учебноэ пособия. Казанъ 2011.
2. Rahmatullayev N.G`, Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. “Kimyo o‘qitish metodikasi”, O’quv qo’llanma, Toshkent, “Iqtisod-Moliya”-2013 yil.
3. Kurbanbayeva A.J. Interdisciplinarity of chemistry at school the importance of teching through// Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. 2022 November, page 166-168.
4. Kurbanbayeva A.J. Health for young people in Karakalpak folk pedagogy conservation teaching traditions// Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 11, November 2022 SJIF 2022 = 8.625, page 8-12.
5. А.Ж.Курбанбаева Интеграция наук в образовании, междисциплинарные связи в химии других дисциплин // Международный журнал научных и прикладных исследований. 1,№2 (2024): 395-398.

KIMYO FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV UNIVERSAL TA’LIM FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Kosnazarov S.T. assistent o‘qituvchi
Ajiniyoz nomidagi NDPI

Hozirgi zamon ta’lim tizimi oliy malakaga ega mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan bo’lsa, o‘quvchilarning mustaqil ravishda bilim izlash va muammolarni hal qilish qobiliyati ta’limning eng muhim jihatlaridan biriga aylandi. Bu maqsadga erishish uchun samarali yondashuvlar talab qilinadi, ular o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, tadqiqot ko‘nikmalari va universal kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday yondashuvlardan biri kognitiv universal ta’lim faoliyatidir. Ushbu kontseptsiya o‘quvchilarning kognitiv (aqliy) jarayonlarini rivojlantirish va turli sohalarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan universal ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan usullar va vositalar tizimini tashkil qiladi [3].

Kognitiv universal ta’lim faoliyatining nazariy asoslari bu o‘quvchilarning qabul qilish, e`tibor, xotira, o‘ylash va tasavvur qilish bilan bog`liq turli psixologik jarayonlarda faol ravishda rivojlanadigan faoliyatdir. Ta’lim jarayonida kognitiv faoliyat o‘quvchilarda mustaqil tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish uchun asosiy manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Kognitiv universal ta’lim faoliyati kognitiv jarayonlarni universal ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodika va yondashuvlarni o‘z ichiga oladi:

- Tanqidiy fikrlash
- Analitik fikrlash
- Muammolarni hal qilish
- O‘z fikrlash jarayonlarini anglash va ularni boshqarish qobiliyati

Ushbu metodlarni maktab ta’limida qo‘llash o‘quvchilarni faqat ma`lumotlarni qabul qiluvchi passiv sub`ektlar sifatida emas, balki ta’lim jarayonida faol ishtirokchilar sifatida rivojlantiradi, bu esa ularni kelajakdagi ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun muhim element hisoblanadi [4].

Kognitiv universal ta’lim faoliyatining komponentlari

Kognitiv universal ta’lim faoliyatining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

O‘quvchilarning faolligi: Ta’lim jarayoni faqat o‘qituvchidan o‘quvchiga bilim berish bilan cheklanmaydi. O‘quvchilar ta’lim jarayonida faol ishtirok etishadi, vazifalarni hal qilishadi, tadqiqotlar o‘tkazishadi, natijalarni tahlil qiladi, gipotezalar va xulosalar tuzishadi.

Kognitiv jarayonlar. E`tibor, xotira, olish, logik va tanqidiy fikrlash kabi kognitiv jarayonlarni rivojlantirish ilmiy yondashuvga asoslangan muammolarni hal qilishni ta`minlaydi. O‘quvchilar muhim ma`lumotlarni ajratish, ularni tahlil qilish, xulosalar tuzish, oqibatlarni prognoz qilish va asoslangan qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar.

Universal ta’lim strategiyalari. Kognitiv universal ta’lim faoliyati har qanday bilim sohasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan universal usullar va strategiyalarni ishlatadi. Bu loyiha ishlari, tadqiqot faoliyati, matnlar va manbaalar bilan ishlash, modellar va sxemalardan foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Meta-bilish: Bu o‘quvchilarning o‘z fikrlash jarayonlarini anglash qobiliyati, ular qanday o‘rganishini va ma`lumotni qabul qilish uchun qanday strategiyalar samarali ekanligini tushunishi hisoblanadi. Meta-bilishni rivojlantirish o‘quvchilarga faqat aniq vazifalarni hal qilishda yordam bermaydi, balki ularning o‘z ta’lim jarayonini tashkil etish, optimal usullar va vositalarni tanlash qobiliyatini ham shakllantiradi [1].

Kognitiv universal ta’lim faoliyatining tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi vazifasi o‘quvchilarni oliy o‘quv yurtlariga va kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi asosiy maqsadlardan biridir. Kognitiv universal ta’lim faoliyati nafaqat bilimlarni o‘tkazish, balki o‘quvchilarda mustaqil ilmiy ish yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Yani o’quvchilar to‘g‘ri savollar berishni o‘rganidilar va ularga tadqiqotlar orqali javob topadilar;

Ma’umotlarni tahlil qilish va sharhlash, qonuniyatlarni topish qobiliyatini rivojlantiradilar;

Gipotezalarni qurish va ularni eksperimental faoliyat orqali tekshirish;

Ma’lumot va xulosalarni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, noma`lumlikka qarshi kurashish va yangi echimlar izlash.

Kognitiv universal faoliyat o‘quvchilarni bilim olish jarayoniga faol jalb qiladi, ularning intellektual rivojlanishini rag`batlantiradi va mustaqil tadqiqot faoliyatiga tayyorlaydi.

Kognitiv universal ta’lim faoliyatini maktab amaliyotiga joriy qilish har xil usullar va vositalarni qo‘llashni talab qiladi, bunday usullar quyidagilardan iborat:

- **Loyiha faoliyati** - o‘quvchilarga o‘zlarining olgan bilimlarini haqiqiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beruvchi tadqiqot va ijodiy loyihalarni amalga oshirish.

-**Tadqiqot topshiriqlari** - o‘quvchilar ma`lumotlar tahlili, turli manbaalardan ma`lumotlar sintezi va asoslangan xulosalarni chiqarish orqali echim topishlari kerak bo‘lgan vazifalar.

-**Interaktiv o‘qitish usullari** - diskussiyalar, debatlar, miya shturmlari o‘tkazish, bu esa o‘quvchilarga ma`lumotni tanqidiy tahlil qilish, guruhda ishlash va o‘z fikrlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

-**Keys-metodlar** - aniq vaziyatlarni hal qilish, bu esa o‘quvchilarga bilimlarni amaliy qo‘llash va nostandart echimlarni topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [2].

Bu usullar o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga faol jalb qilish, tanqidiy va analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va mustaqil ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan.

Maktablarda kognitiv universal ta’lim faoliyatini joriy qilishning afzalliklari va muammolari

Afzalliklari:

1. Universal ko‘nikmalarni rivojlantirish, bu nafaqat ta’limda, balki kasbiy hayotda ham foydalidir.

2. Ilmiy va tadqiqot faoliyatiga tayyorlash, bu zamonaviy ta’lim tizimining muhim elementidir.
3. O‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish, ma`lumot bilan ishlash, xulosalar chiqarish va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish.

Muammolari:

1. Kognitiv usullar va strategiyalarni samarali qo‘llashni bilishga ega o‘qituvchilarni tayyorlash zaruriyati.
2. Yangi yondashuvlarni joriy qilish uchun qo‘shimcha vaqt va kuchlar talab qilinadi.
3. Ba’zi maktablarda zarur resurslar mavjud emas, bu esa kognitiv universal ta’lim faoliyatini qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi.

Xulosa

Kognitiv universal ta’lim faoliyati ta’lim jarayonida muhim vosita bo‘lib, o‘quvchilarda ilmiy va kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu metodlarni maktabda qo‘llash nafaqat bilimlarni chuqurlashtirishga, balki o‘quvchilarni faol ilmiy va kasbiy hayotga tayyorlashga yordam beradi, ularning tanqidiy fikrlash va mustaqil muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Космодемъянская С.С., Гилъманшина С.И. Методика обучения химии. Учебноэ пособия. Казанъ 2011.
2. Rahmatullayev N.G`, Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. “Kimyo o‘qitish metodikasi”, O’quv qo’llanma, Toshkent, “Iqtisod-Moliya”-2013 yil.
3. Kurbanbayeva A.J. Interdisciplinarity of chemistry at school the importance of teching through// Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. 2022 November, page 166-168.
4. Kurbanbayeva A.J. Health for young people in Karakalpak folk pedagogy conservation teaching traditions// Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 11, November 2022 SJIF 2022 = 8.625, page 8-12.
5. А.Ж.Курбанбаева Интеграция наук в образовании, междисциплинарные связи в химии других дисциплин // Международный журнал научных и прикладных исследований. 1,№2 (2024): 395-398.

KIMYO MAVZULARINI O‘QITISHGA INNOVATSION-INTERAKTIV O‘QITISH METODLARINI JORIY QILISH

Bazarbayeva L.G. 3-kurs talaba, Ismailova G.Z. 4-kurs talaba

Ajiniyoz nomidagi NDPI

XXI asrda ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biri — zamon bilan hamnafas, raqobatbardosh va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashdir. Ayniqsa, ilmiy-texnik taraqqiyot shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda kimyo fanini o‘qitishning uslubiyati yangilanishni, innovatsion va interaktiv metodlarga tayangan holda rivojlanishni talab qilmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari zamonaviy o‘quvchining ehtiyojlarini to‘laqonli qondira olmay qolganligi sababli, kimyo o‘qitish jarayonida yangi texnologiyalarni, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish zarurati tug‘ilmoqda.

Innovatsion-interaktiv metodlar mohiyati va zarurati

Kimyo fanining o‘ziga xosligi — murakkab nazariy bilimlar va nozik amaliy ko‘nikmalarni o‘z ichiga olishi bilan ajralib turadi. Ushbu fanni samarali o‘rgatish uchun o‘quvchilarni nafaqat tinglovchi, balki faol ishtirokchi sifatida jalb qilish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, innovatsion va interaktiv metodlar nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarda ilmiy izlanish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Innovatsion metodlar o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini, muammoli vaziyatlarga yechim topish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ikki tomonlama faol muloqotni ta’minlab, bilim olish jarayonini hamkorlikda tashkil etishga imkon yaratadi. Bunday metodlarning joriy etilishi o‘quvchilarning bilimlarni passiv qabul qilishidan voz kechib, ularni faol izlanishga, tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.

Kimyo o‘qitishda innovatsion-interaktiv metodlarni qo‘llash yo‘llari

Kimyo darslarida innovatsion va interaktiv metodlardan foydalanish bir necha asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi:

1. Muammoli ta’limni joriy etish:

Dars jarayonida o‘quvchilarga murakkab va qiziqarli savollar beriladi, ular mustaqil yoki guruh bo‘lib bu savollarga javob topishga harakat qilishadi. Masalan, darsda “Nima uchun suv va yog‘ aralashmaydi?” kabi oddiy, ammo chuqur fizik-kimyoviy asosga ega muammoli savollar qo‘yilishi mumkin.

2. Aqliy hujum (Brainstorming) metodidan foydalanish:

Kimyo darslarida biror mavzu bo‘yicha qisqa vaqt ichida maksimal ko‘p g‘oya va fikrlar to‘planadi. Masalan, "Atmosfera ifloslanishini kamaytirish uchun qanday kimyoviy usullarni qo‘llash mumkin?" savoliga javoblar yig‘iladi.

3. Klaster usuli:

Murakkab kimyoviy tushunchalar va ularning o‘zaro bog‘liqligi vizual tarzda tasvirlanadi. Masalan, "Organik moddalarning sinflari" mavzusi klaster shaklida, har bir sinfning xususiyatlari bilan ko‘rsatiladi.

4. Rol o‘ynash va modellashtirish:

Darsda o‘quvchilar kimyo laboratoriyasi ishchilari, ekologlar yoki sanoat texnologlari rolida chiqish qilib, amaliy vazifalarni hal etadilar. Bu usul orqali o‘quvchilarning kasbiy orientatsiyasi ham shakllanadi.

5. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar:

Zamonaviy texnologiyalar yordamida real laboratoriya tajribalarini virtual muhitda o‘tkazish imkoniyati yaratiladi. Bu esa resurslarni tejash, xavfsizlikni ta’minlash va ko‘proq o‘quvchini jalb qilish imkonini beradi.

Innovatsion-interaktiv metodlarning ta’sir kuchi

Bu metodlarning afzalligi shundaki, ular o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirib, bilimlarni eslab qolish va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Interaktiv metodlar orqali:

O‘quvchilar o‘zaro muloqot qiladi, fikr almashadi;

Har bir o‘quvchi o‘z bilim va tajribasini namoyon qiladi;

Tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish kabi yuqori darajadagi kognitiv faoliyatlar shakllanadi;

O‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, javobgarlik his qilishi rivojlanadi. Misol uchun, “Kimyoviy xavfsizlik” mavzusi interaktiv tarzda o‘rgatilganda,

o‘quvchilar xavfli moddalarga nisbatan ehtiyotkorlik choralarini mustaqil ishlab chiqadi va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning nazariy bilimlarini real hayotda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Darsni innovatsion-interaktiv metodlar bilan tashkil qilish bosqichlari

Tayyorlov bosqichi: Dars mavzusi va maqsadi aniqlanadi, unga mos metodlar tanlanadi.

Faollashtirish bosqichi: O‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish uchun motivatsion savollar beriladi.

Asosiy faoliyat bosqichi: Interaktiv metodlar asosida dars mazmuni o‘zlashtiriladi, guruhli ishlar tashkil etiladi.

Tahlil va umumlashtirish bosqichi: Olingan bilimlar tahlil qilinadi, o‘zaro bahs va muhokamalar o‘tkaziladi.

Refleksiya bosqichi: O‘quvchilardan o‘z fikr-mulohazalari va baholari olinadi, dars samaradorligi aniqlanadi.

Xulosa

Kimyo fani tabiatan murakkab va o‘ziga xos fikrlashni talab qiluvchi fanlardan biri bo‘lib, uni o‘qitishda innovatsion va interaktiv metodlarni qo‘llash zamon talabi hisoblanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtiribgina qolmay, ularni mustaqil fikrlovchi, izlanishga intiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Innovatsion metodlar yordamida kimyo darslari nafaqat nazariy bilimlar berish, balki hayotga tatbiq etiladigan amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun ham xizmat qiladi. Shunday ekan, har bir kimyo o‘qituvchisi zamonaviy metod va texnologiyalarni chuqur o‘rganib, o‘z dars jarayoniga tatbiq etishga intilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Abdukarimov, A. va boshqalar. Kimyoni o‘qitish metodikasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
3. Soliyev, A., Xolmurodov, S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
4. Mavlonova, R. va boshqalar. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. — Toshkent: Fan, 2010.

5. Hasanboyeva, O. Innovatsion ta’lim texnologiyalari asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2018.
6. Xamidov, A. Kimyo darslarida interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlari. — "Pedagogik ta’lim" jurnali, 2020, №3.

ORGANIK MODDALARNING KIMYOVIY VA ELEKTRON TUZILISH NAZARIYASI MODULINI O‘QITISHDA MUAMMOLI METODLARDAN FOYDALANISH

Ajieva M.B., p.f.n., dotsent, Arislanbaeva N.N, 1-kurs magistrant,
Qalbaev I.A., 4-kurs talaba
Ajiniyoz nomidagi NDPI

Muammoli ta'lim texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi - insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta’limning bosh maqsadi - o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to‘liq tashunib yetadi erishish va ularni hal eta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta'limni amaliyotda qo‘llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko‘zda tutishlari kerak. Muammoli ta’lim talabalarga o‘quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to‘g‘ri topishlariga o‘rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo‘yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishing bazi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi hatti-harakatlarni to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: O‘qituvchi talabalarni guruhlarga ajratib, ularni mos o‘rinlariga joylashtirgandan so‘ng, mashg‘ulotni o‘tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, yani u mashg‘ulotni bosqichli bo‘lishini va har bir bosqich talabalardan maksimum diqqat-e’tibor talab qilishini, mashg‘ulot davomida ular

yakka, guruh va jamoa bo‘lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat talabalarga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo‘lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish uyg‘otadi.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach, mashg‘ulot boshlanadi: talabalar tomonidan mashg‘ulot uchun tayyorlangan kinolavhani diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilish, xotirada saqlab qolish yoki daftarlariga belgilab qo‘yish (agar kinofilm ko‘rsatishning imkoniyati bo‘lmasa, u holda o‘qituvchi o‘quv predmetining mavzusi bo‘yicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, kitobdagi o‘quv materialidan foydalanishi mumkin); har bir guruh a'zolari tomonidan ushbu lavhadan (rasmdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A-3 formatdagi qog‘ozga flomaster bilan yozib chiqadi; berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlangan ishni guruh vakili tomonidan o‘qib eshittiriladi; o‘qituvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog‘ozlarni almashtirgan holda guruhlarga tarqatiladi; tarqatilgan qog‘ozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir guruh a’zosi o‘zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi; o‘qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh a’zosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.

Muammoli vaziyatdan foydalanish metodikasi

Muammoli ta’lim texnologiyalari talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi - insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta’lim talabalarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta’limning bosh maqsadi - talabalarning o‘rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to‘liq tashunib yetishga erishish va ularni hal eta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo‘llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko‘zda tutishlari kerak. Muammoli vaziyatni yaratish usullari:

- o‘qituvchi talabalarga dars mavzusi bilan bog‘liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo‘lini topishni taklif qiladi;

- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;

- hal etish uchun yetarli bo‘lmagan yoki ortiqcha ma'lumotlar bo‘lgan yoki savolning qo‘yilishi noto‘g‘ri bo‘lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoni hal etish darajalari:

- -o‘qituvchi muammoni qo‘yadi va o‘zi yechadi;
- -o‘qituvchi muammoni qo‘yadi va uning yechimini talabalar bilan birgalikda topadi;
- -talabalarning o‘zlari muammoni qo‘yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo‘llaniladigan usullar:

- muammoni turli nuqtai-nazardan o‘rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish;
- faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog‘liq xulosalar chiqarish;
- talabalarning o‘zlari aniq savollar qo‘yishi va boshqalar.

Muammoli ta’lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Muammoli savollar orqali talabalarning qobiliyati yanada shakllanib, rivojlanib yanada mustahkamlanadi.

Savol-javoblar orqali talabaning bilim darajasi va fikrlash qobiliyatini umumiy tarzda aniqlash.

1. O‘rganilayotgan mavzuning mazmunini talaba motivlariga muvofiqlashtirish. Bu, asosan, talabaning qiziqish va qobiliyatlariga mos bo‘lgan misollar tanlash orqaliamalga oshiriladi.

2.Talabani faol muloqotga olib kirish. Bunda asosan rag‘batlantirish usullaridan foydalaniladi.

3. O‘qituvchi o‘zini bilmaydigan odamdek, talabadek tutib, savollar berib boradi.

4. Talabaning to‘g‘ri fikrlarini maqtash orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so‘zlashga jalb qilish.

5. Talabaning xato fikrlarini aniqlab borish.

6.Talabaning xato fikrlariga nisbatan to‘g‘ri fikrni o‘qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon qilish yoki tushuntirish orqali talaba uchun muammoli vaziyat yaratiladi va talabani o‘z xatolarini o‘zi tuzatishiga yo‘naltiriladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu usul yuqori natija berishi shubhasiz bo‘lib, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o‘qituvchining keng bilimga va ijodiy fikrlash qobiliyatiga, yuqori muloqot madaniyatiga, pedagogik mahoratga ega bo‘lishi kabilardan iborat.

“Muammoli vaziyat”

Karl Fogt taniqli nemis biokimyogari Yustus Libix tomonidan chumoli kislotasining kashf etilishiga bag‘ishlangan quyidagi ajoyib bir epizodni o‘z kundalik daftariga yozib qoldirgan. ,,Y.Ubix qo‘lida suyuqlik solingan sklyankani ko‘tarib xonamga kirib keladi.— Qani qo‘lingizni bering-chi, — dedi u Fogtga va ho‘l sklyanka probkasini uning qo‘liga tekkizib oladi-da — qo‘lingizni kuydirmadimi? Men bu kislotani hozirgina sintez qildim, dedi beparvolik bilan.

Olim universitetda ham o‘zi kashf etgan suvsiz chumoli kislotasini namoyish etib, ko‘pgina talabalarning qo‘lini kuydirib esdalik tamg‘a qoldirgan edi.Libixning bo‘ynidagi dog‘ ham shu kislotaning sachrashi natijasida hosil bo‘lgan edi. Fogt qo‘liga katta porsiyada chumoli kislotasi tushganligi sababli undagi oq yara Libix kislotasidan umrbod esdalik bo‘lib qoldi“.

Muammoli vaziyat yaratamiz:

- Yustus Libix ushbu kislotani yaratishda qanday tajriba bajargan.
- Chumoli kislota xalq xo‘jaligida qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlang.

“Muammoli vaziyat”

XIX asrning birinchi yarmida London ko‘chalarini yoritish uchun toshko‘mirdan foydalanilgan. Havo soviganda chiroqlar xiralashib qolgan. Buning

sababini aniqlash uchun M.Faradeyga murojaat qilishgan. M.Faradey buning sababini tezda aniqlab aytdi.Siz ham o‘ylab ko‘ring va javobmi muhokama qiling?

Eslatma: O‘qituvchi talabalarga muammoning kelib chiqish sabablariga e’tiborli bo‘lish, ya’ni toshko‘mirning fizik-kimyoviy xossalari va boshqa xususiyatlari haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanishlari kerakligi orqali talabalarni yo‘naltiruvchi, yodga soluvchi va ma’lumot beruvchi savollar orqali masalani hal etishga yo‘llaydi.

Olimpiada masalalari bunday talablarni ko’plab amalga oshirishni, ko’tarilgan masalaga chuqur yondoshishni o’quvchi yoshlar uchun odat bo’lib qolishni amalga oshirishni ta’minlovchi muhim uchun odat bo’lib qolishni amalga oshirishni ta’minlovchi muhim vositadir. Anoganik kimyoga tegishli masalalarni yechish uchun moddalarning fizikaviy va kimyoviy xossalarini, eritmada kation hamda anionlarni sifat jihatdan aniqlashga xos reaksiyalarni, aralashma tarkibiga kiruvchi moddalarni bir-birini ajratish usullarini topish, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining muhit sharoitiga qarab yo’nalishlarning o’zgarishini kimyoviy qonuniyatlar va umuman aytganda masala sharti talab etishi mumkin bo’lgan hamma jarayonlar o’quvchiga ayon yoki oson tiklanadigan bo’lishi kerak. Kimyoviy masalalarning xili juda ko’p bolib, ularning ko’pchiligi hisoblashga doir masalalardir. Bu masalalar umumiy kimyoning asosiy qismiga taa’lluqli bo’lib, nazariy hamda tavsifiy ma’lumotlarni o’rganish bilan uzviy bog’liqdir.

Har bir o’quvchining fikrlash doirasini kengaytirish va olimpiada masalalarini hal qilishga qaratilgan metodika

Bu metodika uch asosiy qismga bo‘lingan: analitik yondashuv, modellashtirish usuli va strategik yondashuv.

1. Analitik yondashuv metodi

1.1. Masalani ajratish printsipi: har bir murakkab masala ko‘pincha bir nechta kichik masalalardan tashkil topgan bo‘ladi. Ularni aniqlash va ajratib olib alohida-alohida yechish: reaksiya bosqichlari bo‘yicha ajratish (masalan: termik parchalanish → gidroliz → kompleks hosil bo‘lish); kimyoviy sinflar bo‘yicha ajratish (kislota→ishqor → tuzlar → gazlar).

1.2. Kutilmagan ma’lumotlar bilan ishlash: o‘quvchiga standartdan tashqari modda, grafik yoki jadval beriladi. Tushunarsiz ma’lumotlar uchun "verifikatsiya algoritmi" ishlab chiqiladi: avval fizik-kimyoviy xossalarini taxmin qilish, reaksiya sodir bo’lishi ehtimolini tahlil qilish, izohli cheklovlardan foydalanib, noto‘g‘ri yo‘llarni bartaraf etish.

2. Modellashtirish usuli

2.1. Abstrakt modellar yaratish: olimpiada masalasini formulaga emas, modelga aylantirish: masalan: ion almashinuvi – bu tarmoq sxemasi sifatida modellashtiriladi; energiya o‘zgarishi – grafik bilan (entalpiya/reaksiya koordinatasi) ko‘rsatiladi.

2.2. Masalani matematik modellashtirish: stexiometrik matritsa tuzish: atomlar va molekulalar o‘zaro aloqasi; kimyoviy muvozanat masalalarida logaritmik algoritm ishlatish (Le-Shatle prinsipining matematik yondashuvi); yechimlar turini grafik va algebraik yondashuvlar bilan taqqoslash.

3. Strategik yondashuv

3.1. 4 bosqichli yondashuv algoritmi (Y.E.T.Q.):

1. Yechishning yo‘nalishini tanlash (masala turini aniqlash: kvant-kimyoviy, fizik, organik, analitik);

2. Elementlararo tahlil (moddalar o‘rtasidagi reaktsion imkoniyatlar).

3. Tizimli tekshiruv (masala ichida mavjud barcha muqobil yo‘llarni hisobga olish).

4. Qiyosiy baholash (eng optimal yo‘lni tanlab, uni asoslash).

3.2. Mental xaritalar (Mind Map) yordamida yechim qurish: o’quvchi masala yechimini vizual tarzda rejalashtiradi: markazda “Asosiy reaksiya”, tarmoqlarda: “Yon reaksiyalar”, “Ehtimolli muqobil yo‘llar”, “Berilganlar bilan bog‘liqlik”. Har bir tugun oxirida – “tanlov mezoni” va “asoslanuvchi sabab”.

Yuqoridagi ma’lumotlardan xulosa qilish natijasida kimyodan murakkab olimpiada masalalarini yechish orqali maktab o’quvchilarida fanga bo’lgan qiziqish ortadi, olgan bilimlari mustahkamlanadi va olgan bilimlarni nazorat qilishda, yakuniy imtixonlarda yuqori natijali ko’rsakichlariga erishishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.G.Raxmatullaev, X.T.Omonov, O.Yu. Iskandarov, SH.M.Mirkomilov “Kimyodan olimpiada masalalari” Toshkent: O’qituvchi 2007 y.

2. Toshpulatov Yu.T, Raxmatullaev N.G.,Iskandarov A.Yu “Anorganik kimyodan masalalar yechish” Toshkent 2003 y.

3. G.Ibroximova, Q.Axmerova “Umumiy kimyoni mustaqil o’rganish” Toshkent: O’qituvchi 1993 y.

4. Muftaxov A.G. “Kimyodan olimpiada masalalari ularning yechimlari”, Toshkent: O’qituvchi 1993 y.

5. Адамович Т.П., Васильева Г.И., Мечковский С.А. и др. «Сборник олимпиадных задач по химии» Минск: Народная асвета 1980

6. . Польские химические олимпиады: Сборник задач / Пер. с польск. - М.: Мир, 1980

BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARINING MOBIL ILOVALARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO‘YICHA PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH

Dauekeeva G.U. tayanch doktorant

Ajiniyoz nomidagi NDPI

gulzahandauekeeva@gmail.com

Bugungi kunda ta’lim jarayoni raqamli texnologiyalar, xususan, mobil ilovalar orqali sezilarli darajada boyitilmoqda. Bu holat kimyo fanini o‘qitishda ham o‘z aksini topmoqda. Kimyo o‘z tabiatiga ko‘ra laboratoriya tajribalari, vizual modellar va amaliy mashg‘ulotlarni talab etadigan fanlardan biridir. Mobil texnologiyalarning rivojlanishi ushbu jarayonlarni virtual va interaktiv tarzda amalga oshirish imkonini bermoqda. Shu sababli bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining pedagogik tayyorgarligida mobil ilovalardan samarali foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Kimyo faniga oid mashhur mobil ilovalarni o‘rganishda mobil ta’lim vositalari juda katta imkoniyatlar yaratadi. Zamonaviy ilovalar orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki tajriba o‘tkazish, molekulalarni modellashtirish va hisob-kitoblarni mustaqil bajarish imkoniga ham ega bo‘ladilar.

1. Periodic Table (Davriy jadval) ilovalari

- Har bir kimyoviy element haqida to‘liq ma’lumot beradi (massasi, valentligi, oksidlanish darajasi va boshqalar).
- Interaktiv rejimda davriy jadval ustida ishlash imkonini beradi.

- Vizual animatsiyalar orqali elementlar xossalarini solishtirish osonlashadi.

2. Molecular Viewer ilovalari

- Molekulalarning 3D modelini ko‘rib chiqish, aylantirish, qismlarga ajratish mumkin.
- O‘quvchilar molekulalarning fazoviy tuzilishini chuqurroq tushunishadi.
- Organik birikmalar va polimer tuzilmalarini ko‘rgazmali o‘rganish imkonini beradi.

3. ChemCalc — Kimyoviy hisob-kitoblar uchun

- Molekulyar massa, mol miqdori, konsentratsiya va boshqa kimyoviy kattaliklarni hisoblashni avtomatlashtiradi.
- O‘qituvchi darsda yoki nazorat ishlari uchun tezkor hisob-kitoblarni bajarishda foydalanishi mumkin.
- Reaksiyalar stoixiometriyasini tushuntirishda qulay yordamchi vosita hisoblanadi.

4. Virtual Lab ilovalari

- Tajribalarni xavfsiz va vizual tarzda o‘tkazish imkonini beradi.
- Kimyoviy reaksiya, eritma tayyorlash, titrlash kabi laboratoriya ishlarini simulyatsiya qiladi.
- Uzoqdan o‘qitishda ayniqsa samarali (masofaviy darslar uchun).

5. Chemistry Dictionary — Kimyoviy atamalar lug‘ati

- Kimyo darslarida uchraydigan terminlar, formulalar va qisqartmalarni tez topish imkonini beradi.
- Ingliz va o‘zbek tillarida tarjimaviy lug‘atlar ham mavjud.
- Mustaqil o‘qish va ilmiy matnlarni tahlil qilishda yordam beradi.

6. Chemical Equation Balancer — Kimyoviy tenglamalarni muvozanatlash

- Kimyoviy reaksiya tenglamalarini avtomatik ravishda muvozanatlaydi.
- O‘quvchilarning tenglama tuzish va muvozanatlash bo‘yicha mustaqil ishini yengillashtiradi.

- Har bir bosqichni koʻrsatgan holda tushuntirish beradi — oʻquvchilarga oʻrganish uchun qulay.

7. Chemistry Quiz ilovalari — Bilimlarni tekshirish uchun

- Kimyo boʻyicha testlar, savol-javoblar va topshiriqlar toʻplami.
- Darslardan keyin bilimlarni mustahkamlash va baholashda qulay.
- Oʻyin shaklida oʻrgatish — gamifikatsiya (motivatsiya oshadi).

Mobil ilovalarning pedagogik afzalliklari: murakkab kimyoviy jarayonlarni vizual koʻrinishda oʻrganadilar; mustaqil ravishda interaktiv topshiriqlarni bajaradilar; nazariy bilimlarini virtual tajribalar orqali amaliyotga tatbiq etadilar; istalgan joyda va vaqtda ta’lim olish imkoniyatiga ega boʻladilar. Boʻlajak oʻqituvchilar esa mobil ilovalar orqali zamonaviy darslarni loyihalashtirish, testlar yaratish, kimyoviy elementlar haqida koʻrgazmali materiallar tayyorlash imkoniyatiga ega boʻladilar.

TPACK modeli asosida pedagogik mahoratni rivojlantirish: TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli boʻlajak oʻqituvchilarning:

- fan mazmuni (CK),
- pedagogik bilimlari (PK),
- texnologik koʻnikmalari (TK)

oʻrtasidagi uygʻunlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu model asosida tayyorlangan oʻqituvchi mobil texnologiyalarni oʻz fani mazmuniga mos ravishda pedagogik maqsadlarga yoʻnaltirib ishlata oladi.

Boʻlajak oʻqituvchilarning mobil ilovalardan foydalanish koʻnikmalarini quyidagi yoʻllar bilan rivojlantirish mumkin:

- Amaliy seminarlar: mashhur kimyo ilovalari (ChemCrafter, MEL Chemistry, Periodic Table) bilan ishlash.
- Virtual laboratoriyalar: simulyatsiya va AR (Augmented Reality) asosida tajribalar oʻtkazish.
- Dars loyihalash mashgʻulotlari: mobil ilovalardan foydalangan holda interaktiv dars-senariy tuzish.

- Refleksiya va tahlil: o‘tkazilgan darslarda mobil ilovalar samaradorligini tahlil qilish.

Xalqaro tajriba Dunyo miqyosida raqamli ta’lim platformalari keng joriy etilgan:

- AQSh: STEM dasturlari doirasida MEL Chemistry, Labster kabi ilovalar yordamida tajriba va modellashtirish ishlari bajariladi.
- Yaponiya va Janubiy Koreya: o‘quvchilarning mobil qurilmalar orqali AR asosida laboratoriya tajribalarini o‘rganishi yo‘lga qo‘yilgan.
- Finlandiya: mobil o‘qitish usullari o‘quv dasturlariga integratsiya qilingan.

Bu tajribalar asosida o‘zimizda ham bo‘lajak o‘qituvchilarning texnologik savodxonligini oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Xulosa: Mobil ilovalar kimyo o‘qitish jarayonini: vizual, interaktiv, amaliyotga yo‘naltirilgan qilish imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning bu ilovalar bilan ishlash bo‘yicha malakasini oshirish ularning kelajakdagi darslarida innovatsion yondashuvlarni joriy etishiga xizmat qiladi. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarning mobil ilovalardan foydalanish bo‘yicha pedagogik mahoratini oshirish zamonaviy ta’lim talablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A framework for teacher knowledge.
2. MEL Chemistry official website: https://melscience.com
3. V.V. Krayevskiy, Didaktika: O‘qitish nazariyasi, 2008.
4. Qodirov M. va boshqalar, “Axborot texnologiyalari va ta’limda raqamli kompetensiyalar”, Toshkent, 2022.
5. Tadjibayeva D. “Raqamli texnologiyalarni o‘qituvchilar kasbiy tayyorligiga integratsiya qilish” (2022)

KIMYO FANINI INGLIZ TILI BILAN INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA O‘QITISH SHAKLLARI

[1]Ajieva M.B. p.f.n. dotsent, [2]Ajieva Z.B.

1. Ajiniyoz nomidagi NDPI

2. m.f.n., erkin izlanuvchi

Zamonaviy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyalashgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlarni, jumladan, kimyo fanini ingliz tili bilan uyg‘unlashtirib o‘qitish nafaqat fan mazmunini o‘zlashtirishga, balki o‘quvchilarning ingliz tilidagi ilmiy savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon global ta’lim standartlariga mos ravishda yetuk kadrlar tayyorlashning samarali vositasidir. Fan va til integratsiyasi o‘quvchilarni ilmiy tafakkur, amaliy ko‘nikmalar va ingliz tilidagi akademik so‘z boyligiga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. Kimyo fanini ingliz tili bilan bog’lab o‘qitish o‘quvchilarning ham fan, ham til bo‘yicha bilimlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga yordam beradi.

Integratsiyalashgan o‘qitishning bosh maqsadi – o‘quvchining kimyo faniga oid bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, ingliz tilida muloqot qilish, tushunish va ilmiy fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Ingliz tilida kimyoviy terminlar, matnlar, laboratoriya ishlarini tushunish orqali o‘quvchilar ilmiy tafakkur va til kompetensiyalarini bir vaqtda rivojlantiradi.

Ingliz tili bilan integratsiyalashgan sharoitda umumiy o‘rta ta’limda kimyo fanidan o‘quv ishlarini amalga oshirishni o‘rganishning uslubiy shartlari va asoslari:

Umumiy ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda o‘quv fanlarini bir-biriga yaqinlashtiradigan integratsiyasi o‘quv fanlari mazmuni va usullarining o‘zaro bog’liqligi, atrof-olamni, unda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni yaxlit idrok etishga yordam beradi;

Umumiy kimyo ta’limni modernizatsiyalash, bu birinchi navbatda uning asosiy maqsadi mazmunini o‘zgartirish bilan bog’liq. Modernizatsiya eskidan yangiga, zamonaviyga o‘tishga qaratilgan. Modernizatsiya kontseptsiyalari doirasida birinchi navbatda umumiy o‘rta ta’lim maktab kimyo fani kursida o‘quvchilarni zamonaviy

jamiyatda yashash sharoitlari sifatida asosiy kompetentsiyalarni shakllantirish vazifasi paydo bo‘ldi;

Ta’lim jarayonida sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirishga qaratilgan ta’lim, insonparvarlashtirish, rivojlantirish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni qo‘llash, ta’limni “insonparvarlashtirish”, yaqin global dunyoqarash va insoniyatga yaqinlashtiradi.

Ta’limning muhim maqsadlaridan biri bu o‘quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini, kommunikativ, ijodiy, emotsional-yaxlit jihatdan olib boriladigan umumiy asosiy kompetentsiyalarni shakllantirishdir;

Kommunikatsiya, muloqot, axborot tashuvchidan axborotni uzatishning elektron vositasi bo‘lgan shaxs, kitob, ommaviy axborot vositalari bo‘lishi mumkin bo‘lgan axborotni o‘z idrok-mehnat va idrokiy-ta’lim faoliyati jarayonida insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos shakli sifatida shaxsga uzatishni nazarda tutadi, albatta til yordamida amalga oshiriladi [2:220].

Ingliz tili va kimyo fani ko‘rib chiqishda semantik, etimologik va kommunikativ jihatlarda aloqa nuqtalarini aniqlash mumkin.

Shatalov tadqiqotlariga asoslangan holda, umumiy o‘rta ta’lim maktabda kimyo fanini o‘rganishda fanlararo integratsiyani amalga oshirishda quyidagi usullardan foydalanilgan:

- ❖ Akademik (monolog, dialogik taqdimot, mustaqil tadqiqot ishlari);
- ❖ Innovatsion (tadqiqot, muammo-o‘yinli, muammo-munozara, muammoni jamoaviy echish usuli);
- ❖ O‘ziga xos (muammoli-integrativ kimyoviy tajriba) [4:262].

Chet tillari ko‘pincha kimyo, fizika va matematika bilan integratsiyalashgan. Ingliz tilining kimyo fani bilan bog’liqligi juda aniq. Ingliz tili darslari, garchi asosiy dasturga muvofiq o‘tkazilsada suhbatlar, o‘yinlar va boshqalarni ingliz tilida o‘z ichiga olishi shart.

Integratsiyalashgan ta'limning afzalliklari

1. O'quvchilarning ham kimyo fani, ham ingliz tili bo'yicha bilim va ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantiradi

2. Global ilmiy hamjamiyat bilan muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytiradi

3. O'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi

4. Tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi

5. Kelajakda xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga hissa qo'shadi

Kimyo fani elementlari, kimyoviy formulalarni o‘rganish ingliz tilining ajralmas qismidir. Bu bilan o‘quvchi ham kimyo fani ham ingliz tilini mukammal o‘rganishga intiladi. Ingliz tili darslarida ushbu mavzularni o‘quvchilar bilan muhokama qilar ekansiz, siz o‘quvchilar kmiyo fani va ingliz tili grammatikasi omuxatlashgani holda ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishlari ta’minlanadi. Uzoq vaqt davomida ingliz tilidagi ushbu integratsiyaviy holatga e’tibor berilmadi. Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, ingliz tili darslarida fanlararo aloqalardan foydalangan holda biz o‘quvchilarning til qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beramiz, nutq madaniyatini oshiramiz, savodxonlikni o‘rgatamiz, shuningdek, ijodiy qobiliyatlari shakllanishiga sezilarli darajada hissa qo‘shamiz . o‘quvchilarning universal ta’lim harakatlarini rivojlantirish. Axborot har doim va turli mamlakatlarda maktab ta’limi tomonidan tanqid qilingan. Ushbu ob’yektiv hodisa jamiyatning yosh avlodning ta’lim darajasiga bo‘lgan talablari ortib borayotgani bilan solishtirganda, maktabda kreativ fikrlashga vaqt yo‘qligini ko‘rsatadi. O‘sib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq pedagogik jarayon. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maktab tizimidagi tanqidni adolatli deb e’tirof etishimiz mumkin. Agar boshlang’ich maktabning tarixiy rivojlanish yo‘lini tahlil qiladigan bo‘lsak, metodik tizimning tarkibiy qismi sifatida maqsadlar eng kam o‘zgarishlar va tuzatishlarga duchor bo‘lganligi ayon bo‘ladi. Ular birinchi jamoatchilik maktablari paydo bo‘lgan paytdan boshlab, o‘zgarmagan, qolipga tushib qolgan o‘qitish natijasida bola o‘qish, yozish, hisoblash, atrofdagi dunyoga yo‘naltirish ko‘nikma va malakalarini egallashi kerak bo‘lgan [5:430].

Integratsiya turli o‘quv fanlari o‘rtasida barqaror aloqalarni o‘rnatish sifatida qaraladi, shu bilan birga ularning har birining o‘zaro “izolyaciyasi” yo‘qolmaydi. Bunday holda, integratsiyaning asosi turli ta’lim yo‘nalishlarining umumiy mazmunidir. “Integratsiya” atamasi umumta’lim maktablarida didaktik muammolarni hal qilishda ta’limni rivojlantirishda g’oyalar, tushunchalar, tamoyillar, yondashuvlarning o‘zaro kirib borish tendensiyasi sifatida tushunilishi lozim.

Shuning uchun bu muammo pedagogika uchun yangilik emas. O‘qitishdagi integratsiya g’oyalari buyuk didaktning asarlaridan kelib chiqadi, u shunday deydi: [6:150].

Xulosa. Kimyo fanini ingliz tili bilan integratsiyalashgan holda o'qitish o'quvchilarning nafaqat ilmiy bilimlarini, balki xalqaro muloqot qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv zamonaviy ta'lim tizimining muhim qismi bo'lib, globallashuv sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada olingan natijalar asosida Umumta’lim maktablarida kimyo fanini ingliz tili bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish shakllari va vositalariga bag’ishlangan ushbu paragrafda o‘qitishning an’anaviy, zamonaviy usullari o‘zaro tahlil qilingan. Bu jarayonda ikkita fanni o‘qitish jarayonida integratsiyaviy o‘qitish shakllari va vositalarining afzalliklari yetarli darajada asoslab berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekpo‘latov H.O. Ajieva M.B. Kimyo fanini ingliz tili bilan integratsiya qilish sharoitlarida o‘rganish uchun o‘quvchilarning psixologik xususiyatlaridan foydalanish.// NamDU Ilmiy axborotnomasi.-Namangan.- 2022.-11-son.
2. Кимё фанини ўқитиш методикаси. Тошкент: O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim вазирлиги, 2020.
3. Тошкенбаева, М. Т. (2022). Фан ва тил интеграцияси асосида дарсни ташкил этиш. Педагогика ва психология муаммолари.
4. Azizova, D. (2023). CLIL metodining tabiiy фанларни o‘қitishdagi samaradorligi. Ilm-fan ва innovatsiya.
5. Зорников Н.И., Волкова П.Л. Проблемы и перспективы международной интеграции высего образования. -Вороник, 2009.
6. Темиров Н.О. Умумий кимё фанидан фанлараро интеграциясидан фойдаланиб ўтказилган педагогик эксперимент натижалари. // International multidisciplinary scientific conference on the engineering&technology. –Egypt, 2021. -B. 220-223.
7. Кимё фанини ўқитиш методикаси. Тошкент: O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim вазирлиги, 2020
8. Усова А.В. Межпредметные связи в преподавании основ наук в школе: Методические рекомендации. –Челбябиск: ЧПТУ “Факел”, 2006.
9. Шодманова Ш.Қ. Академик лицей ва умумтаълим мактабларида кимё фанини касбга йуналтириб ва табиий фанлар интеграцияси асосида адаптив ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Ўқув қўлланма. 2020.

UGLEVODORODLAR MAVZUSINI O‘QITISHNING AHAMIYATI

Ajieva M.B., dotsent, Joldasova U.R, 4-kurs talaba

Ajiniyoz nomidagi NDPI

Uglevodorodlar mavzusini o‘qitishning ahamiyati juda katta, chunki bu soha kimyo, ekologiya, energetika va iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq. Uglevodorodlar, asosan, neft va gaz kabi asosiy energiya manbalarining tarkibiga kiradi va ular insoniyat faoliyatida katta o‘rin tutadi. Uglevodorodlar kimyo, energetika, ekologiya, iqtisodiyot va texnologiya kabi sohalar bilan chambarchas bog'liq bo‘lgan, dunyo miqyosidagi eng muhim resurslardir. Ushbu mavzu o‘qitilishi orqali talabalar uglevodorodlarning tarkibi, xususiyatlari va ularning insoniyat hayotidagi o‘rni haqida to‘liq tushuncha hosil qilishlari mumkin. Bu bilimlar, nafaqat ilmiy va texnologik sohalarda, balki atrof-muhitni himoya qilish va global iqlim o‘zgarishlarini hal etishda ham zarur bo‘ladi. Uglevodorodlar mavzusini o‘qitishning asosiy maqsadi talabalarni uglevodorodlarning kimyoviy xususiyatlari, ularning energetik qiymati, ekologik ta'siri va iqtisodiy ahamiyati haqida bilimlar bilan ta'minlashdir. Bu orqali talabalar:

- Uglevodorodlarning tarkibini va xususiyatlarini bilib olishadi.
- Ularning energetika sohasidagi roli va ta'sirini tushunishadi.
- Ekologik xavflar, resurslar uzilishining oldini olish, va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish kabi masalalar bilan tanishadilar.

Uglevodorodlar mavzusini o‘qitishda quydagi vazifalar belgilab olinadi:

1. **Kimyoviy bilimlarni oshirish**:

Uglevodorodlarning strukturasi, xususiyatlari va reaktsiyalari haqida ilmiy asoslarni o‘rgatish.

Organik kimyo asoslarini o‘rgatish orqali talabalarni ilmiy fikrlash va tahlil qilishga o‘rgatish.

2. **Energetik tizimlar haqida bilim berish**:

Uglevodorodlarning energiya manbai sifatidagi o‘rnini tushuntirish.

Ularning sanoatda, transportda va boshqa sohalarda qanday ishlatilishini o‘rganish.

Energiya resurslarini samarali boshqarish va ularning yangi texnologiyalar yordamida qayta ishlanishini ko‘rsatish.

3. **Ekologik muammolarni o‘rgatish**:

Uglevodorodlarning atrof-muhitga, iqlim o‘zgarishlariga ta'sirini tushuntirish.

Yashil energiya manbalariga o‘tish va uglevodorodlardan kamayishning ekologik foydalari haqida ma'lumot berish.

Uglevodorodlarni qazib olish va ishlatish bilan bog'liq ekologik xavflarni kamaytirish yo‘llarini ko‘rsatish.

4. **Iqtisodiy va ijtimoiy tahlil qilish**:

Uglevodorodlarning global iqtisodiyotga ta'sirini o‘rgatish.

Neft va gaz eksport qiluvchi davlatlar iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarni va energiya bozorlaridagi tendensiyalarni o‘rganish.

5. **Texnologiyalarni o‘rgatish**:

Uglevodorodlarni qazib olish va ishlatishdagi zamonaviy texnologiyalarni tushuntirish.

Yangi innovatsion texnologiyalarni, shu jumladan, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va uglevodorodlardan samarali foydalanish texnologiyalarini o‘rgatish.

6. **Iqlim o‘zgarishi va barqaror rivojlanish masalalari**:

Uglevodorodlarning iqlim o‘zgarishlariga ta’sirini va barqaror rivojlanishdagi o‘rnini tushuntirish. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish va uglevodorodlardan foydalanishni kamaytirish bo‘yicha global strategiyalarni ko‘rsatish muhimdir.

Uglevodorodlar mavzusini o‘qitishda bir qancha jihatlarga etibor berish kerak. Kimyo bilimlarini rivojlantirish orqali uglevodorodlar organik kimyoning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning tarkibi, xususiyatlari, reaktsiyalari haqida bilish talabalarni organik kimyo asoslarini puxta o‘rganishga yordam beradi. Bu bilimlar keyinchalik boshqa kimyo sohalarida ham muhim ahamiyatga ega. Energetika va sanoatning rivojlanishi orqali uglevodorodlar - energetika sanoatining

asosiy komponentlaridir. O‘quvchilar neft, gaz va boshqa uglevodorodlar energiya manbalari sifatida qanday ishlatilishini bilib, bu sohada qanday ilmiy va texnologik yangiliklar yuz berayotganini tushunishlari mumkin. Bu bilimlar ularni energetika sohasida ishlashga tayyorlaydi.

Ekologik masalalar va atrof-muhitni himoya qilish orqali uglevodorodlar iste'moli atrof-muhitga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin, masalan, iqlim o‘zgarishlari, havoning ifloslanishi va boshqa ekologik muammolar. Bu mavzu orqali talabalar uglevodorodlar bilan bog'liq ekologik muammolarni o‘rganishlari va ularni hal qilish yo‘llarini topishga qiziqishlari mumkin. Iqtisodiy ahamiyati natijasida esa uglevodorodlar global iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi. Ular neft va gaz eksport qiluvchi davlatlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi. O‘quvchilar ushbu resurslar qanday iqtisodiy omil bo‘lishi mumkinligini tushunib, global bozorlar, resurslar va iqtisodiy strategiyalar haqida chuqurroq fikrlashlari mumkin.

Texnologik rivojlanish natijasida uglevodorodlar sohasida yangi texnologiyalar va innovatsiyalar (masalan, neft qazib olish va qayta ishlash texnologiyalari) muhim rol o‘ynaydi. Bu mavzu talabalarni ilmiy-texnologik yutuqlar bilan tanishtiradi va ularni texnologik yangiliklarga qiziqtiradi. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish orqali hozirgi vaqtda qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish jarayoni jadal rivojlanmoqda. Uglevodorodlar mavzusini o‘qitish orqali talabalar neft va gazning kelajagi, ularning o‘rnini bosa oladigan alternativ energiya manbalari haqida o‘ylashni boshlaydilar. Shu sababli, uglevodorodlar mavzusini o‘qitish talabalar uchun nafaqat ilmiy bilimlarni oshirish, balki ularga global miqyosdagi muhim masalalar haqida o‘ylash imkoniyatini ham beradi.

Uglevodorodlar mavzusini o‘qitish, o‘quvchilarni ilmiy, ekologik va iqtisodiy jihatdan hozirgi zamonning eng dolzarb masalalari bilan tanishtiradi. Bu mavzu o‘quvchilarga faqat kimyo fanidan emas, balki texnologiya, energetika va ekologiya sohalaridan ham keng ko‘lamda bilimlar beradi, bu esa ularga dunyo miqyosidagi katta muammolarni tushunishga yordam beradi.

Uglevodorodlar mavzusini o‘qitish quyidagi jihatlardan iborat:

1. **Kimyo faniga bo‘lgan qiziqishni oshiradi**. Uglevodorodlar — kimyoning markaziy mavzularidan biri bo‘lib, ularning o‘rganilishi orqali o‘quvchilar kimyo faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishi mumkin. Bu mavzu organik kimyo, reaksiyalar, molekulalar tuzilishi va energiya manbalari haqida tushuncha berishga yordam beradi.

2. **Amaliy ahamiyatni tushunishga yordam beradi**. Uglevodorodlar nafaqat ilmiy, balki amaliy nuqtai nazardan ham juda muhim. O‘quvchilar bu mavzu orqali uglevodorodlarning sanoatdagi, energetikada va hayotimizdagi o‘rnini tushunishadi. Masalan, neft va gazning energetika va sanoatdagi roli, plastik va boshqa sintetik materiallarning ishlab chiqarilishi haqida tushunchalar shakllanadi.

3. **Atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltiradi**. Uglevodorodlarni o‘qitish orqali o‘quvchilar ularning ekologik ta'sirini tushunib, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik va barqaror rivojlanish tamoyillarini qo‘llash zarurligini anglaydilar. Bu, o‘z navbatida, ekologik mas'uliyatni oshirishga yordam beradi.

4. **Analitik va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi**: Uglevodorodlar bilan bog'liq kimyoviy reaksiyalarni o‘rganish o‘quvchilarda analitik va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ular molekula tuzilishini va kimyoviy jarayonlarni chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

5. **Kelajakdagi kasblarga tayyorlaydi**. Uglevodorodlar, ayniqsa energetika, kimyo sanoati va ekologiya sohalarida kelajakdagi kasb-hunarlarni tanlashda o‘quvchilarga ko‘plab imkoniyatlar yaratadi. Bu mavzu o‘quvchilarni o‘zlarining kelajakdagi ilmiy va texnologik faoliyatlariga tayyorlashda muhimdir.

Uglevodorodlarni o‘qitish, kimyo fanini o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi, chunki bu mavzu nafaqat kimyo asoslarini tushunishda, balki kundalik hayotda keng qo‘llaniladigan materiallar va jarayonlar haqida tushunchaga ega bo‘lishda ham katta ahamiyatga ega.

Xulosa. Uglevodorodlarni o‘qitish, kimyo fanini o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi, chunki bu mavzu nafaqat kimyo asoslarini tushunishda, balki kundalik hayotda keng qo‘llaniladigan materiallar va jarayonlar haqida tushunchaga ega bo‘lishda ham katta ahamiyatga ega.

Uglevodorodlarni o‘qitish o‘quvchilarda kimyo va ekologiya fanlari bo‘yicha chuqur bilimlar shakllantiradi, amaliy va nazariy bilimlarni birlashtiradi, shuningdek, o‘quvchilarni muammolarni hal qilish va ilmiy yondashuvlarni qo‘llashga o‘rgatadi. Bu mavzuni o‘qitish orqali, o‘quvchilar dunyo va jamiyatdagi o‘zgarishlarni

tushunib, kelajakda ijtimoiy mas'uliyatli va ilmiy jihatdan yetuk shaxslar bo‘lib yetishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A. va Eshchonov E., Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik, Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2009-y

2. Bahodirovich A. M. (2022). Talabalarning turli qiyinchilik darajadagi ijodiy masalalar yechishdagi o‘qituvchining yordam mazmuni. Educational research in universal sciences, 1(6), 98-105.

3. I.R.Asqarov, Y.T.Isayev, A.G‘.Mahsumov, Sh.M.Qirg‘izov. Organik kimyo. T.: G‘.G‘ulom nashriyoti. 2012. - 607 b. 31-37.

4. M.B.Ajieva. Ximiya oqıtıw metodikası.T.: Tafakkur avlodi nashriyoti. 2022.-247 b.

SPIRTLER TEMASÍN OQÍTÍW USÍLLARÍ

Abdisattarova E.A., p.i.d., (PhD), Kudaybergenova A.M., assistent oqıtıwshı,

Jarekeyeva D.B., stajyor oqıtıwshı, Allamberganova A.M., 4kurs talaba

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus sh. Qoraqalpog‘iston.

elmiraabdijamilovna@gmail.com

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2020-jıl 12-avgusttağı «Ximiya hám biologiya jónelislerinde úzliksiz tálim sıpatın hám ilim-pán nátiyjeliligin asırıw ilajları haqqında»ǵı PQ-4805-sanlı qararına tiykarlanıp ximiya hám biologiya pánleri boyınsha tereńirek oqıtıw, jańa islep shıǵarıw karxanaların payda etiw, farmacevtika, neft-gaz, azıq-awqat sanaat tarmaqların tez pát penen rawajlanıwına sebep bolatuǵın hámde onıń tiykarında xalqımız turmıs sharayatın jaqsılawǵa tiykar jaratıp beredi [1]. Respublikamızda ilim-texnika hám texnologiyalardı rawajlandırıw hám jáhán talaplarına juwap beretuǵın tájiriybeli kadrlar tayarlaw sistemasın qáliplestiriw hám de oqıtıwda innovacion tálim texnologiyaların qollanıw ayrıqsha aytıp ótilgen. Sonday aq, joqarı oqıw orınlarında ximiya pánlerin oqıtıwda elektron tálim resurslarınan paydalanıwdıń texnologiyaların islep shıǵıw arqalı tálim alıwshılarda kásiplik bilim, kónikpe hám tájiriybelerin xalıq aralıq standartlar dárejesinde tolıq qáliplestiriwdiń ilimiy tiykarlanǵan sistemasın jaratıw hám de erkin tálimdi rawajlandırıwdı talap qıladı.

Jáhánde tálimniń rawajlanıwın támiyinlewshi tiykarǵı faktor sıpatında, 2030 jılǵa shekem belgilep alınǵan tálim konsepciyasında «Pùtin ómir dawamında sıpatlı tálim alıwǵa imkaniyat jaratıw» aktuallıǵı wazıypa etip belgilengen. Bul bolsa, óz gezeginde hám pándi, hám shet tilin, hám zamanagóy axborot texnologiyaların tereń


biletuǵın hám onı tájiriybede qollay alatuǵın ximiya oqıtıwshıların tayarlawǵa qaratılǵanlıǵı menen áhmiyetke iye. Sol sebepli joqarı oqıw orınlarında oqıtıwdıń zamanagóy usıllarınan paydalanıwdı jolǵa qoyıw, bolajaq kásip iyelerin kásipke tayarlawda innovacion hám axborot texnologiyaların sabaq processine paydalanıwdı talap qılmaqta [2].

“Spirtler” temasın uyreniwde Awa –Yaq metodınan paydalanǵanımızda klass oqıwshıların ańsat, dáslepki maǵlıwmatlardı eske tusiriw ushın qollanamız. Sorawlar beriledi hám juwaplar awa yaki yaq degen sózler menen qanaatlanadı, qısqa juwaplar beriledi. Mısalı tómendegi formada keltirilgen.

Awa –Yaq usılı

1. Etilennen spirt alıwǵa bolama?
2. Ósimlik japıraǵında etanol bolama?
3. Qantlı zatlardı ashıtıw arqalı metanol alıw múmkinbe?
4. Aǵash maydasınan etanol alıwǵa bolama?
5. Eger kartoshka muzlaǵan bolsa onnan etil spirti alıw múmkinbe?

Venna diagramması - 2 hám 3 túsiniktiń ózine tán táreplerin hám de ulıwma táreplerin salıstırıw yaki qarama-qarsı qoyıw ushın qollanıladı. Sistemalı pikirlew, salıstırıw, teńew, analiz etiw kónikpelerin rawajlandıradı.



T-keste metodında qanday da bir túsinik, yamasa lekciya boyınsha úyrenilgen informaciyanı salıstırmalı analizlew, salıstırıw, erkin múnásibetti qáliplestiriwge imkaniyat jaratıw maqsetinde qollanıladı. Bunda oqıwshılar óz betinshe hám dóretiwshilik pikirlew, informaciyalar sistemasın analizlew, sóylesiwsheńlik hám basqalar pikirine húrmet, jámáátte islew kónlikpeleri rawajlanadı. Maǵlıwmatlar organikalıq ximiya paniniń tiykarǵı adebiyatlarınan alınadı [3].

T-keste

Abzallıǵı	**Kemshiligi**
Medicinada dezinfekciyalaw ushın	Metanol zaxarli spirt
Xalıq xojalıǵınıń har turli tarawlarında qollanıladı	Zaxarli, narkotik zat
Dári-darmaqlar alınadı	Ótkir iyisli
Parfiyumeriyada	Alkogol tasirge iye
Eritiwshi retinde qollanıladı	Nerv kletkaların buzadı
Antifrizler alınadı	Awqat sińiriw organların buzadı
Nitroglicerinniń 1% eritpesi medicinada kóp qollanıladı	Júrek, qan tamırların awır kesellikke duwshar etedi

Spirt	**Fizikalıq qasiyeti**	**Ximiyalıq qasiyeti**	**Alınıwı**
Metanol	juda zaxarli suyiqlıq	indikatorǵa tásir etpeydi	suw gazinen, toyıńǵan uglevodorodlardıń galogenli tuwındılarınan alınadı
Etanol	narkotik suyıqlıq	natriy etilatı menen reakciyaǵa kirisedi	glyukozanı ashıtıw, kletchatka gidroliz
Etilenglikol	mazalıraq sirop	mıs(II)gidroksid aktiv Me	tiyisli uglevodorodlardıń tuwındılarınan alınadı
Glitserin	mazalı sirop	HGologen menen reakciyaǵa kirisedi	neftti krekinglew

Konceptual keste - metodın qollanıw ushın tómendegishe tarqatpa materiallar teksti tayarlanadı hám hár bir toparǵa tarqatıladı. Sonıń menen birge ekspert beti qaǵazıda tarqatıladı. Oqıwshı tarqatpa materiallar ishinen metanol, etanol etilenglikol hám glitseringe tiyisli bolǵan maǵlıwmatlardı ajıratıp ekspert beti qaǵazındaǵı konceptual kestesin toltıradı [4].

Konceptual keste

Juwmaqlap aytǵanımızda, organikalıq ximiya ximiyanıń ishindegi qızıqlı hám quramalı pán bolıp, onda kundelikli turmısta kop paydalanılatuǵın zatlar haqqında kóp maǵlıwmatlar beriledi. Sonıń ishinde Spirtler temasında spirtlerdıń turleri, onıń qasiyetlerin uyreniw arqalı spirtlerdiń zaharli jáne paydalı qasiyetlerin har tárepleme uyrenemiz. Usı tema arqalı oqıwshılar ximiyanı medicina, biologiya, kundelikli turmıs, sanaat penen tıǵız baylanıslıǵın uyrenedi [5]. Temanı tolıq tusindiriwde interaktiv metodlardan Awa–Yaq metodı, Venna diagramma, T-keste, Konceptual keste siyaqlı interaktiv metodlardan paydalanıp sabaq ótkenimizde oqıwshılardı ximiyaǵa qızıqtırıw, ximiyalıq formulalardı yadda saqlaw qasiyeti qáliplesedi.

Paydanalǵan adebiyatlar:

1. Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mırziyoyevtıń 2020-jıl 12-avgusttaǵı “Ximiya hám biologiya baǵdarlarında úzliksiz tálim sapasın hám ilimiy nátiyjeliligın asırıw ilajları haqqında”ǵı PQ-4805-sanlı Qararı.

2. Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mırziyoyevtıń 2020-jıl 29-oktyabrdegı “Ilimdi 2030-jılǵa shekem rawajlandırıw koncepciyasın tastıyıqlaw haqqında”ǵı PP-6097-sanlı Parmanı.

3. Abdusamatov A.,Mirayev R.,Ziyayev R. Organik kimyo. -Toshkent., 2004. 240-b.

4. Ixtiyarova G.A., Bekchanov D.J., AhadovM.Sh. Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar. -Toshkent., 2020. 273-b.

5. Abdisattarova E., Jarekeyeva D., Sultanov M. Ximiya sabaǵında integraciyalasqan oqıtıw. Ilim hám jámiyet. 2024 (№2/2). 67-69-bet.

METALLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA KLASTER METODIDAN FOYDALANISH

Abdisattarova E.A., p.f.d. (PhD), Kudaybergenova A.M., assistent o‘qituvchi, Jarekeyeva D.B., stajyor o‘qituvchi, Yazjanova G.T., 4kurs talaba

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus sh. Qoraqalpog‘iston.

elmiraabdijamilovna@gmail.com

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4805-sonli qaroriga asosan kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha chuqurroq o‘qitish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, farmatsevtika, neft-gaz, oziq-ovqat sanoat tarmoqlarini jadal sur’atlar bilan rivojlanishiga sabab bo‘ladigan hamda uning asosida xalqimiz turmush sharoitini yaxshilashga zamin yaratib beradi [1].

Jahonda ta’limning rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omil sifatida, 2030-yilgacha belgilab olingan ta’lim konsepsiyasida "Butun umr davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarbligi vazifa etib belgilangan. Bu esa, o’z navbatida, ham fanni, ham chet tilini, ham zamonaviy axborot texnologiyalarini chuqur biladigan va uni amaliyotda qo’llay oladigan kimyo o’qituvchilarini tayyorlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu bois oliy o’quv yurtlarida o’qitishning zamonaviy usullaridan foydalanishni yo’lga qo’yish, bo’lajak kasb egalarini kasbga tayyorlashda innovatsion va axborot texnologiyalarini dars jarayoniga tatbiq etishni taqozo etmoqda [2].

“Metallar” mavzusi kimyo fani uchun asosiy bo‘limlardan biri bo‘lib, elementlarning kimyoviy xossalari, ularning tabiatda tarqalishi, olinishi, sanoatdagi qo‘llanilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Aynan shu mavzu orqali o‘quvchilarda kimyo fanining amaliy va texnologik mohiyatini anglash shakllanadi. Shu bois, bu bo‘limni faqat nazariy emas, balki amaliy hamda interaktiv metodlar asosida o‘qitish dolzarb masaladir.

An’anaviy yondashuvda bu mavzu ko‘pincha faqat ma’lumotlar yodlashga asoslanadi. Biroq zamonaviy ta’lim islohotlari sharoitida kimyo fanining “Metallar” bo‘limini o‘qitishda yangi texnologiyalarni, interfaol va innovatsion metodlarni tatbiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. An’anaviy yondashuvlarda o‘quvchilarning faolligi past bo‘lib, bilimlar asosan tayyor ko‘rinishda beriladi. Bunday holat o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda cheklov bo‘lishi mumkin.


Klaster metodi — o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha tushunchalarni guruhlash, tarmoqlash va vizual tarzda ko‘rsatish orqali mantiqiy tafakkurni rivojlantirish usulidir.

Qo‘llash tartibi:

“Metallar” mavzusi asosida asosiy tushunchalar (fizik xossalari, kimyoviy xossalari, olinishi, ishlatilishi) yoziladi.

Har bir tushuncha atrofida kichik “klasterlar” (suz-tushunchalar) tuziladi.

Guruhlar bilan ishlash orqali o‘quvchilar o‘z “metall klasterlarini” tayyorlaydi va taqdim qiladi [3].



Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar — Kaster va boshqa usullar metallar mavzusini o‘qitishda yuqori natijadorlikni ta’minlaydi. Bu metodlar orqali o‘quvchilarda chuqur bilim, tanqidiy va ijodiy fikrlash, amaliy ko‘nikmalar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

3. Karimova M. “Innovatsion pedagogik texnologiyalar”, Toshkent, 2022.

4. Tadjibayeva S. “Kimyo fanini o‘qitishda interfaol metodlar”, Nukus, 2021.

5. Abdisattarova E., Kudaybergenova A., Erjanov A. III a topar elementlerin uyreniwde interaktiv usíllardan paydalaníw. “Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnali 2181-4325 | https://ilmfanvatalim.uz/ | № 5(20). 294-299 b.

BENZOKSAZOLIN-2-ONNING Cu_n (n=1-13) KLASTERLARI BILAN O'ZARO TA'SIRI VA ULARNING N-MALONILTRANSFERAZA FERMENTI BILAN BOG'LANISH XUSUSIYATLARI BO'YICHA NAZARIY TADQIQOTLAR

Soporboyev Z[1], Ibragimov S[1], Eshchanov X.[2]

[1]Xorazm Ma’mun Akademiyasi, Aniq fanlar bo‘limi, 220900, Khiva, Khorezm, Uzbekistan. soporboyevzokir@gmail.com

[2] Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrasi, O‘zbekiston, Urganch shahar, 220100, Hamid Olimjon ko‘chasi, 14-uy. xeshchanov77@gmail.com


Benzazollar keng biologik ta’sirga ega bo‘lgan geterosiklik birikmalar bo‘lib, ko‘plab hosilalari tabiatda uchraydi va ular xalq xo‘jaligining turli sohalarida qo‘llaniladi. O‘simliklarda ishlab chiqarilgan benzazollar kasalliklar keltirib

chiqaruvchi zamurug’lardan himoya qilishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Bunday benzazollarning tuzilishi bir xil turdagi turlar orasida va hatto bir xil tur ichida farq qilishi mumkin [Morrissey, 1999: 708-724].

Bu donli ekinlar oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahdid soladigan fusarium zamburug‘lari [Goswami, 2004: 515-525], fusarium toj chirishi [Moya-Elizondo, 2013: 235-252] va fusarium ildiz chirishi kabi kasalliklarga nisbatan zaifdir. Ushbu kasalliklarga qarshi kurashish uchun o‘simliklar benazollar ishlab chiqaradi va Fusarium zamburug‘larida N-maloniltransferaza fermenti bu birikmalarni zararsizlantirishda muhim ro‘l o‘ynashi aniqlangan. Cu nanozarrachalari mikroblarga qarshi faollik ko’rsatuvchi va undan tashqari atrof-muhit elementlari bilan o‘zaro ta’siri zaifroq ekanligi aniqlangan [Young, 2014: 6043-6052]. Misol uchun, Sozan E. El-Abeid va boshqalar. [El-Abeid, 2024: 28] pomidor o‘simliklaridagi fusarium ildiz chirishi kasalligiga qarshi Zizyphus spina bargi ekstraktidan olingan 13-30 nm o‘lchamli mis oksidi nanozarrachalari zamburug‘larga qarshi kurshish faolligini o‘rganganlar.

Ushbu tadqiqotda biz Gaussian 16 (G16) dasturidan foydalangan holda hisob-kitoblar amalga oshirildi va Cu_n-benzoksazolin-2-on birikmasining N-maloniltransferaza fermentiga ta’sirini aniqlash uchun molekulyar doking hisoblashlaridan foydalandik. Strukturalarni optimallashtirishda biz CAM-B3LYP funksionaldan foydalandik def2-SVP basis funksiya bilan birgalikda. Geometriyani optimallashtirishda "Tight" Self Consistent Field (SCF) konvergentsiya mezonlari o‘rnatildi. CAM-B3LYP funksionalni tanlashdan maqsad uning metall va metall bo'lmagan moddalar tuzilish xususiyatlarini aniq bashorat qilish qobiliyatiga asoslanadi.

Dastlab, benzoksazolin-2-onning Cu_n (n=1-13) klasterlari bilan ta’sirlashishini aniqladik. 1-rasmda har xil o‘lchamdagi Cu klasterlarida benzoksazolin-2-onning eng barqaror adsorbsiyasi konfiguratsiyalari, adsorbsion energiyasi va Cu-O bog‘ uzunligi tasvirlangan. Natijalarimiz shuni ko‘rsatadiki, Cu_n (n=1-13) klasterlarida benzoksazolin-2-onning eng barqaror adsorbsiyasi n=3 da kuzatiladi, adsorbsiyadan erkin energiya -23.41 kkal/mol.




1-rasm. Cu_n (n=1-13) klasterlarida benzoksazolin-2-on adsorbsiyasining optimallashtirilgan eng barqaror tuzilmalari.

Biz ushbu ma’lumotlarga asoslangan holda benzoksazolin-2-onning mis klasterlari bilan hosil qilgan birikmalarini N-maloniltransferaza fermentini bilan o‘zaro ta’sirini nazariy jihatdan aniqlash ishlari amalga oshirildi. Bunda molekulyar doking hisoblashlaridan foydalanildi. Hisoblashlar SeamDock platformasining Smina dasturi yordamida amalga oshirdik.

Molekulyar doking hisoblashlarida N-maloniltransferaza fermenti bilan benzoksazolin-2-on, Cu_3-benzoksazolin-2-on birikmalari tanlab olindi. Chunki, kvant kimyoviy hisoblashlar Cu_3-benzoksazolin-2-on birikmasi uchun aniqlangan Gibbs energiya qiymatlari eng kam ekanligini ko‘rsatgan.

Molekulyar doking hisoblashlar benzoksazolin-2-onning N-maloniltransferaza fermentlari bilan hydrophobic va vodorod bog‘lanishlari orqali bog‘langanligini ko‘rsatdi. Bunda Gibbs energiyasining o‘zgarishi -5.7 kkal/mol ga teng bo‘ldi (2-rasm).



2-rasm. Benzoksazolin-2-on va Cu_3- benzoksazolin-2-onning N-maloniltransferaza fermenti bilan bog‘lanishi (ko‘k uzuk-uzuk chiziqlar-vodorod bog‘lanishlar, kulrang uzuk-uzuk chiziqlar hydrophobic ta’sirlar, binafsha rang uzuk-uzuk chiziqlar-koordinatsion bog‘lanishlar).

Cu_3-benzoksazolin-2-onning N-maloniltransferaza fermenti bilan bog‘lanishida Gibbs energiyaning o‘zgarishi -6.7 kcal/mol ni tashkil qildi. Bu qiymat benzoksazolin-2-onning N-maloniltransferaza fermenti bilan bog‘lanishidagi Gibbs energiyaning o‘zgarishidan past bo‘lib, Cu_3- benzoksazolin-2-onning ferment bilan mustahkam bog‘lanishini anglatadi.

Xulosa qilish uchun biz benzoksazolin-2-onning Cu_n (n=1-13) klasterlari bilan reaktsiyasini diapazondan ajratilgan zichlik funktsional nazariyasi usuli yordamida o‘rganib chiqdik. Dastlab biz turli o‘lchamdagi Cu klasterlarida benzoksazolin-2-onning eng barqaror adsorbsion konfiguratsiyasini o‘rganishimiz shuni ko‘rsatdiki, eng barqaror adsorbsiya konfiguratsiyasi uchburchak shakildagi Cu_3 klasterida topildi. Molekulyar doking natijalari shuni ko‘rsatdiki, hosil bo‘lgan Cu_3-benzoksazolin-2-on birikma N-maloniltransferaza fermenti bilan o‘zro barqaror ta’sirga ega ekanligi aniqlandi. Cu_3- benzoksazolin-2-onning N-maloniltransferaza fermenti bilan bog‘lanishi uchun hisoblangan Gibbsning erkin energiyasi ΔG=-6.7 kkal/mol. Cu_3-benzoksazolin-2-onning N-maloniltransferaza fermenti bilan kuchli bog‘lanishi fermentning faolligini pasaytirishi va uning benzoksazolinonlarni detoksifikatsiya qilish qobiliyatiga to‘sqinlik qilishi mumkin deb taxmin qilish mumkin. Bu shuni ko‘rsatadiki, benzoksazolin-2-on bilan mis nanoklasterlari tomonidan hosil qilingan birikmalar madaniy o‘simliklarda kasalliklarga olib

keladigan zamburug‘larga qarshi kurashda istiqbolli vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Morrissey, J. P., & Osbourn, A. E. (1999). Fungal resistance to plant antibiotics as a mechanism of pathogenesis. *Microbiology and molecular biology reviews*, *63*(3), 708-724.

2. Goswami, R. S., and Kistler, H. C. (**2004**) Heading for disaster: Fusarium graminearum on cereal crops. *Mol. Plant Pathol.*, 5 (6) 515-525.

3. Moya-Elizondo, E. A. (**2013**) Fusariosis de la corona: biología, interacción, manejo y un posible sensor de cambio climático global. *Cienc. Invest. Agrar.*, 40 (2) 235-252.

4. Young, M., and Santra, S. (**2014**) Copper (Cu)–Silica nanocomposite containing valence-engineered Cu: a new strategy for improving the antimicrobial efficacy of Cu biocides. *J. Agric. Food Chem.*, 62 (26) 6043-6052.

5. El-Abeid, S. E., Mosa, M. A., El-Tabakh, M. A., Saleh, A. M., El-Khateeb, M. A., and Haridy, M. S. (**2024**) Antifungal activity of copper oxide nanoparticles derived from Zizyphus spina leaf extract against Fusarium root rot disease in tomato plants. *J. Nanobiotechnol.*, 22 (1) 28.

FLAVONOIDS FROM *ASTRAGALUS BAKALIENSIS*

[1]Artikbaeva B.R., [1]Naubeev T.Kh., [2]Pirniyazov A.J.

[1]Karakalpak State University named after Berdakh, Nukus, e-mail: timan05@mail.ru,

[2]Institute of Bioorganic Chemistry named after A.S. Sadikov. AS RUz, Tashkent

Today, medicines made from medicinal plants are widely used by local populations for the prevention and treatment of various diseases. This is due to the chemical composition of medicinal plants, the small number of side effects and the ease of use. The fact that the raw materials of medicinal plants are sufficient and the price is cheap is the solution to the main problems that arise in the process of creating an effective medicine.

Several species of *Astragalus*, native to East Asia, are widely used in traditional Chinese medicine as antiperspirants, diuretics, and tonics for a wide range of conditions, including emphysema, nephritis, diabetes, hypertension, liver cirrhosis, uterine cancer, and leukemia [R. Lysiuk, 2016; 46, K. Touhami, 2022; 94]

As systematic studies show, plants of the genus *Astragalus*, which are widespread in Uzbekistan, are promising sources of these compounds. We continued chemical studies of the metabolides of the plant of the genus *Astragalus* (*Leguminosae*) [B.R. Artikbaeva, 2023; 1017].

Plants *Astragalus bakaliensis* Bunge (Leguminoseae), growing on the territory of the Republic of Karakalpakstan, is one of the objects of our research.

In continuation of the study of isoprenoids in plants of the genus *Astragalus*, we studied the plant *Astragalus bakaliensis* Bunge (*Leguminosae*). Comparative studies of the aerial parts of *Astragalus bakaliensis* using thin layer chromatography (TLC) showed compounds of a phenolic nature.

Ground air-drued roots (1.5 kg) of *Astragalus bakaliensis* were exhaustively extracted with ethanol (5 x 8 l). The combined ethanol axtracts were concentrated to a syrupy mass.

When studying the ethanol fraction by HPLC-MC, flavonoids were detected in the mass range 150-1250 Da on an Agilent 1260 Infinity II instrument equipped with a Waters qDAAcquity mass detector under ESI+ conditions (Table 1).

Table 1.

No	Compound name and chemical formulla	Average Rt (min)	Exact mass (*m/z*)
1	Luteolin, $C_{15}H_{10}O_5$	3.971	286.05
2	Acacetin diacetate, $C_{20}H_{16}O_7$	28.527	368.09
3	Hispidulin acetate, $C_{22}H_{18}O_9$	23.419	426.10
4	Genistein 8-C-glucoside, $C_{21}H_{20}O_{10}$	8.213	432.11
5	Osajin, $C_{25}H_{24}O_5$	8.23	404.16

6	Astragalin, $C_{21}H_{20}O_{11}$	5.734	448.10
7	Scoparin, $C_{22}H_{22}O_{11}$	8.064	462.12
8	Apigenin, $C_{25}H_{26}O_{13}$	2.074	534.14
9	Tiliroside, $C_{30}H_{26}O_{13}$	7.348	594.14

Separation conditions: Solvents Water (A): Acetonitrile (B). HPLC column: Poroshell 120 EC18, 4 μl, 4.5x150 mm.

Mass terms: Scan 50-1250 Da, Cone Voltage 15V, Capillar Voltage for Positive 0.8 kV, ESI+. Database: PubChem and NIST 2017.

REFERENCES

1. R. Lysiuk, R. Darmohray. *Internat. Journal of Phar., Phytochem. and Ethnomed.,* V. 3, P. 46 (2016)

2. K. Touhami, M. Hajji. *South Asian Journal of Experimental Biology*. V.12, P. 94 (2022)

3. B.R. Artikbaeva, T.Kh. Naubeev, Kh.M. Bobakulov. *Chem. Nat. Comp.*, V. 59, P. 1017 (2023)

XIMIYALÍQ REAKCIYA TEZLIGI TEMASÍN OQÍTÍWDA KEYS TEXNOLOGIYASÍNAN PAYDALANÍW

Ibraymov S., Usmanova N. 4-kurs talaba

Ajiniyaz atındaǵı NMPI

Ximiyalıq reakciyalardıń tezligi ximiyanıń áhmiyetli bólimlerinen biri bolip, mektep kursında hám teoriyalıq, hám ámeliy tárepten úyreniledi. Usı temaǵa tiyisli ádebiyatlardı analizlew arqalı oqıw procesinde qollanılatuǵın usıllar, metodikalıq jantasıwlar hám zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalardı anıqlaw múmkin.

Oqıw procesin ámelge asırıw ushın bir sabaq islenbesinde pedagogikalıq usıllar, sonnan “Keys” texnologiyası, sabaqtıń túri, qollanılatuǵın sabaq derekleri, baqlaw túrleri hám sabaqtıń maqseti, wazıypaları tolıq jazıladı. Oqıtıwshınıń sabaq islenbesinde sabaq procesi hám texnologiyası kartasında waqıt bólistirilip jazıladı [1, 2].

Úyge tapsırmalardı tekseriw ushın klasstı 3 toparǵa bólip hám toparlar ataladı. Hár bir durıs juwap ushın xoshamet beriledi. Eslew shınıǵıwın ótkeredi. Bunda tez baratuǵın, áste baratuǵın hám júz bermeytuǵın reakciyalardı aytadı.

2. Assosiativ yadtan hár qanday dárejedegi ótmish hám házirgi tájiriybege súyenip paydalanıw. Bilim alıwshılardıń turmıslıq tájiriybesin parazitologiyanıń ilimiy tiykarların ózlestiriwde jańa mazmun menen bayıtıw múmkin hám zárúr: bul

aldınǵı nadurıs túsiniklerdi dúzetiwge, alınǵan bilimlerdi bekkem hám uzaq waqıt eslep qalıwǵa járdem beredi. Bunnan tısqarı: bilim alıwshılardıń sanasında ótmishtegi turmıs tájiriybesiniń (onnan kóbinese qáte, ápiwayı juwmaqlar hám kózqaraslar shıǵarıladı) hám alınatuǵın ilimiy bilimlerdiń bir-birinen bólek avtonom túrde bar bolıwı ilimiy hám turmıslıq kózqaraslardıń dualizmine alıp keliwi múmkin. Bul bolsa tek bolajaq qánigeniń oqıtıwı hám tárbiyasına zıyan keltirip qoymastan, al shaxstıń ózindegi psixologiyalıq mashqalalardıń múmkin bolǵan deregi bolıp esaplanadı.

3. Materialdı barlıq yamasa kóplegen pikirlew operaciyaları menen beriw: analiz - sintez, salıstırıw - uliwmalastırıw, indukciya - dedukciya. Bul pikirlew processleriniń óz-ózinen yamasa shólkemlesken túrde qosılıwı ushın bolsa alınatuǵın maǵlıwmatlardıń muǵdarı zárúr. Biziń baqlawlarımız boyınsha, bilim alıwshılar eń kóp ulıwmalastırılǵan nadurıs juwmaqlardı maǵlıwmatlar sheklengen hám durıs salıstırıwlar yamasa ulıwmalastırıwlar islewge múmkinshilik bermeytuǵın jaǵdaylarda jasaydı. Mısalı, mektep kursında bawır qurtınıń tirishilik ciklin úyrengeninen keyin barlıq trematodalardıń ót jollarında jaylasqanlıǵı, tirishilik ciklinde tek bir xojayn bar ekenligi, adamlar hám haywanlar qaynatılmaǵan suw ishkende juqtıratuǵınlıǵı haqqında juwmaq shıǵaradı. Askaridalar biologiyasın úyreniw tiykarında kóplegen oqıwshılar tárepinen barlıq dóńgelek qurtlarda ápiwayı cikl bar degen juwmaqqa kelinedi. Sonnan kelip shıǵıp, parazitlerdiń iri taksonların qanday da bir wákil mısalında úyreniwge (hátte tiykarǵı hám sholıw dárejelerinde de) jol qoyıp bolmaytuǵınlıǵı anıq: tirishilik ciklíniń hám jaylasıwınıń hár qıylı variantlarına iye nematodalar, trematodalar, cestodalar haqqındaǵı maǵlıwmatlar zárúr. Yaǵnıy, bilim alıwshılarǵa salıstırıw hám ulıwmalastırıw ushın tiykarǵı material beriw hám bul pikirlew operaciyalarına maqsetli túrde iytermelew kerek.

4. Barlıq túrdegi sabaqlarda oqiw materialın shólkemlestiriwde sistemalılıq. Bunıń ushın tómendegi shártler zárúr: 1) taksonomiyalıq sistemalılıq - haywanat dúnyasınıń hár túrli sistematikalıq toparlarına tiyisli parazit organizmler haqqındaǵı maǵlıwmatlardı tómengi formalardan joqarılarına qaray izbe-iz bayan etiw; 2) ekologiyalıq sistemalılıq - parazitlerdiń hár qıylı ekofiziologiyalıq belgileri boyınsha anıq klassifikaciyalanıwı, tirishilik ciklleri tiykarǵı tipleriniń sistemalastırılıwı hám tiyisli beyimlesiwler; 3) terminologiyalıq sistemalılıq - parazitlerdiń qanday da bir taksonına yamasa parazitar nozologiya toparına tiyisli terminlerdi tematikalıq úyreniw; 4) nozoologiyalıq sistemalılıq - invazion kesellikler haqqında maǵluwmatlardı bayan etiwdiń belgili izbe-izligi (qozǵatıwshınıń taksonomiyalıq jaǵdayı hám sıpatları, klinikası, patologo-anatomiyalıq ózgerisleri, epizootologiyası, diagnozı, emlew, profilaktikası).

5. Terminologiyalıq apparat penen arnawlı jumıslardı shólkemlestiriw. Parazitologiyanıń hár qıylı bólimlerindegi terminlerdiń hár qıylılıǵı kóbinese olardıń mánislerin jeterli dárejede anıq kórsetiwge, sonday-aq, kem ónimli mexanikalıq yadlawǵa urınıwǵa alıp keledi.

6. Kontekstli oqitiw - hár bir ózlestirilgen temanıń qánigeniń keleshektegi iskerligi, turmıs shólkemlestiriwi hám real turmıslıq jaǵdaylardaǵı orni hám ornın belgilew menen. Bunıń ushın oqıw procesinde haqıyqıy jaǵdaylardı modellestiriw menen oqıw tapsırmaları hám metodikalarınıń keń sheńberin islep shıǵıw maqsetke muwapıq.

7. Oqıtıwshınıń auditoriyanıń diqqatın, sezimlerin, keypiyatın aktiv basqarıwı. Bul tek ǵana oqıw materialın jaqsı yadlaw hám oqıw sabaqlarınan joqarı dárejede paydalanıw shárti emes, al oqıw pániniń tárbiyalıq potencialın júzege shıǵarıw, bilim alıwshılardıń psixogigienasına ámel etiw shárti bolıp esaplanadı.

8. Oqiwdıń kreativligi - bilim alıwshılardıń óz betinsheligi joqarı dárejede bolgan halda dóretiwshilik tapsırmalardı turaqlı yamasa waqtı-waqtı menen orınlaw menen. Bul tek ǵana bilim alıwshılardıń dóretiwshilik potencialın rawajlandırıw hám ámelge asırıwdıń girewi emes, al boljaq qánigeniń pikirlew hám zárúr jeke pazıyletlerin, bárinen burın, hár qanday jaǵdayda tiykarlı qarar qabıl etiw, óz pikirin dálillew, eger ol aqılǵa muwapıq bolsa, basqalardıń pikirine qosılıw qábiletin qáliplestiriw shárti bolıp esaplanadı.

Solay etip, Parazitologiya pániń oqıtıwda tiykarǵı usıllarınıń kombinaciyasınan paydalanıw kerek (gúrriń, sáwbet, sabaqlıq penen islew, referativ xabarlardı tayarlaw, ámeliy jumis) metodikalıq usıllar menen (mikropreparatlardı kórsetiw, slaydlar, oqıw kinofilmleri, mikropreparatlardı kórip shıǵıwda olardıń súwretlerin lupa menen mikroskop astında kórip úyreniw) tek usı jaǵdaylarda ǵana kerekli nátiyjelerge erisiw múmkin.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

1. Шипкова, Л. Н. Словарь паразитологических терминов / Л. Н. Шипкова.– Краснодар, ОАО «Изд-во «Советская Кубань», 2002. – 70 с.

2. Голубцов, В. И. Практикум, рабочая тетрадь, методические указания для студентов лечебного и педиатрического факультетов по разделу «Паразитология» / В. И. Голубцов, Л. Н. Шипкова. – Краснодар, 2016. – 30 с.

3. Шалаев, В. Ф. Методика обучения зоологии. Пособие для учителей / В. Ф. Шалаев, В. Б. Богораз. – М.: Просвещение, 1972. – 336 с.

JIRTQÍSH SÚT EMIZIWSHILER TEMASÍN OQÍTÍWDA SWOT ANALIZ METODÍNAN PAYDALANÍW

Moyatdinova T.J., - talaba
Ájiniyaz atındaǵı NMPI


Biologiyanı oqıtıw procesinde oqıwshılardıń qızıǵıwshılıǵın arttırıw, erkin pikirlew qábiletlerin rawajlandırıw hám pánleraralıq baylanıstı támiyinlewde zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalardan paydalanıw úlken áhmiyetke iye. Ásirese, jırtqısh sút emiziwshiler temasın oqıtıwda oqıwshılardıń temaǵa qaratılǵan qızıǵıwshılıǵın hám motivaciyasın arttırıw, olardıń ekologiyalıq oy-pikirin rawajlandırıw ushın dástúriy emes metodlardı qollanıw joqarı nátiyjeler beredi. Bunday metodlardan biri SWOT analizi esaplanadı.

SWOT analizi (kúshli tárepler, kúshsiz tárepler, imkaniyatlar, qáwipler hám tosıqlar) tiykarında strategiyalıq rejelestiriw quralı sıpatında biznes tarawında keń qollanıladı [1]. Biraq sońǵı jılları bul metodtan bilimlendiriw tarawında, atap aytqanda, tábiyiy pánlerdi oqıtıwda da paydalanıw ámeliyatı keń tarqalmaqta. Bul metod oqıwshılarǵa quramalı biologiyalıq sistemalardı kompleksli bahalaw, sın kózqarastan pikirlew hám tallaw kónlikpelerin rawajlandırıwǵa járdem beredi.

Jirtqısh sút emiziwshiler temasın oqıtıwda SWOT analiz metodınan paydalanıw usılları, bul metodtıń abzallıqları hám qollanıwda bar mashqalalar, sonday-aq, jırtqısh haywanlar ekologiyasın tereńirek úyreniwde SWOT analizdiń áhmiyeti ashıp beriledi.

SWOT analiz metodınıń mazmunı hám onı biologiya táliminde qollanıw. SWOT analiz metodı úyrenilip atırǵan obyekt yaki procesti tórt tárepleme bahalawǵa tiykarlanǵan bolıp, hár qıylı faktorlardı sistemalı túrde analizlewge imkan beredi. Biologiya sabaqlarında bul metodtı qollanıw oqıwshılardıń tiri organizm, ekologiyalıq sistema yamasa biologiyalıq proceslerdi hár tárepleme hám tereń úyreniwine járdem beredi [2].

Jırtqısh sút emiziwshiler temasın oqıtıwda SWOT analizin qollanıw tómendegi basqıshlarda ámelge asırıladı:



Jırtqısh sút emiziwshiler temasında SWOT analizi: ámeliy mısal. Biologiya sabaǵında jırtqısh sút emiziwshiler temasın oqıtıwda SWOT analizi qanday qollanılıwı múmkinligin qasqır (Canis lupus) mısalında kórip shıǵamız.


Qasqır (Canis lupus) ushın SWOT analizi

S - qasqırdıń (Canis lupus) kúshli tárepleri.	**W - qasqırdıń (Canis lupus) kúshsiz tárepleri.**
- Adaptiv ózgeshelikler: kúshli jaq bulshıq etleri, ótkir tisler, rawajlanǵan seziw aǵzaları. - Toparda awqatlanıw hám jasaw strategiyası. - Túrli ekologiyalıq sharayatlarǵa beyimlesiwsheńlik. - Úlken territoriyalarda háreketleniw qábileti. - Rawajlanǵan sociallıq struktura hám kommunikaciya.	- Kóbeyiw procesiniń ásteligi hám áwladlar sanınıń azlıǵı. - Awqat jetispewshiligine sezgirlik. - Keselliklerge beyimlilik (qutırıw, qurt kesellikleri). - Adamlar menen tartıslı qatnasıqlar. - Jas qasqırlardıń jasap qalıw dárejesiniń tómenligi.
O - Qasqır (Canis lupus) dıń imkaniyatları.	**T - Qasqır (Canis lupus) qa qáwipler, tosıqlar**

- Hár qıylı ekologiyalıq mákanlardı iyelew qábileti. - Hár qıylı azıqlıq dereklerinen paydalanıw imkaniyatı. - Jańa aymaqlarǵa tarqalıw imkaniyatı. - Ekosistemada populyaciyalardı basqarıwdağı áhmiyetli roli.	- Jasaw ornınlarınıń joq etiliwi. - Insan tárepinen awlanıwı. - Basqa jırtqıshlar menen báseki - Azıqlıq dereklerinińaza yıwı. - Klimat ózgeriwi tásiri.

Bul SWOT analizi oqıwshılarǵa qasqırdıń biologiyalıq ózgesheliklerin hár tárepleme túsiniw, onıń ekologiyalıq áhmiyeti hám qorǵaw mashqalaların ańlaw imkaniyatın beredi.

SWOT analiz usılınıń abzallıqları hám qıyınshılıqları



Usınıslar hám juwmaq. Jırtqısh sút emiziwshiler temasın oqıtıwda SWOT analiz usılınan nátiyjeli paydalanıw ushın tómendegi usınıslar beriledi:

1. Anıq kórsetpeler beriw: Oqıwshılarǵa SWOT analiz usılın qollanıw boyınsha anıq kórsetpeler hám úlgiler usınıw.

2. Topar jumısın shólkemlestiriw: SWOT analizin kishi toparlarda ámelge asırıw oqıwshılar arasında birge islesiwdi rawajlandıradı hám analiz nátiyjeleriniń tolıǵıraq bolıwına járdem beredi.

3. **Vizual qurallardan paydalanıw**: SWOT matricasın kórgizbeli tayarlaw, súwretleri hám diagrammalar menen bayıtıw.

4. **Talqılawdı jedellestiriw**: Talqılaw nátiyjelerin usınǵannan soń klass talqılawı ushın qosımsha sorawlar beriw.

5. **Real mashqalalar menen baylanıstırıw**: Jırtqısh sút emiziwshilerdi qorǵaw menen baylanıslı ámeliy mashqalalardı talqılaw hám oqıwshılardı olardıń sheshimi haqqında pikir júrgiziwge iytermelew.

Juwmaqlap aytqanda, jırtqısh sút emiziwshiler temasın oqıtıwda SWOT analiz metodınan paydalanıw oqıwshılardıń biologiyalıq bilimlerin keńeytiwi, olardıń ekologiyalıq pikirlewin rawajlandırıwı hám tábiyattı qorǵawǵa bolǵan juwapkershilik sezimin arttırıwı múmkin. Bul metod dástúriy oqıtıw metodlarınan parıqlı túrde, oqıwshılarǵa jırtqısh sút emiziwshilerdi keń kólemde, olardıń biologiyalıq áhmiyeti, ekologiyalıq roli hám qorǵaw mashqalaları kontekstinde túsiniwge járdem beredi. Sonıń menen birge, oqıwshılardıń analitikalıq kónlikpelerin rawajlandıradı, óz betinshe izleniw hám toparda islew kónlikpelerin jetilistiredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Ravshanov M.N. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 124-b.

2. Ergasheva G.S., Tursunov Q.Sh. (2023). Biologiya fanini o‘qitishning innovatsion metodlari. // "Ta’lim va innovatsiyalar" jurnali, №2(12), 78-83 b.

3. Oripov A.A. (2022). Biologiya darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti, 96-b.

OLIY NERV FAOLIYATI TIPLARI MAVZUSINI O`QITISHDA “ZAKOVOT” USULIDAN FOYDOLANISH

Romanova L.K., katta o`qituvchi, Abilova A.A. talaba

Ajiniyoz nomidagi NDPI

Bu dars usuli talabalarni intellektual rivojlantirishda ancha samarali usul hisoblanadi. Odatda, ma`lum fanning muayyan bobi yoki bo`limi yakunlangach, bunday darslarni o`tkazish ancha samarali hisoblanadi.

Darsni o`tkazish tartibi quyidagicha:

1. Sinfdagi bilimli, zukko talabalardan olti nafari tanlanib, “zakovat” klubi tashkil etiladi.

2. Boshlovchi (a`lochi talaba yoki fan o`qituvchisi) o`n kun oldin sinfdagi har bir talabadan dars mavzulariga mos ikkitadan qiziqarli savol to`ldirib oladi va ularni to`plashni tashqil etadi. Savol mazmunining mahfiyligi ta`minlanishi zarur. Tushgan savollardan 11 tasi saralanib tanlanadi.

3. “Zakovat” darsida boshlovchining yordamchisi konvertlarni raqamlab chiqadi. Ishtirokchilar navbat bilan konvertlarni tortib, 1 daqiqa ichida savollarga guruh (olti kishi) nomidan yakuniy javob beradilar.

Bu o`yinda guruh a`zolari yoki tamoshabinlar g`olib bo`lishi mumkin. Uch kishidan iborat hakamlar hay`ati berilgan savollar hamda javoblarni baholab boradilar. Eng yaxshi savol ya`ni eng zukko “zakovat” klubi ishtirokchisini qimmatbaho sovg`alar bilan taqdirlab boradilar.

Quyida “Yoshga oid fiziologiya ” kursining “Bolalarda oliy asab faoliyati tiplari” seminar mavzusini o`qitishda o`tkaziladigan “Zakovat” usulining loyixasi berilmoqda.

“Bolalarda oliy asab faoliyati tiplari**”** mavzusini «Zakovat» usuli yordamida o`tkazish bo`yicha metodik tavsiyalar.

Dars mavzusi: Bolalarda oliy asab faoliyati tiplari

Darsning ta`limiy maqsadi: Talabalarga Bolalarda oliy asab faoliyati tiplari, ularning turlari, funktsiyalari va ahamiyati haqida etarlicha ma`lumot berib, ularni bilimini oshirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Talabalarga Bolalarda oliy asab faoliyati tiplari to`g`risidagi ma`lumotlarni berib, o`smirlar va yoshlar shakillanishi uchun nechoglik axamiyatga ega ekanligini tushintirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Bolalarda oliy asab faoliyati tiplari haqidagi bilimlarini, darslik va boshqa kerakli ko`nikmalarini rivojlantirish.

Darsni jihozlash: Mavzuga oid jadvallar, filmlar, rasmlar va slaydlar.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: «Zakovat» usuli.

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism: Talabalar davomat qilinib talabalarni dars mavzusi borishi va maqsadi bilan tanishtirish.

II. O`quv topshiriqlarining didaktik maqsadi, bajariladigan o`quv topshiriqlari bilan tanishadi, o`tkazilidigan «zakovat» usuli haqida ma`lumot berib talabalar ichidan olti nafar a`lochi talabani saralab «zakovat» guruhini tashqil etiladi.

III. Boshlovchi guruh talabalari yordamida oldindan to`zilgan savollar majmuasidan 11 tasini tanlab oladi. Savollar quyidagicha bo`lishi mumkin:

1. Gippokratni fikricha tanada qizigan qonni ko`paygan kishi qaysi tipga mansub?

2. Organizmda achchiq safrosi ko`paygan kishi qaysi tipga mansub?

3. Agar odam tanasida sovuk shilimshik modda ko`paygan kishi qaysi tipga mansub?

4. Xolerik tipga to`liq izox bering?

5. Melanxolik tipga to`liq izox bering?

6. Sangvinik tipga to`liq izox bering?

7. Flegmatik tipga to`liq izox bering?

8. Ekstrovert tip?

9. Introvert tip?

10.Sensor tip?

11.Mantiqiy tip?

Boshlovchining yordamchisi konvertlarni raqamlab chiqadi. Ishtirokchilar navbat bilan konvertlarni tortib 3 daqiqa ichida savollarga guruh nomidan yakuniy

javob beradilar. Agar javob qoniqarsiz bo`lsa qolgan tomoshabin talabalar javob berib bal to`plashadi. Bundan tashqari ular zakovat guruhiga savol bilan murojat qilishlari mumkin.

IV. O`qituvchi talabalar orasidan uch nafar talabalarni tayyorlab hakamlar hay`atini tuzadi. Hakamlar hay`ati o`yinni borishini kuzatadi, savollarga to`g`ri berilgan javoblarni hisoblab talabalarni va tomoshabin talabalarni baholab boradi.

V. Dars yakunida o`qituvchi hakamlar hay`atiga so`z berib, g`olibni e`lon qilishadi. G`olib biror sovg`a bilan taqdirlanadi. O`qituvchi dars haqidagi o`zining yakuniy xulosalarini aytib, dars davomida faol qatnashgan talabani baholaydi.

VI. Darsga umumiy yakun yasalib, natijalar tahlil qilinadi, talabalar uyda mustaqil shug`illanishlari uchun uy vazifasi beriladi.

«Bolalarda oliy asab faoliyati tiplari» mavzusini o`qitishda «Zakovat» usulidan foydanilgan darsning o`tish tartibi.

Texnologik bosqichlar	Vaqtd aqiqa	O`qituvchining faoliyati	Talabaning faoliyati
1.Tashqiliy qism	5	Talabalar davomat qilinib, talabalarni dars mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish	Dars mavzusi, maqsadi, borishi va unda bajariladigan topshiriqlarni aniqlaydi
2.Talabalarni bilish faoliyatini tashkil etish	5	O`quv topshiriqlarning mazmuni bilan tanishtirish	O`quv topshiriqlarini didaktik maqsadi, bajarilgan o`quv topshiriqlari yuzasi-dan ko`rsatmalarni aniqlash, yangi “Zakovat” usuli bilan tanishish
3. Yangi mavzuni o`rganish	25	Guruh talabalari tuzgan savollari ichidan 11tasini saralab oladi.	Talabalar saralab olingan savollarga javob topadilar
4.Hakamlar hay`atini tashkil etish	25	Talabalar orasidan uch nafar a`lochi talabani tanlab hakamlar hay`atini tashkil etadi	Hakamlar hay`ati o`yinni borishini kuzatadi savollarga to`g`ri javob bergan talabalarni baholab boradi

5.Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash	10	Dars yakunida g`olibni aniqlab taqdirlaydi darsda faol qatnashgan talabalarni baholaydi.	Dars davomida faol qatnashib baho olishga harakat qilishadi.
6.Erishilgan natijani tahlil qilish va yakun yasash.	10	Dars haqidagi o`z xulosalarini, fikr-larini bildirib, talabalar mustaqil shug`illanishlari uchun uyga vazifa beradi.	O`qituvchi xulosalarini tinglab, natijalarni tahlil qilishadi va uy vazifalarini aniqlab olishadi.

Foydalangan adabietlar

1. Sodiqov B.A., Kuchkarova L.S. va boshqalar. Bolalar va o`smirlar fiziologiyasi va gigienasi. Toshkent. – O`zbekiston davlat entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2005.

2. Ergashev M.S., Klemesheva L.S. YOshga oid fiziologiya – Toshkent, 1991.

3. Markosyan A.A. Voprosы vozrastnoy fiziologii. M.: Prosveщenie. -1974

4. Tolipova J. “Biologiyani o`qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish”. Toshkent-2011.

5. O`.O`.Tolipov, M.O`smonboeva “Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyot” O`z.RFA nashriyoti

“ORGANIK OLAMDAGI MOSLANISHLAR – EVOLYUTSIYA NATIJASI” MAVZUSINI O‘QITISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

Avalbayev O.N., Xolboyev E.O‘., Soliyeva N.N.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jizzax akademik litseyi

Pedagogik testlar insoniyat tafakkuri erishgan muvaffaqiyatlardan biri bo‘lib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Umuman olganda test usuli birmuncha texnologik usul hisoblanadi. U bilimlarni o‘zlashtirish sifatini nazorat qilishda professor-o‘qituvchilar mehnat unumdorligini oshiradi va o‘quv dasturini chuqur va har tomonlama o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Pedagogik testlarning bu afzalliklari AQShda munosib baholangan. Abituriyent (talabgor) larni universitet va kollejlarga

test sinovi bilan qabul qilinadi. Pedagogik testlarni keng qo‘llash bo‘yicha AQSh tajribasi Kanada, Yaponiya, Turkiya va boshqa ko‘pgina mamlakatlarda olib borilgan.

Mutaxassislik fanlardan test topshiriqlari tuzishda yopiq (bir yoki bir necha to‘g‘ri javobli), ochiq, muvofiqlikni va to‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlashga oid test topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bir o‘quv maqsadiga erishganlikni turli test topshiriqlari yordamida aniqlash (invariant) testlar tuzish ham maqsadga muvofiqdir [Tolipova, 2002].

Dars mavzusi:	Organik olamdagi moslanishlar – evolyusiya natijasi
Darsning ta’limiy maqsadi:	O‘quvchilarga organik olamdagi moslanishlar – evolyusiya natijasi haqida ma’lumot berish.
Darsning tarbiyaviy ahamiyati:	O‘quvchilarga organik olamdagi moslanishlar – evolyusiya natijasi haqida tushuncha berish, biologiya faniga mehr uyg‘otish, ularda tushuncha va ko‘nikma hosil qilib, tirik organizmlar haqidagi dunyoqarashini ilmiy materialistik shakllantish va ekologik muammolarni bartaraf etish yo‘llarini, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo‘yicha ma’lumotlar berishdan iborat.
Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:	O‘quvchilarga organik olamdagi moslanishlar – evolyusiya natijasi haqida tushuncha hosil qilishdan iborat.
Darsning jihozi:	Organik olamdagi moslanishlar – evolyusiya natijasi tasvirlangan plakatlar, darslik, qo‘shimcha adabiyotlar, test kartochkalari, tarqatma materiallar hamda mavzuni aks ettiruvchi taqdimotlar.

Darsning borishi:	**Tashkiliy qism:** a) o‘quvchilar bilan salomlashish. b) o‘quvchilarning davomatini aniqlash. v) o‘quv xonasining gigiyenik holatiga e’tibor berish. **2. Asosiy qism:**
1. O‘tilgan mavzuni so‘rash:	O‘qituvchi o‘tilgan mavzu bo‘yicha doskaga test usulida javoblarni yozadi.

Buning uchun o‘qituvchi o‘tilgan mavzu bo‘yicha organik olamdagi moslanishlarni doskaga test usulida javoblarni yozadi.

A)	**Morfologik moslanishlar**
V)	**Fiziologik moslanishlar**
S)	**Biokimyoviy moslanishlar**
D)	**Etologik moslanishlar**
Ye)	**O‘simliklar olamidagi moslanishlar**

Shundan so‘ng o‘quvchilarga test blankalari tarqatiladi

S	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**
J										
T										

So‘ngra o‘qituvchi o‘zi tuzgan savollarini sekin og‘zaki o‘qiydi, o‘quvchilar esa javoblar qatorini test blankasiga to‘ldiradi.

SAVOLLAR:

1. Qaysi moslanish orqali hayvonlar dushmanlaridan himoyalanadi, oziqa topadi va zahiralaydi, yil mavsumlariga moslashadi, juft tanlaydi va ko‘payadi, naslini himoya qiladi?

2. Qaysi moslanish tana harorati, qonda tuz va qand konsentratsiyasining turg‘un holda saqlanishiga qaratilgan?

3. Qaysi moslanish fermentlar yordamida hujayra, organlar, organizmdagi bioximiyaviy reaksiyalarning tartibga solinishiga asoslanadi?

4. Qaysi moslanishda bir xil o‘simliklarning bargi ustki tomondan mum qavat (fikus), ikkinchi xillarda qalin tuklar (sigirquyruq) bilan qoplangan, saksovulda barglar kichik “tangacha”larga aylangan, yantoqning barglari mayda va qattiq, ko‘pgina shoxchalari tikan shaklida bo‘ladi?

5. Qaysi moslanishlarga himoya rangi, maskirovka, ogohlantiruvchi rang, mimikriya, chalg‘ituvchi ranglar misol bo‘ladi?

6. Qaysi moslanishlarda uzoq vaqt suv ostida bo‘ladigan tulenlar qonida kislorodni bog‘lab olishda gemoglobindan tashqari mioglobin nisbatan ko‘proq ishtirok etadi?

7. Qaysi moslanishga oqsillar, uglevodlar, yog‘larning va boshqa organik kislotalarning sintezlanishi, parchalanishi orqali moddalar almashinuvining boshqarilishi misol bo‘ladi?

8. Qaysi moslanishlarda hayvonlarning tashqi rangi o‘zi yashayotgan muhit rangiga mos bo‘lgani uchun ko‘zga kam tashlanadi, bu esa ularning himoya rangi deb ataladi?

9. Qaysi moslanishlarda o‘simliklar qishki tinim davridan normal o‘tishi uchun ular hujayrasida suv miqdori kamayib, erigan moddalar konsentratsiyasi ortadi?

10. Qaysi moslanishlarda povituxa deb ataluvchi qurbaqa otalangan tuxumlarini to yosh qurbaqalar rivojlanguncha orqa tomonda “opichlab” yuradi?

Savollar tugagach, o‘qituvchi test topshirig‘ining to‘g‘ri javobini o‘qiydi, o‘quvchilar esa diqqat bilan test blankasining uchinchi qatorini to‘ldiradi.

“To‘g‘ri” javobga “1”, “noto‘g‘ri” javobga “0” belgisi qo‘yiladi.

Savol	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**
Javob	D	V	S	Ye	A	V	S	A	B	D
Tekshirildi	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1

Bu usulning afzalligi shundaki:

1. O‘quvchilar o‘z-o‘zini baholashni o‘rganadi.
2. O‘quv xonasidagi barcha o‘quvchilar qisqa muddatda baholanadi.
3. O‘quvchilar belgilangan javoblarni esda saqlashga harakat qiladilar.

Yangi mavzuning DTS talabi:

1. Morfologik moslanishlar.
2. Fiziologik moslanishlar.
3. Biokimyoviy moslanishlar.
4. Etologik moslanishlar.
5. O‘simliklar olamidagi moslanishlar.

Yangi mavzuning bayoni:

Moslanish bu – organizmlarning ichki va tashqi tuzilishi, organlar funksiyasi, xulq-atvori va hayot tarzining muayyan yashash muhiti sharoitiga mos kelishidir. Barcha tirik organizmlarda mavjud bo‘lgan o‘ziga xos moslanish belgilari ularning o‘zi yashab turgan muhitda yashab qolishi, yashash uchun kurashda g‘olib chiqishi, normal nasl qoldirib o‘z belgilarini kelgusi avlodlariga uzatishlari uchun imkon tug‘diradi. Moslanish organizmlarning yashovchanligi, raqobatchanligi va normal nasl qoldirishi bilan uzviy aloqador. Moslanishning bu uch komponenti o‘zaro bog‘liq bo‘lib, tabiiy tanlanish orqali tarkib topgan evolutsion natija hisoblanadi. Tashqi muhit sharoitlari turli-tuman bo‘lganligi sababli, organizmlardagi moslanish belgilari ham xilma-xil bo‘ladi [Saparov va boshq., 2022].

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Morfologik moslanishlarni tushuntirib bering?
2. Fiziologik moslanishlar nimaga qaratilgan?
3. Biokimyoviy moslanishlar nimaga asoslangan?

Yakuniy qism:

Uyga vazifa:

1. “Organik olamdagi moslanishlar – evolyusiya natijasi” mavzusini o‘qish.

2. Qisqacha konspekt yozish.

3. Mavzuga oid 5 ta test tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipova J.O. Biologiya ta’limi texnologiyalari. - T.: “O‘qituvchi”, 2002. 128-b.
2. Biologiya. 10-sinf uchun darslik // K.A. Saparov va boshq. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. -200 b.

OLIY NERV FAOLIYATI FIZIOLOGIYASI MAVZUSINI O`QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Tajibaeva M.K – dotsent. Baxtiyarova A.R –talaba.

Ájiniyaz atındağı NMPI

Talabalarga yo`naltirilgan ta`lim jarayoni o`z navbatida o`qitishning interfaol metodlari va innovatsion texnologiyalarni talab etadi. Interfaol metodlar deyilganda muammoli izlanish, mantiqiy, mustaqil ishlash, o`qitishda talabalarning faoliyatini rag`batlantirish va asoslash hamda nazorat va o`z-o`zini nazorat metodlari tushuniladi.

Interfaollik deganda, talabaning talaba, shuningdek mashg`ulotdan ko`zda tutilgan didaktik maqsadlarga erishish uchun o`qituvchi bilan hamkorlikda yoki komp`yuter bilan muloqoti o`zaro ta`sir ko`rsatish rejimida ishlashi tushuniladi.

Interfaol o`qitish - bu avvalo dialog tarzda o`qitish, muloqot jarayonida barcha ishtirokchilar tomonidan hamkorlikda muammolarni hal etilishidir.

Interfaol o`qitishning asosiy mohiyati - ta`lim jarayonida barcha talabalar o`quv-bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni, voqea va hodisalarning rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo`llarini izlab, eng maqul variantni tavsiya etadi.

O`quv materialini o`rganish, muammoni hal etish bo`yicha turli variantdagi echimni tavsiya etishga asoslangan bilish jarayonida talabalarning hamkorligi har bir talabaga, guruh muvaffaqiyati uchun o`z ulushini qo`shishga, ular o`rtasida fikr, axborot va tajriba almashinuviga zamin tayyorlaydi. Ushbu hamkorlik samimiy, qulay ijtimoiy psixologik, o`zaro yordam muhitida sodir bo`lganligi uchun, talabalar nafaqat yangi bilimlarni o`zlashtiradilar, balki o`zining bilish faoliyatlarini rivojlantiradi, uni yuqori darajaga ko`tarib, hamkorlikka kirishishga imkon beradi.

Anatomiya va fiziologiya darslarida interfaol usullarni qo`llash jarayonida talabalarning o`zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqozo etadi, bunda talabalar hamkorlikda izlanib umumiy, shu bilan bir qatorda har bir talaba uchun ahamiyatga molik bo`lgan muammoni hal etishga kirishib ular o`rtasida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishlash va hamjihatlik vujudga keladi. (2)

Interfaol usullardan foydalanilgan mashg`ulotlarda bitta talabaning ustunlik qilishi, uning o`z fikrini o`tkazishiga yo`l qo`yilmaydi. Gurux talabalari hamkorlikda, masalan, Oliy nerv faoliyati fiziologiyasi modulini o`qitishda guruh 4ta kichik guruhlarga ajratiladi.1. Oliy nerv faoliyati tiplari,2. Refleslarning paydo bo`lishi, 3. SHartsiz reflekslar, 4. SHartli reflekslar, mavzulari buyicha bo`linadi. Bu mavzular buyicha bir-biri bilan rag`obatlashish natijasida izlanadi, taxlil qiladi, analiz,sintez jaraenlari o`tadi. (6)

Interfaol usullar qo`llanilganida talabalar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o`rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko`nikmalarini egallaydi.

O`qitishning interfaol metodlarining quyidagi xususiyatlari mavjud:

- Insonning muhim hayotiy ehtiyoji bo`lgan muloqot - dars jarayonining barcha bosqichlarida qo`llaniladi.
- Ta`lim-tarbiya jarayonida talabalarga o`z kuchi, bilimi, iqtidorini namoyon etishga keng imkoniyatlar beriladi.
- Talabalarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashida muloqotda bosqichma-bosqich va samarali ishtirok etishga zamin tayyorlanadi.
- Talabalar muloqotda faol ishtirok etishlari uchun faqat eshitishlari etarli emas, balki eshitganlarini tahlil qilish, fikr yuritish, fikrlarning asosli va tushunarli bo`lishiga erishish lozimligini anglaydilar.

Foydalanilgan adabietlar.

1. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta`lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro`zieva, M.Usmonboeva. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
2. Ro`zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo`llanilishi / Met.qo`ll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
3. Tolipova J.O, G`ofurov A.T Biologiya ta`limi texnologiyalari. Metodik qo`llanma «O`qituvchi», T.: 2002. 128 bet

4. Tolipova J.O., G`ofurov A.T. Biologiya ta`limi texnologiyalari.T., «O`qituvchi» 2004.y
5. Tolipova J.O, Biologiyani o`qitishda innovatsion texnologiyalar / Darslik.- Toshkent; Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasi. 2013. 147 bet
6. Baxadirov F.N “Odam anatomiyasi” Toshkent “Uzbekistan” 2006 y.
7. Almatov X. T «Ulg`ayish fiziologiyasi» M Ulug`bek UzMU T. 2004y.

METAPREDMETLIK VA METAMETODIK YONDASHUVLAR TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITALARI SIFATIDA

Xidirov M. T. b.f.f.d (PhD), Yusupboyeva Sh.S. - talaba

Nizomiy nomidagi TDPU.

Annotatsiya. Ushbu maqolada metapredmetlik va metametodik yondashuvning o‘quv jarayonidagi roli ko‘rib chiqilgan. Metapredmet yondashuvning asosiy tushunchalari, tamoyillari va dars jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, metapredmetlik yondashuv ta’lim jarayonida integratsiyalashgan fikrlashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Metapredmetlik, metametodik yondashuv, integratsiya, ta’lim, universal o‘quv harakatlari, ijodiy fikrlash.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqot ishlarida metametodikada universal o‘quv harakatlarini tasniflashga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, o‘quvchilarda bu harakatlarni shakllantirish va bo‘lajak o‘qituvchilarni ushbu jarayonga maqsadli tayyorlash masalalari ustida ham tadqiqotlar olib borilmoqda [Grebennikova; 2022: 3].

Ta’limdagi fanlararolik g‘oyalarining rivojlanish tarixi, ta’lim mazmunini qurishning nazariy asoslari va o‘quv fanini modellashtirish asosida o‘quv fanining fanlararo mazmuniga yangicha talqin berildi. O‘quv fanining tarkibiga kiritilgan turli bilim sohalaridagi har bir bilim elementining tuzilishida fanlararo va fanlarga xos komponentlar ajratildi. Har bir turdagi fanlararo bilimlar muayyan universal o‘quv harakatlari bilan bog‘landi [М.Д. Даммер;].

Muayyan metapredmetli universal o‘quv harakatiga mos keladigan va elementlardan iborat topshiriqlar tuzilgan. Elementlar metapredmetli universal o‘quv

harakatining shakllanganligini ballar bilan baholash imkonini bergan. Metapredmetli universal o‘quv harakatlarining shakllanganlik darajasini tashxislash jarayonida o‘rtacha ko‘rsatkich 69% ni tashkil etgan [Белоусова; 2019: 14].

Metapredmetlar an’anaviy fanlar tsiklidan farq qiladigan fanlar bo‘lib, ular o‘zida fanlik va bir vaqtning o‘zida fanustilik g‘oyasini birlashtiradi. A.G. Asmolov esa metapredmet natijalarini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan universal o‘quv harakatlari (bilish, tartibga solish, muloqot qilish) bilan bog‘laydi. Bu esa asosiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydi [Grebennikova; 2022: 3].

Metapredmet yondashuv va uning xususiyatlari.

Metapredmet va fanlararo yondashuvlar o‘rtasidagi aniq chegarani belgilash amaliyotda qiyinchilik tug‘diradi. “Meta” so‘zi “usti”, “umumiy”, “birlashtiruvchi” ma’nolarini anglatadi, “mej” esa “unga va bunga yaqin”, “biror narsa bilan aralashgan” degan ma’nolarga ega.

Metapredmet tushunchasi quyidagi jihatlarni o‘z ichiga olishi mumkin: bog‘liqliklar, o‘qitish vositalari, o‘qitish shakllari, o‘qitish natijalari, ko‘nikmalar, dars va mashg‘ulot turlari, topshiriqlar va masalalar.

Metapredmet yondashuv esa metapredmet natijalariga erishish vositasi sifatida qaraladi. Bu yondashuvda o‘qitish jarayonida individual, juftlik va guruhli ish shakllari tashkil etiladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi avtoritar muloqot usuli asta-sekin bartaraf etiladi.

Metapredmetlik tamoyili.

Metapredmetlik tamoyili umumiy usullar, texnikalar, sxemalar va fikrlash namunalari bo‘yicha o‘qitishni nazarda tutadi. U har qanday fan materiallari bilan ishlashda qo‘llanilishi mumkin. Materialni (tushunchalar, harakat usullari, algoritmlar, sxemalar) o‘zlashtirish amaliy yoki tadqiqot topshiriqlarini, muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida amalga oshiriladi. Vaziyat qanchalik murakkab bo‘lsa, mashg‘ulotning shaxsiy rivojlantiruvchi potensiali shunchalik yuqori bo‘ladi.

Metapredmet darsi va uning ahamiyati.

Metapredmet darsi turli ta’lim yo‘nalishlarini yagona bilim tizimiga integratsiya qilish jarayoni amalga oshiriladigan darsdir. Bu yerda integratsiya

shunchaki qo‘shilish emas, balki ikki yoki undan ortiq fanlarning o‘zaro singishidir. Integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarga dunyo, o‘zaro yordam, moddiy va badiiy madaniyatning xilma-xilligi haqida keng tasavvur beradi.

Bunday darslar nafaqat hodisalar va predmetlar o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishga, balki tasviriy fikrlashni rivojlantirishga ham qaratiladi. Integratsiyalashgan darslar o‘quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirish imkonini beradi. Bunday yondashuv barcha o‘quv fanlarining mazmunidan foydalanish, turli fanlar, madaniyat va san’at sohalaridan ma’lumotlarni jalb qilish, shuningdek, atrof-muhitdagi hodisalar va voqealarga murojaat qilishni nazarda tutadi.

Metapredmet darsi fikrlash faoliyatining tashkil etilganligi atrofida quriladi, masalan: bilim, muammo, masala, ma’no, kategoriya va boshqalar. Ularning barchasi faoliyatga asoslangan bo‘lib, shu sababli universal (metapredmet) xususiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa. Metapredmet yondashuv o‘quv jarayonida integrativ va kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy qismi sifatida maydonga chiqmoqda. U o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va analitik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ta’lim jarayonida metapredmetlik yondashuvning qo‘llanilishi ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. N.L. Grebennikova. Universal o‘quv harakatlari va metametodik yondashuv. Pedagogika jurnali, 2022. 1-3-betlar.

2. Н. А. Белоусова, В. П. Мальцев, Н. Н. Титаренко. Педагогическая технология развития метапредметных универсальных учебных действий младших школьников во внеурочной деятельности // Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета, 2019, № 2 42-55 с.

3. М.Д. Даммер. Метапредметное содержание учебного предмета // Вестник ЮУрГУ. 2014; 1, 46-52.

HOW PHYSICS IS TAUGHT TO MODERN 9TH GRADE STUDENTS: CHALLENGES AND SOLUTIONS IN TEACHING METHODS

Xamidova Aziza Xayrullaevna

Termez State University, 2-course doctoral student

aziza@1620mail.ru

Abstract. This study investigates the challenges and solutions associated with teaching physics to modern 9th grade students. The complexity of physics concepts and the evolving educational landscape demand innovative teaching methods that engage students effectively. This research highlights common difficulties teachers face, including students' limited prior knowledge and a lack of motivation towards the subject. The study also proposes various solutions, such as the integration of interactive learning tools, hands-on experiments, and technology-enhanced teaching methods. By addressing these challenges, educators can foster a deeper understanding of physics and inspire students to pursue further studies in the field.

Key words: Physics education, teaching methods, 9th grade students, interactive learning, hands-on experiments, educational challenges, technology in education.

Introduction. Teaching physics to ninth-grade students has become increasingly challenging in today’s fast-evolving educational landscape. Modern students are growing up in a digital age, where traditional teaching methods may no longer capture their attention or foster deep understanding. As science and technology advance, the expectations for science education, particularly physics, continue to rise. Despite its importance, physics is often perceived by students as one of the most difficult and abstract subjects. Many educators face difficulties in making physics relatable, engaging, and understandable for 14–15-year-old learners. A significant gap still exists between curriculum design and the real needs and learning styles of modern students. Challenges include a lack of resources, insufficient hands-on learning, and the need for more interactive and student-centered teaching strategies. Teachers must now balance conceptual accuracy with creativity and adaptability in their instructional approach. This article aims to explore the key

methodological challenges teachers face when teaching physics to ninth-grade students. Furthermore, it will present practical solutions and innovative approaches that can enhance students' interest and performance in physics.

Teaching physics to modern ninth-grade students presents unique challenges that demand adaptive teaching strategies. According to O'Brien and Thompson, younger students are more sensitive to the teaching method used, which directly affects their conceptual understanding[6,162p]. Redish argues that the disconnect between how students and teachers use mathematics in physics is a significant barrier to learning[7,76p]. Krijtenburg-Lewerissa point out that students often struggle to relate abstract physics concepts, such as quantum mechanics, to real-world applications[2,67p]. They emphasize the need for context-based teaching to improve engagement and comprehension. Siddiqui and Singh note that teachers face difficulties in aligning curriculum goals with students' readiness, especially in advanced topics[8,186p]. These challenges are amplified by the lack of interactive and practical tools in many schools. Redish further stresses the importance of integrating conceptual reasoning with problem-solving exercises[7,76p]. The studies collectively highlight the necessity of student-centered and inquiry-based learning models. Teachers are encouraged to employ visualizations, simulations, and collaborative projects. In conclusion, enhancing physics education for ninth graders requires both methodological innovation and a deeper understanding of how modern students learn.

In Uzbekistan, researchers have emphasized the need for innovative approaches to teaching physics in general secondary schools. Ergasheva highlights the importance of integrating STEAM technologies into physics education to boost students' creativity and engagement[3,87p]. Many students struggle with abstract concepts because lessons often lack visual aids and practical applications. To address this, Mardonova suggests adapting teaching content to the students' cognitive development levels through clear explanations and context-based instruction[5,7p]. Komilov, Khojayorov, and Isroilova point out that methodological awareness among teachers directly affects students' understanding and academic performance[4,192p].

The use of interactive methods such as group discussions and experiments, which significantly enhance students' interest in topics like electromagnetism. Abduvoitova recommends more frequent use of research-based tasks to develop analytical skills in physics learners[1,39p]. Moreover, continuous professional training for physics teachers is essential for adapting to modern educational requirements. The use of low-cost experimental kits is proposed as a practical solution for schools with limited resources[3,87p]. Overall, Uzbek scholars agree that a shift toward interactive, visual, and student-centered methods is key to improving physics education in secondary schools.

Results, Suggestions, and Recommendations: The analysis of recent studies reveals that traditional physics teaching methods are often ineffective for modern ninth-grade students. Many learners struggle with abstract concepts due to a lack of real-world connections and interactive experiences. It was found that students engage more effectively when lessons include visual tools, simulations, and collaborative learning strategies. The use of context-based teaching significantly improves conceptual understanding and motivation. Mathematical reasoning in physics must be carefully scaffolder, as many students find it difficult to integrate math into scientific thinking[7,79p]. Teachers should receive training in student-centered methodologies that promote inquiry and exploration. Schools are encouraged to invest in low-cost experimental kits and digital tools to enhance practical learning. Curriculum developers should consider age-appropriate content that gradually builds from concrete to abstract concepts. More emphasis should be placed on formative assessment to identify learning gaps early. In summary, improving physics education at the ninth-grade level requires a shift toward interactive, relatable, and cognitively appropriate teaching approaches.

Conclusion. Teaching physics effectively in ninth-grade classrooms requires modern, student-centered approaches. Many students in local schools face challenges in understanding abstract physics concepts due to limited access to laboratory equipment and digital resources. Traditional lecture-based teaching methods, while still common, often fail to fully engage students in active learning. To improve

outcomes, teachers should incorporate low-cost hands-on experiments, locally relevant examples, and visual aids to make lessons more relatable. As technology becomes more accessible across the country, schools should embrace digital tools such as simulations and multimedia resources to enrich the learning experience. Professional development programs are essential to train teachers in modern instructional strategies and interactive methods. Contextualizing physics topics within real-life situations in Uzbekistan, such as energy use, transport, or climate, can make learning more meaningful for students. Mathematics in physics should be introduced gradually, with clear explanations and visual representations to support comprehension. Collaboration between students through group tasks and project-based learning can promote critical thinking and problem-solving skills. Formative assessments should be used regularly to monitor progress and adapt instruction. Curriculum developers should consider the realities of rural and urban school environments and ensure equal access to quality materials. Encouraging curiosity and experimentation will help develop a new generation of scientifically literate youth. Investment in affordable lab equipment and teacher support is crucial. Most importantly, fostering a love for science from an early age can significantly impact students' future academic and career choices. Ultimately, physics education must evolve to meet the needs of modern learners while respecting local conditions and resources.

References:

1. Abduvoitova, M. A. Fizika fanini o‘qitishda ilmiy tadqiqot metodlari. Pedagogs, 52(2), — 2024.,pp.39–41.
2. Krijtenburg-Lewerissa, K., Pol, H. J., Brinkman, A., & van Joolingen, W. R. Insights from a literature review on the teaching and learning of quantum mechanics. Physical Review Physics Education Research, 13(1), — 2017, 67p
3. Ergasheva, M. S. Fizika fanini o‘qitishda ilmiy tadqiqot metodlari va STEAM texnologiyasi. Evraziya jurnal akademik tadqiqotlari, 2(1), — 2022, pp.87–90.
4. Komilov, M. M., Khojayorov, J. M., & Isroilova, D. N. Umumtalim maktab fizika kursini o‘qitishda metodologik masalalarning roli. Evraziya jurnal texnologiyalari va innovatsiyalari, 1(6) — 2023, pp.192–196.
5. Mardonova, Z. A. Fizika o‘qitish metodikasi kursining asosiy maqsadi va vazifalari. Pedagogs jurnali, 28(2) — 2023, pp.7–9.

6. O’Brien, G. E., & Thompson, J. R. Student understanding of forces in perpendicular directions in one and two dimensions. — 2009,162 p.
7. Redish, E. F. Problem solving and the use of math in physics courses. — 2006, 76 p
8. Siddiqui, S., & Singh, C. Surveying students' understanding of quantum mechanics in one spatial dimension. 2016, 156p

TABIYIY FANLARNI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI QO’LLASH USULLARI

Utepov Ixtiyar Ibraymovich
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedagogik mahorat markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o‘qituvchisi

Fanni o‘qitishga doir ta`lim platformalari – bu talabalarga va o‘qituvchilarga ilmiy bilimlarni onlayn tarzda o‘zlashtirish va taqdim etish imkoniyatlarini yaratadigan raqamli vositalar va resurslardir. Ushbu platformalar o‘qitish va o‘rganishni yanada qulay va samarali qilish uchun turli interaktiv xususiyatlarga ega, jumladan video darslar, forumlar, testlar, va muhokama maydonlari.

Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalari ta`lim jarayonini interaktiv va samarali qilishda muhim ahamiyatga ega.

1. **LearningApps** – o‘quvchilar bilan interaktiv mashqlar va o‘yinlar yaratish uchun qulay platforma. O‘quv materialini takrorlash, ko‘rish va mustahkamlash uchun foydalaniladi.

2. **Wordwall** – o‘qituvchilar uchun moslashtirilgan testlar va taqdimotlar yaratish imkonini beradi. O‘yinli mashqlar va interaktiv testlar yordamida darslarni jonlantiradi.

3. **Kahoot!** – savol-javob o‘yinlari orqali interaktiv darslar o‘tkazish imkonini beruvchi platforma. O‘quvchilarni qiziqtirish uchun jonli kvest va musobaqalar tashkil etish mumkin.

4. **Nearpod** – darslar uchun interaktiv taqdimotlar yaratishga yordam beradi. O‘qituvchi turli faoliyatlarni boshqarib borishi va o'quvchilarning javoblarini real vaqtda kuzatishi mumkin.

5. **Ispring Suite** – PowerPoint taqdimotlarini interaktiv e-learning kontentiga aylantirish imkoniyatini beradi. U testlar, videodarslar va interaktiv elementlar yaratish uchun qulay.

6. **Canva** – taqdimotlar, infografikalar, plakatlar va boshqa vizual materiallarni yaratishda foydalaniladigan grafik dizayn platformasi. Pedagoglar va talabalar dizayn koʻnikmalarisiz ham osongina chiroyli materiallar yaratishlari mumkin.

7. **Padlet** – oʻqituvchilar va oʻquvchilar oʻrtasidagi hamkorlikni ragʻbatlantiruvchi virtual taxta. U yerda gʻoyalarni yozish, media fayllar yuklash va fikr-mulohazalar almashish mumkin.

8. **FigJam** – onlayn oʻquv jarayonida loyihalar va fikrlarni vizual tarzda taqdim etish va hamkorlikda ishlash uchun ishlatiladi. U diagrammalar, rejalashtirish va gʻoyalar almashish uchun qulay.

9. **Socrative** – savollar, testlar va viktorinalar orqali oʻquvchilarning bilimlarini baholash uchun onlayn vosita. Javoblarni real vaqtda koʻrish va tahlil qilish imkonini beradi.

10. **Quizlet** – ta`lim jarayonida oʻquv materiallarini kartochkalar orqali oʻrganish va takrorlash uchun foydali platforma. Oʻquvchilar mashq qilish va bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

Bunday platformalar, odatda, oʻquvchilarga oʻz oʻqish jarayonlarini oʻz vaqtida va oʻz sharoitida boshqarish imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa masofaviy ta`limni qoʻllashda samarali yechimlarni taqdim etadi. Eng mashhur platformalar orasida **Coursera**, **edX**, **Udemy**, va **Khan Academy** kabi saytlar mavjud boʻlib, ular yuqori sifatli darslar va materiallar bilan ta`minlashadi. Fanni oʻqitishga doir ta`lim platformalari, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasidan soʻng jadal rivojlanib, oʻqituvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Bu platformalar faqat ilmiy bilimlarni oʻrganish uchun emas, balki talabalar va oʻqituvchilarga oʻzaro hamkorlik qilish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va ta`lim sifatini oshirish imkonini ham beradi. Shuningdek, ular texnologiyalarning

imkoniyatlarini kengaytirib, an'anaviy ta`lim metodlaridan samarali foydalanishni ta`minlaydi.

Biroq, bu tizimlarning ba`zi kamchiliklari ham mavjud. Masalan, texnologik muammolar, diqqatni jamlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqaning cheklanishi ba`zan ta`lim sifatiga ta`sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, fanni o‘qitishga doir ta'lim platformalari zamonaviy ta`lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, ularning samarali foydalanilishi o‘qish jarayonining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Fanni o‘qitishga doir ta`lim platformalari o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun keng ko‘lamli resurslar va vositalarni taqdim etadi. Quyida ayrim mashhur ta`lim platformalari haqida ma`lumot berilgan:

1. Khan Academy

Tavsifi: Moslashtirilgan Ta`lim: Har bir o‘quvchining bilim darajasiga mos keladigan individual o‘quv rejalarini taqdim etadi.

Topıraq - bul jer qabıǵınıń joqarı qatlamın payda etiwshi, ósimlikler hám basqa organizmlerdiń ósiwi ushın zárúr bolǵan tábiyiy ortalıq. Ol taw jınıslarınıń jemiriliwi, mikroorganizmler hám basqa da organizmler iskerligi nátiyjesinde payda boladı. Topıraqtıń payda bolıw processi bir neshe mıń jıllardı óz ishine aladı hám onda suw, hawa, temperatura, ósimlik hám haywan organizmleri, ásirese mikroorganizmler óz ara tásirlesedi.

Topıraq túrleri - olardıń payda bolıw sháriyatı, quramı hám fizikalıq-ximiyalıq qásiyetlerine qarap klassifikaciyalanadı. Tómende eń kóp tarqalǵan topıraq túrleri menen tanısamız:

1. Qara topıraqlar. Quramı: organikalıq zatlarǵa bay (gumus). Ónimdarlıǵı: júdá joqarı. Paydalanıwı: Diyqanshılıqta tiykarǵı topıraq túri.


2. Qumlı topıraqlar.Quramı: úlken qum bólekshеleri kóp, gumusı az. Qásiyetleri: suwdı jaqsı ótkeredi, tez qurǵaydı. Ónimdarlıǵı: tómen, biraq jaqsı kútim menen jaqsılanadı.

3. Ílay topıraqlar. Quramı: mayda bólekshelerge bay. Qásiyetleri: suwdı uzaq saqlaydı, hawa almasıwı tómen. Ónimdarlıǵı: ortasha, biraq organikalıq tóginler menen jaqsılanadı.

4. Shor topıraqlar. Qásiyetleri: duz zatlarınıń kópligi sebepli ósimlikler jaman ósedi. Tarqalǵan orınları: suwǵarılatuǵın jerlerde, ásirese Ózbekstannıń ayırım aaymaqlarında.

Tómende oqıwshılarǵa orınlaw ushın tapsırmalardı keltirip ótemiz.

Topıraq haqqında maǵlıwmat jazıń



Durıs yáki Nadurıs

Maǵlıwmat	Durıs / Nadurıs
1. Qara topıraq quramı arganikaliq zatlarǵa bay. Ónimdarliǵi juda joqarı	
2. Qumli topıraq - awır hám suwdı jaqsı ótkermeydi. Ónimdarlıǵı jaqsı.	
3. Topıraq - bul Jer betiniń ónimdarlı qatlamı bolıp, ósimlikler ósiwi ushın zárúr bolǵan suw, hawa, azıqlıq zatlardı óz ishine aladı.	

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Yo‘ldoshev E. va boshqalar – Tuproqshunoslik Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2015.
2. Toshpulatov M. – Tuproqshunoslik asoslari Qishloq xo‘jaligi kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2012.
3. Karimov O. – Tuproq unumdorligini boshqarish Ilmiy-amaliy qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2017.
4. Qosimov R. va boshqalar – Yer resurslari va tuproqshunos darslik, Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.
5. Nazarov Sh. – Tuproq ekologiyas O‘quv qo‘llanma, Toshkent: “Iqtisodiyot va fan”, 2020.

ÚY TİSHQANİ (MUS MUSCULUS LICHT) NİŃ BIOEKOLOGIYALİQ ÓZGEShELIKLERIN ÚYRENIW.

Qurbaniyazov A.S. –talaba.

Ájiniyaz atındaǵı NMPI

Toǵaylıqlarda hám egislik zona territoriyasında, turaq jaylarda keń tarqalǵan sinantrop túr. Ol tek uzaq Arqada hám biyik tawlarda joq desek, adamlar onı ol jerlerge de, shólistanlıqlarǵada jetkergen. Házirgi waqıtta adam iskerligi nátiyjesinde úy tıshqanı Qızılqum, Ústirt shóllerinde de kóplep úylerde, dalalarda da ushırasadı. (Asenov, 1968, 1988, M.Karabekov, 1980).

Úy tıshqanı basqa toǵaylar sıyaqlı Krantaw hám Porlıtaw toǵayları menen egislik zona landshaftlarındada keń tarqalǵan hám kóp sanlı túr esaplanadı hám basqa 14 túr kemiriwshileri ortasında san jaǵınan dominantlıq etedi. Esap-sanaq ótkeriw

ushın qurılǵan 4 toǵay biotoplarındaǵı qapqanlarǵa túsken kemiriwshilerdiń 65-75% quraydı.

Keste 1

Qran-taw biotoplarında ayırım túrlerdiń san kórsetkishi (2019-jıl gúzdegi, 100 davilkaǵa túsken sanı % esabında).

Túrler	Biotoplar			
	Aǵashlıq toǵayı	Aralas toǵay	Jıńǵıl toǵay	Qarabaraqlıq
Aǵash qapqan sanı	300	200	300	200
Úy tıshqanı	5,0	4,0	1,0	00
Jıńǵıl qum tıshqanı	1,0	4,5	4,2	1,0
Yarım kún qum tıshqanı	00	00	1,3	1,2

Úy tıshqanı kóbirek ızǵar topıraqlı biotoplarda kóbirek sanda (4-5%), al qurǵaqlaw topıraqlarda tómen sanda (0-1,0%) ushırasadı. Jıńǵıllıq qum tıshqanı kerisinshe ıǵallı, shor topıraqlı biotoplarda az sanda (1,0%), al qurǵaqlaw hám bos topıraqlı jıńǵıllıqta hám aralas puta, yarım putalıqlarda ádewir joqarı sanda uslandı. (4,5-4,2%).

Toǵaylıqlardıń barlıǵına tán nárse, dár'ya jaǵalawı topıraqtıń hám hawanıń ıǵallıǵı joqarı bolǵanlıqtan toǵay aǵashlarıda jaqsı rawajlanǵan, al dár'ya jaǵasınan uzaqlaǵan sayın topıraq hám xawa ıǵallıǵı azayıp, jer astı suwınıńda qáddi tómenlep, ústirtinlew jerlerdegi torańǵıllardıń ushı quwırap biraz hálsizlik, yaǵnıy fitocenozdıń tómenligi sezilip turadı.

Úy tıshqanı basqa túrlerge salıstırǵanda joqarı ıǵallıqqa ádewir iykemleskenligi menen ayırılıp turadı. (Keste 2).

Keste 2

Máwsimler	Dár'ya jaǵalaw toǵayları	Aralas toǵay etekleri
Yanvar'	7,5	8,0
Fevral'	22,1	14,0
Mart	23,0	10,0
Aprel'	17.0	9,0
May	10,0	12,0
Iyun'	7,5	15,0
Iyul'	3,0	4,0
Avgust	3,8	3,0
Sentyabr'	8,0	13,0
Oktyabr'	4,0	8,0
Noyabr'	14,5	8,5
Dekabr'	-	-

Úy tıshqanı kúnniń suwıtıwı menen jıllı orınlarǵa migraciya jasawınıń esabınan san kórsetkishlerinde biraz ózgerisler boladı.

Olardıń kóbeyiw dáwirindegi san ósimine qaramastan jazda (VII-VIII) sanınıń biraz tómenlewi olardıń territoriyada keń tarqalıp ketiwinen dewge boladı.

Úy tıshqanı Qaraqalpaqstannıń toǵay ekosisteması jaǵdayında tábiyatta jıl dawamında kóbeyedi. (Keste 3).

Úy tıshqanınıń toǵay ekosisteması tábiyat jaǵdayında kóbeyiwi. (Obaǵa qarsı Qaraqalpaqstan filialı arxiv materiallarında).Keste 3

Aylar	Buwazlar sanı % esabında	Ortasha embrion sanı 1 buwazǵa tiyisli
Yanvar'	0	0
Fevral'	13,0	4,7
Mart	-	-
Aprel'	12,0	6,8
May	32,4	5,9

Iyun’	30,4	5,8
Iyul’	14,0	5,6
Avgust	27,0	7,7
Sentyabr’	50,0	8,5
Oktyabr’	33,4	7,2
Noyabr’	10,0	6,5

Úy tıshqanınıń gúzde kóbeyiw potencialınıń joqarı bolıwı, olardıń suwıq baslanıwı menen bir jerge jıynalıp hár túrli orınlarda jasaǵan er jetken jas osob’lardıń ushırasıwınan hám gúzde kóplegen ósimliklerdiń dániniń pisip olardıń mol azıq penen támiyinleniwinende bolıwı múmkin. Olar gúzde awqatı mol hám ıq panalaw orınlarına kóshedi. Úy átirapı uchastkalarındaǵıları úylerge, qoralarǵa, qoymalarǵa jıynaladı. Olardıń migraciyasın barmaǵın kesiw arqalı cifr menen nomerlew usılın qollanǵanda (Soldatkin, Asenov, 1957) dár’ya boyı toǵayında olardıń jasaw ornınan (belgilengen) 100, 200 metrden 1 km.ge deyin ketetuǵınlıǵı anıqlandı. Biraq kópshiligi óziniń jasaw ornında qalatuǵınlıǵı málim boldı.

Ádebiyatlar

1. Asenov G. A., M.A.Jumanov, Ya.I.Ametov, «Jer u`sti omırtqalı haywanların dala sharayatında ekologiyalıq izertlew usılları» No`kis.QMU baspaxanası.2020j.

2. Asenov G. A. Ekologiya grızunov oazisa nizov’ev Amudar’i i ix epizootologicheskoe i epidemiologicheskoe znachenie. // Avtoreferat. diss. kand. biolo. nauk.-Frunze,1968.-19s.

3. Bobrinskiy N.A. Kuznecov B.A, Kuzyakin A.P. //Opredelitel’ mlekopitayushix SSSR. // Moskva «Prosveshenie» 1965.382s.

4. Karabekov M.K. Ekologiya domovoy mıshi (Musmuskulus L) v nizov’yax Amudar’i.//Avtoref.kand.diss.Sverdlovsk.1970.

8. Soldatkin I.S., Asenov G.A., K voprosu o zemnem razmnojenii plastinchatozuboy krısı. «Grızunı i bor’ba s nimi» «Mikrob» Saratov.1957.

YUQORI SINF O’QUVCHILARIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY ASOSLARI

Tulepova G.A.- doktarant

Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagogik mahorat markazining Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Jismoniy rivojlanish deganda tananing morfofunksional kompleks xususiyatlari tushuniladi, bu esa jismoniy quvvat zahirasini belgilaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, jismoniy rivojlanish darajasini tadqiq etishni uni baholashni o‘rganish o‘qituvchi uchun ham, talaba uchun ham birdek muhim. Jismoniy rivojlanish darajasi-jismoniy mashg‘ulotlar xarakteri, xususiyatlari va imkoniyatlarini aniqlab beruvchi muhim omildir. Jismoniy imkoniyatlar diagnostikasi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun pedagogik ta’sir yo‘nalishini obektiv belgilash imkonini beradi.

Jismoniy tayyorlik baholanganda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, yuqori sinfga o‘tgan sari o‘quvchilarning kuch-quvvati oshib boradi, chidamliligi va tezkorlik xususiyatlari esa pasayib boradi. Umuman olganda, yigitlarning jismoniy tayyorligi qizlarnikiga qaraganda ancha yaxshi bo‘ladi.

Yoshlar salomatligining yomonlashib ketishining sabablaridan biri sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasiga yetarlicha e'tibor berilmayotganidadir. O‘quvchilarning salomatligi jismoniy tarbiyaning asosiy yo‘nalishi (fitness pedagogikasi) bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan yoshlar salomatligining ob'ektiv ko‘rsatkichlarini asos qilib olgan jismoniy tarbiyaning ilmiy-pedagogik konsepsiyasini (pedagogik sog‘lomlashtirish tizimi) ishlab chiqish zaruriyati paydo bo‘ldi [3;90 b].

Jismoniy rivojlanish (motorik ko‘nikmalar), tananing funksional va jismoniy tayyorligi (kardiovaskulyar va muskullar tizimi moslashuvchanligi), shaxsning ruhiy xususiyatlari (psixologik salomatlik) haqida ma'lumotlar shaxs salomatligining tarkibiy qismlari sifatida qaraladi. Jismoniy tarbiya pedagogik konsepsiyasida shaxsni har tomonlama rivojlantirish (kompleks rivojlanish modeli), o‘qituvchining ongi va faolligi, umummilliylik va individuallashtirish birlikda ko‘riladi. Sog‘lomlashtirish

yo‘nalishi (valeologik ta'lim) va doimiylikning didaktik prinsiplari (uzluksiz ta'lim) asosiy tushunchalar sifatida tan olinadi. Bu konsepsiyaning asosi individuallashtirish prinsipi (pedagogik individualizm)dir, chunki u sog‘lomlashtirish jarayonining samaradorligini oshiradi.

“Jismoniy tarbiyaning maqsadi o‘quvchi-yoshlarni jismoniy yetuklikka erishtirishdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

o‘quvchilar kontingentning birlamchi holatini antropometrik tadqiqot usullari yordamida aniqlash (jismoniy rivojlanish, tananing jismoniy va funksional tayyorligi);

jismoniy trenirovka vositasi yordamida o‘quvchilar salomatligi darajasini ko‘tarish;

jismoniy ahvolni yaxshilash o‘z-o‘zini baholash va nazorat qilishning samarali usul va shakllari bilan tanishtirish”.

“Ishlab chiqilgan konsepsiya, o‘z navbatida, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishga ehtiyojni oshirish, jismoniy tarbiyaga noan’anaviy yondashuvni ta’minlash, salomatlikni asrash va mustahkamlash, shaxsni har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi. Ayni vaqtda jismoniy tarbiyaning ilmiy konsepsiyasi maqsadli dasturlash usuliga asoslanadi. O‘quv materialini rejalashtirishda salomatlik ahvoli (jismoniy rivojlanish, tananing funksional va jismoniy tayyorligi) boshlang‘ich ko‘rsatkich sifatida olinadi”.

O‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali va mazmunli tashkil etish, jismoniy jihatdan yetuk, O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan erkin fikrlaydigan, faol, izlanuvchan, tashabbuskor, sog‘lom tafakkur va dunyoqarashga ega, sog‘lom turmush tarzini shakllantirgan barkamol shaxslarni voyaga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Biroq, yuqori sinflarda o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri boshqarish va maqsadga muvofiq tashkil etishga e’tiborning yetarlicha yo‘qligi, yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda olib borilayotgan jismoniy mashqlarning samarali emasligi, uzluksiz ta'limning yetarli darajada ta'minlanmaganligi, darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashqlarining qisqa davomiyligi va o‘smir yoshlarning nosog‘lom hayot tarziga olib keladigan omillar (psixologik va jismoniy salomatlikka salbiy ta’sirlar)

va jamiyatda tarbiyasi qiyin, ijtimoiy-huquqiy xavfli guruhdagi bolalarning paydo bo‘lishi muammosi jiddiy ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va bo‘sh vaqtdan samarali foydalanishga o‘rgatish ta’lim muassasalari, oila, mahalla va jamoatchilik oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bu jarayon yoshlarning jismoniy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo‘lib, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

“Bu maqsadni amalga oshirish uchun ta’lim muassasalari, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining birgalikda ishlashi zarur va ularning mas'uliyatini oshirish, yoshlarning salomatligini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun bir qator amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim”[2;102 b].

Bu borada quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e'tibor qaratish muhim:

“omomiy sport va sog‘lomlashtirish tadbirlariga yoshlarni jalb qilish – yoshlarni sportga qiziqtirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali jismoniy faollikni oshirish;

yoshlar iqtidori va iste'dodini rag‘batlantirish – yoshlarni ijodiy va sport sohalarida rivojlantirish, ularning shaxsiy salohiyatini oshirish;

imkoniyati cheklangan yoshlar bilan alohida jismoniy mashqlarni bajarish – imkoniyati cheklangan yoshlar bilan ishlash va ularning jismoniy salomatligini yaxshilashga doir maxsus mashqlarni tashkil etish;

umuminsoniy va milliy qadriyatlar vositasida sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish – yoshlar orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilish, sog‘lom va barqaror hayot tarzini shakllantirish”[1;112 b].

Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtlari samarali tashkil etilishi, ularning jismoniy va ruhiy salomatligi yuqorilab, jamiyatda sog‘lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Yaxshi tashkil etilgan bo‘sh vaqt faoliyati nafaqat yoshlarni sog‘lomlashtiradi, balki ijtimoiy va madaniy faollikni rivojlantiradi.

Mazkur yo‘nalishlardagi ta’lim-tarbiyaviy tadbirlar yoshlar sog‘lom turmush tarzining rivojlanganlik darajasini belgilovchi qator mezonlarni aniqlashga xizmat qildi.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali va aniq maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etishda quyidagi masalalar nazarda tutildi: ommaviy va harbiy sportga qiziqtirish: sport maktablari, turli sport to‘garaklari, seksiyalari, harbiy sport oromgohlariga jalb qilish; madaniy hordiq chiqarishga o‘rgatish, mustaqil muomalaga o‘rgatish, muqaddas qadamjolarga sayohat va zamonaviy dam olish maskanlarida madaniy hordiq chiqarish, respublika bo‘ylab turistik sayohatlarni amalga oshirish; o‘quvchi-yoshlar sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari: seminar-trening, davra suhbati, uchrashuvlar o‘tkazish.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasi, o‘z navbatida, quyidagi vazifalarni hal etish zaruratini yuzaga keltirdi:

yoshlarning bo‘sh vaqtini aniqlash va mazmunli tashkil qilish chora-tadbirlarini belgilash;

yoshlarning sog‘lom turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish;

yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish orqali sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish;

jismoniy tarbiyaga oid ishlarni tizimli asosda tashkil etish;

yoshlarda sog‘lom tafakkur va sog‘lom dunyoqarashni rivojlantirish, ota-onalar o‘rtasida ularning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish yuzasidan ishlarini olib borish;

yoshlarning sog‘lom turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi zararli illatlar va ularning oqibatlari to‘g‘risidagi bilimlar bilan qurollantirish;

yoshlarni ta’lim muassasalari va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari qoshidagi sport to‘garaklari va sport musobaqalariga jalb qilish va hokazo.

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishda quyidagi ishlarni amalga oshirish talab etiladi:

umumiy o‘rta ta’lim maktablariga jismoniy tarbiya darslarini ko‘paytirish, sportga oid musobaqalarni muntazam tashkil etib borish, sport to‘garaklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatish, ularning ruhiy dunyosini izdan chiqarishga harakat qilayotgan mafkuraviy, g‘oyaviy axborotlarga nisbatan sog‘lom immunitetni shakllantirish;

yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, shuningdek, ular orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.

Shunday qilib, yuqori sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yuzasidan ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, bunda jismoniy tarbiya va sportga oid turli to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida sog‘lomlashtirish mashqlari orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari quyidagi asosiy omillarga ko‘ra amalga oshiriladi.

Yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida motivatsiyani oshirishga yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llash. Bunda ularning sog‘lomlashtirish mashqlariga qiziqishni oshirish uchun motivatsiya beruvchi strategiyalar ishlab chiqish lozim. Masalan, jismoniy tarbiya darslarida o‘yin elementlari qo‘shilishi, individual yutuqlarni taqdirlash kabilar. Har bir o‘quvchi uchun individual rivojlanish maqsadlari qo‘yish, ularni doimiy baholab borish orqali o‘z yutuqlariga nisbatan qiziqish ortadi deb hisoblaymiz.

Har bir o‘quvchining jismoniy imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasiga qarab mashqlar dasturini moslashtirish orqali o‘quvchilar o‘rtasida o‘z qobiliyatlariga mos va xavfsiz mashqlarni bajarishga ko‘maklashish. Jismoniy mashqlarni shaxsiy yondashuvlar va guruhiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va birgalikda ishlash madaniyatini shakllantirish mumkin.

Sog‘lom hayot tarzi haqida bilim berish: Faqatgina jismoniy mashqlar emas, balki sog‘lom ovqatlanish, dam olish va uyqu rejimiga amal qilish kabi sog‘lom

turmush tarzining boshqa omillari haqida muntazam ravishda ta’lim berish kerak. Madaniy meros va an’analar orqali sog‘lomlashtirish mashqlarini o‘quvchilar o‘z madaniy va ijtimoiy an’analariga mos qilib, milliy sport turlari yoki xalq o‘yinlari bilan birlashtirish orqali qiziqish ortadi.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali jismoniy mashqlarni kuzatish va natijalarni baholash uchun smartfonlar, ilovalar yoki raqamli o‘yinlar kabi vositalardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi. Bunda virtual fitnes dasturlarini ishlab chiqish va onlayn platformalarda interaktiv sog‘lomlashtirish mashqlarini yaratish va ulardan darslar davomida foydalanish o‘quvchilarga texnologiyalarga asoslangan mashg‘ulotlarda ishtirok etishga imkon beradi.[4;109 b]

Shuningdek, o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish orqali sog‘lomlashtirish mashqlari hajmi va sifatiga e’tibor qaratish, jismoniy tarbiya darslarining vaqti va miqdorini oshirish, sog‘lomlashtirish mashqlarini maqsadli yo‘naltirish va ularning ta’sirini baholash tizimini ishlab chiqish muhum ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda,yuqori sinf o‘quvchilari uchun sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish maqsadida jismoniy faollikni rag‘batlantiradigan va umumiy salomatlikni yaxshilashga qaratilgan sog‘lomlashtirish mashqlari o‘tkazish zarurati mavjud. Bu jarayonni amalga oshirishda fiziologik va psixologik bilimlar, pedagogik tajribalar hamda ilmiy-tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi mashqlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Salomatlik darslari. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘lanma. –Toshkent: Rolispektor, 2006. –112 b.

2. Usmonxo‘jayev T.S. Bolalar va o‘smirlar sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyoti. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006. –102 b.

3. Usmonxo‘jayev T.S.,Abdullayeva Z.A.,Chorshamiyev N.A., O‘zbek xalq harakatli o‘yinlari. –Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 2022. –90 b.

4. Yo‘ldosheva S.M. O‘zbekistonda sog‘lom avlodni ma’naviy tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. nom.dis. – Toshkent, ROIAM, 2001.–119 b.

BIOLOGIYA DARSLARIDA 3 D VA VIRTUAL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARNI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Tajibayeva Malohat Farhod qizi

Nukus Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda bi ologiya fanini o‘qitishda 3D modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning kognitiv va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Mazkur maqolada 3D modellar asosida ta’lim berishning afzalliklari, axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi, o‘quvchilarning mustaqil bilim olish ko‘nikmalari va interaktiv kinestetik faoliyat orqali kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: 3D modellashtirish, biologiya ta’limi, axborot texnologiyalari, interaktiv ta’lim, kinestetik metodlar, konstruktiv pedagogika, o‘quv motivatsiyasi, fazoviy tafakkur, metodik yondashuv.

Zamonaviy biologiya fani axborot texnologiyalari, tibbiyot, biofizika, biokimyo va boshqa tabiiy fanlar bilan integratsiyalashgan holda yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Biotexnologik usullarni tushunish va tahlil qilish zamonaviy o‘quvchilar, xususan, oliy ta’lim bosqichidagi talabalar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning kasbiy yo‘nalishni to‘g‘ri tanlashi va uzluksiz ta’lim jarayoniga faol integratsiyalashishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda yuzaga kelgan pandemiyalar, global sog‘liqni saqlash muammolari va biologik xavflar biologiya faniga bo‘lgan e’tiborning ortishiga olib keldi. Bu esa biologiya ta’limining nazariyasi va metodikasini qayta ko‘rib chiqish, yangi yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishni talab qilmoqda.

Multimedia vositalari, ayniqsa 3D modellashtirish dasturlari, talabalarda fazoviy fikrlashni rivojlantirish, biologik jarayonlarni vizual idrok etish, ijodiy yondashuvni kuchaytirish kabi ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda.

Talabalar bu texnologiyalar orqali biologik tuzilmalarning murakkabligini chuqurroq anglab, o‘z mustaqil tadqiqot faoliyatlariga asos yaratadilar.

3D modellarning ta’limga joriy etilishi biologik obyekt va hodisalarni ko‘rgazmali tahlil qilishga, darslarni yanada qiziqarli, tushunarli va interaktiv tarzda tashkil etishga imkon yaratadi. Ayniqsa, fiziologik va molekulyar jarayonlarni 3D vositalar orqali tasvirlash o‘quvchilarda aniq tushunchalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ta’limda konstruktiv pedagogikaning, xususan, J. Piajening “bilim o‘quvchiga tayyor holatda berilmaydi, balki u yangi bilimlarni avvalgi bilimlari bilan bog‘lash orqali o‘zlashtiradi” degan tamoyiliga asoslangan holda, 3D texnologiyalar talabalarda amaliy faoliyat orqali o‘rganish ko‘nikmasini shakllantiradi. Interaktiv kinestetik sinf faoliyati orqali bilimlarning chuqurroq o‘zlashtirilishi, mustahkamlanishi va hayotiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan fikrlash shakllanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi, xususan biologiya fanini o‘qitishda interaktiv va texnologik yondashuvlarni qo‘llash talabalarning mustaqil bilim olishiga keng yo‘l ochmoqda. Ayniqsa, 3D modellashtirish, elektron mulyajlar va vizual vositalardan foydalanish talabalarning kognitiv faoliyatini kuchaytiradi, ularning o‘z ustida ishlash, guruhda hamkorlik qilish va murakkab biologik tushunchalarni ongli ravishda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

An’anaviy metodikada o‘qituvchi markaziy o‘rinda bo‘lsa, hozirgi zamonaviy pedagogik yondashuvlarda talabalar bilim egallash jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Jumladan, talabalarni kichik guruhlarga ajratgan holda 3D mulyajlar bilan ishlash, o‘zaro muhokama, tajriba almashish, mustaqil tahlil qilish va qaror qabul qilish kabi faoliyatlar o‘rganishni yanada samarali qiladi. Bunday yondashuv inkluziv STEM ta’limi tamoyillariga mos bo‘lib, har xil tayyorgarlikdagi talabalarni jarayonga jalb etadi.

3D vizualizatsiya orqali molekulalarning fazoviy tuzilishi, ularning o‘zaro ta’siri, embriologik rivojlanish bosqichlari kabi murakkab biologik jarayonlar talabalarga oson va aniq tushunarli bo‘ladi. 3D videoroliklar va real mulyajlar

bilimlarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, ayniqsa ko‘rishda qiyinchiliklarga ega bo‘lgan talabalar uchun sezilarli yengillik yaratadi.

Shu bilan birga, an’anaviy metodlar, ya’ni faqat rasm va plakatlarga asoslangan yondashuvlar biologik tushunchalarning to‘liq idrok qilinishiga to‘sqinlik qiladi. 3D modellarni bosib chiqarish va ularni darslarda qo‘llash esa talabalarni informatika, matematika, fizika kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilishga o‘rgatadi. Bu, o‘z navbatida, fanlararo yondashuvning amaliy ifodasidir.

1. O‘qituvchi boshchiligidagi namoyishlar: O‘qituvchi tomonidan 3D bosma modellar (masalan, molekulalar yoki hujayra tuzilmalari)dan foydalanib, 2D tasvirlarni to‘ldirish shaklida o‘tkaziladi. Ushbu usul vizual tushunishni kuchaytiradi va o‘rganish materiallariga real obyekt sifatida murojaat qilish imkonini beradi.
2. Auditoriya ichidagi interaktiv tadbirlar: O‘qituvchilar bir nechta 3D modellarni tayyorlab, talabalarni faol o‘rganishga undaydigan topshiriqlarni ishlab chiqadilar. Har bir talaba strukturaning ma’lum jihatini aniqlashi, muhokama qilishi va sharhlashi lozim. Bu usul og‘zaki ifoda, tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini shakllantiradi.
3. Talabalar boshqaruvidagi 3D loyihalar: Bu strategiya talabalarni qiziqtirgan biologik obyektni (masalan, hujayra organellasi yoki DNK strukturasi) tanlash, uni 3D shaklga keltirish, bosib chiqarish va ilmiy izoh bilan taqdimot qilishga yo‘naltirilgan. Loyihalar bir necha hafta davom etib, chuqur izlanish va ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Bu metodlar nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshiradi, balki zamonaviy biologik bilimlarning mustahkam asosda shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, talabalar o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq etishga, ularni tahlil qilishga va mustaqil fikr yuritishga o‘rganadilar. 3D texnologiyalar yordamida shakllangan bilimlar keyinchalik fanlararo loyihalarda ham foydali bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Zamonaviy biologiya ta’limida innovatsion texnologiyalar, jumladan 3D modellashtirish, elektron mulyajlar va raqamli vositalar ta’lim samaradorligini oshirishda beqiyos imkoniyatlar yaratmoqda. An’anaviy metodlar bilan cheklangan

o‘qitish jarayoni ko‘p hollarda biologik tushunchalarni chuqur va aniq idrok etishga to‘liq imkon bermaydi. Shu boisdan, 3D texnologiyalarga asoslangan yondashuvlar orqali talabalar o‘z bilimlarini nafaqat vizual, balki amaliy va tahliliy jihatdan ham mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mazkur usulda o‘quv jarayoni markaziga o‘qituvchidan ko‘ra talabalar faoliyati qo‘yiladi. Ular guruhlarda ishlash, mustaqil izlanish olib borish, modellarni yaratish va taqdim etish orqali biologik jarayonlar mohiyatini chuqurroq o‘rganadilar. Ayniqsa, molekulalar tuzilishi, hujayra organellalari va embriologik rivojlanish bosqichlarini 3D mulyajlar va animatsiyalar asosida o‘rganish biologiyani tushunishni osonlashtirib, mavzularni ongli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, 3D modellashtirish orqali STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yo‘nalishlari o‘rtasida integratsiyalashgan yondashuvni joriy etish mumkin. Bu esa talabalarda fanlararo tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va kreativ yondashuv kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ushbu yondashuvlar bilan bog‘liq faoliyatlar nafaqat akademik bilimni, balki raqamli savodxonlik, muloqot va loyihaviy ish olib borish kabi XXI asr kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Umuman olganda, 3D texnologiyalardan foydalanish biologiya ta’limida inklyuzivlikni, vizuallikni va mustaqil o‘rganish madaniyatini shakllantirishda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Kelajakda bu yondashuvlar keng miqyosda tatbiq qilinishi biologik fanlarni o‘rganishda yangi bosqichni boshlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 apreldagi “ .O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” GI PF-5712- sonli farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
2. Vazirlar Mahkamasining 6 aprel 2017 yildagi 187-son “ Umumiy o’rta va o’rta maxsus , kasb- hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risidagi” qarori //http://lex.uz/doss/ 3153714
3. Радионова Н.Ф., Тряпицына А.П.Компетентностный подход в педагогическом образовании / Электронный научный журнал Вестник Омского государственного педагогического университета. Выпуск 2006. www.omsk.эdu.
4. Галеева Н.Л. Система компетенций как инструмент управления качеством образования // Интернет-журнал “Эйдос” − 2007. − 30 сентября. http://www.эидос.ру/жоурнал/2007/0930.

5. Хуторской А. В. Технология проектирования ключевых и предметных компетенций. эидос.ру›журнал/2012/0829−05.htмл 9. Шатохин Э. «Использование элементов технологии 3 D моделирования на уроках информатики и при организации внеурочной деятельности как средство повышения уровня развития пространственного мышления учащихся» //https://new.белиро.ру › wp-content › уплоадс › 2016/10 › апо_шатохин.

O‘QITUVCHINING O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI

Ismatova M:- magisrant

Nizomiy nomidagi TDPU

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qitish samardorligini oshirishda o‘qituvchining pedagogik mahorati va notiqlik san’atini o‘quv, ta’lim va tarbiya jarayonlarida tutgan roli qisqacha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *nutq, interfaol, innovatsion, o‘qituvchi, o‘quvchi, diapazon, tembr, diktsiya, ritmika, mimika, pantomimika, pedagogik texnika, pedagogik nutq.*

Hozirgi vaqtda o‘qitish samaradorligini oshirishda innovatsion, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan interfaol usullardan keng foydanilmoqda, albatta bular o‘z samarasini bermoqda. Shu bilan birga bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati va notiqlik san’atini rolini inkor etib bo‘lmaydi. Hozirgi zamon o‘qituvchisi pedagogik mahorat tizimida texnikaning olini beqiyos deb biladi. Chunki u o‘qituvchiga o‘z gavdasini tuta bilish (mimika, pantomimika), his-tuyg‘ularni (emotsitsiyani) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash va o‘quv faoliyatida, o‘qishdan tashqari ta’lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo‘llash yo‘llarini tushuntiradi. Demak, pedagogik texnika o‘qituvchi kasbiy faoliyatifa shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig‘indisiki, u o‘qituvkhining pedagogik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo‘l ko‘rsatuvkhi bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnika – o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan umumiy pedagogik bilim va malakalar majmuidir.

Demak, pedagogik texnika o‘qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig‘indsiki, u o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo‘l bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnikaning yana bir muhim xususiyati pedagogik ta’sir ko‘rsatishdagi o‘qituvchining ma’naviy va estetik qiyofasi. Bu tarbiyalanuvchilarga yaqqol namayon bo‘ladigan xususiyatdir. Agar o‘qituvchi ma`naviy qashshoq bo‘lsa, nutqi tartibssiz va muloqotga no‘noq bo‘ladi, didi past, o‘z hissiyotlarini jilovlay olmaydigan qo‘pol bo‘lsa, uning ta`lim-tarbiyasi berishi haqida gap bo‘lishi mumkin emas.

Pedagogik texnikaning sirlarini egallash yo‘llari o‘qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg‘ulotlar va mustaqil ishlash jarayonida shakllanib boradi. Pedagogik texnika sirlarini mukammal egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o‘qituvchi o‘z – o‘zini doimiy shakllantirib borishi, ya’ni o‘z oldiga qo‘yilgan talablar nuqtai nazaridan mohir o‘quvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyati muhim rol o‘ynaydi.

O‘qituvchining tashqi ko‘rinishdagi pedagogik texnikasini namoyon etuvchi muhim xususiyatlaridan biridir. Har qanday insonning tashqi ko‘rinishi atrofdagilarga estetik ma’no va zavq kasb etib, doimiy e’tiborda bo‘lishini unutmaslik kerak. O‘qituvchining tashqi ko‘rinishini asosan namoyish etuvchi muhim xususiyatlari uning chegarasidagi mehribonlik, jiddiylik, yurishida bosiqliq, tabiiylikdir. O‘qituvchi sinfga kirishi bilan so‘zsiz o‘quvchilar e`tiborida bo‘ladi, ular bilan muloqotga kirishadi.

O‘qituvchining tashqi ko‘rinishida, pedagogik texnikasi tizimidagi mimik, pantomimik holatlar muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining xatti harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o‘qituvchining imo-ishorasida, ma`noli qarashlarida, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namayon bo‘ladi va ular o‘qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta’sir ko‘rsatishida, mashg‘ulotlarni samarali va mazmunli o‘tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

MIMIKA – bu o‘z fikrlarini, kayfiyatini, holatini, hissiyotini qosh, ko‘z va yuz muskullarining harakati bilan bayon qilish san’atidir. Ba’zan yuzning va nigohning ifodasi o‘quvchilarga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Mimik harakatlar, ifodalar ma’lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi. O‘quvchilar o‘qituvchiga qarab uning kayfiyatini. munosabatini tezda “o‘qib” oladilar. Shuning uchun uydagi ba’zi noxushliklar, hissiyotga berilish berilsih, g‘am va tashvishning o‘qituvchi yuzida va mimik belgilarida faqat dars mashg‘ulotlarini bajarishida o‘zining salbiy ta`sirini ko‘rsatadi. O‘qituvchining yuz ifodasida, mimik belgilarida faqat dars

mashg‘ulotlariga xos bo‘lgan, o‘quvchilarga ta’lim va tarbiyaviy topshiriqlarni yechishga yordam bera oladigan ko‘rinishlarni ifodalash lozim.

O‘qituvchining tashqi ko‘rinishida nutq texnikasi, his-tuyg‘ularini boshqara olish, mimik va pantomimik malakalar bir qolipda mukammal olib borilganda ko‘zlangan maqsadga albatta erishiladi. Bunda so‘z, gap ohangi, qarash, imo-ishoralar, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda uddaburonlik, osoyishtalik bilan ziddiyatdan chiqish, voqelikni oldindan ko‘ra olish va adolatli tahlil qilishga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Bu xususiyatlar o‘qituvchining individual psixik, fiziologik fazilari asosida tarkib topadi. Pantomimik harakatni boshqarishda ham o‘qituvchining individual pedagogik texnikasi, Yoshi, jinsi, mijozi, fe’l-atvori, sihat-salomatligi va anatomik fiziologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

“Pedagogik nutq” tushunchasi o‘qituvchining kommunikativ xulqi tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. O‘qituvchining kommunikativ xulqi deyilganda, faqat uning gapirish va axborot berish jarayoni emas, balki, o‘qituvchi va o‘quvchi muloqoti uchun emotsional psixologik muhit yaratishga ular o‘rtasidagi munosabat va ish uslubiga ta`sir ko‘rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos o‘qituvchining nutqiy nazokati ham ko‘zda tutiladi.

O‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi og‘zaki nutqi va monologik va dialogik shaklda bo‘ladi. *Monologik nutqning keng tarqalgan shakllari hikoya, maktab ma`ruzasi sharh kabilardir. Dialogik butq turlari suhbat, savol-javob shaklida bo‘ladi.*

Pedagogik nutqning to‘grilik, aniqlik, moslik leksik boylik, ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatlari o‘qituvchi nutqining madaniyatini belgilaydi.

Maqsadga muvofiq keladigan pedagogik nutq o‘zining mantiqiyligi, ishonchliligi, kuzatuvchanligi bilan xarakterlanadi.

Pedagogik nutqning birinchi funksiyasi – o‘rganilayotgan bilimlarni to‘liq holda berilishini ta`minlashdan iboratdir. O‘qituvchi nutqning kommunikativa o‘ziga xosligi bilan bilimni o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishi esda qolishi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa mavjud. Nutq bunu ta`minlash yoki qiyinlashtirish mumkin.

O‘qituvchi nuqti faqat axborot brib qolmay, o‘quvchining ongi, sezgisifa ta`sir qilishi, ularni o‘ylash faoliyatiga undashi kerak.

O‘qityvchi nutqning funksiyasi, o‘quvchining o‘quv faoliyati jarayonida o‘qituvchi nutqi asosida, darsda o‘rganilayotgan bilimlarni samarali o‘zlashtirilishini ta`minlashdan iborat.

O‘quvchi, o‘qituvchi nutqini eshita turib qator operatsiyalarni amalga bajaradi: berilayotgan axborotni ko‘rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o‘zidagi bilim va unga nisbatan munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqniini fikrlar rivojini kuzatib boradi.

Pedagogik nutqning uchinchi funksiyasi – o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi mahsuldor o‘zaro munosabatni to‘g‘ri ta’minlashdan iborat.

O‘qituvchi nutqi – o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatini boshqarish rolini ham bajaradi. Bu yerda hamma narsa ahamiyatli: o‘qituvchi o‘quvchilarga qanday murojaat qiladi, salomlashadi, talablarini qanday qo‘yadi, qanday ogohlantiradi, xohishini qanday bayon qiladi; nutq impotentsiyasi, yuz ifodasi, qarashi ham o‘quvchiga ta`sir ko‘esatadi. Darsdan tashqari uloqotga bularning ahamiyati yanada ulkan bo‘ladi. Ko‘p narsa o‘qituvchining individual muloqot uslubiga ham, muloqot doirasidagi ijtimoiy xarakteriga ham bog‘liq.

Nutq madaniyati- ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko‘zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli – yozma va og‘zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e’tibor yolg‘iz o‘qituvchidan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o‘zlashtirish talab qilanadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir o‘qituvchi va madaniy shaxsning saviyasi va bilimiga bog‘liq. O‘qituvchi pedagodik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma`naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini,fikr va mushohada yuritshini belgilovchi mme`yordir. O‘qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o‘giti natijasida yillar davomida takomillashib boradi. O‘qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik, talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o‘qituvchining shijoatiga bog‘liq. Shu qobiliyat tufayli o‘qituvchining nutq madaniyati ham shakllanib boradi. Quyidagi nutq madaniyatiga xos bo‘lgan vositalarni o‘qituvchi unutmasligi kerak:

1. Nutq madaniyati o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy kamolotini tarkibiy qismidir. Zero nutq, millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko‘rsatuvchi, o‘z ona tilimizga e’tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.

2. Nutq madaniyati o‘qituvchining ma’naviy va madaniy saviyasi bilan, hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma’lum ma’noda ajratib turadi.

3. Nutq madaniyatining pirovard maqsadi erkin fikr egasi bo‘lib yetishishidan qat`iy nazar adabiy jihatdan tarbiyalash ekanligini unutmaslik kerak.

4. Nutq madaniyati – bu avvalo, o‘qituvchida nutqiy ko‘nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko‘nikma pedagogik faoliyatda takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga Malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi.

5. Nutq madaniyatiga o‘zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun o‘qituvchi adabiy til qonuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyotasarlarini doimiy o‘qib borishi, she’rlar yod olishi va uni deklamatsiya bilan o‘qiy olishi, radio va televidenie eshittirishlarni kuzatib borishi lozim.

6. Nutq madaniyatini egallashning yana bir ko‘rinishi taqlid bo‘lib, o‘qituvchi o‘zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma`noli va ta`sirchan nutq so‘zlaydigan ustoz murabbiylarning nutqiy san`atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o‘rganishi mumkin.

Nutq madaniyatining va notiqlik san`atiga umumiy o‘xshash tomonlar bor. Har ikkala soha til va nutq, inson nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi o‘qituvchi nutqiy madaniyatini o‘stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notiqlik san’ati ham nutqning ma’noliligi, nutqiy go‘zallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziqlanadi.

Ba’zi shaxslarda uchraydigan notiqlik san’ati og‘zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishuvchi alohida san’atdir.

Nutq madaniyati va notiqlik tushunchalari orasida ba’zi o‘xshashlik, umumiy tomonlar bor. Bu har ikkala sohaning pirovard maqsadi, ish faoliyatining mushtarakligida ko‘rinadi. Ammo shunga qaramasdan, nutq madaniyati tushunchasi aynan bir xil narsa emas. O‘qituvchi nutq madaniyati va notiqlik orasidagi ba’zi muhim farqli tomonlarni va belgilarni bilishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchi nutqini takomillashtirish. Ta’lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi nutqini takomillashtirishning quyidagi yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- o‘z-o‘zini azorat qilish;
- nutq madaniyatini rivojlantirish;
- nutqiy muloqotning barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini egallash uchun o‘ziga sharoit yaratish.

O‘z-o‘zini nazorat va ifodali nutq malakalarini rivojlantirish uchun o‘qituvchi o‘z nutqiy faoliyatini kuzatishi, u jonli, xilma-xil, hissiy bo‘yoqlimi yoki bir xil monotonlimi, bilib borishi lozim.

Nutqingizni tayyorlash va mashq qilish jarayonida o‘zingiz mustaqil ravishda quyidagi savollarga javob toping: tinglovchilarga qanday fikr uyg‘otmoqchiman? Ularda ijobiy muhitni qanday kayfiyat asosida yaratmoqchiman? Nutq mazmunli va sharoiti qanday innotatsiya va ritmini talab etadi? Bir necha bor nutqingizni qaytarib ko‘ring.

Nutqingizni badiiy adabiyotlardagi turli lavhalarga o‘z taassurotlarning qo‘shgan holda boyitib, to‘ldirib boring.

Adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.«Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat». TDPU-2003.
2. Гидденс Энтони. «Социалогия». Т., «Шарқ», 2002. 115-125 б.
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Iqtisod-moliya”, 2010y.
4. Ochilov M. «Muallim qalb me`mori»: Saylanma. T., «O‘qituvchi», 2000
5. Sultonova G . « Pedagogik mahorat ». O‘quv-metodik qo‘llanma. T., 2005.

MULTIMEDIA VOSITALARI YORDAMIDA MAKTAB BIOLOGIYASINI O‘QITISH

Mirzamuratova U. P.-magistrant
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologiyani o'qitishda multimedia vositalarining ahamiyati, biologiya bo'yicha o'quv elektron nashrlarining turlari qisqacha yoritilgan. Biologiya oqituvchisining dars va sinfdan tashqari ishlarida multimedia vositalari bilan ishlash mexanizmlari korsatilgan. Biologiya oqitishda multimediadan foydalanish muammosi boyicha o`tkazilgan pedagogik tajriba natijalari umumlashtirildi.

Kalit so‘zlar: multimedia, multimediyali ta’lim dasturlari, grafik va rasimlar, ofis skaner, raqamli mikroskop, raqamli kamera, biologiya.

Multimedia tushunchasi hayotimizga 90-asrning boshlarida kirib keldi. Ko'pgina mutaxasislar bu atamani turli xil izohlamoqdalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib multimediaga shunday ta'rif berish mumkin: multimedia bu informatikaning dasturiy va tehnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va orginal turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchiga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.

Multimedia tushunchalari juda xilma-xil bo'lib, ko'pincha har qanday vaqtda mavjud bo'lgan texnologiyaga bog'liq. Multimedia so'ziga o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: multimedia-[ing. media, medium- o'rta, markaz, vositalar, tadbirlar] axborot uzatishning xilma-xil vositalari (matn, ovoz, jonlantirilgan va grafik tasvirlar) ni qamrab oluvchi texnologiya va shunday texnologiyadan foydalanuvchi dasturlar va kompyuter vositalari. Dastlabki yillarda ta'riflar ikki yoki undan ortiq media vositalari haqida ma'lumotni o'z ichiga olgan bo'lsa, keyingi yillarda audio, musiqa, video, foydalanuvchi bilan o'zaro aloqa, foydalanish huquqi to'liq integratsiyalashgan birikmalar xususiyatlari bilan bir xil ma'noga ega bo'ldi.

Maktab o'quvchilari tomonidan olingan ma'lumotlar oqimining intensivligi doimiy ravishda oshib bormoqda. Multimedia vositalari ayniqsa keng qo'llaniladi.

Multimedia (ingliz tilidan tarjima qilingan muhitlar ko'pligi) axborotni qabul qilish uchun turli kanallarni o'z ichiga olgan axborot muhitlari to'plamidir. Multimedia dasturlari tomonidan sun'iy ravishda yaratilgan didaktik sharoitlar tabiiy uzatiladigan tovush, tasvir, mavjudlik hissiyotlarini taqlid qiladi va virtual o'quv muhitini yaratishga imkon beradi [1].

Olimlarning ta'kidlashicha, multimedia vositalaridan foydalanganda o'quv materialining mazmunini o'rganish uchun zarur bo'lgan vaqtning 30% gacha tejaladi va olingan bilim va ko'nikmalar xotirada ancha uzoqroq saqlanadi.

Hozirgi kompyuter yordamida o'qitish dasturining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat:

* - oddiy tuyulganiga qaramay, ma'lumotni izlash, ayniqsa, agar u giperhavolalar bilan bog'lanmagan bo'lsa, dars davomida ko'p vaqt talab etadi;

* - biologik ma'lumotlar yoki uni taqdim etish shakli o'qituvchi tomonidan o'rganilayotganda darsda qo'yiladigan vazifalarga mos kelmasa;

* - haqiqiy materialda biologik xatolar mavjud; illyustratsiyalar har doim ham matnli materialga mos kelmaydi va hokazo.

Biologiya kursi boʻyicha elektron darsliklar yoki fan boʻyicha repetitorlar xarakteriga ega boʻlgan oʻqituvchilar va elektron dasturlar, agar ular elektron tashuvchilarga oʻtkazilgan darsliklar boʻlsa, unchalik qiziq emas.

Elektron darslik o'quv adabiyotining yangi janridir. Biroq, u odatiy maktab

darsligini almashtira olmaydi va o'rnini bosa olmaydi. Badiiy film tomosha qilish uning asosida yaratilgan kitobni o‘qish o‘rnini bosmaganidek, elektron darslik ham o‘quvchini darslikni o‘qishga undaydi.

Shuning uchun elektron darslikni yaratish uchun yaxshi darslik olish, uni

navigatsiya (gipermatnlar yaratish) va boy illyustrativ materiallar (shu jumladan multimedia vositalari) bilan ta'minlash etarli emas. Elektron darslikni rasm yoki ma'lumotnoma bilan matnga aylantirish mumkin emas , chunki uning vazifasi tubdan farq qiladi. Bu o'quv materialini (va faol, passiv emas) tushunish va eslab qolishni iloji boricha osonlashtirishi kerak, eng muhim tushunchalar va bayonotlarga urg'u berib, yorqin misollar bilan aniqlangan, o'quv jarayoniga odatdagidan boshqacha jalb qilish kerak.

Matn komponenti cheklangan bo'lishi kerak, chunki kompyuterda allaqachon

o'zlashtirilgan materialni chuqur o'rganish uchun muntazam darslik, qog'oz va qalam mavjud.

O'qitish vositasi sifatida kompyuterdan faol foydalanadigan biologiya

o'qituvchilarining fikriga ko'ra, zamonaviy kompyuter o'quv dasturlarini tanlashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

* - ular bilan ishlash "do'stona", ya'ni birinchi uchrashuvdanoq o'qituvchi uchun ham, talabalar uchun ham tushunarli bo'lishi kerak;

* — dasturni boshqarish imkon qadar sodda bo‘lishi kerak;

* - o‘qituvchi materialni o‘z xohishiga ko‘ra tuza olishi va o‘zgartira olishi kerak (darsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida u ma’lumotlarning ko‘rsatilish tartibini eslab qolmasligi, ijodiy bo‘lishi kerak);

* - dastur axborotni kompleks tarzda takrorlashi kerak (belgi va bayon, jadvallar, diagrammalar, slaydlar, fotosuratlar va videolar, audio yozuvlar, animatsiyalar).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, texnologiyaning rivojlanishi o'quv ta'lim jarayoniga innovatsiyalar olib keldi va multimediali o'quv muhitini rivojlanishiga zamin yaratdi. Hozirgi kunda har bir kishining ish faoliyatida doimiy ravishda multimediadan foydalanish ehtiyoji mavjud.Multimedia texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish ta'lim sifatini hamda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Yusupov A. B., Karimova S. Sh. "Multimedia texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish" - Tashkent, 2020.

2. Xusanov M. R. "Zamonaviy ta'limda didaktik vositalarning o'rni" - Tashkent, 2021.

3. «Axborot texnologiyalari» A.A.Abdukodirv va boshqalar. Akademik litsey va kasb -hunar kollejlari uchun: Toshkent «O’qituvchi» 2020

4. Ta'limda axborot texnologiyalari o'quv qo'llanma / R.X. Ayupov. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. - T.: TDPU, 2020 yil

5. Abdullaev, S. S. (2021, July). SOCIO-POLITICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL RELATIONSHIPS IN STUDENTS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (pp. 168-170).

6. Askarovich, M. S., Qizi, O. N. B., & Kizi, M. I. B. (2021). FORMATION OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS OF CHEMISTRY. Вестник науки и образования, (6-3 (109)), 28-31.

7. www.ref.uz - Internetda referatlar to’plami sayti.

8. www.ziyonet -Internetda ta’lim partali.

ТАЛАБАЛАРНИНГ ИНЖЕНЕР ТЕХНИК ФАНЛАРИДАН ОЛАЁТГАН ТАЪЛИМИН КЎНИКМА ВА МАЛАКАГА АЙЛАНТИРИШ

Тореев Азатбай Лепесбаевич

Архитектура факультет, Кала курылысы хам хожалыгы кафедрасы. Доцент.
azattoreev@mail.ru

Аннотация: *Кўникма ва малакалар таълим олувчиларнинг олган билимлари асосида фаолият усулларини ташкил этади. Фарқи шундаки, таълим олувчиларнинг фаолияти ҳар хил характерда бўлади. Касбий нуқтаи назардан малака бу ходимнинг касбий тайёргарлиги даражаси, ундаги маълум ишни бажариш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг мавжудлиги. У ходимнинг малакасини белгиловчи кўрсатгич бўлиб, категория ёки дипломнинг мавжудлиги билан белгиланади.*

Калит сўзлар: *Билимлар, малакалар ва кўникмалар, фазовий тасаввур, чизмани ўқиш, тизимини шакллантириш.*

Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимининг 2030 йилга мўлжалланган консепсиясини тасдиқлади.

Бу эрда олий таълим тизимини ислоҳ қилишнинг энг тўғри йўналишлари - замонавий таълим ва олий таълим - ахлоқий мажбуриятларга бўйсуниш, мустахил фикр юритиш, олий таълимни модернизация қилишга мос келадиган

юқори малакали кадрлар тайёрлашни сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, суд-ҳуқуқ соҳасидаги стратегик вазиятлар ва илғор таълим технологияларига таъсир кўрсатган иқтисодиёт масалалари кўрсатилган.

Олий касб-ҳунар таълими муассасалари талабаларининг техник фанларни ўзлаштириш самарадорлиги кўп жиҳатдан ўқитиш усулларига боғлиқ.

"Методология" тушунчаси қадимги юнон тилидан тадқиқот, назария, ўқитиш йўли сифатида таржима қилинган. Ушбу атаманинг асосий тушунчасида методология педагогика фанининг муайян фан бўйича ўқув жараёнини олиб бориш қонуниятларини ўрганадиган соҳасидир. Ўқув жараёнидаги методология ўқитувчи фаолиятининг муайян усуллари ва усулларини тавсифлайди.

Илм-фан, техника – технологиялар ривожланиб бораётган ҳозирги даврда юксак малакали, етук кадрларга бўлган талаб ошиб бормоқдаки, бу ўз навбатида, нафақат мактаб, касб-ҳунар коллеж ўқитувчилари, балки олий таълим муассасалари профессор – ўқитувчилари зиммасига ҳам маъсулиятли вазифани юклайди. Олий таълим муассасаларини тамомлаган мутахассислар зукко, билимдон ва ҳар томонлама комил инсон бўлиш билан бирга, турли вазиятларда маъсулиятни ҳис этган ҳолда фаолият юритадиган кадрлар бўлишлигини унитмаслигимиз керак. Бу эса, ўқувчиларга бериладиган билимлар сифатининг оширишин талаб қилади.

К.Д. Ушинскийнинг фикрича, «Билим олиш фаолиятини жонлаштириш ўқувчига хос мустақил, эркин, ижодий фаолиятин ривожлантиришдан иборатдир. Доймо эсда тутиш жоизки, ўқувчига у ёки бу билимларни ўргатиб қолмасдан, унда мустақил равишда, ўқитувчи ёрдамисиз билимларни орттириш малакасини ривожлантиришдан иборатдир. Ўқитувчи уни тарк этгандан сўнг ҳам ўқувчида бу малака устувор бўлиб, унга фақат китоблардан эмас, балки уни ўраб турган воқейликдан, ҳаётий ҳодисалардан, ўз ички дунёсидан ҳам сабоқ чиқаришга имкон бериши керак. Ҳамма жойдан бундай фойдали сабоқ чиқаришга ўрганган киши бутун умри давомида ўқиб ўрганади».

Инженер техник фаниниг асоси «мухандислик графика» си фанининг бошлангич геометрик ёки проекцион чизмачилик бўлимини ўқиётган талабаларда фазовий тасаввури етарли даражада ривожланмаганлиги учун, ўқишнинг дастлабки даврида улар чизмага қараб уни фазода тиклашга, яъни фазовий ҳолатини кўз олдиларига келтиришлари қийин кечади, яъни куникма ва малакалари етишмайди.

Талабаларнинг чизмларини ўқишга ўргатиш, хусусан фанга оид янги билим бериш чизмачилик фанининг асосий вазифаларидан бир ҳисобланади. Шунинг учун уларга берилаётган билимни кўникма ва малакага айлантириш долзарб вазифалардан ҳисобланади. Буни биз биргина детал чизмаларини ўқиш мисолида кўришимищз мумкин. «Чизмани ўқиш» деганда нимани тушиниш кераклиги масаласи тўғрисида ҳилма-хил, баъзан бутунлай қарама-қарши фикрлар мавжуд. Кўпчилик детал чизмасини ўқишда асосий эътиборни турли-туман ясашларга жалб қиладилар, шундай қилиб чизмаларни ўқиш билан бажаришни тушинадилар. Бошқалар эса, тушунчани буюм ёки деталнинг фазовий образларининг яратилиш соҳалари билан чеклаб қўядилар.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, чизмани ўқиш тушунчасини таърифи икки қоидага боғланиши мумкин, биринчидан, буюм ёки деталларнинг тасвирларига қараб, унинг шакли ва ўлчамлари ҳақида фазовий тасаввурнинг вужудга келиш жараёнини ҳамда буюм ёки деталнинг тайёрлаш ва назорат қилиш учун зарур бўлган барча маълумотларини аниқлашни назарда тутиш керак.

Иккинчидан, чизмани ўқишга ўргатиш ўқувчиларда чизмада тасвирланган буюм ёки деталнинг аниқ оғизаки тафсифини бера олиш укувини ривожлантириш деган сўздир. Табиийки, талабаларда тасвирланаётган буюм ёки детални тайёрлаш ва назорат қилиш учун зарур бўлган маълумотларни аниқлашга ҳам, аниқ оғизаки тавсифига ҳам ҳали киришиб бўлмайди. Бунинг учун талабаларда асосан чизмани ўқишга бўлган тайёргарлигини шакиллантириш, яъни билим олишини ривожлантириш керак бўлади. Шу ўринда кўникма ва малакаларга изох бериб ўтсак.

Кўникма – онгли фаолият (ҳаракат) ни тез, тежамли, тўғри, кам жисмоний ва ақлий куч сарфланган ҳолда бажариш жараёни натийжаси. У шахснинг билимлари асосида таркиб топади. Дастлабки шаклланиш босқичларида бундай ҳаракатлар жиддий диққат билан бажарилади, кейинги босқичда диққат билан назорат қилиш камайиб боради ва натижада автоматлашган ҳаракатга айланади. Кўникмалар мунтазам машқ қилиш (такрорлаш) орқали зарур даражада сақланади. Ана шу сабабли унинг таълим – тарбиядаги аҳамияти беқиёс.

Маълум вақт такрорланмаслик кўникма даражасининг пасайишига олиб келади. У катта ҳажмдаги машқлар бажариш ва малака ошириш орқали тикланади. Кўникма инсоннинг илгарги тажрибалари асосида муайян ёки ҳаракатни амалга ошириш қобилияти. Кўникма бу шундай ақлий ва жисмоний

ҳаракатлар, усуллар ва йўл – йўриқлардан иборат бўлиб, улар ёрдамида ривожлантирилган мақсадга эришилади ёки муайян бир фаолият амалга оширилади.

Баъзан кўникмалар шахсга малака ҳосил қилади ва унинг малакали ишлашига ёрдам беради, баъзилари, аксинча, шахсдаги малакалик сифатига салбий таъсир этади ва уни ўзгартиради. Бундай ҳол малака ва кўникмаларнинг ўзаро таъсири деб юритилади. Ҳар қандай малака кўникма бўла олади, лекин ҳар қандай кўникма малака бўла олмайди. Кўникмалар автоматлашган моҳият касб этсагина, малака бўлади. Масалан, талабанинг турли ҳаракатларини шаклларни ёзиш жараёни автоматлашган бўлгани учун кўникилган ҳаракат бўлиб қолган. Шунинг учун талаба ҳарфларни чиройли ва соз ёза олади.

Бу ҳаракат талабанинг **малакалашган кўникмаларидир.** Жуда кўп марта такрорлаш туфайли талабаларнинг ҳарфлар шаклларини ёзишлар билан боғлиқ ҳаракатлари автоматлашади.

Малака – автоматлашган, ўрганиб қолинган усул билан бехато бажариладиган ҳаракатдир. Малака бу шахс ҳаракатининг амалга оширлиши ва бошқарилишининг автоматлашган шаклидир. Шахснинг малакалари шу билан характерланадики, унинг ҳаракатлари осон, тез, гўё ўз –ўзидан бажарилаётгандек бўлади. Шу туфайли ҳам бир ҳажмдаги ишни малакали ва малакасиз турли муддат ва турли сифат билан бажаради.

Шахснинг малакалари унинг фаолиятининг барча соҳалари учун хосдир. Фаолиятнинг бирор соҳаси ҳосил қилинган малака шахснинг фақат шу соҳадаги меҳнатини осонлаштириб қолмасдан , фаолиятнинг бошқа соҳаларидаги ҳаракатнинг тезлиги ва самарали бўлишига ижобий таъсир кўрсатади. Турли соҳаларга нисбатан бўлган малакалар шахсда бирданига, қисқа муддатда вужудга келмайди.

Шахс малака орттириши учун муайян соҳани тизимли равишда такрорлаб туриши талаб қилинади. Бундан ташқари малака муайян меҳнат фаолиятини бажариш лозим бўлган назарий ва амалий умумтаълим ва касбий билим ҳамда кўникмалар мажмуасининг мавжудлиги асосида ҳам шаклланади. Малака онгли ҳатти – ҳаракатнинг автоматлаштирилган таркибий қисми ҳамдмир. Малака бир ҳатти – ҳаракатнинг ўзини бир хил шароитларнинг ўзида кўп марта такрорлаш натижасида ҳосил қилинади. Малака қанчалик пухта бўлса, одам ишни шунчалик тез ва тўғри бажаради.

Кўникма ва малакаларнинг умумий ҳамда фарқ қилувчи томонлари бор. Умумийлиги шундаки, кўникма ва малакалар таълим олувчиларнинг олган

билимлари асосида фаолият усулларини ташкил этади. Фарқи шундаки, таълим олувчиларнинг фаолияти ҳар хил характерда бўлади. Касбий нуқтаи назардан малака бу ходимнинг касбий тайёргарлиги даражаси, ундаги маълум ишни бажариш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг мавжудлиги. У ходимнинг малакасини белгиловчи кўрсатгич бўлиб, категория ёки дипломнинг мавжудлиги билан белгиланади.

Мухандислик графикаси фанидан талабани олаётган билимини кўникма ва малакага айлантириш мақсадида биргина «Чизмани ўқиш» жараёнида фойдаланиш мумкин бўлган машқларга қўидагиларни киритиш мумкин: - берилган чизма асосида буюм ёки деталнинг яққол тасвирини аниқлаш; берилган чизмани унинг яққол тасвири билан билан таққослаш; берилган чизма асосида модель ясаш; берилган модель асосида унинг чизмаларини чизиш; - буюм ёки деталнинг шартли белгилари берилган бир кўринишдаги чизмасини қолган икки ёки ундан ортиқ кўринишдаги чизмалари билан таккослаш; - берилган тарқоқ деталь элементлари асосида унинг бир бутун яхлит деталь ҳосил қилиш; - буюм ёки деталнинг олиб ташланиши керак бўлган қисмлари белгиланган чизмасини бажариш; - деталлардан ва уларни ишлаш учун зарур бўлган бошқа асбоблардан фойдаланиб, иш чизмаларини ўқишнинг турли кўринишлари (масалан, шакли бир хил бўлиб ўлчамлари турлича бўлган деталлардан бирини, чизмага мос келадиганини танлаш) ва б.

Юқаридаги машқларни яна ҳам кўпайтириш таълим сифатини ошириши табиийдир. Лекин ундан фойдаланиш формалари турлича бўлиб, дарс давомида қисқа муддатли топшириқлардан бутун дарс давомида узоқроқ муддатга чузиладиган топшириқларга бўлиши мумкин. Баъзи талабалар чизмада тасвирланган буюм ёки деталнинг шаклини бир қарашда тасаввур қилиб олишга ва унинг ўлчамларини аниқлаб олишга интилишларини сезиш мумкин. Бундан сезиш мумкинки, шундай талабаларнинг олган билимлари кўникма ва малакага айланишга улгурган.

Шундай «чизмани ўқиш» дан кейин талабаларда нафақат кўникма ёки малака ҳам етишмайди ёки ҳосил бўлмаган бўлади. Ўқитувчининг вазифаси эса талабаларда чизмани ўқишда фикрлаш фаолиятини маълум тартибини, яъни чизмани ўқиш тизимини шакллантиришдир. Бу шакллантириш замирида албатта кўникма ва малака ётиши табиийдир.

Адабиётлар:

1. Одилов П., Валиев А. Марказий проекцияларда позицион масалаларни ечиш жараёнида кўринар-кўринмасликни аниқлашга доир муаммолар ешими.- Т.// «Педагогик таълим», 2007, 6-сон.

2. Рихсибоев Т. Ва Халимиов М. Ўқувчиларнинг фазовий тасаввурини шакллантиришда ижодий ўйинлардан фойдаланиш.-Тошкент, // «Педагогик таълим», 2012, 5-сон.
3. Орипов Б. Чизмачилик дарслари самарадорлигини ошириш омиллари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
4. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологияларва педагогик маҳорат. Т.,2006.
5. Халимиов М. Республика илмий-амалий анжумани материаллари, Т.,-2015.

BIOLOGIYANÍ OQÍTÍWDA QOLLANÍLATUǴÍN KÓRGIZBE QURALLARDÍŃ PAYDA BOLÍWÍ HÁM RAWAJLANÍW TARIYXÍ

Sh.B.Tamambetova b.i.f.d. docent w.a., Sh.S. Ońalbaeva 3- kurs talabası, F.D.Kalandarova 1- kurs talabası

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Biologiyanı oqıtıwda qollanılatuǵın kórgezbe qurallar hám tarqatpa materiyallar oqıwshılardıń máseleler sheshiw ushın máseleni qalayınsha sheshiw múmkinligin úyretedi. Sebebi olar kóz benen kóriw arqali este saqlap qaladi.

Kórgizbe qurallar hám tarqatpa materiyallar arqalı oqıwshılardıń dóretiwshi oy pikirlerin rawajlandırıwda, óz betinshe islew, ilimiy dúnya qarasın keńeyttiriwde, aqılıy iskerligin arttırıwda, mashqalalardı sheshiwdi úyretiwdiń bir quralı bolıp esaplanadi.Biologiyanı oqıtıwda tiykarınan tarqatpa materiallardan paydalanıw áhmiyetli rol oynaydı.

Kórgizbeli qurallarınan biologiyanı oqıtıwdıń hámme protcesslerinde, mısalı, jańa oqıw materialın túsindirip atırǵanda onı bekkemlep atırǵanda, oqıw kónlikpe tájiriybelerin asırıp atırǵanda, waziypasın orınlap atırǵanda oqıw materialın baqlap atırǵanda qollanıladı.[4]

Oqıtıw procesinde paydalanılatuǵın kórgizbeli qurallar oqıtıwdıń nátiyjeliligin arttırıw ushın islep shıǵılǵan. Olar oqıwshılardıń bilim hám kónlikpelerin jaqsıraq ózlestiriwine járdem beriw maqsetinde hár qıylı tariyxıy dáwirlerde rawajlangan.

1. Dáslepki basqıshlar (Áyyemgi dáwir):

Dáslepki bilimlendiriw vizual tiykarinda qurilgan bolip, adamlar real obyektlerden paydalanǵan: taslar, terek shaqaları, haywanlardıń janlı modelleri.

Áyyemgi Mısrda hám Babilda súwretler, jazıwlı planshetler hám háykeller oqıw procesinde kórgizbeli qural sıpatında paydalanılǵan.

Áyyemgi grek hám rim mekteplerinde geometriya hám astronomiyanı úyreniw ushın arnawlı ásbaplar, máselen, globuslar hám kompaslar qollanilǵan.

2. Orta ásirler:

Orta ásirlerde bilimlendiriw tiykarınan diniy mazmunda bolıp, jazıwlar hám illyustraciyalı qoljazbalar tiykarǵı kórgizbeli qurallar sıpatında paydalanılǵan.

Mektepler hám universitetlerde tábiyiy obyektler (ósimlikler, haywanlar) hám kesteler (máselen, arifmetika hám tariyxıy waqıyalar boyınsha) dan paydalanılǵan.

Arnawlı maketler hám modeller jaratıw baslandı.

3. Jana dáwir (16-18 ásirler):

Baǵdarlanǵan bilimlendiriw sistemasınıń rawajlanıwı menen kórgizbeli qurallardıń túrleri kóbeydi. Mekteplerde kartalar, tábiyiy pánler ushin kollekciyalar (ósimlikler, minerallar) qollanıla basladı.

Yan Amos Komenskiy óziniń "Dúnyanıń sezilerli súwreti" (1658) shıǵarmasında bilim beriwde kórgizbeli usıllardıń áhmiyetin atap ótken. Ol illyustraciyalar menen bayıtılǵan qollanbalar jaratıwdı shaqırdı.[5]

4. Industrial dáwir (19-ásir):

Bilimlendiriwde ilim hám texnika jetiskenliklerinen paydalanıw háwij aldı.

Mektepler kartalar, globuslar, biologiya hám ximiya ushın arnawlı modeller menen támiyinlendi.

Fotoapparat hám proekcion qurilmalar payda boldı. Olar bilimlendiriw procesin jáne de janlandırıw imkaniyatın berdi.

5. Zamanagóy dáwir (20-21 ásirler):

Texnologiyanıń rawajlanıwı menen elektron hám sanlı kórgizbeli qurallar payda boldı. Proektorlar, kompyuterler, interaktiv doskalar, virtual rolik texnologiyaları bilimlendiriw procesiniń ajıralmas bólegine aylandı.Hár qıylı platformalarda (máselen, PowerPoint, Google Classroom) elektron bilim beriw resursları hám multimedia materialları tayarlanbaqta.

Házirgi kúnge kelip, onlayn bilim beriw ushın simulyaciyalar, animaciyalar, 3D modeller hám virtual laboratoriyalardan keń paydalanılmaqta.[1]

Biologiya páninen elektron sabaqlıq arqalı oqıtıwda «Jumıs oyınları» texnologiyalıq processlerdiń yamasa ayrıqsha iskerlik usılı modeli sıpatında sáwlelenedi.[2,3]

Demek, zamanagóy informaciyalıq hám oqıtıw texnologiyaları birgelikte qollanılǵanda tálim nátiyjeligin asırıwǵa maksima erisiw múmkin. Usı orında aytap

ótiw kerek,zamanagóy tálim sharayatında elektron tálim resursların paydalanıw úlken áhmiyetke iye.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Атажанов Х. Электрон таълим – давр талаби. //Маърифат, 2016, декабрь
2. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 144-б.
3. G‘ofurov A.T, Tolipova J, Fayzullaev S.S, Azimov I.T, Axmadalieva B. «Biologiyani o‘qitishning umumiy metodikasi» (o‘quv-metodik qo‘llanma) T.:-2005.-152 b.
4. Kamalova H. «Maktabda biologiya fanini o’qitishdamustaqil ishlarni tashkil etish usullari va shakllari. Maktabda biologia.Manaviy-marifiy, talimiy jurnal 2011-yil, 1(25)-son. B.26-28.
5. Sultanov B, Tilegenov A, Baynazarov F. Yangi pedagogik texnologiya asoslari (Interfaol darslar) Innavatsiya jaroyani. T.: 2007.- 56 b

TABIATNI MUHOFAZA QILISHDA EKOLOGIK VA KARTOGRAFIK KOMPETENTLIKNING O`RNI VA AHAMIYATI

Boratova Muxtasam G`aniyevna, p.f.f.d (PhD), Rasulova Zilola Asatulla Qizi 4-kurs talabasi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand sh. O`zbekiston.
muxtasam.boratova@mail.ru
Muxammedov Shuxrat Qosimovich, assistant.
O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, Samarqand sh. O`zbekiston.
shuxrat-muxammedov@mail.ru

Hozirgi vaqtda inson yashab, to‘xtovsiz munosabatda bo‘lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5-4,7 milliard yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta’sirida, ya’ni Quyosh nuri, Yerning massasi, gravitatsiya kuchi, ko‘lami, aylanma harakatlari, tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o‘zgarishi, ekzogen va endogen jarayonlar ta’siri, organik dunyoning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti ta’sirida tarkib topgan bo`lib, bugungi kunda unga insoniyatning ta’siri juda kuchaygan. Bu o`z navbatida tabiatga to`g`ri munosbatni yo`lga qo`yishni, uning boyliklarini asrab-avaylashni talab etadi. Shu o`rinda, “Tabiatni muhofaza qilish” deganda tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko‘zlab ongli ravishda o‘zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go‘zalligi, musaffoligini saqlab qolishga

va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasini ekanligini qayd etish lozim. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari majmuasiga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va maʼmuriy tashkilotlar, har bir inson-shaxs tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi.

Mazkur tadbirlrni amalga oshrish borasida mamlakatimizda ham qator huquqiy-meʼyoriy hujjatlar asosida samarali ishlar tashkil etilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54, 55 va 100-moddalarida Tabiatni muhofaza qilishga oid normalar bayon etilgan bo`lib, 11-bobi 50-moddasida „Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda boʻlishga majburdirlar“, 55-moddasida esa “Yer, yer osti boyliklari, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir“ deyilgan[6]. O`zRning “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida” Qonuni (1992-yil 9-dekabr, 754-XII-son), “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida”gi (2004-yil 3-dekabr, 710-II-son) O`zR Qonuni, «Ekologik nazorat toʻgʻrisida» OʻRQ-363-son, (27.12.2013 y.), “Oʻrmon toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish haqida OʻRQ-475-son (16.04.2018y), “Oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish haqida” OʻRQ-409-son (21.09.2016 y), “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish haqida” OʻRQ-408-son (19.09.2016 y.)[7] doirasida respublikamizda sohaga doir qator tadbirlar, jumladan: atrof-muhitni muhofaza qilish; tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash ustidan nazorat qilish; Tabiatni muhofaza qilish faoliyatini tarmoqlararo kompleks boshqarish; ekologik vaziyatni boshqarish kabi faoliyat turlari olib borilmoqda va bu mamlakatimizda tashkil qilingan “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o`zgarishi” vazirligi va unga qarashli boshqarmalar tomonidan nazoratga olingan.

Mavjud ekosistemalardagi tabiiy muhitning holati oʻzaro taʼsir etib turuvchi koʻp omillarning murakkab majmuida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bogʻliq. Chunki bir joyning iqlimi Quyosh nurining tushish burchagiga, yaʼni, geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoq yoki yaqinligi, okean oqimlari va boshqalarga; oʻsimliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi togʻ jinslari, relyef, tuproqlarga bogʻliq. Bu tabiiy omillarning birontasida oʻzgarish roʻy bersa, tabiiy muvozanat buzilishiga, tabiiy muhitda oʻzgarishlarga olib kelishi mumkin.

[6] Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992 y
[7] https://lex.uz/

Buni oldini olish va tabiatga to`g`ri munosabatni tashkil etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshrish uchun avvalo, insonlarda, jamiyatning har bir a'zosida tabiat komponentlari to`g`risida, ekologik omillar va ularning o`zaro ta'siri to`g`risida ilmiy bilimga, ekologik ma'naviyat va madaiyatga ega bo`lishi talab etiladi. Bu o`z navbatida ta'lim tizimi oldiga muhim vazifalarni qo`yadi.

Ma'lumki tabiatga munosabat oilada, ta'lim muassasalarida shakllanadi va rivojlantiriladi. Umumiy o`rta ta'lim maktablarida o`quvchilarga tabiatni muhofaza qilish borasida ekologik bilimlarni o`rgatishda tabiiy fanlarning, xususan, geografiya, biologiya fanlarinng o`rni katta. O`quvchilar tabiat haqida, uni tashkil etuvchi komponentlar – quyosh, Yer, havo, tog` jinslari, o`simlik va hayvonot olami, turli tabiat hodisalari (havo massalarini harakatlari, shamol, yog`inlar, chaqmoq, fazllar almashinuvi), tabiat zonalari haqida bilimlarni o`rganar ekan, ularda tayanch va xususiy kompetensiyalar shakllantirish zarurati kelib chiqadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun esa pedagogika yo`nalishidagi oliy ta'lim muassasalari zimmasidagi chuqur ilmiy-nazariy, kasbiy-metodik tayyotgarlikka ega, kasbiy kompetentligi yetarli darajada bo`lgan bitiruvchi-geograf, ekolog-bakalavr, biolog-bakalavrlarni tayyorlash vazifasini to`laqonli darajada amalga oshrish lozim.

Kompetensiya masalasining dolzarbligi shundaki, eng avvalo, o‘qituvchi va pedagogning kasbiy konpetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish muammosini yechishni talab qiladi. Kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuvning dolzarbligini Vatanimiz ta'lim-tarbiya tizimida ham sezish mumkin. Pedagogik kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishni uzviy birlashtiruvchi tizim bo`lib. Bunda kompetentli o‘qituvchi masalasiga jiddiy yondoshuv zarur. O`z vaqtida "Bizga bitiruvchilar emas, balki maktab ta'limi va tarbiyasini ko‘rgan kadrlar kerak"[8]– degan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov.

Kompetensiya lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida "munosib", "to‘g‘ri keladi" yoki "mos keladi" ma'nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda "kasbiy kompetenlik" atamasi qo‘llanilib, bu so‘zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati sifatida qabil qilish maqsadga muvofiqdir.

Kompetensiya tushunchasi O`zbekison izohli lug`atida ikki yo`nalishda izohlangan: 1. Kompetensiya – (layoqatli, munosib bo`lmoq) Muayyan organ yoki

[8] Каримов И.А.Баркамол авлод орзуси. Тошкент.1999

mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat; 2. Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik va shu sohani bilish darajasidir[9].

A.V.Xutorskiy “kompetnsiya” va “kompetentlik” tushunchalarini quyidagicha izohlaydi: Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatlari uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma’lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgazishidir. Kompetentlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig‘indisiga ega bo‘lishi demakdir[10].

Ta’lim tizimiga kompetentli yondashuv talab qilinayotgan bir vaqtda bo`lg`usi pedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish zaruriy shartlardan hisoblanadi.

Kasbiy kompetenlik – mutaxxasis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshrish uchun zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalrning egallanishi va ularni amalda yuqori darajad qo`llay olish va har bir mustaqil yo`nalish bo`yicha integrativ bilimlar va harakatning o`zlashtirilishidir[11]. Bu bo`lgu`si o`qituvchidan, xususan, geografiya o`qituvchisidan mutaxasislik bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta izlash va o`z faoliyatida qo`llay bilishini, fanlararo integratsiyani amalga oshirishni taqozo etadi.

Demak, kasbiy kompetensiyaga ega o`qituvchi quyidagi sifatlarga ega bo`ladi:

1) o`z bilimlarini to`ztovchiz va izchil ravishda boyitib boradi;

2) mutaxasisligiga va unga yaqin fanlarga oid yangi axborорlarni o`zlashtirdi;

3) jamiyat va davr talablarini chuqur anglaydi va o`z faoliyatini moslashtiradi;

4) yangi bilimlarni izlab topadi;

5) egallagan bilimlarni qayta ishlaydi va o`z faoliyatida amaliy jihatdan samarali qo`llaydi. Shu o`rinda bo`lg`usi mutaxasislarning kasbiy kompetentligida xususiy jihatdan muhim rol o`ynaydigan ekologik va kartografik kompetentligi ayni zarurat hisoblanadi.

Ma’lumki, geografiya biologiya, ekologiya bo`yicha mutaxassis-o`qituvchisilar barcha qayd etilgan kompetentlik xususiyatlari bilan birgalikda, biologiya ta’limining muhim tarkibiy qismi ekologik, geografiya ta’limining esa kartografik bilim, ko`nikma va malakalarni mukammal egallagan bo`lishi lozim. Bu esa bo`lg`usi biologiya, ekologiya va geografiya o`qituvchisidan Yer tabiati, uni tashkil etuvchi

[9] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-jild – T.: **“Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти** – 2006 y. 396-bet.

[10] Хуторский А.В. Инновации в общеобразовательной школе. Методы обучения. Сборник научных трудов/ под ред. А.В. Хуторского. – М.: ГНУ ИСМО РАО, 2006, С. 290

[11] Qochqova N.M. Pedagogik kasbiy kompetetnligi va kreativlik. Darslik. T.: Bookmani print, 2022 yil. 10-12-bet.

komponentlari, atrof-muhit va unda tabiat va jamiyat o`rtasidagi o`zaro munosabatlar, insonning tabiatga ta’siri to`g`risidagi ekologik bilim va tushunchalarni mukamal bilish bilan bir qatorda, yer yuzasini tusilishini, undagi jarayonarning qaysi hududlarda borishini o`rganish uchun kartalarni turini bilishi, uni o‘qiy olishi, karta bilan ishlay olishi, turli kartalardan foydalangan holda o`quv topshiriqlarini tuzishi, ularni bajarish metodikasini ishlab chiqishi, shuningdek, kartalar bilan ishash uchun didaktik ta’minotni yarata olishni talab etadi.

Bu esa talabalarda kasbiy kompetentsiyaning muhim qismi bo`lgan ekologik va kartografik kompetentsiyani rivojlantirishni talab etadi.

Ekologik kompetentsiya bizningcha – atrof tabiiy muhit va unda tirik organizmlarni o`zaro bir-birlari va muhit omillari bilan o`zaro munosabatlariga doir bilim, ko`nikmalaga ega bo`lgan, muayyan vaziyatlarni ekologik jihatdan tahlil qila oladigan, mavjud ekologik muammolarni bartaraf etishda eng maqbul qarorrlar qabul qila olish qobiliyatidir.

Kartografik kompetentsiya esa – geografiya o`qituvchisining maxsus kasbiy kompetenligi hisoblanib, geografik xarita va atlaslarni o‘qish, tahlil qilish, baholash, turli xarita va planlarni yaratish to‘g‘risida bilimlarni o`zlashtirish, turli kartalardan foydalangan holda o`quv topshrirqlarini tayyorlash, ularni yechimini topishga doir ko`rsatmalar tayyorlash ko`nikma va malakalarini egallaganligi va o`z faoliyatida qo`llay olish layoqatidir. Kartalarni bilish ekolog va biology mutaxasislar uchun ham ayni zaruratdir.

Talabalarda kartografik kompetentsiya geografyadan mutaxasislik va ixtisoslik fanlarini, xususan, “Umumiy yer bilimi”, “Topografiya va kartografiya”, “O`zbekiston tabiiy geografiyasi” kabi fanlarni o`zlashtirish, shu mavzu doirasida amaliy ishlarni bajarish, turli nostandart testlar, muammoli, keys, rasmli, jadvalli, kartografik, topografik topshriqlarni tuzish va yechimini jarayonida shakllanadi. Ularda kartografik kompetentlikni shakllantirish vositasi sifatida “Topografiya, kartografiya va GAT” fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari, topografik xaritalar yordamida turli masalalar yechish, geografik xarita va atlaslarni o‘qish, tahlil qilish, baholash, Yerning shaklini plan va xaritalarda tasvirlash usullari va nazariyasi, zamonaviy GAT texnalogiyalari, ulardan geografik tadqiqotlarda foydalanishni tashkil etish hamda turli xarita va planlarni yaratish to‘g‘risida bilim berish dolzarb vazifalar sifatida tavsiflanadi. Qayd etilganlarni bilish ekolog-mutaxasislar uchun ham zarur. Masalan, mamlakatimiz turistik imkoniyatlarini va ekoturistik obyektlarni aniqlash va sayohat marshrutlarini tuzish uchun biz ekolog mutaxasislarga zamonaviy

GAT texnologiyalarini bilish talab etiladi. Bu esa o`z o`rnida bo`lg`usi ekologglar uchun kartografik kompetensiya ham zarurligini anglatadi.

Talabalarda kartografik kompetentlikni shakllantirish vositasi sifatida ixtisoslik fanlarini o‘qitilishining natijalari qo‘yidagilardan iborat:

1. Yerning shakli va o‘lchamlari, geodeziyada qo‘llaniladigan koordinatalar tizimi, Yer usti, ekosistemalarni syomka natijalarini ishlab chiqish, topografik plan va profillarni tuzish, zamonaviy kartografiyaning nazariy konsepsiyalari, predmeti va metodlari, atlaslarning turlari va tiplari bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

2. Zamonaviy geodezik asboblar bilan o‘lchashlarni bajarish, plan olish, xaritani

laboratoriya sharoitida yaratish, proyeksiyalarni tanlash, mualliflik nusxasini yaratish, kartografik asarlarni o‘qish va baholash hamda kartografik tadqiqot o‘tkazish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

3. Talabalarda kartografik kompetentlikni shakllantirishda fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test, yozma ishni topshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar yozish, turli geografik (matnli, mantiqiy, ijodiy, statistik, tahliliy, ekologik, kartografik) masalalar tuzish, infografika tuzish, taqdimotlar, slaydlar va keys topshriqlarini tayyorlash, dala va malakaviy pedagogik amaliyot davrida bevosita bajargan amaliy ishlari, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarini bajarish jarayonida talabalarda kasbiy kompetentlik, xususan, ekologik, kartografik kompetetnlilik shakllanadi va o`qituvchining rahbarligi va nazorati ostida rivojlaniriladi.

Karta tili maxsus til bo`lib, u qat'iyatlilik, aniqlik va ko'rgazmalilik kabi fazilatlari bilan ajralib turadigan zamonaviy xusuiyatiga ko`ra ham eng tejamkor tilli vosita hisoblanadi. Kartografik usul geografik obyektlar, kuzatish vositalarining tuzilishini bilishning va georgafik hodisalar, ularning munosabatlari, holatini bashorat qilishning eng samarali vositasidir

Boshqa vositalardan farqli o'laroq kartalarda ma'lumotni ketma-ket emas, balki birlashtirilgan holda taqdim etiladi, ya’ni, yaxlit fazoviy grafik birikmalar ko'rinishidagi grafik tasvirlar darhol bir vaqtning o'zida qabul qilinadi va tasvirlanadi. Masalan, “O`zbekiston tabiiy kartasi” bir yo`la O`zbekistonning maydoni, geografik o`rni, chegaralari, relyefinig tuzilishi, orografiyasi, gidrografiyasi, foydali qazilma

boyliklari, geografik va ma’muriy obyektlarni to`g`risidagi ma’lumotlarni o`zida mujassamlashtiradi.

Hozirgi kunda esa O`zbekistonning ekologik holati, muhofaza etiladigan hududlar, O`zbekiston ekosistemalari kartalari ham yaratilgan bo`lib, uni o`qiy olish, bu kartalar bilan ishlay olish ekolog mutaxasislar uchun ekologik bilimlar va karta bilan ishlash ko`nikmalari uyg`un holda rivojlantirilib, ularda ham ekologik ham kartografik kompetensiylar shakllanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insoniyatning buyuk ijod mahsuli qatoriga kirgan kartografik asarlar (plan, geografik karta, atlas, globus, GAT texnologiyalari va boshqalar) ular tabiatni bilish, uni o‘zgartirish va tabiatni muhofaza qilishning ajoyib vositasi bo‘lib, karta bilan ishlaydigan mutaxasislarni, xususan, bo`lg`usi ekolog-geograf, ekolog-biolog o`qituvchilar, geodezistlar, muhandislar va tadqiqotchilar, geologlar, ekologlar, tabiatsgunos olimlar, agronomlar va harbiylarda ham ekologik, ham kartografik kompetentlilikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992 y
2. Каримов И.А.Баркамол авлод орзуси. Тошкент.1999 y
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-jild – T.: **“Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти** – 2006 y. 396-bet.
4. Хуторский А.В. Инноватsiи в общеобразовательной школе. Методы обучения. Сборник научных трудов/ под ред. А.В. Хуторского. – М.: ГНУ ИСМО РАО, 2006, С. 290
5. Qochqova N.M. Pedagogik kasbiy kompetetnligi va kreativlik. Darslik. T.: Bookmani print, 2022 yil. 10-12-bet.
6. Mirzaliyev T., Safarov, E.Yu., Egamberdiyev A., Qoraboyev, J.S. Kartashunoslik. Darslik T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. — 240 b.
7. APA: Nematovna, A. M. Biologiya ta'limida talabalarning kompetentsiyalarini shakllantirish orqali ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish. *Berlin tadqiqotlari transmilliy fan va gumanitar Fanlar jurnali*, *1*(1,5 Pedagogika fanlari). (2021).
8. Ибрагимов Ў.Н. “Топография, картография ва Гат” фани талабаларда картографик компетентликни шакллантириш воситаси сифатида. “TOPICAL ISSUES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES’’ Republican scientific-practical online conference on March 17-18, 2021.41-42-bet. Web: https://econferenceglobe.com/
9. https://ru.wikipedia.org/
10. https://lex.uz/

ОҚЫЎШЫЛАРДЫҢ ӨЗБЕТИНШЕЛИГИН ЖЕТИЛИСТИРИЎДЕ САБАҚТАН ТЫС ЖУМЫСЛАРДЫҢ ӘҲМИЙЕТИ

Бектурсынов А.Б., ассистент оқытыўшы
Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Сабақтан тыс жумыслар пәнниң турмыс пенен байланысын орнатыўға көмеклеседи, оқыўшылардың билимин тереңлестиреди, олардың билиўге қәбилетин, бейимлилигин, талантын айқынлайды, дөретиўшилик өзбетиншелигин, китап пенен ислесиў, тәжрийбелер қойыў, бақлаўлар өткизиў уқыбын раўажландырады [Пономарева, 14].

Сабақтан тыс жумыслардың тийкарғы миннетлерине: а) пәнге қызығыўшылықты сиңдириў; б) биологиялық билимлер менен экспериментлик қәбилетти жетилистириў ҳәм тереңлестириў; в) дөретиўши активлигин, инициативасын ҳәм искерлигин раўажландырыў; г) оқыўшыларды практикалық искерликке таярлаў ҳәм кәсипке бағдарлаў; д) оқыўшылардың аңлы рәўиште дем алыўын шөлкемлестириў.

Жақсы уйымластырылған сабақтан тыс жумыс оқыўшыларда уқыплылықты раўажландырады, өзбетиншеликти, тапсырылған ис ушын жуўапкершиликти ҳәм азадалықты тәрбиялайды. Үйренилетуғын затлар ҳәм приборлар менен конкретирек танысыў арқалы олар әсбап-ыдыслар, лабораториялық мүлклер менен айланысыў қабилетин өзлестиреди, өзлериниң келешек мийнет искерлиги ушын зәрүр политехникалық таярлығын жетилистиреди.

Мектеп практикасында сабақтан тыс жумыстың кең тарқалған түрине жас биологлар жәмийети киреди. Бул жәмийеттиң жумысын шөлкемлестиргенде оқыўшылардың белсендилигин ҳәм өзбетиншелигин, олардың сабақтан тыс искерлигиниң жәмийетлик пайдалы бағдарланғанлығын, жәмийет жумысында қатынасының тапсырмаларды орынлаў миннетлилиги менен уйғынлығын, коллективлик ҳәм жеке-даралық жумыслардың тығыз байланысын есапқа алыў зәрүр.

Биологлар жәмийети мектеп турмысына, биология тарийхына, жәмийетлик ўақыяларға байланыслы сәнелерди, жетискенликлерди конференциялар, юбилейлик кешелер, конкурслар өткериў менен нышанлайды. Бундай илажлар оқыўшылардың ой өрисин кеңейтеди, ҳәр қыйлы искерликте өзлериниң күшин сынап көриўге имкан береди, келешек кәсипти саналы таңлаўды жеңиллестиреди.

Сабақтан тыс жумыслардың жалпы системасында биологиялық мектеп кешелери де әдеўир елеўли орын ийелейди. Олар пән бойынша оқыўшылардың билимлерин беккемлеўге көмеклеседи, жас биологларды дөретиўшиликке стимуллайды.

Мектепте биологиялық кешелер сабақтан тыс жумыслардың басқа түрлери, биологиялық дөгерек, экскурсия менен биргеликте шөлкемлестириледи. Оқыў материалын тереңирек үйрениў зәрүрлиги яки мәлим ўақытта теманың актуаллығы жүзеге келген ҳалларда да эпизодлы илаж ретинде кешелер өткизиў мүмкин.

Кешениң табыслы болыўын оны муқият басқышлы таярлаў және өткизиў анықлайды: жобалаў, тематиканы, ўақытты, шөлкемлестириўдиң тийкарғы формаларын, белсендилерди таңлаў, хызметлерди тақсымлаў, жеке топарлардың ҳәрекетлерин уйғынластырыў, сценарий ислеп шығыў, топарлардың ҳәм жетекшиниң репетициясы, орынның безелиўи, техникалық қуралларды таярлаў, кешени өткизиў ҳәм оны талқылап жуўмақлаў.

Илимий конференцияларды шөлкемлестириўде оқыўшылардың мәлимлемелери менен баянламалары тыңланады. Оларды демонстрациялық материаллар менен қоса алып барыў мүмкин. Гейде тек бир тема дөгерегинде баянатлар және оппонентлердиң пикирлерин тыңлаў да пайдалы. Муғаллим оқыўшыларға баянаттың темасын, оған материалды таңлап бериўи керек. Оқыўшылардың илимий конференциялары мәлим бир проблема бойынша өткизилиўи мүмкин.

Пайдаланылған әдебиятлар:

1. И.Н.Пономарева, В.П.Соломин, Г.Д.Синельникова. Общая методика обучения биологии. М.: 2008.

BO‘LAJAK PEDAGOGIK KADRLARNI TAYYORLASH JARAYONIDA PROGNOSTIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH

Seytmuratova Tazaxan Qutlimuratovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

email:tazakhanseytmuratova8479@gmail .com

Anotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagogik kadrlarni tayyorlashda prognostik yondashuvlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Mazkur yondashuvlar o‘qituvchi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik jarayonida o‘quvchilar faoliyatini oldindan taxmin qilish, pedagogik vaziyatlarni bashoratlash,

strategik rejalashtirish va kasbiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada prognostik kompetensiyaning mazmuni, shakllanish bosqichlari va ta’lim jarayoniga integratsiyalash usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. prognostik yondashuv, bo‘lajak pedagog, kompetensiya, pedagogik prognozlash, kasbiy tayyorgarlik, refleksiya, strategik fikrlash.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim tizimiga ham tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, pedagogik kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan yondashuvlar sifat jihatidan yangilanmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘qituvchidan faqatgina dars berish emas, balki doimiy ravishda o‘zini rivojlantirish, o‘zgarayotgan ijtimoiy-pedagogik muhitga moslashish, ta’lim jarayonidagi vaziyatlarni oldindan prognozlash kabi yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalar talab qilinmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida prognostik kompetentlik tushunchasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu kompetensiya o‘qituvchining o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini, darsdagi pedagogik vaziyatlarni, sinfdagi muammolarni va ularning oqibatlarini oldindan tahlil qilish, strategik qarorlar qabul qilish, rejalashtirish va kasbiy faoliyatining keyingi bosqichlarini bashorat qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, bu kompetensiyani bo‘lajak pedagogik kadrlar safida tahsil olayotgan talabalarda shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki ular ertaga amaliyotga chiqqanlarida ushbu salohiyatni real vaziyatlarda qo‘llashga tayyor bo‘lishlari kerak. [1,2].

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida esa bu yondashuvni metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiyalash va bosqichma-bosqich rivojlantirish talab etiladi. Shunga muvofiq, bugungi kunda ko‘plab ilg‘or xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda kasbiy ta’limda refleksiv va prognostik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki faqatgina bilimdon o‘qituvchi emas, balki tafakkur darajasi yuqori, kelajakni oldindan ko‘ra oladigan, muammoli vaziyatlarni yechishga qodir pedagoglarga ehtiyoj ortmoqda. Ushbu maqolada aynan bo‘lajak pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonida prognostik yondashuvlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari, amaliy ahamiyati hamda pedagogik jarayonga integratsiyalash mexanizmlari keng yoritiladi. Shuningdek, bu kompetensiyani shakllantirishda foydalaniladigan metodlar, texnologiyalar va zamonaviy vositalar tahlil qilinadi.

Bo‘lajak pedagogik kadrlarni tayyorlashda zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda yangicha yondashuvlarni joriy etish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, prognozlashga asoslangan kasbiy faoliyatni shakllantirish

ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra, dinamik va oldindan aytib bo‘lmaydigan vaziyatlar bilan to‘qnashadigan murakkab kasb turlaridan biridir. Mazkur kasb egasining samarali faoliyati ko‘pincha uning voqealarni oldindan ilg‘ab olish, vaziyatni baholash va strategik qarorlar qabul qilish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi[3].

Aynan shunday sharoitda bo‘lajak pedagoglarda prognostik yondashuvga asoslangan kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Prognostik kompetensiya – bu pedagogik jarayondagi turli vaziyatlarni bashorat qilish, o‘zgarishlarga moslashish, uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish hamda o‘z faoliyatini tanqidiy baholash qobiliyatlarini o‘z ichiga oluvchi murakkab psixologik-pedagogik tuzilmadir. Ushbu kompetensiyaning shakllanishi orqali bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining kasbiy yo‘lini ongli tarzda rejalashtira oladi, pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan aniqlab, ularning oldini olish strategiyalarini ishlab chiqadi. Bunday yondashuv o‘z navbatida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda prognostik kompetensiyani shakllantirish uchun ta’lim jarayoniga bir qator interaktiv metodlar va texnologiyalarni joriy etish lozim. Xususan, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitiladigan mashg‘ulotlar, keys-stadiylar, kasbiy simulyatsiyalar, reflektiv kundaliklar va treninglar ushbu maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi metodlar orqali talabalar real hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan pedagogik holatlarni chuqur tahlil qilish, ular yuzasidan prognozlar ishlab chiqish va qarorlar qabul qilish tajribasini egallaydilar. Bunda o‘zini o‘zi baholash, o‘z faoliyatiga nisbatan tanqidiy qarash, samarali kommunikatsiya olib borish va tashabbuskorlik singari ko‘nikmalar ham mustahkamlanadi[4,5]. Prognostik kompetensiya o‘qituvchiga pedagogik vaziyatlarni oldindan bashorat qilish, muammolarni aniqlash va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu kompetensiyani shakllantirish uchun interaktiv metodlar, masalan, simulyatsiyalar, muammoli vaziyatlar va reflektiv yondashuvlar zarur. Bular talabalarni real hayotdagi pedagogik holatlarga tayyorlashga yordam beradi va ularning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Prognozlash va tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalar o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim omildir.

Prognostik yondashuvlarning muhim jihati shundaki, ular faqatgina rejalashtirish va bashorat qilish bilan cheklanmay, balki reflektiv (ya’ni o‘z faoliyatini tahlil qilish) yondashuv bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun ham bu ikki kompetensiya – refleksiv va prognostik – o‘zaro integratsiyalashgan holda shakllantirilishi lozim. Chunki pedagog o‘z faoliyati natijalarini to‘g‘ri baholamagan

taqdirda, kelajakda qanday harakat qilish kerakligini to‘g‘ri prognozlay olmaydi. Shu bois, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ushbu ikki kompetensiyani uyg‘un holda rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv dasturlari va metodik materiallar ishlab chiqilishi zarur [6].

Umuman olganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda prognostik kompetensiyani shakllantirish nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga, balki butun ta’lim tizimining sifat va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki o‘z faoliyatini strategik rejalashtira oladigan pedagog, ta’lim jarayonining har bir bosqichini ongli ravishda tashkil eta oladi, natijada o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatadi va ularning rivojlanishiga yanada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Bo‘lajak pedagogik kadrlarni tayyorlashda prognostik yondashuvlardan foydalanish – zamonaviy ta’lim talablariga mos keluvchi samarali yo‘nalishdir. Ushbu yondashuv orqali o‘qituvchilar mustaqil fikrlovchi, vaziyatlarni bashorat qila oluvchi va strategik qarorlar qabul qila oladigan kasbiy shaxs sifatida shakllanadi. Shuning uchun oliy pedagogik ta’lim tizimida bu yondashuvni kompleks ravishda joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бестужев-Лада И. В. Социальное прогнозирование: курс лекций / И. В. Бестужев-Лада, Г. А. Наместникова. — М. : Педагогическое общество России, 2002.
2. Коляда М. Г. Педагогическое прогнозирование в компьютерных интеллектуальных системах: Учебное пособие [Текст] / М. Г. Коляда, Т. И. Бугаева. — М.: Изд-во «Русайнс», 2015
3. Коляда М. Г. Педагогическое прогнозирование: теоретико-методологический аспект. Монография [Текст] / М. Г. Коляда, Т. И. Бугаева. — Донецк: Ноулидж, 2014.
4. Қўдиров, У.Ш. Педагогик прогнозлашнинг назарий асослари. – Тошкент: Fan, 2020.
5. Жўраев, Ж.Ж. Касбий компетентлик ва педагог кадрлар тайёрлаш. – Тошкент: Ilm ziyo, 2018.
6. Рабочая книга по прогнозированию [Текст]/ Редкол.: И. В. Бестужев-Лада (отв. ред.). — М.: Мысль, 1982.

JISMONIY TARBIYA TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN INTERAKTIV MUHITNI YARATISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Seytmuratov Talg‘at Qutlımuratovich,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti, O‘zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy tarbiya ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini integratsiyalash orqali interaktiv o‘quv muhitini shakllantirish imkoniyatlari hamda buning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt vositalari yordamida o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish, real vaqtli tahlil va fikr-mulohazalarga asoslangan baholash tizimini joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkinligi isbotlanadi. Maqolada interaktiv muhitda raqamli texnologiyalarning o‘rni, o‘qituvchining roli va texnologik infratuzilmaning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar. sun’iy intellekt, jismoniy tarbiya, interaktiv muhit, raqamli texnologiyalar, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim samaradorligi, SI-pedagogika.

Kirish. XXI asrda ta’lim tizimi keskin o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Bu o‘zgarishlarning markazida raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining keng joriy etilishi turadi. Hozirgi globallashuv va texnogen muhitda ta’lim jarayonining innovatsion yo‘nalishda tashkil etilishi pedagogik faoliyatning barcha sohalarida muhim omilga aylanmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya sohasi — ya’ni o‘quvchilarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy salomatligini ta’minlovchi asosiy ta’lim yo‘nalishlaridan biri sifatida — ushbu raqamli transformatsiyadan chetda qolmasligi lozim.

